



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

YANGI ALIFBO LOYIHASI

TASDIQLANDI

G' g'	→	Ğ ğ
O' o'	→	Ö ö
Sh sh	→	Ş ş
Ch ch	→	Ç ç





DOLZARB MAVZU

Moxira SADULLAYEVA,
 Qoraqalpog' davlat universiteti
 Nukus filologiya fanlari doktori (DSc), dotsenti
Sadullayevamohira061@gmail.com

NASRDA RUHIYAT IFODALANISHINING TADRIJIY TARAQQIYOTI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek adabiyoti, xususan, XX asr va zamonaviy milliy nasrda badiiy psixologizm hamda shaxs konsepsiyasining evolyutsion taraqqiyot bosqichlari tadqiq etilgan. Unda inson ruhiyatini interpretatsiya qilish genezisi, Sharq teologik tamoyillaridan boshlab, XX asr realizm metodologiyasi bilan sintezlashgani konseptual asoslab berilgan. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va Abdulla Qahhor asarlari misolida inson ruhiyati va individual-psixologik o'zgarishlar o'rtasidagi aloqadorlik tahlilga tortilgan. Kichik epik shakl (hikoya)dagi mikropsixologizm elementlarining roman janri makrostrukturasiga ko'chish jarayoni qonuniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, badiiy ijodda ruhiyat muammosining murakkablashuvi, muallifning ijodiy individualligi, zamonaviy adabiy jarayonda inson va olam munosabatlari hamda ruhiy holatlarni badiiy aks ettirishning yangicha estetik tamoyillari yuzasidan nazariy qarashlar tizimli o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy psixologizm, shaxs konsepsiyasi, teologik tamoyil, ijtimoiy determinizm, mikropsixologizm, kechinma, qahramon, personaj, fantastik, konflikt, xarakter, konseptual, tendensiya, polifonik.*

Аннотация: в данной статье исследуются эволюционные этапы развития художественного психологизма и концепции личности в узбекской литературе, в частности, в прозе XX века и современного периода. В исследовании концептуально обосновано, что генезис интерпретации человеческой психики берет свое начало в восточных теологических принципах и впоследствии синтезируется с методологией реализма XX века. На примере произведений Абдуллы Кадыри, Чулпана и Абдуллы Каххара анализируется взаимосвязь между человеческой психикой и индивидуально-психологическими трансформациями. Раскрыты закономерности процесса перехода элементов микропсихологизма из малой эпической формы (рассказа) в макроструктуру романного жанра. Также систематически изучены теоретические взгляды на усложнение проблемы психологизма в художественном творчестве, творческую индивидуальность автора, взаимоотношения человека и вселенной в современном литературном процессе, а также новые эстетические принципы художественного отражения ментальных состояний.

Ключевые слова: *художественный психологизм, концепция личности, теологический принцип, социальный детерминизм, микропсихологизм, переживание, герой, персонаж, фантастический, конфликт, характер, концептуальный, тенденция, полифонический.*

Annotation: this article investigates the evolutionary development stages of artistic psychologism and the concept of personality within Uzbek literature, specifically focusing on twentieth-century and contemporary national prose. It provides a conceptual framework demonstrating that the genesis of psychological interpretation originates in Eastern theological principles and subsequently synthesizes with the twentieth-century methodology of realism. Drawing upon the works of Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, and Abdulla Qahhor, the paper analyzes the interconnectedness between human psychology and individual-psychological transformations. The regularities governing the transition of micro-psychologism elements from short epic forms (short stories) into the macrostructure of the novel genre are elucidated. Furthermore, the study systematically examines theoretical perspectives regarding the increasing complexity of the psychological problem in artistic creation, the author's creative individuality, the relationships between human and the universe in the contemporary literary process, and new aesthetic principles of artistically reflecting emotional states.

Key words: *artistic psychologism, concept of personality, theological principle, social determinism, micro-psychologism, inner experience, protagonist, character, fantastic, conflict, characterization, conceptual, tendency, polyphonic.*

Adabiyotshunoslik ilmda badiiy psixologizm masalasi har bir ijodkorning individual estetik konsepsiyasi va badiiy tafakkur ko'lamidan kelib chiqqan holda turlicha uslubiy shakllarda voqelanadi. Yozuvchining analitik kuzatuvchanligi natijasida syujet asosini tashkil etuvchi oddiy real voqelik ham personajning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari hamda dunyoqarashi bilan sintezlashadi. Mazkur konseptual o'zgarishlar, o'z navbatida, o'zbek hikoyachiligi evolyutsiyasini harakatlantiruvchi muhim omilga aylandi va bu kabi adabiy-estetik tamoyillar zamonaviy milliy adabiy jarayonda ham izchil davom etmoqda.

Akademik Umarali Normatov e'tirof etganidek, XX asr yangi o'zbek adabiyoti shaxs konsepsiyasini tadqiq etishda mutlaqo yangi tipologik bosqichni boshlab berdi. Muayyan mafkuraviy va tarixiy omillar tufayli ushbu davr ijodida personajni ijtimoiy munosabatlar kontekstida talqin qilish tendensiyasi ustuvorlik qilgan bo'lsa-da, "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Sarob" kabi monumental nasriy asarlarda hamda Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, keyinchalik Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi simvollar ijodidagi sof lirik yo'nalishda inson ruhiyatining ijtimoiy mezonlar chegarasiga bo'ysunmaydigan nozik va polifonik qirralari mahorat bilan tasvirlandi. Bu esa mazkur asarlarni jahon adabiyoti durdonalari bilan bir qatarga qo'yishga to'la asos bo'ladi.

XX asr o'zbek nasrida, xususan, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek va Fitrat ijodida badiiy psixologizm shakllari yetakchi estetik-funksional vosita o'laroq namoyon bo'ldi. O'zbek romanchiligida psixologik tahlil metodologiyasini interpretatsiya obyektiga aylantirgan mahoratli adib Abdulla Qodiriydir. Muallifning "O'tkan kunlar" romanida Otabek va Kumush personajlari xarakterologiyasi orqali ekzistensial tuyg'ular, milliy qadriyatlar hamda modernistik qarashlarning to'qnashuvi chuqur psixologik kontekstda namoyon bo'lgan. Adib qahramonlarni shunchaki tashqi dinamika (voqealar rivoji) orqali emas, balki ichki monologlar, intellektual va mental iztiroblar hamda qaror qabul qilish dialektikasi vositasida kashf etadi. Natijada, sotsial muammolar mikro va makrotuzilmalar darajasida inson ichki dunyosi bilan sintezlashtiriladi.

Jadid adabiyotining yirik namoyandasi Cho'lpon ijodida shakl va mazmun uyg'unligi, ruhiy kechinmalar va poetik ohang bir butunlikda namoyon bo'lib, bu jihat uning she'riyatida bo'lgani kabi, nasrda ham

aniq ko'rinadi Adibning kichik epik janrdagi asarlari milliy adabiyotda badiiy psixologizm genezisini belgilashda muhim o'rin tutadi. Xususan, uning "Qurboni jaholat" hikoyasida ruhiy iztiroblar va tushkunlik kayfiyati o'z ifodasini topgan. Hikoyaning bosh qahramoni Eshmurodning ruhiyati obyektiv tasvirdan ko'ra subyektiv nigoh orqali aks etadi. Aksincha, "Doktor Muhammadiyor" hikoyasida Cho'lpon faol, maqsadli va ijtimoiy burchini anglagan qahramoni orqali o'quvchiga tarbiya va ibrat beradi. Hikoyada voqealar kechayotgan muhit "Qurboni jaholat"dagidek murakkab bo'lsa-da, Muhammadiyor vatan ravnaqini ko'zlaydi, ammo moddiy qiyinchilik va jamiyatning madaniy-ma'rifiy jihatdan pastligi unga to'sqinlik qiladi. Muhammadiyor obrazi orqali inson ruhiyatidagi umid va umidsizlik, maqsadga intilish va jamiyatning cheklovlari o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

Cho'lpon hikoyalarida qahramonlarning ruhiyati ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq holda tasvirlanadi. Inson ruhiyati tasvirining dastlabki tajribalari hikoya janrida o'z aksini topgan bo'lsa, keyinchalik romanlarda yanada mukammal ko'rinishda namoyon bo'ladi. Chunki hikoya dastlab tajriba maydonini o'tab, qahramon ruhiyatini ixcham, qisqa shaklda ochib berishga xizmat qilgan bo'lsa, roman keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy masalalarni qamrab oladi. Cho'lpon ham "Kecha va kunduz" romanida Miryoqub ruhiyatidagi evrilishlar orqali Turkistondagi suronli yillar voqealarini, ularning sir-asrorlarini ochib berishga harakat qilgan. D.Quronov ta'kidlaganidek: "Cho'lpon psixologik hikoyalash yo'lidan boradi: Miryoqub psixikasidagi jarayon uchinchi shaxs – muallif tilidan beriladi"[1;171]. Cho'lpon hayotiy voqelikni bevosita tasvirlashdan ko'ra, uni inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni kechinmalar, iztiroblar va qarama-qarshiliklar orqali gavdalantiradi. "Boshqacha aytsak, "Kecha" o'zbek nasridagi ilk ijtimoiy-psixologik roman sifatida dunyoga kelgan"[1;151]. "Kecha va kunduz" da inson xarakteri, uning qalbi va ruhiyatida kechayotgan murakkab jarayonlar markazga olib chiqiladi. Bu jihat Cho'lponning romanchilikdagi eng muhim yangiliklaridan biri bo'lib, u o'zbek adabiy tafakkurida inson psixologiyasini badiiy tadqiq etishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Abdulla Qahhor ijodida esa inson ruhiyatini yoritishda ijtimoiy muhit va shaxsiy kechinmalarning keskin to'qnashuvi asosiy vosita sifatida namoyon

bo'ldi. A.Qahhor hikoyalarida insonning ichki kechinmalari, ruhiy-ma'naviy dunyosi ijtimoiy muhitdan ajralmagan holda beriladi. Xususan, uning "Bemor", "Dahshat", "O'g'ri", "Ming bir jon", "Boshsiz odam", "Adabiyot muallimi" kabi bir qator hikoyalarida jamiyat va atrof-muhitdagi ijtimoiy o'zgarishlarning inson ruhiyatiga ko'rsatgan ta'siri hayotiy dalillar hamda badiiy mahorat asosida yuksak darajada ifodalangan. O'zbek adabiyotida psixologizm o'ziga xos tarzda epik tur janrlarining yirik ko'rinishi – romanlarda yaqqol aks etishini shubhasiz, A.Qahhorning "Sarob" romanida ham kuzatish mumkin. Asarda Saidiy obrazi murakkab xarakteri bilan diqqatni tortadi, u keskin qarorlar qabul qilishga ojiz; chunki o'sha davr sharoiti, ijtimoiy muhit va iqtisodiy qaramlik bunga to'sqinlik qilgan. Shu bois, mazkur roman o'zbek adabiyotida inson ruhiyatidagi tanazzulni aks ettirishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Adib hikoyalarida inson ruhiyatini nozik tahlil etish, kutilmagan ruhiy burilishlarni tasvirlash orqali keyinchalik roman janrida yanada yuksak badiiy cho'qqiga erishganini ko'rish mumkin. Shu jihatdan, bejiz emaski, adabiyotshunoslar "Abdulla Qahhor hikoyalari kutilmagan badiiyat mo'jizalaridir"[2;146] deya ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, bu hikoyalar yozuvchining keyingi ijod bosqichida, xususan, "Sarob" kabi romanlarida psixologik tahlilning badiiy asoslarini shakllantirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qilgan. Shu asarlarda yaratilgan ruhiy izlanishlar tajribasi ijodkorning keyingi badiiy tafakkur evolyutsiyasida sezilarli iz qoldirgan.

Shuningdek, Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirov asarlarida real tarixiy voqealar fonida qahramon taqdiri, ichki iztiroblari va ruhiy izlanishlari mahorat bilan uyg'unlashtirildi, psixologik tasvir tarixiy haqiqat bilan chambarchas bog'landi. "Istalgan janrdagi badiiy asarda yozuvchi o'z qahramonlarining tuyg'u, iztiroblari, ichki kechinmalarini tasvirlash orqali uni kitobxoniga tanishtiradi. Ba'zi tadqiqotchilar

psixologizmni inson ichki dunyosini kashf etuvchi usul deb hisoblashmaydi. Shu bois, qahramon ruhiy olamining tadqiqida psixologizm usul emas, balki badiiy adabiyotda ruhiyatning o'ziga xos tasviri deb qabul qilinadi"[3;136-139]. Demak, psixologizmni inson ruhiy olamining badiiy talqini sifatida ko'rish adabiyotning mohiyatini anglash imkonini beradi. Zero, yozuvchi qahramon qalbini ochib berishda turli badiiy vositalardan foydalansa-da, maqsad doimo bir xil – insonning ichki dunyosi, kechinmalari hamda ruhiy iztiroblarini tasvirlashdir. Psixologizmning bunday talqini adabiyotning jamiyatdagi o'rnini ham belgilaydi. Chunki inson ruhiy olamini tasvirlash orqali yozuvchi butun davrning ma'naviy-axloqiy muhitini ham ochib beradi.

Umuman, badiiy ijodda ruhiyat muammosining murakkablashuvi, bir tomondan, muallifning ijodiy individualligi hamda psixologik tahlil (badiiy psixologizm) metodologiyasini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, muayyan davrning sotsiomadaniy, mafkuraviy va falsafiy paradigmalarni o'zida interpretatsiya qiladi. Zamonaviy adabiy jarayonda esa inson va olam munosabatlari hamda ruhiy holatlarni badiiy aks ettirishning mutlaqo yangi estetik tamoyillari va shakllari shakllanmoqda. Badiiy adabiyotning fundamental obyekti – inson sotsiomadaniy subyekt hisoblanadi. Chunki inson dinamik xarakterga ega bo'lib, doimiy evolutsion va transformatsion jarayonlarni boshidan kechiruvchi murakkab jonzotdir. Shu bois, u tarixiy-zamon mezonlaridan qat'iy nazar o'zining estetik-ontologik qimmatini yo'qotmaydi. Qisqasi, inson ruhiy olamini anglash va uni tadqiq etish masalasi qadim zamonlardan buyon mavjud. Sharq olamida paydo bo'lgan diniy manbaga oid asarlarda ruh masalasi ilohiyot bilan bog'liq hodisa sifatida qaralgan. Bu esa, psixologizmning teologik prinsipining yuzaga kelishiga zamin hozirlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қуроноф Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: «Шарқ». 2004. 171-б.
2. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: «Шарқ», 2007. 146-б.
3. Zamyatin E. Psixologiya tvorchestva / Publ. A. N. Strijeva // Literaturnaya ucheba. – Moskva, 1988. – №5. – S. 136, 139.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.149-6..
5. Abdurahmonova M. Ruhiy dunyo tasviri, "O'zbekiston" – Toshkent, 1977.

G.Q.RAVSHANOVA,
 QarDU, Yangi o'zbek adabiyoti
 va adabiyot nazariyasi kafedrasini
 professori v.b., f.f.d. (DSc)
gulruxbegim38@gmail.com

YANGI O'ZBEK SHE'RIYATI HAJVNAVISLIGINING FALSAFIY VA NAZARIY TADQIQI

Annotatsiya: ijtimoiy-madaniy hayot silsilalarida avvalo, eng katta janriy-kompozitsion yaxlitlik zamzamalari yangi o'zbek adabiyoti davri ijodkorlari asarlarida bo'y ko'rsatib, keyinchalik qat'iy tamoyillarda yanada sayqallana boshladi. Individual xarakterdan ibtidoilangan va so'ngira umumkayfiyatga tutashuvi hajvnavislikning falsafiy-estetik mezonlarini yangilashga zamin hozirladi. Kuchli tanqidiy-psixologik kayfiyat hajviy asarlarning takomillashuviga evrila boshlandi. Bu aynanlik adabiy yo'nalishlarda yangi-yangi janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, ushbu maqolada insoniy munosabatlarning tig'izlashuvi, dard va og'riqlarni yengib o'tishga yo'l ochish hajvnavislikning oldida turgan asosiy masalalardan bo'lib, kulgi zamiridagi ziddiyat orqali davr nafasini teran fahmlashga xizmat qilishiga hamda hajvnavislikni falsafiy va nazariy tadqiq etishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *yumor, yangi o'zbek adabiyoti, tanqid, satira, hajvnavislik, ma'rifatparvarlik, pafos, mavzu, g'oya, mezon, kulgi va yig'i motivi.*

Annotation: in the socio-cultural life cycle, first of all, the greatest genre-compositional integrity of the works of the creators of the new Uzbek literature period began to be expressed in the works, and later they began to be further refined in strict principles. The connection from the individual character to the general mood paved the way for the renewal of the philosophical and aesthetic criteria of satire. A strong critical-psychological mood began to evolve into the improvement of satire works. This very fact led to the emergence of new genres in literary directions. Also, this article is devoted to the fact that the intensification of human relations, the opening of a path to overcoming pain and suffering are among the main issues facing satire, and serves to deeply understand the spirit of the era through the contradictions underlying laughter, and to the philosophical and theoretical study of satire.

Key words: *humor, new Uzbek literature, criticism, satire, humor, enlightenment, pathos, theme, idea, criterion, motif of laughter and crying.*

Аннотация: в социально-культурном жизненном цикле, прежде всего, в произведениях начала проявляться наибольшая жанрово-композиционная целостность творцов новой узбекской литературы, а впоследствии они стали более тщательно оттачиваться в строгих принципах. Связь от индивидуального характера к общему настроению проложила путь к обновлению философско-эстетических критериев сатиры. В совершенствовании сатирических произведений начал развиваться сильный критико-психологический настрой. Именно это привело к появлению новых жанров в литературных направлениях. Также данная статья посвящена тому факту, что интенсификация человеческих отношений, открытие пути к преодолению боли и страданий являются одними из главных вопросов, стоящих перед сатирой, и служат для глубокого понимания духа эпохи через противоречия, лежащие в основе смеха, а также для философско-теоретического изучения сатиры.

Ключевые слова: *юмор, новая узбекская литература, критика, сатира, юмор, просвещение, пафос, тема, идея, критерий, мотив смеха и плача.*

XX asr she'riyati qadimdan umumbashariy muammolarni tarannum etib, insoniy dardlarga malham topishga uringan mumtoz asarlar namunalariining vorisi hisoblanib, turmushdagi maishiy, ijtimoiy-siyosiy masalalarni ijobiy hal qilishda zabardast turgan fidoyi zamondoshlar qiyofasini gavdalanitirishga qaratilgani

bilan ham tahsinga sazovordir. Ma'rifatparvarlik adabiyotining ilg'or vakillari xalq boshiga yog'ilgan azobu uqubatlarni ich-ichidan his qilib, ularni badiiy shakllarda turfa tasvirlarda idroklash tamoyilini boshlab berdi. Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar singari shoirlar o'z ijod namunalariida Turkiston o'lkasida ro'y

berayotgan xalqning og'ir turmushini satirik kayfiyatda aks ettirishga kirishdilar. Natijada ularning kuchli tanqidiy qarashlari davr muammolarini o'tkir satirik ruhda obrazli tasvirlash malakasining barqarorlashuviga keng imkon tug'dirdi.

XX asr o'zbek she'riyatida hajvnavislik borasidagi ijodiy izlanishlarni uchta yirik davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq: 1) Temuriylar davriga oid badiiy manbalar; 2) Ma'rifatparvarlik va jadid adabiyoti davri; 3) XX asrning 30- yillaridan to shu bugunga qadar bo'lgan davr. Albatta, zamona zayli bilan adabiyot va san'atdagi hajviy-yumoristik kayfiyat turli xil shakllarda aks etgan (nasr, nazm, dramaturgiya). Nazmdagi hajviy o'zgarishlar, izlanishlar, yangilanishlar hamma vaqt bir maromda kechgan emas. Ayniqsa, davrlarga qarab ular ham o'zining yangi-yangi qirralari bilan aks ettirishda davom etib kelmoqda.

Ijtimoiy-madaniy hayot silsilalarida, avvalo, eng katta janriy-kompozitsion yaxlitlik zamzamalari ma'rifatparvarlik davri ijodkorlari asarlarida bo'y ko'rsatib, keyinchalik qat'iy tamoyillarda yanada sayqallana boshladi. Xonliklarning tanazzuli va ruslarning Markaziy Osiyoni bosib olishi, ichki qarama-qarshiliklarning avj olishi, oddiy xalq boshiga tushgan mislsiz uqubatlar o'sha zamon shoirlarini qattiq qayg'uga solganligi sir emas. Individual xarakterdan ibtidolanish va so'ngra umumkayfiyatga bog'lanish hajvnavislikning falsafiy-estetik mezonlarini yangilashga zamin hozirladi. Natijada ijodkor Vatan oldidagi fuqarolik burchi bilan chambarchas hayot mashaqqatlarini she'riy shakllarda bayon qilishga kirishdi. Kuchli tanqidiy-psixologik kayfiyat hajviy asarlarning takomillashuviga evrila boshlandi. Bu aynanlik adabiy yo'nalishlarda yangi-yangi janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Mana shu jihatlar biz o'rganmoqchi bo'lgan yangi o'zbek she'riyatida hajvnavislik hodisasining poetik talqinini aniqlashda asosiy tadqiq obyekti vazifasini bajaradi.

Arastu "Poetika" asarida "shoir o'zi ko'rgan va bilgan narsasini ishonchli tasvirlay olishi zarur"¹, degan maqsadda quyidagi mulohazalarini bayon qiladi: "Shoir fabulani tartibga solib va uni so'z bilan ifodalayotganida, iloji boricha, voqealarni ko'z o'ngida jonli tasavvur qilishi kerak; ana shunda shoir go'yo voqealarda o'zi qatnashganday bo'ladi, barcha zarur tasvirlarni izlab topadi va hech qanday mantiqsizlikka yo'l qo'ymaydi. Bunga isbot sifatida Karkin asaridagi kamchilikni ko'rsatish mumkin. Hatto imo-ishoralar ham iloji

boricha ifodalashga xizmat qilishi kerak. Ehtirolarning tabiati bir xil bo'lgan qahramonlarni tasvirlagan shoirlar ko'proq ishonchga sazovor. O'zi hayajonlana oladigan shoir tomoshabinlarni hayajonlantira oladi, o'zi g'azablana oladigan kishi tomoshabinlarni ham g'azablantira oladi. Shuning uchun poeziya – iste'dodli yoki majnunsifat insonning qismatidir. Iste'dodli odamlar ruhan juda ta'sirchan, majnunsifatlari esa jazavaga moyil bo'ladilar"². Ushbu nazariy qarashlar orqali shoirlik qismatining azob-uqubatlar bilan yakun topishiga mantiqiy urg'u beriladi. Chunki shoir hech qachon jamiyat bilan chiqisha olmaydi. Atrofdagi illatlar qachondir uning borlig'ini tirnaydi. Bu boradagi og'riqlar qaysidir ijodkorda hajviy yo'sinda maydonga keladi. Barchasida – dard, iztirob, yig'i mujassam. Jamiyat, insoniyat dardu tashvishlaridan qalbi ozurda bo'lgan ijod ahli, xususan, shoirlar turli shakllarda o'z hissiyotlarini ifodalashga harakat qilmoqdalar. Ana shu ijodiy jarayonda shoirlar o'z yo'nalishlarini namoyon qilganlar.

Hajviy asarlarni tadqiq qilish an'anasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Bular keyinchalik adabiy asarlarning yuzaga kelishi, ijtimoiy-psixologik yondashuvlar negizida yanada jonlandi. Jumladan, folklorshunos H.Razzoqov o'zbek xalq ijodida satira va yumor³, T.Ashurov o'zbek xalq dostonlarida hajviyot masalalarini tadqiq etgan⁴. Adabiyotshunos K.Imomov o'zbek hajviy ertaklari borasida tadqiqot olib borgan⁵. A.Abdug'afurov o'zbek adabiyoti tarixi va Alisher Navoiy ijodida satiraning tutgan o'rnini atroflicha o'rganib, nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan⁶. Olim tadqiqotida Navoiyning o'zbek mumtoz hajviyotiga qo'shgan benazir hissasi, kulgu, satirik obraz yaratish mahorati va novatorligini tadqiq etgan. Bundan tashqari, olim keyingi faoliyatida Muqimiy satirasini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan⁷. Adabiyotshunos R.Muqimov o'zbek va tojik satirasi taraqqiyotining asosiy bosqichlarini⁸, N.Rahimov o'zbek satirasi tarixini⁹, S.Toshkanov satira san'atini tadqiq etib, o'zbek

2 Арасту. Поэтика. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –Б.47.

3 Раззоқов Ҳ. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1965. – Б.237.

4 Ашуров Т. Ўзбек халқ дostonларида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1974. – Б.260.

5 Имомов К. Ўзбек сатирик эртаклари. – Тошкент: Фан, 1964. – Б.235.

6 Абдуғафуров А. Навоий сатираси. – Тошкент: Фан, 1-китоб.1966; 1972. 2-китоб.

7 Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.360.

8 Р.Муқимов. Ўзбек ва тожик сатираси тараққиётининг асосий босқичлари. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.220.

9 Н.Раҳимов. Ўзбек сатираси тарихи. – Тошкент: Фан, 1962. – Б.220.

1 Арасту. Поэтика. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –Б.47

adabiyotida satirik xarakter muammosini o'rganganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir¹⁰.

Shundayek, hajv muammosi bilan shug'ullanadigan deyarli har bir tadqiqotchi kulgining vazifalarini yoritib beradi. Albatta, turli xil mualliflar qator vazifalarni ajratib ko'rsatishadi va ularni ayricha talqin qilishadi, ba'zilarini ma'qullab, boshqalarni esa inkor etishlari mumkin. Tadqiqotimizda kulgi turlari, ularning bir-biridan farqli jihatlari, poetik tasvir vositalari, shoirlarning voqelikni ifodalash yo'sinlari, hajviy timsol yaratish borasidagi individualligini tadqiq etishga urindik. Aynan shu jihati kam tadqiq etilgan ushbu muammoni Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Anvar Obidjonning hajviy she'riy asarlari misolida o'rganib, umumlashtirishga harakat qildik.

"M. Baxtin kinoya yangi davrning barcha tiplariga, ularning so'z va so'z shakllari, sintaktik qurilishiga kirib kelganini ta'kidlaydi. Ironiyada har yerda – zo'rg'a ilg'ab olish mumkin darajadan to qahqahaga yaqin oshkora ko'rinishgacha mavjud. Sababi, yuksak janrlarga xos nutq uslubi ularning egalari bo'lmish koinlaru nabiylar, xatiblaru qozilar bilan yo'qlikka ketdi, barining o'rniga yozuvchi, oddiy yozuvchi qoldi. U esa voris sifatida salaflarni yo stilizatsiya, yo parodiya qilishi, ayni damda, o'z uslubini ishlab chiqishi zarur bo'ladi. Mana shu iqtibosdagi ikki jihat e'tiborga molikdir: birinchidan, ijodkorning voris sifatida o'zidan oldingilarni stilizatsiya yoki parodiya qilish uslubini o'zlashtirib olishi bo'lsa, ikkinchidan, davr yaratgan ijtimoiy-psixologik holatlardan o'sib chiqqan kuchli hayotiy umumlashmalarni tipiklashtirish"¹¹. Natijada matn

estetik funksiyasi ijodkor "men"ida yagona mezonda uyushadi. Undagi borliq va yo'qlik haqidagi salaflar qarashlari qayta ishlanadi.

Hajvnavislik an'anasi yangi o'zbek she'riyatida xalq og'zaki ijodida yuzaga kelgan hazil-mutoyibalar zahirida yuzaga keldi va shakllandi. Ayniqsa, yozma adabiyotga ko'chib o'tgunga qadar adabiy meros xalqning kundalik tashvishlarini yengillashtirishga xizmat qildi. Baxshi-yu, san'atkorlar tomonidan qayta inkishof qilingan badiiy shakl arxitektonikasida milliy ong va tuyg'u nisbati qabarib ko'rinadi. Oradan ming yil o'tib, XX asrga yetib kelgan adabiy durdonalar G'arb va Sharq she'riy shakllari kompozitsiyasida bo'y ko'rsatdi. Davrning muhim belgilari, ijtimoiy-siyosiy ruhiyat ifodasi ana shu izlanishlarda o'z aksini namoyon qildi. Ijodkor fenomeni, mahorat va iste'dod yaxlitligi badiiy shakl tabiatini tubdan yangilashga xizmat qildi. Zero, borliq haqidagi insonning bilish tushunchasi psixofiziologik kriteriyalarda kechayotgan avlodlar almashinuvida yanada jonlanish sari odimladi. Mantiq va tasvir chegarasi ham turfalandi. Asl voqelik va tarixning haqqoniy qiyofasiga baho berish uchun istiqloq keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Kulgi insonning mukammallashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi vosita tarzida tan olingan. Bu falsafa, adabiyot, madaniyatshunoslik fanlari nuqtayi nazaridan isbotlangan. Kulgi holatlarini tadqiq etish inson va jamiyat munosabatlarini to'liq anglashga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Demak, san'at va adabiyotda, shuningdek, lirikada kulgi, hajv hodisasini tadqiq etish ijodkor mahoratini belgilovchi konsepsiyalardan biri hisoblanadi.

10 Toshkanov S. Satiira san'ati. – Toshkent: Fan, 1977. – B.32.

11 Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. –Ташкент: Akademnashr, 2016. –Б. 10.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арасту. Поэтика. –Ташкент: Янги аср авлоди, 2018.347-б.
2. Раззоқов Ҳ. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сатира ва юмор. – Ташкент: Фан, 1965.350-б.
3. Ашуров Т. Ўзбек халқ дostonларида сатира ва юмор. – Ташкент: Фан, 1974.360-б.
4. Имомов К. Ўзбек сатирик эртаклари. – Ташкент: Фан, 1964.260-б.
5. Абдуғафуров А. Навоий сатираси. – Ташкент: Фан, 1-китоб.1966; 1972. 2-китоб.
6. Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. – Ташкент: Фан, 1976.360-б.
7. Р.Муқимов. Ўзбек ва тожик сатираси тараққиётининг асосий босқичлари. – Ташкент: Фан, 1975.220-б.
8. Н.Раҳимов. Ўзбек сатираси тарихи. – Ташкент: Фан, 1962.220-б.
9. Toshkanov S. Satiira san'ati. – Ташкент: Фан, 1977.210-б.
10. Каримов Б. Рухият алифбоси. –Ташкент: F-фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2018.386-б.
11. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. –Ташкент: Akademnashr, 2016.130-б.
12. Белинский В.Г. Танланган асарлар. –Ташкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1955. 290-б.

Muxayyo RAYXONOVA,

Qarshi davlat universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

ABDULLA ORIPOV TO'RTLILIKLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY XUSUSIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov ijodida to'rtlik janrining o'rni, bu janr tabiati hamda shoir to'rtliklarining ijtimoiy-falsafiy jihati she'riy misollar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: janr, to'rtlik, ruboiy, qit'a, mumtoz adabiyot, aruz vazni, barmoq vazni, aforizm, turkum.

Аннотация: в данной статье на основе поэтических примеров раскрывается роль жанра четверостишия в творчестве Героя Узбекистана, народного поэта Абдуллы Орипова, природа этого жанра и социально-философский аспект четверостиший поэта.

Ключевые слова: жанр, полнота, рубай, континент, классическая литература, вес аруз, вес пальца, афоризм, категория.

Annotation: this article discusses the issue of genres and the scope of genres in the works of the Hero of Uzbekistan, People's Poet Abdulla Oripov. The poet's attitude to different genres is analyzed on the example of his works.

Key words: genre, ghazal, rubai, tuyuq, sonnet, hokku, tanka, rondel, masnavi, march, diachronic, synchronic,

To'rtlik. To'rtlik – zamonaviy janr bo'lsa-da, ildizi uzoq tarixga borib taqaladi. Janrning ilk namunalari folklorda yaratilgan¹. Mumtoz adabiyotimizdagi aruzda yozilgan to'rtliklar qofiya tartibi va vazniga ko'ra ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit'a kabi janrlarga ajratilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, barmoq vaznida yozilgan zamonaviy to'rtliklarni ba'zan ruboiy deb atash hollari ham uchray turadi. Abdulla Oripov zamonaviy o'zbek she'riyatida to'rtlik janrida eng barakali ijod qilganlardan. 1960-yilda ilk to'rtligini yaratgan shoir ijodining hamma bosqichlarida bu janr faol iste'molda bo'ldi. "Qush tili" deb atalgan turkum esa faqat to'rtliklardan tashkil topgan.

Kuzatishlarimizga ko'ra, Abdulla Oripov to'rtliklari ikki xil usulda yaratilgan:

1. Badiiy tafakkurda borliqqa oid bilimlar hamda hayot voqealiklarining dialektik idrok etilishi falsafiy, didaktik xarakterdagi to'rtliklarning yaratilishiga asos bo'lgan. Bunday to'rtliklarda umumlashmalik kuchli. Ijodkor go'yo uzoq muddatlik hayotiy kuzatuvlari, kechinma va fikr-mulohazalarining qaymog'ini to'rt misrada ifoda etadi. Bunda to'rtlik aforizm tusini oladi, xalq maqollarini esga soladi. Hikmatnamo fikr to'g'ridan to'g'ri ham, majoz orqali ham ifoda etilishi mumkin. Abdulla Oripovning "Oqshomdan boshlangay...", "Dunyoning g'alati yo'rig'iga boq...", "Koinot gultoji insondir azal...", "Haq sevgay o'ziga yor bandalarni...", "She'r, Farzand. Yaxshilik...", "Xalqni asrasang", "Paydo bo'lganida zamin bir zamon...", "Olamda hech narsa

emas yagona...", "Gavhar" kabi to'rtliklari ana shunday umumlashma xarakterda.

2. Ayrim to'rtliklar oniy kechinmalar, chaqmoq kabi yaroq etib tug'ilgan fikrlar, shoir diqqatini tortgan hayotiy voqea tufayli yaratilgan. Yoki ijodkor odam muayyan fursatda kimdandir behad minnatdor bo'ladi, o'z minnatdorchiligini she'rda ifoda etgisi keladi. Boshqa bir holatda esa poetik kechinmaning ko'lami kichik bo'lganidan qisqa shaklni taqozo qiladi. Mana shunday hollarda to'rtliklar dunyoga keladi. Ularda umumlashtirish emas, epizodiklik ustuvor; kichik hayotiy lavha yoki birgina obraz taqdim etiladi, xolos. Xulosa chiqarish o'quvchining o'ziga qoldiriladi. "Qah-qah urar bo'lsam vijdonimdan men...", "Shudgorda qarg'alar to'dasin ko'rsang...", "Kimdir farzandiga derdi...", "Odatda ulfatlar bo'lishganda jam...", "Mohirlik", "Tilak", "Istanbullik", "Mahmudbeyga", "Kelkin-kuyovlarga", "Ish vaqti", "Chiroq" kabi to'rtliklarni shu maxrajga birlashtirish mumkin.

Ta'kidlash joizki, she'riy-badiiy tezislar aytish ehtiyojidan falsafiy to'rtliklar paydo bo'ladi. Shuningdek, to'rtlik qisqa hajmli asar bo'lgani uchun ijodkorga o'ziga xos imkoniyatlar beradi. To'rtlik ba'zan daf'atan xayolga kelgan obraz yoki fikr, ko'z tushishi bilan ilhom tug'dirgan narsa yoki hodisadan yaratiladi; fikr, obraz, ilhom shu tariqa "tutib" qolinadi. To'rtlik badihaga ham juda qulay. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Abdulla Oripov ijodining so'nggi yillarida yaratilgan to'rtliklarning aksariyati lahzalik ilhomdan tug'ilgan. Buning shoir hayoti voqealari, ijodkor va jamiyat munosabatlari, tajriba, tafakkur, ruhiy holat, mahorat bilan bog'liq qator obyektiv va subyektiv sabablari bor. Ammo yana shuni ham ta'kidlash lozim: har qanday

¹ Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – 344-345 б. Бу ҳақда яна қ.: Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. – Toshkent: Fan, 2006.

badiha, har qanday hayotiy lavha yoki fikr, kechinmani 4 misralik qofiyali shaklga solish san'at asarini maydonga keltirmaydi. Haqiqiy san'atkor o'sha daf'atan xayolga kelgan obraz yoki fikr, ko'z tushishi bilan ilhom tug'dirgan narsa yoki hodisaning substraktini, mag'zini obrazli tarzda ifoda etadi. To'rtlikda ham boshqa har qanday janrdagi badiiy asarda bo'lgani kabi pafos, obrazlilik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quruq deklarativlik, o'ylab topilgan obraz, zo'raki donishmandlik to'rtlikni hissiz, jo'n so'zlar tizmasiga aylantiradi. Haqiqiy iste'dod sohibi hayotning har qanday manzarasini san'at asariga aylantira oladi. Mana, shoirning 2013-yil 7-oktabrda turkiyalik jarrohgacha bag'ishlab yozgan "Mohirlik" nomli to'rtlik:

*Yurak arsh misoli sirli qarorgoh,
 Sen unga yo'l topding, ey mohir jarroh.
 Isming ham llyosdir – payg'ambar ismi,
 Senga ochiq demak, har qanday dargoh².*

Bag'ishlov, minnatdorlik tariqasida bitilgan she'r kuchli badiiy-estetik ta'sir kuchiga ega. Bu ta'sir yurakning ikki ma'nosiga nozik ishora, arsh va payg'ambarga oid majoz, barmoqning 6+5 turoqli vazmin vazni, ruboiyona qofiya tartibi, hayotga muhabbat bilan xarakterlanadigan kuchli poetik kechinma kabi badiiy unsurlar orqali ta'minlangan.

1960-yilda yozilgan "Kulma, kulma, nega kulasan..." to'rtligida esa kuchli ijtimoiy mazmun ifoda etilgan:

*Kulma, kulma, nega kulasan
 Xijolat chekkanning holiga.
 Nega qo'l uzatding kambag'alning
 O'g'rilardan qolgan moliga?..*

To'rtlik biror hayotiy voqea ta'sirida yozilgan bo'lishi mumkin. Lekin kambag'al va o'g'ri timsollari Abdulla Qahhorning mashhur hikoyasini esga soladi. "Xijolat chekkan" jumlasini Qobil boboni; "kulma, kulma.." esa "yo'qolmasdan oldin bormidi?", "yaxshi ho'kiz birov yetaklasa ketaberadimi?" deb cholning ustidan kishi bilmas

2 Орипов А. Танланган асарлар, 8-ж. – Б.10.

kulgan aminni; so'nggi misra hikoyaning nomini xotirga keltiradi. Abdulla Qahhor hikoyasining asosiy leytmotivi ham "o'g'rilardan qolgan molga qo'l uzatish"dan iborat edi. To'rtlikning kuchli ijtimoiy pafosi mana shu adabiy parallelizmga yuzaga chiqadi. Bu ikki adabiy asar g'oya va mazmunga shu qadar bir-biriga yaqin, timsollar aynanki, ayrim gipotezalarni o'rta tashlashga to'la asos beradi: Abdulla Oripov yuqoridagi to'rtlikni "O'g'ri" hikoyasini o'qib, o'shaning ta'sirida yozgan bo'lishi yoki Abdulla Qahhor to'rtlikda o'z hikoyasi bilan qalin uyg'unlikni ko'rgach, yosh shoirdan epigraf yozib berishni so'ragan bo'lishi mumkin.

Professor Bahodir Sarimsoqovga ko'ra, romanik dostonlar ertak, afsona va rivoyatlardan boshlang'ich olishi mumkin³. Abdulla Oripov to'rtliklarida ham shunga o'xshashroq jarayon kuzatiladi. Masalan, "Koinot gultoji insondir azal" to'rtligini ijodkorning butun adabiy merosi javhari, kodi desa bo'ladi. Chunki uning jamiki asarlarida insonning koinot gultoji sifatidagi ulug'ligi hamda tubanlik ichra tanholigi turli rakurslardan, lirik, liro-epik, dramatik planda badiiy inkishof etiladi.

*Idrokim boricha yashadim faqat,
 Fahm etdim dunyoni baimkon, qat-qat.
 Yolg'iz bir jumboqqa aqlim yetmadi:
 Qaydan tug'iladi, bilmadim hasad. (154-b)*

Bu – 1968-yilda yozilgan "Jumboq" nomli to'rtlik. Unda qalamga olingan hasad motivi 1980-yilda yaratilgan "Hakim va ajal" dostonida hal qiluvchi poetik omilga aylandi. Asar syujetining tuguni ham, rivoji va yechimi ham hasad motivi bilan bog'lanadi.

Xulosa qilib aytganda, A.Oripov to'rtliklari nafaqat shoir ijodining muhim qismi, balki o'zbek she'riyatida inson ma'naviyati, milliy tafakkur va badiiy estetik qadriyatlarni yorituvchi nodir meros sifatida qadrlanib kelinadi.

3 Саримсоқов Б. Эртак олдин яралганми ё дoston? / "Тафаккур", 1998 йил, 4-сон. – Б.67.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий ўйи, 2015.
2. Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент: "Янги аср авлоди". 2002.
3. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979.
4. Ўсарова Л. Абдулла Орипов ижодида миллий рух ифодаси. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори..дисс.автореф. – Тошкент, 2020.
5. Орипов А. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1996.

Javlon IBRAGIMOV,
*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
 dotsenti, filologiya fanlari doktori*

O'ZBEK TILINI RAQAMLASHTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: so'nggi yillarda dunyo miqyosida tilshunoslik raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'lanib, "digital linguistics" deb nomlangan yangi ilmiy sohaga aylandi. O'zbek tili ham bu jarayondan chetda qolmasligi kerak. Chunki raqamlashtirish matnni shunchaki elektron shaklga o'tkazish emas, tilni sun'iy intellekt, avtomatik tarjima, ovozli tizim va korpus tahliliga moslashtirish demakdir.

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, korpus, unicode, ASCII, SI (AI), TTS (Text-to-Speech), STT (Speech-to-Text), OCR (Optical Character Recognition), tokenlash, standartlashtirish.*

Аннотация: в последние годы лингвистика во всем мире тесно переплелась с цифровыми технологиями, превратившись в новую научную область, называемую "цифровая лингвистика". Узбекский язык не должен оставаться в стороне от этого процесса. Ведь цифровизация – это не просто преобразование текста в электронную форму, но и адаптация языка к искусственному интеллекту, автоматическому переводу, голосовым системам и корпусному анализу.

Ключевые слова: *цифровизация, корпус, unicode, ASCII, ИИ (AI), TTS (Text-to-Speech), STT (Speech-to-Text), OCR (Optical Character Recognition), токенизация, стандартизация.*

Annotation: in recent years, linguistics worldwide has become increasingly intertwined with digital technologies, emerging as a new scientific field called "digital linguistics". The Uzbek language should not be left behind in this process. After all, digitalization is not simply the conversion of text into electronic form, but also the adaptation of language to artificial intelligence, automatic translation, voice systems, and corpus analysis.

Key words: *digitalization, corpus, Unicode, ASCII, AI, TTS (Text-to-Speech), STT (Speech-to-Text), OCR (Optical Character Recognition), tokenization, standardization.*

Kirish (Introduction). O'zbek tilini raqamlashtirish jarayoni bugun nafaqat texnik, strategik, madaniy va ilmiy masalaga aylanib bormoqda. Chunki raqamli infratuzilma shunchaki texnik bazagina emas, aslida, til, tafakkur va milliy identifikatsiyani yangi muhitda qayta shakllantiruvchi tizimdir. Shu tufayli o'zbek tili uchun raqamli infratuzilmani yaratish masalasi bugun davlat miqyosidagi muhim vazifalardan biri sifatida ko'rilmogda. Ammo bu yo'lda muvofiqlik, hamkorlik va metodik yagona yondashuv yetishmayotgani sezilayotir. "Milliy muvofiqlik muammolari" atamasi bu yerda turli darajadagi – tashkiliy, terminologik, texnik, siyosiy va ilmiy nomuvofiqliklarni o'z ichiga oladi.

Avvalo, o'zbek tilining raqamli infratuzilmasi deganda bir-biri bilan uzviy bog'langan bir necha tizimlar nazarda tutiladi: raqamli korpus, elektron lug'at, avtomatik tahlil dasturlari, nutqni tanish va sintez qilish modullari, hamda ularning barchasini birlashtiruvchi milliy platforma. Hozircha bu tizimlarning har biri alohida-alohida shakllanmoqda. Bir universitetda elektron lug'at tuziladi, boshqa joyda korpus, uchinchi markazda STT-TTS texnologiyalari ishlab chiqilmogda. Lekin bu loyihalar o'zaro uzviylikka ega emas, yagona ma'lumot almashuv formati, standart kodlash yoki API tizimi ishlab chiqilmagan. Har bir loyiha o'zicha

"mahalliy" bo'lib qolmogda. Bu milliy til uchun yagona raqamli ekotizimni shakllantirishni sekinlashtiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbek tili raqamlashtirish sohasidagi milliy nomuvofiqliklar, birinchi navbatda, institutsional muvofiqlik yetishmovchiligida namoyon bo'layotir. Bugun tilni raqamlashtirish bilan bir necha turli muassasa shug'ullanmogda: Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Axborot texnologiyalari universiteti, turli AT-markazlar, hatto ayrim nodavlat startaplar. Har biri o'z konsepsiyasiga ega, ammo o'zaro hamkorligi tizimlashtirilmagan. Masalan, til korpusini yaratish uchun tilshunoslar tomonidan belgilangan lingvistik belgilash me'yorlari bilan dasturchilar ishlab chiqayotgan texnik yechimlar ko'pincha mos tushmaydi. Shuning uchun korpuslarda morfologik belgilashning yagona tamoyili yo'q: bir joyda "so'z turkumi" deb belgilanadi, boshqa joyda "grammatik kategoriya", uchinchi joyda "etiketka" sifatida. Bu nomuvofiqlik keyinchalik avtomatik tahlil dasturlarining bir-birini "tushunolmasligi"ga sabab bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbek tili uchun raqamli yozuv tizimlari (Unicode, transliteratsiya, imlo formati) yagona me'yorga solinmagan. Masalan, lotin yozuvidagi "o'" va "g'" harflarining raqamli

kodlashdagi turli varianti (U+02BB, U+2019, U+02BC va hokazo) bir xil belgini turlicha ifodalaydi. Bu nafaqat matnni qayta ishlashni, qidiruv, tarjima va tovush sintezi tizimlarini ham chalgi'tadi. Shuningdek, o'zbek tilining kirill va lotin yozuvlari orasidagi uzilishlar ham raqamli muhitda ikkilikni kuchaytiradi. Har bir dastur uchun bu ikki yozuv alohida til sifatida qabul qilinadi. Shu tufayli o'zbek tili uchun yagona raqamli yozuv standarti ishlab chiqish masalasi hanuz hal etilmagan eng og'riqli nuqtalardan bo'lib qolmoqda.

O'zbek tili uchun yaratilgan mavjud raqamli lug'atlar, tahlilchi va korpuslar bir-biriga ulanmaydi. Masalan, bir loyiha XML formatida tuzilgan bo'lsa, boshqasi JSON yoki CSV formatidan foydalanadi. Natijada ularni yagona platformaga birlashtirish uchun qo'shimcha kod konvertatsiyasi va moslashtirish ishlari talab etiladi. Bu resurslarning qayta ishlatilish darajasini pasaytiradi. Xorijiy tillar, masalan ingliz yoki turk tillari raqamlashtirish jarayonida "open-source" integratsiyaga tayanadi, ya'ni barcha resurslar umumiy formatda ishlab chiqiladi. O'zbek tilida aksincha loyihalar yopiq shaklda, grant muddati tugashi bilan faoliyatini to'xtatadigan "yakuniy mahsulot" sifatida yaratilmoqda. Shuning uchun milliy raqamli til bazasining barqarorligi va davomiyligi ta'minlanmayapti.

Raqamli tilshunoslikning o'zbekcha modeli hali shakllanmaganligi sababli universitetlarda bu yo'nalish bo'yicha maxsus dasturlar yo'q. Oqibatda tilshunoslar raqamli texnologiyani yetarli bilmaydi, dasturchilar til tizimini chuqur anglamaydi. Bu ikki soha o'rtasidagi uzilish o'zbek tilini raqamli maydonga to'liq kiritishga to'sqinlik

qilmoqda. "Til muhandisi" kasbi aynan shu uzilishni yopish uchun zarur, lekin u hali rasmiy kasblar klassifikatorida ham mavjud emas. Holbuki, raqamli infratuzilmani yaratish uchun tilshunos ham texnik fikrlashi, dasturchi ham lingvistik modellarni anglay olishi lozim.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Raqamlashtirish loyihalari ko'pincha qisqa muddatli grantlar asosida boshlanadi, lekin keyingi texnik xizmat ko'rsatish, yangilash, kengaytirish jarayonlari e'tibordan chetda qoladi. Chet el tajribasida, masalan, Britaniya Milliy Korpusi yoki Turkiya TDK raqamli loyihalari hukumatning doimiy moliyaviy qo'llovi bilan ishlaydi. O'zbekistonda har bir loyiha deyarli noldan boshlanadi, bu resurslar takrorlanishiga va natija umumiy samarasizlikka olib keladi. Tizimli strategiya o'rniga qisqa muddatli harakatlar ustuvor bo'lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilining raqamli infratuzilmasini rivojlantirish alohida loyihalar doirasidagi faoliyat bilan emas, balki davlat, ilmiy muassasalar, oliy ta'lim tashkilotlari va texnologik sektor hamkorligiga asoslangan kompleks milliy strategiya orqali amalga oshirilishi lozim. Yagona raqamli til siyosati, ochiq standartlar, barqaror moliyalashtirish va zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimi shakllantirilgan taqdirdagina o'zbek tili global raqamli makonda to'laqonli faoliyat yurita oladigan zamonaviy til infratuzilmasiga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat tilning raqamli kelajagini, balki uning ilmiy, madaniy va texnologik taraqqiyotdagi o'rnini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burada M., Tatu O., Sinu R. Language and Communication in the Digital Age. – Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, 2023. – 378 p.
2. Fuertes-Olivera., Bergenholtz H. e-Lexicography. – London: A&C Black, 2011. – 341 p.
3. Go E., Sundar S.S. Humanizing chatbots: The effects of visual, identity and conversational cues on humanness perceptions // Computers in Human Behavior. 2019. No 97. – P.304-316. doi: 10.1016/j.chb.2019.01.020.
4. McEnery, T. Corpora and Minority Languages. – London: Routledge, 2015. – P. 260.
5. Rehm, G. Language Technology for All. – Berlin: Springer, 2022. – P. 420.
6. Stanciu N., Jager S.D. Digital language // A Multilingual Language in It's Multiple Dimensions. 2024. – 284 p.
7. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский госуниверситет, 2020. – 234 с.
8. Маник С. А. Цифровая лексикография: к вопросу о конце или перспективах // язык в эпоху цифровых трансформаций и развития искусственного интеллекта. Сборник научных статей по итогам международной научной конференции. – Минск, 23-24 октября 2024 г. – С.59-67.
9. Шестакова Л.Л., Кулева А.С. Авторская лексикография в электронно-цифровую эпоху // Terra Linguistica. 2023. Vol.14. No.3. – P.94-113.

Sherali QARSHIYEV,
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
 davlat universiteti akademik litseyi o'qituvchisi*
qarshiyevsherali99@gmail.com

O'ZBEK TILINING NUFUZINI OSHIRISH DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada ona tili va adabiyot ta'limiga oid o'zgarishlar, so'nggi yillarda o'quvchilar va o'qituvchilarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, amalga oshirilgan islohotlar natijadorligi, ta'lim talabgorlarining umumta'lim fanlaridan bilim darajasini aniqlash modellari haqidagi mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *milliy sertifikat, rash modeli, esse, tezis, o'qib tushunish, badiiy tahlil, qofiya.*

Annotation: this article discusses the changes in native language and literature education, the opportunities created for students and teachers in recent years, the effectiveness of the reforms implemented, and considerations regarding models for assessing learners' knowledge levels in general education subjects.

Key words: *national certificate, Rasch model, essay, thesis, reading comprehension, literary analysis, rhyme.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются изменения в преподавании родного языка и литературы, возможности, созданные в последние годы для учащихся и учителей, результаты проведённых реформ, а также вопросы, связанные с моделями определения уровня знаний обучающихся по общеобразовательным предметам.

Ключевые слова: *национальный сертификат, модель Раша, эссе, тезис, понимание прочитанного, литературный анализ, рифма.*

Ma'lumki, til – millatning ko'zgusi, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri sanaladi. Til mavjud ekan, millat mangu yashaydi, tilning tirikligi, aytish mumkinki, millatning, xalqning mavjudligidir. O'zbek tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari, Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"i, Alisher Navoiyning "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", Boburning "Boburnoma" asarlarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoir va shoirlarimiz hamda keyingi davr adiblarimiz ijodida jilolanib turibdi. Shuning uchun ham milliy til millat kelajagi rivojlanishi, taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi omil hisoblanadi.

Bugungi kunda Vatan tayanchi bo'lgan yoshlarning ong-shuurida ona tiliga bo'lgan sadoqat va mehr-muhabbatni rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlash, xalqaro miqyosdagi nufuzini yuksaltirish, fan va ta'lim sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali chet ellik yoshlarning o'zbek tili va adabiyotiga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqdaki, ularni e'tirof etish o'rinlidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni ona tili va adabiyot ta'limining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligining dastlabki bosqichi o'laroq xizmat qilgan bo'lsa, Yangi O'zbekistonda bu muhim jarayonning mantiqiy davomi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 18-apreldagi PQ-28-29-son "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish

to'g'risida", 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida o'zbek tili va adabiyotining eng oliy milliy qadriyat ekanligiga urg'u berilgan. Shuningdek, 2025-yil 20-oktabrda qabul qilingan PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida" 2020-yil 12-oktabrdagi 646-sonli qarori bu borada olib borilayotgan islohotlarning yangi to'liqlini hosil qildi. Natijada o'zbek tili va adabiyoti millat ma'naviyati, asliyat ruhiyatini belgilovchi eng oliy qadriyat sifatida talqin etila boshladi.

Ona tili va adabiyot fanidan milliy test tizimi ishlab chiqildi. Unda ma'lumotlarni yodlash qobiliyati emas, mantiqiy, kreativ fikrlash, lingvistik va nutqiy rivojlantirish ko'nikmasi xalqaro testologiya me'yorlari negizida shakllantirilib, amaliyotga tatbiq qilindiki, buning natijasida nafaqat yoshlar, balki ko'p yillik hayotiy va kasbiy tajribaga ega o'qituvchilar orasida ham o'z ustida ishlash, kitobxonlik to'liqlini paydo bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Milliy test tizimida imtihon topshirib, tegishli natijani qo'lga kiritgan talabgor qanday imtiyozlarga ega bo'ladi? Agar u abituriyent bo'lsa, OTMga kirish imtihonida uning natijasi quyidagicha baholanadi:

Abituriyent milliy sertifikat imtihonida qatnashib, C daraja yoki undan yuqori natijani qo'lga kiritrsa, ona tilidan majburiy 10 ta test topshirig'idan ozod qilinadi, ya'ni test ishlamasdan 10x1,1=11 ballni qo'lga kiritadi. Milliy sertifikatdan Oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonida foydalanish istagini bildirsa, asosiy blokdan beriladigan eng yuqori ballning o'z sertifikatidagi foiziga mos tarzda ballni oladi. Aytaylik, abituriyentning ona

tili va adabiyot fanidan C, C+, B, B+ darajali sertifikati bo'lsa, majburiy 10ta ona tili test topshirig'ini ishlamasdan 11 ballni qo'lga kiritadi, ona tili va adabiyot fani birinchi va ikkinchi blok bo'lgan yo'nalishlar uchun 93 hamda 63ballning 69,23–98,46 foizini tashkil etadi. Bu esa abituriyent asosiy fandan beriladigan 30ta test topshirig'ining 20 tadan 29 tagacha bo'lgan to'g'ri javoblar natijasini qo'lga kiritishini ko'rsatadi.

Talabgor milliy test tizimida A, A+ sertifikatlariga ega bo'lsa, ona tilidan majburiy blokda savollardan 11 ballik natija bilan ozod qilinishi hamda asosiy blokdan 100 foizlik, ya'ni ona tili va adabiyot birinchi blok bo'lsa, 93 ball, ikkinchi blok bo'lsa, 63 ballik natijani qo'lga kiritadi. Imtixon jarayonida ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlarini ishlamaydi.

Agar milliy sertifikatga ega talabgor oliy ta'limning doktoranturasida o'qish istagini bildirsa, ona tili va adabiyot fanidan imtixon topshirmasdan 100 foizlik natijani qo'lga kiritishi mumkin.

Xalq ta'limi va professional ta'lim (kollej, akademik litsey, texnikum)da faoliyat olib borayotgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari B+, A, A+ darajadagi milliy sertifikatga ega bo'lishsa, ularning ish haqiga 50 foiz miqdordagi qo'shimcha haq to'lanishi nizom asosida belgilangan. Ammo milliy sertifikat natijasini baholash va inobatga olishda ayrim kamchiliklar ham bordek. Masalan, o'quvchilarga OTMga kirish imtixonida B+ darajadagi sertifikat uchun maksimal ball berilmaydi, balki A va A+ darajadagi sertifikat olish talabi qo'yilgan. Bu esa mazkur sohada o'quvchilar orasida turli bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Ammo yangilangan milliy sertifikat tizimining joriy qilinishi nafaqat milliy test tizimini bir pog'ona rivojlantirdi, uni xalqaro testologik me'yorlarga moslashtirdi, balki jamiyatimizda yozma nutqni ravnaq toptirish yo'lidagi katta tashabbusni ilgari surdi. Natijada bugunning yoshlari orasida esselashgan tafakkur ravnaqini hosil qildi. Kishilik jamiyatidagi dolzarb mavzularda publitsistik matn tuzish ommalashdi. Bunda essening "bir mavzu yuzasidan ikki xil qarashdan qaysi biriga nima uchun qo'shiladi yoki qo'shilmaydi, degan savolga javob beruvchi "muhokama esse" yozish ko'nikmasi shakllanmoqda. Turli yosh toifasidagi talabgorlarga "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ni bilishi, tushunishi, qo'llay olishi, tinish belgilarining vazifasi va ahamiyatini bilishi, tushunishi, lingvistik me'yorlar asosida qo'llay olishi, tilda

mavjud leksik birliklar va ularning leksik-semantik xususiyatlarini bilishi, tushunishi, qo'llay olishi, til birliklari (leksik, grammatik vositalar)ning uslubiy xususiyatlarini tushunishi, qo'llay olishi, tahlil qila olishi, so'zlarning morfologik xususiyatlari, ularning nutqdagi ahamiyatini tushunishi, qo'llay olishi, qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra barcha turlarini matnda to'g'ri ishlatishi, farqlashi, tahlil qila olishi, so'zlarni mazmun va grammatik jihatdan to'g'ri bog'lashi, gap bo'laklari, ularning grammatik-uslubiy xususiyatlari va nutqdagi ahamiyatini bilishi, tushunishi, qo'llay olishi, tahlil qila olishi, sodda va qo'shma gaplarning mazmuniy va grammatik xususiyatlarini tushunishi, qo'llay olishi, tahlil qila olishi, barqaror birikmalarni mavzu (vaziyat)ga muvofiqlarini tanlay olishi, ulardan dalil sifatida foydalanishi, stilistik me'yorlar asosida ularni anglashi, qo'llay olishi asosiy talablar sifatida qo'yiladi. Bu talablardan ko'rinadiki, yozma nutqni to'g'ri shakllantirish uchun tilshunoslikning grammatika, orfografiya, punktuatsiya, leksikologiya, paremiologiya va stilistika kabi eng muhim bo'limlarini mukammal bilish zarurati mavjud. Demak, yozma nutqni shakllantirish uchun lingvistik me'yorlarning nazariyasini ham o'rganish talab etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda o'qituvchi va o'quvchilar, umuman, talabgorlar milliy sertifikatlash tizimida yozayotgan esselar badiiy adabiyotdagi esselardan farq qiladi. Ular adabiy-nasriy esse yozmaydi. Adabiy-nasriy esselar kompozitsiyasi nisbatan erkin bo'ladi, yozma savodxonlik darajasini aniqlashda yoziladigan esselar kompozitsiyasi qat'iy qoliqlarga ega. Biroq ularning umumiy jihatlari ham bor. Har ikkisida ham muallifning fikri, munosabati, qarashlari, taassurotlaridagi subyektiv, ya'ni shaxsiy qarash va farazning ustuvor ekanligi ta'minlanadi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, o'quvchilarga yaratib berilayotgan bunday imkoniyatlar o'z samarasini berib, oliy ta'lim muassasalariga kirish imtixonlarida muddatidan oldin yuqori ballarni to'plashga yordam bermoqda. O'ylaymizki, mazkur sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bu bilan to'xtab qolmaydi. Yoshlarimiz ham yaratib berilayotgan imkoniyatlardan to'laonli foydalanib, mustaqil yurtimizning turli sohalari uchun yetuk kadrlar sifatida shakllanib boradi. Bularning barchasi esa o'zbek tilining nufuzini oshirish davlat siyosati darajasida ekanligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мадаев О. Иншо қандай ёзилади? – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
2. Йўлдошев М., Бадий матнинг лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.
3. Долимов С., Аъламова М., Аъзамов С., Иншо ва диктантни қандай ёзиш керак? – Тошкент, 1991.
4. Долимов С. Таълимий баён ва иншо. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968.
5. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O'zbek tili me'yorlari(punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. 232-b.
6. Qarshiyev K.A., Kobilov N.O'. Esse yozish qoidalari. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2025. 86-bet.
7. <https://oriftoilib.uz/oqituvchiga-ham-oquvchiga-ham-birday-muhim-esse-qanday-yoziladi/>
8. Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida (<https://lex.uz/docs/-5044726>)

Ibrohimjon ZUFAROV,

“O‘zbekiston” teleradiokanali Andijon viloyati bo‘yicha muxbiri

E-mail: zufarov23@mail.ru

SUXANDON NUTQIY MAHORATINING KASBIY MEZONLARI

Annotatsiya: maqolada nutq madaniyati va notiqlik san’atining tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi asosida tahlil qilingan. Abu Rayhon Beruniy hamda Abu Nasr Forobiy qarashlari misolida til, grammatika va mantiqning nutq madaniyatidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *nutq madaniyati, notiqlik san’ati, suxandon, grammatika, mantiq, kommunikatsiya.*

Аннотация: в статье рассматриваются исторические основы культуры речи и ораторского искусства на основе научного наследия восточных мыслителей. На примере взглядов Абу Райхана Беруни и Абу Насра Фараби раскрывается значение языка, грамматики и логики в формировании речевой культуры.

Ключевые слова: *культура речи, ораторское искусство, диктор, грамматика, логика, коммуникация.*

Annotation: the article examines the historical foundations of speech culture and oratory based on the scholarly heritage of Eastern thinkers. Drawing on the ideas of Abu Rayhan Beruni and Abu Nasr Farabi, it highlights the role of language, grammar, and logic in developing effective speech.

Key words: *speech culture, oratory, broadcaster, grammar, logic, communication.*

Kirish. Nutq madaniyati tushunchasi Sharqda qadimdan “nutq odobi”, “muomala madaniyati”, “notiqlik san’ati”, “so‘z odobi” kabi nomlar bilan yuritilib kelingan va olimlar, ziyolilarning diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So‘fi Olloiyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ siymolarning asarlarida nutq odobi, so‘zlashish madaniyati, nutqiy ta’sir masalalariga e’tibor qaratib kelingan. Ayniqsa, rostgo‘ylik, xushmuomalalik, mantiqiylik qadrlangan.

Televideniye va radio ixtiro etilmagan paytlarda suxandonlik maqomi juda og‘ir kechgan. Usta voizlar, badihago‘ylar, qissaxonlar deb atalgan notiqlar toifasining insonlar bilan muloqotida juda ko‘plab to‘siqlar bo‘lgan.

Qamrovning va masofaning cheklanganligi, muloqotlarning ko‘pincha tasodifiy bo‘lishi, nutqiy chiqishlarda diniy fonning kuchliligi, jamiyat qonunlarining ayovsizligi (ya’ni notiqning erkin emasligi, notiqlar faoliyatining doimiy ravishda yuqori tabaqa tomonidan nazoratda tutilishi) va hokazolar notiqlik san’atida jiddiy muammolarni keltirib chiqargan. Shunga qaramasdan, el ichidan mahoratli nutq egalari yetishib chiqqan.

Mahoratli notiqlar haqida Abu Rayhon Beruniy shunday degan edi: “U dangasalikni tashlab, oromga berilmasdan, gap bilan bog‘lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she’r o‘lchovi) va mantiqni (logika) mutolaa qilganida edi, so‘zning (nutq) nasr va nazmga ajralishini bilgan bo‘lardi [1]” Olimning aytgan gaplari bugunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Suxandon o‘z ona tilisining grammatik qoidalaridan mukammal xabardor bo‘lishi lozim. Shundagina u o‘zi o‘qiyotgan matn mohiyatini to‘la anglab yetadi. Aks holda, uning o‘rgatilgan to‘tiqushdan farqi qolmaydi.

Ulug‘ alloma Abu Nasr Farobiy notiqlik san’atida til, grammatika va mantiq muhim o‘rin tutishini eslatadi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, nutqiy qoidani qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘zlash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi–jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman. Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan nomlarni qanday tartibga solishni hamda

narsalar (substansiya) va hodisalarning (aksidensiya) joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir: ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi.

Muhokama va natija. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri, nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz [2].

Zamonaviy suxandon ham til, grammatika va mantiq ilmini puxta o‘zlashtirishi lozim.

Ibn Sinoning fikricha: “Kishi nutqining kuchi shundaki, u boshqa kishilarga ham ta’sir qila oladi”. Suxandonning nutqi ham shunday. U o‘zi irod qilayotgan nutq orqali millionlab muxlislarga ta’sirini o‘tkazadi. Tarixiy faktlarga qaraganda, ikkinchi jahon urushi yillarida odamlar mashhur diktator Levitaning ovozi eshitish uchun tunlar uxlamay kutib o‘tirishgan ekan.

Kaykovusning quyidagi fikrlari bugungi suxandonlarga ham tegishlidir. “Agar so‘zni va ilmni yaxshi bilsang ham hech bir so‘zni buzma, to‘g‘ri ta’rifla. So‘zni bir xil gapir. Ko‘p bilu, oz so‘zla, kam bilsang ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlarki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi daho aqli odam bo‘lsa ham xalq uni aqlsiz deydi... [3]”

Alisher Navoiy notiqlikka juda katta e’tibor bergan. Uning birgina “To‘tiyu shorik (mayna) agar notiqdurur, Har biriga o‘zga bir mantiqdurur” degan misrasi va’zxon – notiqqa berilgan yuksak bahodir.

Xalqimiz ichidan Xo‘ja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Muin voiz, Husayn Voiz Koshifiy singari usta notiqlar yetishib chiqqani haqida tarixiy ma’lumotlar bor [4].

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalar suxandonlikka ham tegishlidir.

Muloqot xulqi talablariga rioya qilish ommaviy axborot vositalari xodimlari, xususan, teleboshlovchilar uchun juda muhim markaziy ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu borada zamonaviy tadqiqotchilar orasida turlicha yondashuvlar mavjud. N. Mahmudov ta’kidlaganidek, “Aniqki, nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir.

Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biridir... Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik (rang-baranglik), soflik kabi bir qancha sifatlar mavjud, Ana shu kommunikativ sifatlarining barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi." [5] Zero, ana shunday notiqlik san'ati, nutq madaniyati boshqa soha vakillariga qaraganda, televideniye tizimida eng muhim va yetakchi omil hisoblanadi. Xususan, teleko'rsatuvlarning tayanch shaxsi sanalgan suxandon nutqida notiqlikning eng nozik jihatlari o'z aksini topmog'i darkor. Hozirgi axborot asrida, ona tilimiz rivojiga turli tomonlardan sun'iy to'siqlar qo'yilayotgan bir davrda, suxandonlik maqomi ibrat darajasiga ko'tarilmog'i talab etilmoqda.

Suxandonning bitta ko'rsatuv yoki eshittirish paytida chiroyli talaffuz qilgan bitta so'zi o'quvchilarga butun o'quv yili davida berilgan bilim va malakadan afzal bo'lishi lozim.

D.Rustamovning fikriga ko'ra, antroposentrik tamoyillarning faollashuvi natijasida ma'lum bir xalqning muloqot me'yorlari va an'analari ushbu xalqning nutqiy faoliyati tavsifini ifodalashi nuqtayi nazaridan **muloqot xulqi** tushunchasi shakllandi. Olim I.A.Sternin fikrlariga tayangan holda muloqot xulqi me'yorlarini quyidagicha tasniflaydi:

- 1) Umum madaniy me'yorlar;
- 2) Situativ me'yorlar;
- 3) Jamoaviy me'yorlar;
- 4) Individual me'yorlar;
- 5) Umuminsoniy me'yorlar. [6]

"Muloqot xulqi" tushunchasi shaxsning aql-idrok xususiyatlari ko'rsatkichi sifatida zarur va muhim shartlardan biri bo'lib, nutqiy faoliyat uchun mezonlar yig'indisi deyish mumkin. T.G.Vinokurning fikricha, "muloqot xulqi insonning jamiyatdagi tashrif qog'ozi sifatida lingvistik va ekstralingvistik omillarning muntazam o'zaro munosabatlarini namoyon etadi." [7]. Buni suxandon misolida ko'rish mumkin. Suxandonning muloqot nutqi butun millat uchun ko'zgu, ibrat sanaladi.

R.V.Pazuxin muloqot xulqini quyidagicha tavsiflaydi: "...so'zlashuvchilar jamoasining muayyan sharoitlardagi ma'lum bir ijtimoiy tuzumda lingvistik mavjudligining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nutqiy harakatlaridir." [10] Darhaqiqat, suxandonni davr tarbiyalaydi, millat suxandonni tanlaydi, eshittirish yoki ko'rsatuv kursiga o'tqazib qo'yadi. Suxandon esa muayyan jamiyatning bir vakili sifatida o'z nutqida shu jamiyat tilining eng maqbul jihatlari o'z nutqida ko'rsata olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beruniy.Tanlangan asarlar.III tom.—Toshkent:Fan,1982-yil.
2. Abu Nasr Farobiy.Risolalar. —Toshkent:Fan,1975.54-bet
3. Kaykovus.Qobusnoma.—Toshkent: Meros,1992.61-bet.
4. N.Jiyanova,O.Mo'minova,S.Maksumova.Nutq madaniyati (oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma).2-kitob). —Toshkent, 2016. 51–53-bet.
5. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. — Toshkent: Ma'naviyat,1999. 45-bet
6. Rustamov D.A. Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik talqinlari hamda zamonaviy konsepsiyalari: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. — Andijon, 2021. 22-bet
7. Teshaboyeva D.Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi(O'zbekiston Respublikasi OAV misolida): Filol.fan.d-ri. ...dis.avtorefer. —T., 2012.12-bet.

I.P.Gray.I.Kantning fikrlariga tayanib, muloqot muvaffaqiyatini ta'minlovchi postulatlarining to'rt toifasini belgilaydi:

1. Miqdor qoidasi — ifoda planida uzatiladigan ma'lumotlar joriy maqsad uchun zarur bo'lgan miqdorda bo'lishi kerak;
2. Sifat darajasi — uzatilayotgan axborot imkoni boricha, haqqoniy bo'lishi kerak;
3. Muvofiqlik—muloqot mavzuga mos kelishi kerak;
4. Aniqlik — ifodada suhbatdosh uchun tushunarsiz narsalar bo'lmasligi kerak. [8]

Bu jihatlarning har biri suxandon nutqida o'z aksini topgan taqdirdagina u ishtirok etgan eshittirish yoki ko'rsatuvdan naf bo'ladi. Aks holda, butun bir jamiyat, minglab insonlar zarar ko'rish mumkin.

D.Teshaboyevaning "Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O'zbekiston Respublikasi OAV misolida)" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida radio, televideniye va gazeta tilining zamonaviy konsepsiyasi yoritilib, ularning o'ziga xosligi, funksional va kommunikativ uslubiy xususiyatlari, milliy tillarda millatlararo sifatlarining OAV yordamida shakllanishi madaniyat ildizlari va milliy mentalitet bilan bog'liqligi ochib berilgan. Shuningdek, gazeta tilining sotsio-psixologik va funksional-kommunikativ aspektlari.

OAV tarkibiga nodavlat sektorning kirib kelishi natijasida adabiy til me'yorlariga amal qilish, janr imkoniyatlari borasidagi o'zgarishlar, axborot ta'sirchanligini oshirish maqsadida erkin ijodiy muhitning yangicha talablari kuchayishi matbuot tili va uslubining zamonaviy tendensiyalari shakllanishiga olib keldi. Bu esa OAV tili va uslubiy xususiyatlarini yangicha talqinlar asosida tadqiq qilishni taqozo etishi, tabiiy.

I.P.Smirnova [9] teleboshlovchilik o'z ustida ko'p ishlash mahoratiga ega bo'lishni talab qilishini ta'kidlar ekan, ularning o'z kasbiy kompetensiyalari, kommunikativ qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishlari teledasturlar samaradorligining asosiy mezon deb hisoblaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot teleboshlovchining ekrandagi professional faoliyatini psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilib, samarali telemuloqotni ta'minlovchi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan. Unda teleboshlovchining kasbiy kompetensiyasi, muloqot jarayonining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning faoliyatini baholash mezonlari tizimlashtirilgan. Natijada telemuloqotning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.



TILSHUNOSLIK



Abror RAXIMOV,
Zarved universiteti Xorijiy filologiya kafedrası mudiri
PhD, dotsenti
Orcid: 0000-0002-0594-5535
e-mail: stipendiat.abror@gmail.com



KONVERSIV NOMINATSIYA VA UNING LINGVOKOGNITIV ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada konversiv nominatsiya va uning lingvokognitiv asoslari tahlil qilinadi. Konversiya til birliklarining morfologik, sintaktik va semantik o'zgarishlari asosida yuzaga keladigan nominativ jarayon sifatida yoritiladi. Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida konversiyaning so'z yasash tizimidagi o'rni hamda uning kognitiv mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, konversiv nominantlarning $V \rightarrow N$ va $Adj \rightarrow N$ modellar orqali hosil bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari konversiyaning til tejamkorligi, nominativ faoliyat va konseptual idrok jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: konversiya, konversiv nominatsiya, lingvokognitiv tahlil, so'z yasashi, substantivatsiya, $V \rightarrow N$ modeli, $Adj \rightarrow N$ modeli, nominativ jarayon.

Аннотация: в данной статье рассматриваются лингвокognitive основы конверсивной номинации. Конверсия анализируется как один из способов словообразования, возникающий на основе морфологических, синтаксических и семантических изменений языковых единиц. Особое внимание уделяется особенностям функционирования конверсии в английском и узбекском языках. Также анализируются модели образования конверсивных номинантов $V \rightarrow N$ и $Adj \rightarrow N$. Результаты исследования показывают связь конверсии с процессами номинации, языковой экономии и когнитивного осмысления действительности.

Ключевые слова: конверсия, конверсивная номинация, когнитивная лингвистика, словообразование, субстантивация, модель $V \rightarrow N$, модель $Adj \rightarrow N$, номинативный процесс.

Annotation: this article examines the linguocognitive foundations of converse nomination. Conversion is analyzed as a word-formation process that occurs through morphological, syntactic, and semantic transformations of linguistic units. The study focuses on the role of conversion in the word-formation systems of English and Uzbek. Particular attention is paid to the formation of converse nominants through the $V \rightarrow N$ and $Adj \rightarrow N$ models. The findings demonstrate that conversion is closely related to nominative activity, linguistic economy, and cognitive processes in language.

Key words: conversion, converse nomination, cognitive linguistics, word formation, substantivation, $V \rightarrow N$ model, $Adj \rightarrow N$ model, nominative process.

Kirish. Konversiya aslida iqtisodga oid termin hisoblanib, pul birliklarining qiymat muqobilligi, ya'ni konvertatsiyasini kelishuv asosida belgilash ma'nosidagi "conversio" so'zidan olingan [Zaxarenko va b. 2008: 249] bo'lib, 1891-yilda G.Suit tomonidan til birliklarning sintaktik vaziyat taqozosiga ko'ra kategorial ko'chish va morfologik-sintaktik muqobillash asosida so'z yasashiga olib keladigan hodisalarni tadqiq qilish maqsadida tilshunoslikka olib kirilgan [Zagoruyko 1961: 5-7]. Shu asosda konversiyaning mohiyatini va ta'sir doirasini belgilash borasidagi izlanishlar ham so'z yasashi sohasi bilan bog'liq holda amalga oshirish an'anasi shakllanadi. Xususan, A.I. Smirnitkiy [Smirnitkiy 1998: 83], I.V. Arnold [Arnold 2012: 129], L. Blumfild [Blumfild 1968: 260], N.M. Shanskiylar muallifligida chop etilgan manbalarda [Shanskiy 2016: 263] konversiya so'z yasash usullaridan biri sifatida ta'riflanadi.

O'tgan asrning ikkinchi yarimidan keyin konversiya transpozitsiya bilan bog'liq holda talqin qilina boshlaydi. Xususan, V. Adams tomonidan konversiyaning to'liq (total conversion) va sintaktik transpozitsiya asosida voqelanadigan to'liqsiz (partial conversion) turlarga ajratilishi [Adams. 1987: 16], M.V.Nikitin'ning ishida konversiyaning "transpozitiv va leksik" turlarining qayd etilishi [Nikitin 2007: 516],

L.A.Teleginning nomzodlik dissertatsiyasida substantivatsiya, adyektivatsiya, adverbializatsiya va verbalizatsiya hodisalarining "affiksiz transpozitsiya" sifatida, turli hajmdagi sintaktik qurilmalarning qo'shma so'z maqomiga xoslanishi orqali namoyon bo'ladigan transpozitsiyani "metamorfik transpozitsiya" sifatida tadqiq qilinishi ushbu an'anadan darak beradi [Telegin. 1992].

Shuningdek, L.N. Murzin va N.D. Golevlar leksik konversiyaga derivatsion nuqtai nazardan baho berishgan holda, "semantik konversiya" sifatida talqin qilishi [Murzin. 1984: 47] hamda Laurie Bauer, Randolph Quirk, Geoffrey Leach, Rodney Huddleston, Salvador Valera, Bram Balteiro [Bauer. 1983, 2003, 2007; Quirk et al 1986; Bauer and Huddleston 2002; Bauer and Valera. 2005; Balteiro. 2007] kabi ingliz tilshunoslari tomonidan chop etilgan risolalarda ham so'z yasash vositasi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, mazkur an'anani yaqin yillarda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalarida ham ko'rish mumkin [Pospelova 1981; Stepanova 1987: 11; Asanova 2007; Almetova 2011].

Muhokama va natijalar. O'zbek tilshunosligida konversiyani o'rganishga bag'ishlangan alohida izlanishlar nisbatan kamchilikni tashkil qiladi. Xususan, G'.Abdurahmonov,

M.Mirtojiyev hamda T.Q.Turdiboyev kabilarning ishlari shular jumlasidandir [Abdurahmonov 1950; Mirtojiyev 1963; Turdiboyev 1996]. Konversiyaning voqelanish ko'lamini va ilmiy nazariy asoslari haqidagi muhim ma'lumotlar A. G'ulomovning "O'zbek tili grammatikasi"ga "Konversiya" nomi ostida kiritilgan mavzuda o'z aksini topgan [A. G'ulomov 1975: 53].

Ingliz va o'zbek tilshunosligidagi bunday tafovut O.D. Meshkovning: "Konversiya u yoki bu darajada barcha tillarga xos hodisa bo'lsa ham, ingliz tilida u alohida ahamiyatga egadir. Buning sababi mazkur tilning maxsus morfologik ko'rsatkichlarga ega emasligidir. Ana shu holat so'z yasashida konversiyaning nisbatan alohida mavqe kasb etishiga ham bog'liqdir", – degan mulohazasi bilan ham bog'liq [Meshkov 1976: 248]. Ingliz tiliga oid manbalarda konversiyaning faol yasash usullaridan biri sifatida e'tirof etilishi, yasashning morfologik va kompozitiv usullari umumiy bo'lgan o'zbek tilida so'z yasashning bu usuli kamunum vositalar qatorida qayd etilishi ham shundan darak beradi [Hojiev 1989: 5-8].

A.I. Smirnitkiyning guvohlik berishicha, ingliz tilida "lufu" lyubov – "lufian" lyubit; "broc" oblomok – "brocian" razdavlivat, prichinyat bol/vred kabi konversivlar zamonaviy shakllar bilan qiyoslanganda mazkur til tarixida morfologik tipning yetakchiligi, uning shakldoshlikka olib keladigan semantik-grammatik tipi esa kamunumligi ko'zga tashlanadi [Smirnitkiy 1998: 167]. Yana bir manbada qayd etilishicha, "XIII asrga kelib, o'rta ingliz tilida flektiv tizimning zaiflashishi natijasida ot va fe'l turkumiga mansub so'zlarga xos morfologik ko'rsatkichlar yo'qolgan va shu bois konversiya zamonaviy tilda shakldoshlikka olib keltiruvchi vositasiga aylangan" [Sweet 2000: 39].

Turkiy va o'zbek tillari tarixiga oid izlanishlarda esa konversiya leksik omonimiyaga olib keluvchi faol vositalardan biri bo'lganligi qayd etiladi. M.M. Mirtojiyevning "konversiya hali so'z hosil qilishning boshqa yo'llari dunyoga kelmasdan burun, turkiy tillar lug'atini boyitishning bosh omili, so'z turkumlarini tub so'zlar bilan boyitish manbai sifatida xizmat qilgan"ligi haqidagi mulohazasi shular jumlasidandir. Ushbu manbada fikr dalili sifatida: to'y (ot va fe'l), shish (ot va fe'l), tin (ot va fe'l), ko'ch (ot va fe'l), tot (ot va fe'l), ko'ch (ot va fe'l), ko'r (fe'l va ot), ko'k (sifat va ot), chuqur (sifat va ot), qo'sh (sifat va ot), yumaloq (sifat va ot) singari semantik-grammatik konversivlar keltiriladi [Mirtojiyev 2014: 29].

Keltirilgan fikrlar ingliz va o'zbek tillari tarixida konversiya bir-biriga zid taraqqiyot yo'lini bosib o'tganidan darak beradi. Xususan, ingliz tili tarixida formativ konversiyaning zaiflashishi semantik-grammatik tipning yetakchilik qilishiga zamin yaratgan bo'lsa, turkiy va o'zbek tillarida aksincha, analitik vositalarning zaiflashishi morfologik va sintaktik konversiyalarning ustuvorligini ta'minlagan. Konversiyaning ikki tilda o'rganilishdagi miqdoriy tafovutning sabablaridan biri ushbu ziddiyat bilan ham muayyan darajada bog'liq. Konversiyaga oid ilmiy izlanishlarning bir guruhida unga xos derivatsion mohiyat substantivatsiya, adyektivatsiya, adverbializatsiya va verbalizatsiya kabi turkumlararo ko'chish orqali belgilanadi. Ism va belgi kategoriyalarining konversiv munosabatini aks ettiruvchi ushbu hodisalardan

substantivatsiya (lot. substantivum) alohida o'rin tutadi. Tilshunoslikda ushbu hodisa haqida uning har biri tilda o'ziga xos ichki qonuniyatlar asosida voqelanishi va har xil nuqtayi nazarlardan yondashish asosida munosabat bildiriladi.

Jumladan, V.V. Buzarovning fikriga ko'ra, atributiv birikmalar tarkibidagi tayanch otning ellipsisga uchrashi va birikmaga xos nominativ ma'noning kompressiv holda aniqlovchiga ko'chirilishi natijasida hosil bo'ladigan a nation (inhabitant), a private (soldier), a relative (person), a dear (girl/boy/woman), a daily (newspaper) kabi substantiv nominantlar lisoniy tejamlilikning yorqin namunasini aks ettiradi [Buzarov 1997: 16].

I.K.Shukurovning qayd etishicha, "Yaxshi topib gapirar" maqolidagi "yaxshi" leksemasi nutqiy holatdan kelib chiqib, gapda ellipsiyaga uchragan "odam" so'zi sememasini ham, uning vazifasini ham anglatib kelgan, lekin o'zi bitta ham yangi semaga ega bo'la olmagan. Shu bois, konversiya ko'chma ma'no hosil bo'lishi bilan aloqasiz hodisa"dir [Shukurov 1975: 66-69].

A.A.Baygirinaning fikriga ko'ra, turkiy tillarda so'z yasashining affikssiz usuli sifatida talqin qilib kelinadigan konversiya ko'p bosqichli bo'lib, dastlab situativ-kontekstual ko'chishga asoslangan okkazional substantivatlar, keyingi bosqichida esa ushbu nutqiy hosilalarning tilda barqarorlashgan muqobillari hosil qilinadi [Baygirina 2007: 8].

Ingliz tilshunosligida bu masalaga substantivatsiyaning to'liq va to'liqsiz shakllarini farqlash asosida munosabat bildiriladi. Unga ko'ra, to'liq forma o'z asosi bilan shakldosh bo'lgani holda, otga xos barcha semantik-grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi: to dig → a dig (qazimoq-qazishma), a bottle → to bottle (butilka – butilkada saqlamoq). To'liqsiz shaklda esa bu ko'rsatkichlarning chegaralanganligi, asos strukturadan o'ziga xos fonetik va morfologik belgilar asosida farqlanishi hamda ular ko'pincha birlik shaklda jamlik ma'nosini ifodalashi bilan xarakterlanadi: rich → the rich (boylar), blind → the blind (ko'rlar) [Quirk et al. 1986: 1558-9; Valera. 2004: 20].

Keltirilgan mulohazalar konversiya bo'yicha olib borilgan izlanishlarda uning lisoniy mohiyatini belgilashda tilning morfologik, leksik-semantik va sintaktik sathlari bilan bog'liq: a) o'z asosi bilan shakldoshlikda namoyon bo'ladigan semantik-grammatik konversivlar, b) asos strukturaning so'z yasovchi affiks ta'sirida konversiv ko'chishi natijasida hosil bo'ladigan formativ konversivlar, v) atributiv birikmalar tarkibidagi aniqlanishning ellipsisga uchrashi va aniqlovchining otlashishi natijasida hosil bo'ladigan konversivlar tavsifiga e'tibor qaratilganidan darak beradi.

A.I.Smirnitkiyning "Конверсия есть такой вид словапроизводства, при котором словообразовательным средством служит парадигма слова" [Smirnitkiy 1998:71-72], – degan ta'rifida ushbu umumiy qoida "so'z paradigmasi" orqali qayd etiladi. Shuningdek, E.N. Stepanovanning konversiya so'z formalariga xos paradigmatic imkoniyat va grammatik muvofiqlik (grammaticheskaya sochetaemost) asosida voqelanishi haqidagi fikri [Stepanova 1987:11], M. S. Asanovanning ishida "morfologik paradigma"ni [Asanova

2007:12], N.M. Almetova esa “assotsiativlik”ni ana shunday vosita sifatida e’tirof etishi [Almetova 2011] ham shundan darak beradi.

Ushbu ishlarda qayd etilgan paradigmatic vositaning konversiv jarayondagi ishtirokini inkor etmagan holda, mohiyatan keng va umumiy bo’lgan ushbu vositani ism va belgi kategoriyalariga mansub nominantlar konvertatsiyasi bilan bog’liq diskursiv-sinergetik jarayonni aniq aks ettira olmasligini ham e’tirof etish lozim. Shu bois, konversiyaning lingvokognitiv asoslarini belgilashda M.V.Nikitin tomonidan tavsiya qilingan “asimmetrik implikatsiya”ga [Nikitin 2007: 415] tayanishni lozim topdik. Binobarin, mazkur termin konversiyani asimmetrik tabiatli ism va belgi kategoriyalari ishtirokida sodir bo’lishi haqida ma’lumot olish imkonini yaratish bilan birga, ularga xos semantik ko’rsatkichlarni bitta lisoniy belgida implikatsion uyg’unlashuviga ham ishora qila oladi.

Kognitiv qobiliyatga xos diskursiv-sinergetik mexanizm bog’liq holda vujudga keladigan til ijodkorligi va lisoniy tejamkorlikka olib keluvchi bunday implikatsion uyg’unliklar inson lingvokognitiv faoliyatiga xos tipik xususiyatlardan biridir. Nutq ontogenezigina oid diffuz nomlarning nom-nutq

vazifasida qo’llanishi, ularning narsalardan tashqari belgi kategoriyalarini nomlashda ham ishlatilishi shundan darak beradi.

O’z navbatida ushbu mulohazalar diskursiv-sinergetik mexanizmning dastlabki tatbig’i moddiy narsalarni idrok etish va ulardan maqsadli foydalanish ko’nikmalarining shakllantiruvchi simmetrik implikatsiya vositasida ega bo’lgani holda, borliqning kategorial manzarasini tasnifiy idrok etish imkonini yaratadigan asimmetrik implikatsiyaning ishga tushishi uchun zamin yaratishini qayd etish imkonini ham beradi. Til jamoasi sinovidan o’tgan “universal predmet kod” (UPK) deb yuritiladigan stereotip tuzilmalar bilan bog’langan holda, tom ma’noda ikkilamchi nominativ faoliyatning ishtirokchisiga aylanishda ham kognitiv fazada shakllangan bilim va tajribalarni o’zida mujassamlantiruvchi diffuz nomlar “ko’pri” vazifasini o’taydi.

Bunday mulohazalar konversiya haqidagi keyingi izlanishlarda uning boshqa nominativ vositalar bilan konfigurativ hamkorligi masalasini alohida o’rganish maqsadga muvofiqligini ko’rsatadi. Shuningdek, keltirilgan mulohazalar bilan har ikkala tildagi konversiv nominantlar ko’lamini to’la qamrab oladi, degan xulosaga kelib bo’lmaydi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adams V. An Introduction to Modern English Word-formation. Longman. 1987. 240 pages. ISBN-10: 0582550424; ISBN-13: 978 0582550421
2. Quirk, Randolph, Sidney Greenbaum, Geoffrey Leech and Jan Svartvik. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman; 1 edition (February 25, 1989). – 1779 pages.
3. Sweet Henry. New English Grammar Part I. Adamant Media Corporation (December 5, 2000). – 536 p.
4. Альметова Н. М. Когнитивный анализ направления мотивации при конверсии: диахронический аспект: Дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2011.- 166 с.
5. Асанова М. С. Конверсия как способ словообразования: на материале английского и карачаево-балкарского языков. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нальчик, 2007. – 24с.
6. Байгирина А.А. Словообразование по конверсии в башкирском языке. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2007.- 24с.
7. Бузаров В.В. Субстантивация в свете теории языковой экономии // Уровни лингвистического анализа в синхронии и диахронии. – Пятигорск, 1997. – 391 с.
8. Захаренко Е. Н., Комарова Л. Н., Нечаева И.В. Новый словарь иностранных слов: свыше 25 000 слов и словосочетаний. – М.: ООО ИФ «Азбуковник», 2008. – 1040 с.
9. Мешков О. Д. Словообразование современного английского языка. – М.: Наука, 1976. – 248 с.
10. Миртожиев М. Ўзбек тилида лексик омоним манбалари. – Т.: Фан, 2014. 128 б.
11. Мурзин Л.Н. Основы дериватологии. Конспект лекций. – Пермь: Перм. ун-т, 1984. - 56 с.
12. Никитин М.В. Курс лингвистической семантики. Учебное пособие. 2-е издание, дополненное и исправленное. — СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2007. — 819 с.
13. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка – М.: Московский Государственный Университет, 1998. - 260 с.
14. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка – М.: Московский Государственный Университет, 1998. - 260 с.
15. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. – М.: Просвещение, 1975. — 271 с.
16. Степанова Е.Н. Структурно-семантические и функциональные особенности субстантиватов в современном английском языке: дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1987. – 172 с.
17. Телегин Л.Б. Безаффиксальная транспозиция и влияние на процесс деривации в современном английском языке: Дис. ... док. фил. наук. – Самарканд, 1992. – 259 с.
18. Шукуров И. Нутқий кўчма маънонинг ҳосил бўлиши ва конверсия // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975. №5.66-69- б.



Umidjon YIGITALIYEV,
Qo'qon davlat universiteti dotsenti, PhD



Nilufar MAMATOVA,
Qo'qon davlat universiteti doktoranti

O'ZBEK TILINING BADIY DISKURSIDA "JINS" KONSEPTINING IFODALANISHI (kognitiv va lingvopoetik aspekt)

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilining poetik diskursi (nutqi)da "jins" konseptining ifodalanishi badiiy manbalar misolida kognitiv va lingvopoetik aspektida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: *jins, konsept, diskurs, poetik diskurs, kognitiv aspekt, lingvopoetik aspekt.*

Аннотация: в данной статье рассматривается выражение концепт «гендер» в поэтическом дискурсе (речи) узбекского языка с когнитивной и лингвопоэтической точки зрения на примере художественных источников.

Ключевые слова: *гендер, концепция, дискурс, поэтический дискурс, когнитивный аспект, лингвопоэтический аспект.*

Annotation: this article examines the expression of the concept "gender" in the poetic discourse (speech) of the Uzbek language from a cognitive and linguapoetic point of view using the example of artistic sources.

Key words: *gender, concept, discourse, poetic discourse, cognitive aspect, linguapoetic aspect.*

Hozirgi nazariy tilshunoslikda diskurs atamasi lingvistik termin sifatida XX asrning 50-yillaridan ilmiy muomalaga kiritildi [7:38]. Bu termin, dastlab gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat, "voqelangan jarayon" sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa, harakatdagi nutqiy jarayon sifatida izohlanmoqda [2:12].

Bugungi kunda fanimizda, lisonshunoslikda diskursni turlicha talqin etishadi. Ko'pchilik tilshunoslar diskursni nutqiy faoliyat jarayoni hamda so'zlashish uslubi kabi mazmunlarda talqin etishadi [6:58].

Diskurs atamasining kelib chiqishiga nazar soladigan bo'lsak, T.van Deyk: "Diskurs ham matndir, lekin u tilning kommunikativ birliklaridan – jumalardan va ularning uzluksiz ichki semantik aloqada bo'lgan kattaroq birliklarga birlashmasidan iborat bo'lib, uni integral shakllanish sifatida qabul qilish imkonini beradi", – degan ta'rifni beradi [4:243].

Bu ta'rifdan anglashiladiki, matn (bu yerda badiiy matn nazarda tutilmoqda – U.Y.) va nutq tushunchalari, aslida, qo'shilib ketadi va uning muallifi nutq namunasi sifatida "muayyan nasriy yoki poetik asar matni" yoki "she'r" ni keltirishi bejiz emas. Shu bilan birga, bu yerda nutqning yaxlitlik va ichki uyg'unlik kabi muhim xususiyati qayd etilgan. Yana shu o'rinda, tadqiq obyektimiz bo'lgan "jins" konseptining ijtimoiy belgi bilan bog'lanishi uni nafaqat sotsiolingvistik aspekt, balki kognitiv-lingvopoetik jihatdan

ham o'rganishni taqozo etadi.

Umuman, "jins" konseptini voqelantiruvchi uslubiy vositalar sotsiolingvistik ahamiyatga ega muloqot egalari nutqida yorqin ajralib turadi. Masalan, so'zlashuv nutqida keksa ayollar, buvilarimiz nutqida ko'p kuzatiluvchi "Aylanay, bolam...", "O'rgulay, bolam...", "Bo'yларingga tasadduq...", qo'llanishlari nafaqat "jins" konseptini voqelantiruvchi uslubiy vositalar, balki ijtimoiy xoslangan birliklar ham sanaladi.

Shu sababli o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan qator sotsiolingvistik tadqiqotlarda *jins* tushunchasiga muloqot xulqi va nutq odobi masalalarini o'rganishda, o'zbek urf-odatlarini tavsifida [1:12], shuningdek, kasb-hunar, sheva materiallari tahlilida ham munosabat bildirib o'tilgan [3:12]. Shunga qaramay, tilshunosligimizda *jins* tushunchasining nutq uslublarida ifodalanishi masalasi maxsus tadqiq etilishi lozim. Shu bois tadqiqotning mazkur bandida, stilistik-funksional tizimda "jins" konseptining voqelanish ko'lamlarini tadqiq etishni maqsad qilib belgiladik.

Ma'lumki, har qanday muloqot jarayonida uning ishtirokchilari: so'zlovchi va tinglovchi zaruriy komponentlar sifatida, albatta, qatnashadi. Muloqot vaqtida kommunikator (so'zlovchi) va kommunikant (tinglovchi)ning bir-biriga nutqiy ta'sir ko'rsatishida quyidagi mezonlar muhim rol o'ynaydi: 1. Millat. 2. Jins. 3. Yosh. 4. Ijtimoiy mavqe. 5. Qarindosh-urug'chilik. 6.

Muloqot vaqti. 7. Vaziyat va holat. 8. Ijtimoiy muhit va davr.

O'zbek ma'naviyatida bularning ichida, ayniqsa, *millat* va *jins* tushunchalari juda muhim sanalgan. Chunonchi, Sharq musulmon olamida, jumladan, o'zbek *erkak* va ayollarining shariat nuqtai nazaridan oiladagi o'rni, muloqot darajasi, farzandlar oldidagi mavqei, albatta, farq qiladi. Bu holat ularning nutqida ham sezilarli tarzda aks etadi.

O'zbek erkak va ayollarining bio-fiziologik xatti-harakatlari, psixologik tomonlaridan tashqari, nutqida ham bir-biridan keskin farqlanishni kuzatish mumkin. Chunonchi, erkaklar nutqida *"Gapning lo'ndasi shuki..."*, *"Gapning o'g'il bolasini aytganda..."*, *"Gapning qisqasi..."*, kabi nutqiy tuzilmalar tez-tez uchraydi. Ayollar nutqida esa *"Voy, esim qursin..."*, *"Ha, aytmoqchi..."*, *"Nima desam ekan..."*, *"Gapni nimadan boshlasam ekan..."*, *"Sizga nima deb tushuntirsam ekan..."* kabi qo'llanishlar ko'p uchraydi. Ayol va erkaklar nutqidagi bunday o'ziga xos qo'llanishlar nutqning nafaqat uslubiy belgiga ko'ra, balki *jinsga* ishora qilishi jihatidan ham farqlanishini ko'rsatadi.

O'zbek ayollari nutqining ayrim xususiyatlari bo'yicha tadqiqot o'tkazgan Sh.Iskandarovning fikriga ko'ra, xotin-qizlar nutqiga mansub *"aylanay"*, *"o'rgulay"*, *"girgitton"*, *"qoqindiq"* singarilar ijobiy ma'no ifodalovchi birliklardir, ular ko'proq keksa ayollar tomonidan nutqiy muloqot jarayonida ishlatiladi [1:19].

Anglashiladiki, nutqiy muloqotning bu kabi birliklari *jinsga* ko'ra farqlanishni ko'rsatadi. So'zlashuv nutqiga xos bunday qo'llanishlar *"jins"* konseptini voqelantiruvchi uslubiy vositalar hisoblanadi.

Bu o'rinda shuni ham qayd etish lozimki, o'zbek madaniyatida ota va onaning farzandlar oldidagi mavqei hamda burchlari ularning jamiyat tomonidan belgilangan *jinsga* ko'ra o'rni bilan ham bog'liq. Ya'ni o'zbek oilalarida o'g'il bola tarbiyasi otalar, aksincha, qiz bola tarbiyasi bilan ko'proq onalar shug'ullanishadi. Ota va o'g'il munosabati xususida so'z ketar ekan, haqiqiy o'zbekona munosabatlarni o'zida mujassam etgan mashhur *"O'tkan kunlar"* romanidagi *lingvopoetik va diskursiv jarayon* – Yusufbek hoji va Otabekning o'zaro munosabati beixtiyor yodimizga tushadi. Har qanday holatda ham ota hurmatini o'rniga qo'ya olgan Otabekning nutqiga e'tibor qaratamiz:

"O'zbekoyim kelib o'tirgandan so'ng, Yusufbek hoji bir necha vaqt o'ylab qoldi... anchagina so'zsiz o'tirganidan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi.

O'g'lim, hali sen eshitdingmi, yo'qmi, haytovur, biz sening ustingdan bir ish qilib qo'ydik...

Otabek ma'lumki, ularning *"qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lgan"* ishlarini, albatta bilar edi, shunday bo'lsa ham bilmaganga solindi:

Aqli kishilarning o'g'illari ustidan qilgan ishlari, albatta, noma'qul bo'lmas, – dedi. Hoji o'g'lining bu javobidan yerga qaradi. Nima deb davom qilishni bilmay qoldi..." (Abdulla Qodiriy. *"O'tkan kunlar"*. Tarixiy roman. – Toshkent: Sharq NMK, 2017.84-b.)

Matnga diqqat qilinsa, o'g'il tarbiyasi, uni uylantirish va oilada hal qiluvchi fikr otaning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei bilan bog'lanyapti. Bu holat nutqda ham o'z aksini topgan.

Shunisi xarakterliki, o'zbek xalqida nutq odobiga va mentalitetiga ko'ra ota yoki yoshi katta odamlarga nisbatan *sen* so'zi qo'llanilmaydi. Xalq fikricha, otasini senlagan farzand *do'zaxi* hisoblanadi. Shu o'rinda xalq shoiri A.Oripovning kognitiv va poetik-diskursga asoslangan *"Jannatga yo'l"* dramatik dostonidan fikrimizga hamohang quyidagi parchani keltiramiz:

O'zga odam:

*Tarozibon ne desa shu, ishonamiz-da!
Qaysi kuni yig'lab ketdi bir mo'ysafid chol,
Yetti bora haj savobi bo'lmabdi qabul.*

Yigit:

Nechuk endi?

O'zga odam:

*U dunyoda yuz berib qay hol,
Otasini sansiragan ekan bir bor ul.*

Yigit:

*Ming martaba shukr bo'lsin parvardigorga,
Mendan rozi ketgan ekan qiblagohlarim.
Es bilmagan go'daklikni yo'ysak bekorga,
Sensiragan emasman men, yo'q gunohlarim.*

Maqola sarlavhasidan ko'zlangan tadqiqot obyektida nazarda tutilganidek, badiiy amaliyot va muloqot sohasida *"diskurs"* konsepsiyasini ishlab chiqishimizni hisobga olib, tahlil qilish maqsadida fanning hozirgi rivojlanish darajasida nutqning amaliy ta'rifini shakllantiramiz. Anglashiladiki, nutq deganda, biz kommunikantlarning o'zlarining maxsus konseptual (kognitiv-verbal) dunyosi bilan ijtimoiy o'zaro ta'siri natijasida shakllangan og'zaki bayonotlar to'plamini tushunamiz, bu gaplarni hosil qilish va idrok etishning ekstralingvistik omillarini hisobga olgan holda amalga oshadi.

Chunonchi, *"jins"* konseptining badiiy diskursda voqelanishi badiiy uslubga oid matnlarda ham yorqin ko'zga tashlanadi. O'zbek millatida, umuman, musulmon xalqlarida, ba'zi qadriyat va rasm-rusumlar: *qizga sovchi*

kelishi, uning uzatilis, yetti pushti so'ralishi, shuningdek, qizga zimdan oshiq bo'lgan yigitning ichki iztiroblari kabi etnomadaniy holatlarda ham "jins" konsepti assotsiativ tarzda til egalari xotirasida verballashadi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanidagi bir epizodik holat – usta Olimning sevgilisi Saodatga bo'lgan sof muhabbati, erkak kishi bo'la turib, uyat hamda ibodan ruhiy iztirobga tushgan holati tasviriga nazar tashlaylik:

Osh-suvdan keyin kampir Saodatni o'choqboshi yumushiga yuborib, menga qarab kuldi:

Saodatga bir yaxshi joydan kuyav chiqib qoldi. Kecha unashsak, unashgudek ham bo'lgan edik, biroq sizning maslahatingizni olayin deb, sovcilarni qaytardim, – demasinmi, ustimdan bir chelak sovuq suv quygandek entikdim, qanday javob berishka tilim kelmay qoldi. Uzoq vaqt kesak kabi harakatsiz qolgach, kuch orqasida tilimni bazo'r shu so'zga harakatlantirdim:

– Joyi yaxshi bo'lsa, o'ylab ko'rish kerak...

...Chayon kabi meni zaharlamakda bo'lg'an kampirning to'g'ri so'zini eshitib turishka ortiq to'zalmadim-da, ertagacha o'ylab javob berishni aytib kampirning oldidan chiqdim. Chiqqach, oyog'i kuygan tovuqdek to'rt tomonga yugura boshladim. Epaqalik bir gap esimga kelmas edi. Nihoyat, aqlimni boshimg'a yig'ib, sirrimdan voqib bir oshnamg'a kengash soldim... Lekin butun tuni bilan ko'zimga uyqu kelmay, tikanga ag'nagan kabi azoblanar edim va sustligim uchun o'z-o'zimni so'kar edim...

Matnda usta Olimning sevgilisi Saodatdan ayrilib

qolishi mumkinligini o'ylab o'zini yo'qotib qo'yishi epizodi juda ta'sirchan tasvirlangan. Bunday psixologik holat faqat o'zbeklarning mental tafakkuriga xos bo'lib, erkak kishining o'z sevgilisiga yetishish yo'lidagi axloqiy munosabatlarining qanchalik go'zal ekanligi badiiy ifodasini topgan. Matnda tasvirlangan ushbu ruhiy holat chizgisi orqali "jins" konsepti voqelangan.

A.Oripovning "Sevgi o'limi" nomli she'rida oshiq yigitning iztiroblari tasviri orqali uning mahzun kayfiyatini aks ettiruvchi o'zbekona badiiy pafosni kuzatamiz:

*Yomg'ir kun edi, atrof jim, sokin,
 Sening ko'zlaringga boqardim sarmast,
 Sekin shivirlading: "Qo'y, boqma, yigit,
 Sevging menga yangilik emas".
 Yomg'ir ham tinmadi o'sha kuni hech,
 U ham quvolmadi ko'zda xobingni.
 Sovuq, rutubatli xonamga shu kech.
 Olib qaytdim iztirobingni...*

She'riy matnda qo'llangan yomg'ir, jim, sokin, sarmast, sovuq, rutubatli, iztirob so'zlari oshiq yigitning yomg'irli, sovuq va rutubatli kundagi mahzun kayfiyatini tasvirlashga xizmat qilgan. She'rda qo'llangan "Sening ko'zlaringga boqardim sarmast" satri hamda yigit so'zi mahzun kayfiyat egasining jinsiga ishora qilish bilan birga, badiiy matnda "jins" konseptining voqelanishiga turtki bergan.

Xullas, "jins" konseptini ham badiiy diskurs asosida voqelana oluvchi kognitiv birlik sifatida e'tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yigitaliyev U. Gapning kommunikativ qurilish jarayonida "shaxs" tushunchasining deytik ifodalanishi // –Toshkent, 2020. Jurnal: O'zbek tili va adabiyoti, 5-son. 99-103-b.
2. Yigitaliyev U. Nodira g'azallarida shaxsga xos jinsiy farqlanishning badiiy-lingvistik talqini// Qo'qon adabiy muhitida ayollar she'riyatining o'rni // Respublika ilmiy anjumani Qo'qon, 2023.
3. Yigitaliyev U. O'zbek tilida "odam" va "jins" konseptlari bilan bog'liq assotsiativ-verbal birliklar: Filol. fan. bo'y. fals. dokt. ...(PhD) diss. avtoreferati. –T., 2020. 54-b.
4. Dijk T.A.van. Discourse, semantics and ideology // Discourse and society. – L. etc.,1995. – Vol.6, N 2. P.244.
5. Zellig S.Harris (1952). Discourse Analysis (Journal article). Linguistic Society of America
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.
7. Фещенко В.В.Художественный дискурс: К определению термина в перспективе Лингвоэстетики, Новый филологический вестник. 2021. №1(56).
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdIW8AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=z8mdIW8AAAAJ:g5m5HwL7SMYC
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdIW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdIW8AAAAJ:rO6llkc54NcC
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdIW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdIW8AAAAJ:TQgYirikUcIC
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdIW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdIW8AAAAJ:hMod-77fHWUC
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdIW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdIW8AAAAJ:3s1wt3WcHBgC

Sarvinoz NURMONOVA,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (Phd)
nurmonova.sarvinoz@gmail.com

LISONIY SHAXS TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA NAZARIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada lisoniy shaxs tushunchasining tilshunoslikdagi shakllanish bosqichlari hamda uning nazariy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *lisoniy shaxs, til egasi, nutqiy faoliyat, matn, idiosstil, lingvomadaniyat.*

Annotation: this article examines the stages of the formation of the concept of linguistic personality in linguistics and its theoretical foundations.

Key words: *linguistic personality, language user, speech activity, text, idiosstyle, linguoculture.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются этапы формирования понятия языковой личности в языкознании и его теоретические основы.

Ключевые слова: *языковая личность, носитель языка, речевая деятельность, текст, идиостиль, лингвокультура.*

O'tgan asrning 30-yillarida rus tilshunosligida lisoniy shaxs tushunchasiga oid qarashlar V.V.Vinogradovning badiiy asar muallifining individual uslubi bilan bog'liq masalalarga to'xtalangan o'rinlarda ko'zga tashlanadi. Olim baholashicha, tadqiqotchi to'g'ridan to'g'ri badiiy sezgilari bilan asarni "sekin o'qish" jarayonida badiiy dunyoga kirib boradi va individual uslubning o'ziga xosligini qaysidir lingvistik xususiyati bilan "taxmin qiladi".

V.V.Vinogradov lisoniy shaxs tushunchasiga Boduen de Kurtenening munosabati xususida fikr yuritir ekan, lisoniy shaxs jamoaning ijtimoiy-lingvistik shakllari va me'yorlari jamlanmasi sifatida, turli xil ijtimoiy-lingvistik kategoriyalarni aks ettiruvchi, jamlovchi markaz sifatida qiziqirganligini, lisoniy shaxs (языковая личность) muammosi Boduen de Kurtene uchun begona bo'lib, olim badiiy asar tilini ijtimoiy guruh qobiliyatlari va tendensiyalarini aks ettirish nuqtayi nazaridan tadqiq qilganligini ta'kidlaydi¹.

O'tgan asrning 80-yillari boshida G.I.Bogin tilni egallagan, nutqqa ega insonni lisoniy shaxs deb atagan, ya'ni til egalari barchasiga nisbatan lisoniy shaxs atamasini qo'llagan, lisoniy shaxs til haqida nimani bilishi asosida emas, balki til bilan nima qila olishi asosida tavsiflanadi, deb qaragan². Keyingi izlanishlarida esa qarashlarini o'zgartirgan, G.I.Bogin yirik monografik tadqiqotida lisoniy shaxs – nutqiy harakatlarni bajarishga, matnni yaratishga va qabul qilishga tayyorligi nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan shaxs³ ekanligini ta'kidlab, lisoniy shaxs tuzilishi matnga munosabati asnosida ochib berilgan, bu qarashlar V.V.Vinogradov qarashlarini to'ldiradi va uzviy davomi deyish ham mumkin. G.I.Bogin lisoniy shaxs matnni yaratishgina emas, balki o'zga matnlarni anglashda, individuallikni namoyon qilishi masalasiga e'tibor qaratgan: "Lisoniy shaxs muloqotda nominativ birliklarning yuqori chastotalarda qo'llanuvchilarini o'zlashtirib

olgan, leksik-grammatik bilimlarni chuqur egallagan shaxski, natijada yuqori potensialga ega ifoda vositalarining o'ziga xos variantlaridan mosini erkin tarzda tanlay oladi, bu esa uning matnni yaratishiga xizmat qiladi"⁴.

Lisoniy shaxs haqidagi ilmiy qarashlarni davom ettirgan va rivojlantirgan Yu.N.Karaulov lisoniy shaxs tushunchasini tavsiflar ekan, har qanday til egasi lisoniy shaxs bo'la olishini ta'kidlaydi, "lisoniy shaxs – shaxs tushunchasining kengayishi, rivojlanishi, qo'shimcha mazmun bilan to'yinganligi", – deb izohlaydi⁵.

Yu.N.Karaulovga ko'ra, lisoniy shaxs – bu insonning qobiliyatlari va imkoniyatlarini belgilaydigan xususiyatlar yig'indisi, lisoniy shaxsning "asosiy" darajalari sifatida verbal-semantik, lingvistik-kognitiv va motivatsion-pragmatik darajalar ko'rsatilib, ushbu jihatlarga ko'ra uning nutqiy asarlarni (matnlarni) yaratish va idrok etish xususiyatlari farq qiladi⁶.

D. Lutfullayeva hamda D. Xudoyberganovlar ta'kidicha, "lisoniy shaxs nutqni yarata olish va idrok etish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxsgina emas, u tilning grammatik xususiyatlarini, tilga xos ichki imkoniyatlarni yuzaga chiqaruvchi til egasi hamdir. Lisoniy shaxs nutqi orqali nafaqat o'ziga xos bo'lgan individual sifatlarini, balki o'z xalqining lingvomadaniy qarashlarini ham u yoki bu darajada namoyish eta oladi. Lisoniy shaxs uning til birliklaridan qay tarzda foydalangan holda tuzgan matni asosida tavsif berish mumkin"⁷.

A. Mamatov lisoniy shaxs tuzilishida tilni bilishning quyidagi bosqichlarini keltiradi:

1) to'g'rilik bosqichi, u ushbu tilning elementar qoidalariga mos keladigan matnlarni hosil qilishga imkon beradigan yetarli darajadagi leksik zaxiraning va tilning asosiy grammatik qonuniyatlarining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi;

4 Богин Г. И. Келтирилган avtoreferat. – B.5.

5 Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – Москва: Издательство ЛКИ, 2010. – С. 38.

6 Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. – С. 42.

7 Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. Тилшunoslikda lisoniy shaxs muammosi // Ўзбек тили ва адабиёти, – № 6. – Тошкент, 2017. 39–40- б

2) materialni egallash bosqichi tilning ichki harakatiga muvofiq mulohazani amalga oshirish va idrok qilishni bilishni o'z ichiga oladi;

3) mazmunga boylik (to'lalik) bosqichi – fonetika, grammatika va leksika sohasida til ifoda vositalarining barcha xilma-xilligi aks etganligi nuqtayi nazaridan ajratiladi;

4) adekvat tanlov bosqichi – qo'llanilayotgan vositalarning kommunikativ vaziyatlarga va kommunikantlar rollariga muvofiq ravishda ifodalanadi;

5) adekvat sintez bosqichi – lisoniy shaxsning matnini uning mazmuniga tegishli tarkibiy va kommunikativ vazifalarning barcha kompleksiga mosligini e'tiborga oladi⁸.

D. Niyazova ta'riflashicha, lisoniy shaxs sifatida "har qanday muloqot matnidan nutq tuzuvchi va uni qabul qiluvchi shaxs, boshqacha aytganda, tildan foydalanuvchi, unga o'z ta'sirini o'tkazuvchi hamda nutqni qabul qiluvchi shaxsni ajratish mumkin"⁹.

Lisoniy shaxs nazariyasi zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha turli olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, barcha qarashlarni birlashtiruvchi jihat shundan iboratki, lisoniy shaxs tilni egallagan, undan faol foydalanuvchi hamda matn yaratish va idrok etish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsdir. V.V. Vinogradovdan boshlangan ilmiy qarashlar G.I. Bogin va Yu.N. Karaulov tadqiqotlarida yanada rivojlanib, lisoniy shaxsning ko'p qatlamli tuzilishi hamda uning kommunikativ imkoniyatlari izohlangan. O'zbek tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar esa lisoniy shaxsning individual va milliy-madaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qilgan. Lisoniy shaxs nazariyasi tahlili undan foydalanuvchi va uning xarakteri, idiositili va u yashagan yoki yashayotgan davr tili hamda uning imkoniyatlarini to'liq tasavvur etishga yordam beradi. Shunday qilib, lisoniy shaxsni o'rganish til

egasining nutqiy faoliyati, dunyoqarashi, madaniyati va idiositilini tadqiq etishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sirojiddin Sayyid idiositilida milliy lisoniy shaxs portreti to'la namoyon bo'ladi, ijodkor she'rlarida shaxs sifatidagi individual sifatleri, maqsad va intilishlari hamda tilning leksik imkoniyatlari, milliy-madaniy mansublikni yangicha yaratilmalarda aks ettirgan, xalq madaniyati kabilarni badiiy yo'sinda yuzaga chiqara olgan shaxs tipi tushuniladi. Lisoniy shaxsga milliy til va madaniyat tashuvchisi sifatida qaralar ekan, ushbu xususiyat Sirojiddin Sayyid idiositilida ustuvorligi kuzatiladi.

Millatga xos belgilarning muqobilsiz leksika, o'xshatish va metaforalar, frazema va idiomalar, presedent birliklar vositasida obrazli namoyon qilinganligi o'zbek millatiga xos lisoniy shaxs tipini bo'rttirgan. Masalan:

Bir suvoriy kelmoqdadir – Boburmi yo?

Hirotni yo Hindistonmi yoki Ko'nyo,

Ko'rib keldi, bundan so'ng ham ko'rsin dunyo

Sultonlari, xonlarini, xonlarini.

Bu diyorning ayvonlari nurga talosh,

Bu diyorning kayvonisi oy-u quyosh,

Vatan desam ko'zimda yosh, yuzimda yosh,

Ko'zga surtay nonlarini, nonlarini. (Vatan desam...)

Ushbu parchada ifoda etilgan milliy-madaniy so'zlar (ayvon, kayvoni, ko'zga surtmoq), tarixni yodga tushirish maqsadida qo'llangan presedent birliklar (Bobur, Hirotni, Hindiston, Ko'nyo) nutqning milliy xoslanganligini ko'rsatadi.

Lisoniy shaxs o'zida individuallikni namoyon qilgan til egasidir, badiiy matn yaratuvchisi misoli bilan olganda muayyan til birliklari boshqalariga qaraganda yuqori chastotaga egaligi bilan ajralib turadigan, masalan, okkazonalizmlar ustuvorligi, xalq jonli tilining mavjudligi, milliy-madaniy birliklarning ko'pligi, ramziy ifodalarda mualliflik yaratilmalariga egalik kabilar, presedentlikka keng o'rin berish asnosida implitsitlikni hosil qilish, grammatik birliklar va sintaktik qurilmalarning o'ziga xosligi uning idiositilini namoyon qiladi.

8 Маматов А. Замонавий тилшунослик. – Тошкент: Ношир, 2019. – Б. 54.

9 Ниязова Д. Бадий матнда лисоний шахс типлари. Филол. фан...

бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Қарши, 2020. – Б. 10.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов В.В. О художественной прозе. – Москва; Л.: Гос.изд-во, 1930. – С. 18.
2. Богин Г.И. Современная лингводидактика. – Калинин: Калинин. гос.ун-т, 1980. – С. 3.
3. Богин Г. И. Модель языковой личности в её отношении к разновидностям текстов: Автореф. дисс. д-ра фил. наук. – Л., 1984. – С. 3.
4. Богин Г. И. Keltirilgan avtoreferat.5-bet.
5. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – Москва: Издательство ЛКИ, 2010. – С. 38.
6. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. – С. 42.
7. Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти, – № 6. – Тошкент, 2017.39–40-б.
8. Маматов А. Замонавий тилшунослик. – Тошкент: Ношир, 2019. 54-б.
9. Ниязова Д. Бадий матнда лисоний шахс типлари. Филол. фан... бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Қарши, 2020.10-б.

Sharipboy BOBOJANOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Til va adabiyot kafedrası mudiri, dotsent

O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARIDA LUG'AVIY MA'NONING BERILISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilining izohli lug'atlarida lug'aviy ma'noning berilish tamoyillari lingvistik va leksikografik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Izohli lug'atlarda so'z ma'nolarini tavsiflashning nazariy asoslari, semantik izohlash usullari, ma'no komponentlarini aks ettirish mexanizmlari hamda zamonaviy leksikografiyaning yangi yondashuvlari yoritiladi. Shuningdek, o'zbek izohli lug'atlarida lug'aviy ma'noni ifodalashning an'anaviy va innovatsion tamoyillari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *lug'atshunoslik, leksikografiya, izohli lug'at, lug'aviy ma'no, semantika, leksik birlik, semema, leksikografik tavsif, korpus lingvistikasi.*

Annotation: this article analyzes the principles of providing lexical meaning in explanatory dictionaries of the Uzbek language from a linguistic and lexicographic point of view. The theoretical foundations of describing word meanings in explanatory dictionaries, methods of semantic interpretation, mechanisms for reflecting meaning components, and new approaches to modern lexicography are highlighted. Also, a comparative analysis of traditional and innovative principles of expressing lexical meaning in Uzbek explanatory dictionaries is carried out.

Key words: *lexicography, lexicography, explanatory dictionary, lexical meaning, semantics, lexical unit, sememe, lexicographic description, corpus linguistics.*

Аннотация: в данной статье анализируются принципы предоставления лексического значения в толковых словарях узбекского языка с лингвистической и лексикографической точек зрения. Осветлены теоретические основы описания значений слов в толковых словарях, методы семантической интерпретации, механизмы отражения смысловых компонентов и новые подходы к современной лексикографии. Также проведен сравнительный анализ традиционных и инновационных принципов выражения лексического значения в узбекских толковых словарях.

Ключевые слова: *лексикография, пояснительный словарь, лексическое значение, семантика, лексическая единица, семема, лексикографическое описание, корпусная лингвистика.*

Har qanday xalqning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti, avvalo, uning til boyligi va ushbu boylikni aks ettiruvchi lug'atlarda namoyon bo'ladi. Lug'atlar tilning leksik tarkibini tizimli ravishda yoritib beruvchi, milliy tilning tarixiy va zamonaviy holatini aks ettiruvchi muhim manbalardan hisoblanadi. Ayniqsa, izohli lug'atlar til birliklarining ma'nosini sharhlash, ularning semantik xususiyatlarini ochib berish hamda nutqdagi qo'llanish imkoniyatlarini ko'rsatishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Lug'aviy ma'no masalasi leksikologiya va leksikografiyaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. So'zning ma'nosini aniq, ixcham va ilmiy asoslangan tarzda izohlash izohli lug'atlar tuzish jarayonidagi eng murakkab vazifalardan biridir. Shu sababli zamonaviy lug'atshunoslikda lug'aviy ma'noni berish tamoyillarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda elektron lug'atlar, milliy korpuslar va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi lug'aviy ma'noni tavsiflashning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa izohli lug'atlar yaratish metodologiyasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Lug'aviy ma'no va uning lug'atlarda ifodalanishi masalasi jahon

tilshunosligida uzoq tarixga ega. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida M. Bréal, F. de Sossyur, L. Bloomfield, S. Ullmann kabi olimlar semantik tadqiqotlarning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar.

Keyinchalik J. Lyons, D. Crystal, D. Geeraerts, P. Hanks, H. Jackson singari olimlar lug'aviy ma'noning leksikografik tavsifi, izoh berish usullari va semantik strukturasi tadqiq etdilar. O'zbek tilshunosligida lug'aviy ma'no va leksikografiya masalalari A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, B. Mengliyev, A. Nurmonov, E. Begmatov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ayniqsa, "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning yangi olti jildlik nashri o'zbek leksikografiyasining muhim yutug'i sifatida e'tirof etiladi. Maqolada tavsifiy, qiyosiy-tahliliy, semantik, komponent tahlili va leksikografik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning olti jildlik nashri, zamonaviy elektron lug'atlar va lingvistik tadqiqotlar tanlandi.

So'z ma'nolarining lug'at maqolalarida berilish usullari o'rganilib, ularning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Lug'aviy ma'no so'zning obyektiv borliqdagi predmet, hodisa, belgi yoki harakat bilan bog'liq mazmunini

ifodalaydi. U til birligining asosiy semantik komponenti bo'lib, inson tafakkurida shakllangan tushunchalar bilan uzviy aloqada mavjud bo'ladi. Tilshunoslikda lug'aviy ma'no so'zning denotativ va konnotativ jihatlarini bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Denotativ ma'no obyektiv voqelikni aks ettirsa, konnotativ ma'no hissiy-ekspressiv va uslubiy xususiyatlarni ifodalaydi. Izohli lug'atlarda lug'aviy ma'noni tavsiflash jarayonida ushbu ikki jihatning uyg'unligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Chunki foydalanuvchi nafaqat so'zning asosiy mazmuni, balki uning qo'llanish xususiyatlari haqida ham ma'lumot olishi kerak. Izohli lug'atlarda eng keng tarqalgan usullardan biri definitson izohlash hisoblanadi. Bu usulda leksemaning ma'nosi qisqa va aniq ta'rif orqali ochib beriladi. Masalan, "kitob" so'ziga "muayyan matn yozilgan yoki bosilgan varaqlar yig'indisi" tarzida izoh beriladi. Bunda predmetning asosiy belgilarini ajratib ko'rsatish orqali ma'no tushuntiriladi.

Mazkur tamoyil ilmiy aniqlikni ta'minlaydi va lug'at maqolasining mantiqiy tuzilishini shakllantiradi. Ba'zi hollarda ma'no boshqa bir leksema yordamida izohlanadi. Bu usul sinonimik izohlash deb ataladi.

Masalan:

muzaffar – g'olib;
 jasur – botir;
 saxiy – qo'li ochiq.

Mazkur usul lug'at maqolasining ixchamligini ta'minlaydi, biroq ayrim hollarda foydalanuvchidan qo'shimcha izohlarni o'qishni talab qiladi. Murakkab tushunchalarni izohlashda tavsifiy usuldan foydalaniladi. Bunda so'zning ma'nosi batafsil tavsiflash orqali yoritiladi. Masalan, madaniy, tarixiy yoki etnografik birliklarni izohlashda ushbu usul samarali hisoblanadi. Zamonaviy leksikografiyada so'z ma'nosini real nutq misollari yordamida ochib berishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Kontekstual izohlash:

- ma'noning aniqroq anglashilishini;
- uslubiy xususiyatlarning ochilishini;
- qo'llanish chegaralarining aniqlanishini ta'minlaydi.

XXI asrda lug'atshunoslik raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Elektron lug'atlar va milliy korpuslar lug'aviy ma'nolarni tavsiflashda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Korpus lingvistikasi yordamida:

- so'zlarning qo'llanish chastotasi;
- semantik variantlari;
- yangi ma'nolarining shakllanishi;

Sun'iy intellekt texnologiyalari esa millionlab matnlarni tahlil qilish orqali yangi semantik birliklarni aniqlash imkonini bermoqda. Bu esa kelajakda dinamik va avtomatik yangilanadigan izohli lug'atlar yaratish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilining zamonaviy izohli lug'atlarida lug'aviy ma'noni berishda definitson izohlash tamoyili yetakchi o'rin egallaydi. Shu bilan birga sinonimik va tavsifiy izohlash usullari ham keng qo'llaniladi. Zamonaviy elektron lug'atlar esa kontekstual misollar va korpus ma'lumotlari asosida ma'noni yoritishga intilmoqda. Bu esa lug'at maqolalarining informativlik darajasini oshirmoqda. O'zbek tilining izohli lug'atlarida lug'aviy ma'noni berish tamoyillari milliy leksikografiya taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Lug'at maqolalarida definitson, sinonimik, tavsifiy va kontekstual izohlash usullarining uyg'un qo'llanilishi so'z ma'nosining to'liq ochib berilishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar va korpus lingvistikasining rivojlanishi lug'aviy ma'noni tavsiflashning yangi metodlarini shakllantirmoqda. Kelajakda sun'iy intellekt asosidagi leksikografik tizimlar o'zbek tilining izohli lug'atlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
6. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2023.
7. Jackson H. Lexicography: An Introduction. – London: Routledge, 2022.
8. Hanks P. Lexical Analysis: Norms and Exploitations. – Cambridge, 2021.
9. Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. – Oxford University Press, 2022.
10. Atkins B., Rundell M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. – Oxford University Press, 2021.

ORFOGRAFIK TERMINLARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek va qirg'iz tillaridagi orfografik terminlar qiyosiy tahlil qilingan. Hozirgi kunda ilmiy hamjamiyatda orfografik terminlarning bir xilligi va ulardan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biz ushbu ikki turkiy tildagi orfografik tushunchalarni leksik-semantik jihatdan qiyoslash, ulardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash, shuningdek, terminologik ekvivalentlik muammolariga yechim topishni maqsad qilganmiz.

Kalit so'zlar: *orfografiya, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tarixiy -an'anaviy tamoyil, farqlash tamoyili, shakliy tamoyil, фонетикалык принцип.*

Аннотация: в данной статье проведен сравнительный анализ орфографических терминов узбекского и кыргызского языков. В настоящее время в научном сообществе остро встает вопрос о единообразии орфографических терминов и их эффективном использовании. Мы стремимся лексико-семантически сопоставить орфографические понятия этих двух тюркских языков, выявить в них общие и отличительные черты, а также найти решение проблем терминологической эквивалентности.

Ключевые слова: *орфография, фонетический принцип, морфологический принцип, историко-традиционный принцип, принцип дифференциации, формальный принцип, фонетический принцип.*

Annotation: this article provides a comparative analysis of orthographic terms in the Uzbek and Kyrgyz languages. Currently, in the scientific community, the issue of uniformity of orthographic terms and their effective use is of urgent importance. We aim to compare orthographic concepts in these two Turkic languages lexically-semantically, to identify common and different aspects in them, as well as to find solutions to terminological equivalence problems.

Key words: *orthography, phonetic tamoyi, morphological principle, historical-traditional principle, differentiation principle, formal principle, phonetic principle, morphological principle, saltu je etymological principle.*

Tilshunoslikda har bir tilning o'ziga xos orfografik tizimi va uning terminologiyasi mavjud bo'ladi. O'zbek va qirg'iz tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, o'xshash fonetik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning yozuv qoidalari va shu bilan bog'liq terminologiyalarida sezilarli darajada farqlar ham mavjuddir. Globallashuv jarayonida tillararo aloqalar kuchaygan bir paytda, terminologik bir xillik va aniqlikka erishish nafaqat ilmiy, balki ta'lim va amaliy nuqtayi nazardan ham muhimdir. Bugungi kunda o'zbek va qirg'iz tillari o'rtasidagi terminologik aloqalarni mustahkamlash, ayniqsa, orfografiya sohasida o'zaro tushunishni oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu o'zaro ta'lim almashinuvlari, ilmiy hamkorlik va adabiy tarjimalar uchun zamin yaratadi. Ushbu maqolada asosiy qilib ko'zlangan maqsad quyidagilarni tashkil etadi: 1.O'zbek va qirg'iz orfografik terminlarining kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganish. 2.Har ikki tildagi terminologik tizimlarni qiyosiy tahlil qilish. 3.Terminologik ekvivalentlik va farqlanish muammolarini aniqlash. 4.Orfografik terminologiyani standartlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Tadqiqot natijalari

tilshunoslar, o'qituvchilar, tarjimonlar va til siyosati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

Orfografiya har qanday tilning yozma shakli asosini tashkil etadi. U so'zlarning to'g'ri yozilish qoidalarini belgilaydi va tilning barqarorligini ta'minlaydi. Orfografiya nazariyasi esa bu qoidalarning ilmiy asoslarini, ularning paydo bo'lish sabablarini va rivojlanish tendensiyalarini o'rganadi. Terminologik yondashuvlar esa har bir soha, jumladan, orfografiya sohasidagi tushunchalarni aniq va tushunarli terminlar orqali ifodalashni nazarda tutadi. Orfografiya – bu tilning yozma nutqdagi me'yorlarini belgilovchi qoidalar majmuyi bo'lib, uning asosiy vazifasi – o'zaro tushunishni ta'minlashdir. Turli tillarda orfografiya nazariyasi bir xil umumiy tamoyillarga asoslansa-da, ularning har biri o'zining tarixiy rivojlanishi va til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos terminologik tizimni shakllantiradi. Masalan, fonetik, morfologik va an'anaviy orfografiya tamoyillari dunyo tillarining yozuv tizimlarida keng tarqalgan. Terminologiya, o'z navbatida, tilning aniq va professional ifodalanishini ta'minlaydi. Orfografiya

sohasidagi terminlar, masalan, “qo’shimcha”, “tovush”, “harf”, “bo’g’in” kabi tushunchalarni o’z ichiga oladi. Bu terminlar ilmiy tadqiqotlarda, darsliklarda va metodik qo’llanmalarda bir xil tushunilishi lozim. O’zbek tilining orfografik terminologiyasi uzoq tarixiy rivojlanish yo’lini bosib o’tgan. Sovet davrida kirill alifbosiga o’tish bilan birga, orfografiya qoidalari va terminologiyasi ham sezilarli o’zgarishlarga uchradi. Mustaqillikdan so’ng, lotin alifbosiga qaytish jarayoni bilan birga, orfografik terminologiya ham yangilandi va tizimlashtirildi. “Odatda yozuvda adabiy nutqni saqlash, bir xillikka erishish uchun ham imlo(yozuv) tamoyil (qoida)lari ishlab chiqiladi. Bugungi o’zbek imlosi to’g’ri yozish qoidalarida, asosan, besh tamoyilga tayanadi: 1. Fonetik tamoyil: so’zlar, asosan, qanday talaffuz qilinsa, shunday yoziladi(buloqqa, yurakka, tuproqqacha). 2.Morfologik tamoyil: tildagi morfemalar nutqda qanday aytilishi yoki eshutilishidan qat’i nazar, asl holicha yoziladi(aytti emas aytdi, aytkan emas aytgan). 3.Tarixiy -an’anaviy tamoyil: ko’pgina so’z va iboralarning nutqiy vaziyat taqozosiga ko’ra hozirgi talaffuz me’yoriga mos kelmaydigan tarixiy shaklida yozilishi (aytgil-aytgin, urmagil-urmagin, kuydurg’ali-kuydurgani, kelarmu-kelarmi). 4.Farqlash tamoyili: nutqimizdagi shakli va talaffuzi bir-biriga yaqin so’z va morfemalarni yozuvda farqlashni talab etadigan yozuv qoidasi (she’r-she’r; yondosh-yondash). 5.Shakliy tamoyil: boshqa tillardan olingan so’zlarni aynan o’sha tildagi kabi yozish nazarda tutiladi(zalogiya emas zoologiya, istansa emas – stansiya)”[1.95-96].Bundan tashqari o’zbek tilshunosligida orfografiya bo’limiga daxldor bo’lgan asosiy terminlar ham mavjuddir. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishib o’tamiz.

Harf: tovushning yozuvdagi belgisi.

Imlo: so’zlarni to’g’ri yozish qoidalari.

Bo’g’in: so’zdagi talaffuz birligi.

Tutuq belgisi: undosh tovushni keyingi unlidan ajratuvchi belgi (‘)

Defis: qo’shma so’zlarni, qisqartmalarni yoki ko’chirilgan so’zlarni bog’lash uchun ishlatiladigan chiziqcha (-).

O’zbek orfografiyasi, asosan, fonetik va morfologik tamoyillarni birlashtiradi, bu esa uni o’rganishni nisbatan osonlashtiradi. O’zbek tilshunosligida orfografik terminologiyaning izchilligi ta’minlangan bo’lib, bu ta’lim jarayonida muhim rol o’ynaydi. O’zbek tilining orfografik terminologiyasi hozirgi kunda nisbatan barqaror tizimni tashkil etadi, biroq, ayrim tushunchalarning talqini bo’yicha tortishuvlar davom etmoqda. Qirg’iz

orfografiyasi ham o’zbek tiliga o’xshab, ko’p bosqichli rivojlanishni boshidan kechirdi. XX asrning boshlarida arab yozuvidan foydalangan holda, 1920-yillarda lotin alifbosiga, so’ngra 1940-yillarda kirill alifbosiga o’tgan. Bu o’zgarishlar qirg’iz tilining yozuv qoidalari va terminologiyasiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Qirg’iz tilining orfografik terminologiyasi, asosan, umumturkiy tilshunoslik tushunchalari va rus tilshunosligidan o’zlashtirilgan terminlar asosida shakllangan. “Орфография сөз жана сөз мүчөлөрүн туура жазуу эрежелери. Демек, ал адабий тилдин жазуу нормаларын аныктоочу эрежелердин системасы болуп эсетелет”[2.58]. Qirg’iz orfografiyasida, asosan, uch tamoyil muhim hisoblanadi. Ular quyidagilar:

1. Фонетикалык принцип. 1-мисал: орус тилиндаги раз, рас, роз, рос, сыяктуу сөз алд мүчөлөр(префикстер)айтилиши боюнча жазылат. 2-мисал: кыргыз тилиндеги унгу жана мүчөлөр да негизинен айтылышы боюнча жазылат. Сал.: ат, эт, от, атты, этти, отту, өттү, акчасыз, энесиз, суусуз, түссүз.

2. Морфологиялык принцип. 1-мисал: кыргыз тилиндеги көпчүлүк унгулар айтылганда өзүнүн тыбыштык турпатын сактайт. Бул кыргыз жана башка бардык түрк тилдеринин башкы тирологиялык өзгөчөлүгү. Демак,мындай унгулардын жазылышы фонетикалык принцип боюнча ишке ашырылат да, морфологиялык прынцип коштоочу гана мүнөзгө ээ болот. Сал.: түн, туз, көп, бирок, түнкү, түмбү, түссүз, көбөй. 2-мисал: айрим унгулар мүчөөнүн башкы тыбышынын таасири менен сонку үнсүзүн өзгөртөт. Сал:түн, туз, көп бирок, түнкү, түмбү, туссуз, көбөй.

3. Салту же этимологиялык прицип. 1-мисал: азыркы орус тилинде басымсыз муундагы о тыбышы а болуп айтылат. Бирок жазууда ал эски орус тилиндагидай о менен жазылат. Сал: молоко – айтылышы:малако; соловей – айтылышы салавей. 2-мисал: англис тилиндедеги калыбында жазылат. Сал:twj(tu:) ‘эки – too(tu:) ‘да’, дагы’, sight (sayt) көрүнүш’ – site (sayt) ‘тапан’[3. 59.].

Yuqoridagi qoidadan shuni anglash mumkinki, qirg’iz orfografiyasining asosiy tamoyillaridan biri bu fonetiklik bo’lib, so’zlarning talaffuziga ko’ra yozilishi ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi. Ba’zi asosiy qirg’iz orfografik terminlarini ko’rib o’tamiz: **тамга**-harf, **орфография**- imlo, **муун**-bo’g’in, **дефис**: defis (-),**тынч белгилер**-tinish belgilar. Qirg’iz

tilining dastlabki yozma yodgorliklari arab alifbosida yaratilgan bo'lib, 1920-yillarda lotin alifbosiga o'tilishi til rivojlanishida yangi bosqich bo'ldi. 1940-yillarda kirill alifbosiga o'tish bilan qirg'iz orfografiyasi hozirgi ko'rinishini olgan. Qirg'iz orfografik terminologiyasida ba'zi hollarda umumturkiy va rus tilidan o'zlashtirilgan terminlar orasida parallelliklar kuzatiladi. Bu esa terminlarning tushunilishi va qo'llanilishida ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. O'zbek va

qirg'iz tillaridagi orfografik terminlarni leksik-semantik jihatdan qiyosiy tahlil qilish, ulardagi umumiy va farqli jihatlarni, shuningdek, terminologik ekvivalentlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Har ikki til turkiy tillar oilasiga mansub bo'lganligi uchun, ularning orfografik tizimlarida o'xshashliklar mavjud. Masalan, "harf", "tovush", "bo'g'in" kabi asosiy tushunchalar har ikki tilda ham deyarli bir xil ma'no va funktsiyani anglatadi.

Harf	Тамга	Yozuvdagi tovush belgisi.
Imlo	Орфография	So'zlarni to'g'ri yozish qoidalari.
Bo'g'in	Муун	So'zdagi talaffuz birligi.
Defis	Дефис	Qo'shma so'zlarni bog'lovchi belgi.
Tinish belgilari	Тынч белгилер	Yozuvdagi sintaktik bo'linishlarni ifodalovchi belgilar.

Biroq, ba'zi terminlarda ma'no farqlari yoki turli terminlarning bir xil tushunchani ifodalashi kuzatiladi. Masalan, o'zbek tilida "tutuq belgisi" deb ataladigan tushuncha qirg'iz tilida o'ziga xos tarzda ifodalanishi mumkin. Bunday farqlar, asosan, tillarning fonetik tizimlaridagi o'ziga xosliklar va tarixiy rivojlanish bilan bog'liq. Bu tahlil, kelajakda terminologik lug'atlar va qo'llanmalar yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu tadqiqotda ikki tilning orfografik tizimlaridagi umumiy va farqli jihatlarni, shuningdek, terminologik ekvivalentlik va farqlanish muammolarini o'rganib chiqdik. Asosiy topilmalar shuni ko'rsatdiki, umumturkiy ildizlarga ega bo'lganiga qaramay, o'zbek va qirg'iz orfografik terminlari o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tgan va natijada ayrim terminlarda ma'no farqlari yoki turli nomlanishlar yuzaga kelgan.

1. Har ikki tilda ham fonetik-morfologik tamoyillar ustuvor bo'lsa-da, ularning qo'llanilishida o'ziga xosliklar mavjud.

2. Ko'plab asosiy orfografik terminlar ekvivalent bo'lib, ular umumiy turkiy tilshunoslik an'analariidan kelib chiqqan.

3. Ayrim terminologik farqlar til tizimlaridagi o'ziga xosliklar, tarixiy rivojlanish va o'zlashtirilgan terminlar bilan bog'liq.

4. Terminologik xatoliklarni bartaraf etish va standartlashtirish zaruriyati mavjud.

Ushbu tadqiqotimiz o'zbek va qirg'iz tilshunosligi sohasidagi bilimlarimizni boyitishga va ikki xalq o'rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shadi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Raupova L., Abuzalova M., Yo'ldoheva D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: "Tafakkur avlodi". 2023. 65-66-betlar.
2. Орузбаева Б., Турсунов А., Сыдыков Ж., Акматалиев А., Мусаев С., Садыков Т. Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек. –2009. – Б. 58-59.
3. Орузбаева Б., Турсунов А., Сыдыков Ж., Акматалиев А., Мусаев С., Садыков Т. Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек. –2009. – Б.59.
4. Tilovov Ozod Zairjonovich xitoy tilini o'rganuvchi talabalar tomonidan natija to'liqllovchilarini o'rganish jarayonidagi duch kelinayotgan muommolari va ularning yechimi // ijssr. 2023. №5. 2.
5. Азимов П.А., Дешериев Ю.Д., Никольский Л.Б., Степанов Г.В., Швейцер А.Д. Современное общественное развитие, научно-техническая революция и язык. Вопросы языкознания. № 2. М.: 1975. 5. 3.
6. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. М.: Наука, 1977.
7. Герд А.С. Терминологическое значение и типы терминологических значений. Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Сборник. Л.: Наука, 1976. 101 с. 5.
8. Гринев С.В. Введение в терминоведение. М.: Москва. Лицей, 1993. 92-95 с.

Shoxinur TURSUNOV,

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

O'ZBEK VA INGLIZ DISKURSIDA TASDIQ VA INKOR NUTQIY AKTLARINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada tasdiq va inkor nutqiy aktlarining lingvopragmatik tabiati zamonaviy pragmatika va nutqiy akt nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tasdiq va inkorning grammatik kategoriya sifatidagi talqinidan tashqari, ularning kommunikativ maqsad, illokutiv kuch, kontekst, presuppozitsiya va implicature bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. Natijada tasdiq va inkor nutqiy aktlarini o'zbek va ingliz diskursida qiyosiy tahlil qilish uchun nazariy model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *tasdiq, inkor, nutqiy akt, pragmatika, lingvopragmatika, assertion, negation, implicature, diskurs, kontekst.*

Аннотация: в данной статье анализируется лингвопрагматическая природа речевых актов утверждения и отрицания на основе современных теорий прагматики и теории речевых актов. В исследовании рассматриваются не только грамматические аспекты утверждения и отрицания, но и их связь с коммуникативной целью, иллокутивной силой, контекстом, пресуппозицией и имплицатурой. В результате предлагается теоретическая модель для сравнительного анализа речевых актов утверждения и отрицания в узбекском и английском дискурсе.

Ключевые слова: *утверждение, отрицание, речевой акт, прагматика, лингвопрагматика, ассерция, негация, имплицатура, дискурс, контекст.*

Annotation: this article examines the linguopragmatic nature of affirmative and negative speech acts based on contemporary theories of pragmatics and speech act theory. The study explores not only the grammatical interpretation of affirmation and negation but also their relationship with communicative intention, illocutionary force, context, presupposition, and implicature. As a result, a theoretical framework is proposed for the comparative analysis of affirmative and negative speech acts in Uzbek and English discourse.

Key words: *affirmation, negation, speech act, pragmatics, linguopragmatics, assertion, negation, implicature, discourse, context.*

Kirish. Pragmatika til birliklarini mavhum tizim sifatida emas, balki muayyan vaziyatda, muayyan maqsad bilan qo'llangan nutqiy hodisa sifatida o'rganadi. Shu jihatdan u semantika va grammatikadan farqli ravishda tilning qo'llanishdagi ma'nosi, ya'ni so'zlovchi niyati, adresat qabul qilishi va kontekst omillarini markazga olib chiqadi. Stanford Encyclopedia of Philosophy pragmatikaning asosiy obyekti aynan utterance, ya'ni aniq vaqt va makonda yuzaga kelgan nutqiy hodisa ekanini ta'kidlaydi. Bu esa tasdiq va inkor kabi birliklarni ham faqat formal shakl doirasida emas, balki amaliy nutqdagi vazifasi bilan o'rganishni talab qiladi.

Nutqiy akt nazariyasining shakllanishida J. L. Austin va John R. Searle ishlarining o'rni alohida. Austin til yordamida inson faqat biror narsani tasvirlab qolmasdan, balki amal bajarishini ko'rsatdi; Searle esa bu qarashni tizimlashtirib, nutqiy akti qoidaga asoslangan kommunikativ faoliyat sifatida izohladi. Bugun nutqiy akt nazariyasi faqat falsafa doirasida emas, balki tilshunoslik, psixologiya, sun'iy intellekt, huquqiy diskurs va boshqa

ko'plab sohalarda muhim nazariy tayanchlardan biri sifatida qaraladi [1; 3].

Asosiy qism. Tasdiq va inkor, bir qarashda, grammatikaning oddiy oppozitsiyasi bo'lib tuyuladi: biri mavjudlikni, ikkinchisi nomavjudlikni bildiradi. Ammo pragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, masala bundan ancha murakkab. Assertion haqidagi zamonaviy qarashlarda tasdiq odatda ochiq, bevosita va eksplitsit nutqiy harakat sifatida talqin qilinadi, lekin u ham har doim bir xil shaklda namoyon bo'lavermaydi; bilvosita tasdiq, implicature orqali yuzaga keladigan tasdiq va presuppozitsiyaga tayangan tasdiq ham mavjud. Demak, tasdiq faqat "ha" yoki tasdiq gap shakliga tenglashtirilmaydi.

Inkor ham xuddi shunday murakkab hodisadir. Negation bo'yicha tadqiqotlar inkorning barcha tabiiy tillarda grammatiklashgan hodisa ekanini ko'rsatadi, biroq uning real nutqdagi ishlashi sof mantiqiy inkor bilan cheklanmaydi. Cambridge Handbook of Pragmaticsdagi "Negation" bobida negation pragmatikaning mustaqil fenomenlaridan biri sifatida ajratiladi; Jacques Moeschler

esa inkorning pragmatik jihatlarini tahlil qilib, uning illokutiv inkor, tashqi inkor va inferensiyaga tayanadigan ko'rinishlarini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqadiki, inkor ham faqat "not", "no", "emas", "yo'q" kabi formal vositalar orqali emas, balki argumentativ va kontekstual mexanizmlar orqali ham yuzaga chiqadi.

Bu yerda Grice nazariyasi ayniqsa muhim. Chunki ko'plab holatlarda so'zlovchi tasdiq yoki inkorni to'g'ridan to'g'ri aytmaydi, balki uni implicature orqali yetkazadi [3: 122]. Masalan, suhbatdoshning taklifiga "Men ertaga ishga erta boraman" tarzidagi javob formal jihatdan oddiy axborot bo'lsa-da, pragmatik jihatdan rad etish yoki inkor ma'nosini berishi mumkin. SEPdagi "Implicature" maqolasi Grice ishlab chiqqan yondashuvda aynan shu farqni, aytilgan narsa bilan nazarda tutilgan narsa o'rtasidagi tafovutni, pragmatikaning markaziy masalasi sifatida ko'rsatadi [9; 10].

Shu nuqtayi nazardan, tasdiq va inkor nutqiy aktlarini lingvopragmatik hodisa sifatida o'rganish bugungi tilshunoslik uchun dolzarbdur. Chunki bu kategoriya faqat gapning grammatik shakli bilan emas, balki illokutiv kuch, kommunikativ maqsad, adresatga ta'sir, kontekst, presuppozitsiya, implicature va diskursiv strategiya bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa keyingi bosqichlarda o'zbek va ingliz tillari materialida bu hodisani qiyosiy o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhim natijalar berishi mumkin.

Pragmatik tahlil ko'rsatadiki, real muloqotda tasdiq va inkor har doim ham to'g'ridan to'g'ri ifodalanmaydi. Ko'p hollarda so'zlovchi bir narsani aytib, boshqa narsani nazarda tutadi. Bu hodisa, avvalo, Gricean implicature bilan bog'liq. SEPdagi "Implicature" maqolasida implicature "bir narsani aytib, boshqa narsani nazarda tutish" yoki "saying something else" orqali ma'no hosil qilish sifatida izohlanadi. Shu sababli bilvosita tasdiq va bilvosita inkor nutqiy aktlarini pragmatikaning markaziy fenomenlaridan biri sifatida ko'rish mumkin.

Bilvosita tasdiq shunday holatki, bunda so'zlovchi tasdiqni formal jihatdan bevosita bayon qilmaydi, lekin uning nutqi pragmatik jihatdan tasdiq ma'nosini beradi. Masalan, "Bu masala bo'yicha dalillar yetarli" degan gap ayrim vaziyatlarda "men bu fikrni qo'llab-quvvatlayman" degan bilvosita tasdiqni anglatishi mumkin. Bunda gapning yuzaki semantik mazmuni bilan uning illokutiv vazifasi bir-biriga to'liq teng emas. Assertion nazariyasida bunday holatlar aynan shuni ko'rsatadiki, tasdiqning markazi sintaktik musbatlik emas, balki propozitsiyani amalda ilgari surishdir [2; 4; 5].

Bilvosita tasdiq ayniqsa ilmiy, diplomatik va akademik diskursda faol ishlaydi. Chunki bunday diskurslarda

so'zlovchi ko'pincha qat'iy bayon o'rniga ehtiyotkorroq, ammo tasdiq mazmunini yo'qotmaydigan shakllarni tanlaydi: "natijalar shuni ko'rsatadiki...", "mavjud ma'lumotlar asosida aytish mumkinki...", "ko'rinadiki...". Formal jihatdan bularning ayrimlari ehtimollik yoki kuzatuvni bildiradi, lekin pragmatik jihatdan ular muallif pozitsiyasini tasdiqlovchi nutqiy aktga aylanadi. Bu yerda illokutiv kuch yumshatiladi, lekin yo'qolmaydi.

Bilvosita inkor esa undan ham ko'proq pragmatik tahlil talab qiladi. Chunki ko'p inkorlar "yo'q", "emas", "not"siz ham yuzaga chiqadi. Suhbatdoshning taklifiga "Ertaga ertalab juda erta chiqaman" deb javob berish, ko'pincha, formal axborotdan ko'ra rad etish yoki rozi emaslik ma'nosini anglatadi. SEPdagi implicature maqolasida bunday holatlar kontekstga tayanadigan ma'no hosil bo'lishi sifatida ko'rsatiladi; ya'ni tinglovchi aytilgan gapdan ortiqroq narsani inferensiya qiladi.

Bilvosita inkorning nazariy mohiyati shundaki, u ko'pincha presuppozitsiyani, oldingi taklifni yoki suhbatdagi kutilmani to'g'ridan to'g'ri rad etmasdan, unga zid inferensiya uyg'otadi [2]. Negation bo'yicha pragmatik adabiyotlar inkorning ko'p shakllari argumentativ xarakterga ega ekanini ko'rsatadi: inkor shunchaki "A emas" demaydi, balki "siz o'ylayotgan A qabul qilinmaydi" degan diskursiv pozitsiyani ham bildiradi. Moeschlarning yondashuvida inkor speech act, argumentation va pragmatic inference bilan bog'lab izohlanishi aynan shu sababli muhimdir.

Bilvosita tasdiq va bilvosita inkor nazariy jihatdan bir-biriga yaqin hodisalardir, chunki har ikkisi ham illokutiv ma'no bilan literal ma'no o'rtasidagi tafovutga tayanadi. Ularning farqi shundaki, bilvosita tasdiq propozitsiyani qabul qilish yoki qo'llash tomonga suradi, bilvosita inkor esa propozitsiyani rad etish, cheklash yoki undan masofalanish tomonga olib boradi. Lekin har ikkala holatda ham yakuniy ma'no grammatik shakldan emas, kontekst, kommunikativ hamkorlik tamoyili, adresat inferensiyasi va diskursdagi oldingi bilimlardan kelib chiqadi [6; 7; 8].

Natijada shuni aytish mumkinki, bilvosita tasdiq va bilvosita inkor tasdiq-inkor kategoriyasining eng muhim lingvopragmatik qatlami hisoblanadi. Aynan shu qatlam tufayli tasdiq va inkorni faqat musbat-manfiy gaplar tizimi sifatida tushuntirish yetarli bo'lmay qoladi. Ular, aslida, adresatni ma'lum xulosaga olib boradigan, ba'zan ochiq, ba'zan yashirin tarzda ishlaydigan nutqiy strategiyalardir. Bu xulosa keyingi bosqichda o'zbek va ingliz diskursidagi real misollarni tahlil qilish uchun tayyor nazariy asos beradi.



Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tasdiq va inkor nutqiy aktlarini lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilish ularni faqat grammatik kategoriya sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijasida tasdiq biror propositsiyani kommunikativ maydonga javobgarlik bilan kirituvchi nutqiy akt, inkor esa mavjud yoki kutilgan mazmunga nisbatan rad etish, tuzatish yoki qayta pozitsiyalanishni ifodalovchi nutqiy akt sifatida tavsiflandi. Har ikkisi ham illokutiv kuch, kontekst, inferensiya va adresatga yo'naltirilganlik bilan belgilanadi.

Shuningdek, tahlil bilvosita tasdiq va bilvosita inkor hodisalari ushbu kategoriyalarning eng muhim pragmatik qatlami ekanini ko'rsatdi. Ular orqali ma'no ko'pincha

literal shakldan emas, balki implicature, presuppozitsiya va diskursiv fon orqali yuzaga chiqadi. Shu bois tasdiq va inkorni tadqiq etishda formal markerlardan ko'ra ularning kommunikativ vazifasi va real nutqdagi ishlash mexanizmini markazga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur nazariy xulosalar keyingi tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos yaratadi. Xususan, o'zbek va ingliz tillaridagi tasdiq va inkor konstruksiyalarini qiyosiy, struktur-semantik hamda diskursiv jihatdan o'rganish aynan shu nazariy modelga tayangan holda olib borilishi mumkin. Demak, ushbu maqola dissertatsiya doirasidagi keyingi amaliy tahlillar uchun konseptual tayanch vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. – Oxford: Oxford University Press.
2. Davis, W. (2024). *Implicature*. – Stanford Encyclopedia of Philosophy.
3. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In: Cole, P. & Morgan, J. (Eds.), *Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts*. – New York: Academic Press.
4. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press.
5. Mahmudov, N. *Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab*. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.
6. Mengliyev, B. *Hozirgi o'zbek tili*. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2016.
7. Nurmonov, A. *Tanlangan asarlar. 3-jild. Lingvistik pragmatika*. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
8. Safarov, Sh. *Pragmatika*. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2013.
9. Арутюнова, Н. Д. (1999). *Язык и мир человека*. Москва: Языки русской культуры.
10. Карасик, В. И. (2002). *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Волгоград: Перемена.

Muqimjon AXUNOV,

 Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
 ADChTI, Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası dotsenti

E-mail: muqimjon.axunov@bk.ru

UDK: 811.111+811.512.133'373.7

KRIMINAL FRAZELOGIK BIRLIKLAR NUTQIY AKTLAR DOIRASIDA: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA

Annotatsiya: maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi kriminal frazeologik birliklar nutqiy aktlar nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. Kriminal frazeologizm nominativ birlik emas, balki ayblash, ogohlantirish, tahdid, fosh etish, gumon bildirish va tanqid kabi nutqiy aktlarni amalga oshiruvchi pragmatik vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda nutqiy akt tahlili, kommunikativ-funksional, komponent va qiyosiy metodlar qo'llanildi. Natijalar kriminal frazeologik birliklar yettita asosiy nutqiy akt atrofida guruhlanishini va ularning adresant-adresat munosabatini belgilashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *kriminal frazeologiya, nutqiy akt, kommunikativ vazifa, illokutiv kuch, ayblash, fosh etish, adresant-adresat munosabati, pragmatik ekvivalentlik.*

Annotation: the article analyses criminal phraseological units in English and Uzbek within the framework of speech-act theory. A criminal idiom is treated not as a nominative unit but as a pragmatic means of performing speech acts such as accusing, warning, threatening, exposing, raising suspicion and criticising. The study uses speech-act, communicative-functional, componential and comparative methods. The results show that criminal phraseological units cluster around seven core speech acts and that they configure the addresser-addressee relationship.

Key words: *criminal phraseology, speech act, communicative function, illocutionary force, accusation, exposure, addresser-addressee relationship, pragmatic equivalence.*

Kirish. Frazelogik kriminal birliklarni kommunikativ-pragmatik aspektida tadqiq etish ularni oddiy nominativ birlik sifatida emas, balki jinoyatga oid voqelikni baholovchi, obrazli idrok ettiruvchi va so'zlovchining ijtimoiy-huquqiy munosabatini bildiruvchi lisoniy vosita sifatida qarashni talab etadi. Frazelogik birliklar nutqda semantik ma'nodan tashqari kommunikativ, ekspressiv va baholovchi yuklamaga ega birliklar sifatida talqin qilinadi [1].

Mazkur maqolaning maqsadi — kriminal frazeologizmlarni nutqiy aktlar nazariyasi doirasida o'rganish. Nutqiy akt yondashuvida frazeologik birlikning vazifasi voqelikni nomlash bilan cheklanmaydi; u orqali so'zlovchi ayblash, ogohlantirish, tahdid qilish, fosh etish, tanqid qilish, gumon bildirish yoki muayyan xatti-harakatga undash kabi maqsadlarni amalga oshiradi. Frazelogik birlikdagi pragmatik axborotni anglashda birlikni qo'llashdan maqsad, qanday nutqiy harakat amalga oshirilayotgani, kommunikantlar munosabati va matnning tinglovchiga ta'siri aniqlanishi kerak [2].

Materiallar va metodlar

Tadqiqot materialini ingliz tilidagi *You have blood on your hands, Don't play with fire, You will pay for this, I will blow the whistle, Crime doesn't pay, He got away with murder, Something is fishy here* hamda o'zbek tilidagi *qo'ling qonga botgan, o't bilan o'ynashma, buning javobini berasan, fosh qilmoq, jazosiz qutulib ketdi, bu ishning tagida bir gap bor* kabi birliklar tashkil etadi.

Tahlilda to'rt metod uyg'unlashtirildi: **nutqiy akt tahlili** (illokutiv kuch va kommunikativ maqsadni aniqlash), **kommunikativ-funksional tahlil** (birlikning nutqdagi vazifasini belgilash), **komponent tahlil** (obraz hosil qiluvchi komponentlarni ajratish) va **qiyosiy tahlil** (ingliz-o'zbek pragmatik ekvivalentligini aniqlash). Frazelogizm ortida muayyan madaniy tajriba va ijtimoiy stereotip yotgani uchun ularni to'g'ri talqin qilishda til bilan birga madaniyat ham hisobga olindi [1].

Natijalar

Tahlil kriminal frazeologik birliklar yettita asosiy nutqiy akt atrofida guruhlanishini ko'rsatdi. Quyidagi jadval ularni umumlashtiradi.

Nutqiy akt	Inglizcha birlik	O'zbekcha mos ifoda	Faollashgan konsept
Ayblash	<i>You have blood on your hands</i>	<i>qo'ling qonga botgan</i>	ayb, javobgarlik
Ogohlantirish	<i>Don't play with fire</i>	<i>o't bilan o'ynashma</i>	xavf, oqibat
Tahdid	<i>You will pay for this</i>	<i>buning javobini berasan</i>	jazo, qasos
Fosh etish	<i>to blow the whistle</i>	<i>fosh qilmoq</i>	oshkor etish
Maslahat/baho	<i>Crime doesn't pay</i>	<i>qing'ir ishning qiyig'i chiqadi</i>	ijtimoiy me'yor
Tanqid	<i>He got away with murder</i>	<i>jazosiz qutulib ketdi</i>	adolatsizlik
Gumon	<i>Something is fishy here</i>	<i>tagida bir gap bor</i>	yashirin shubha

1-jadval. Kriminal frazeologik birliklarning nutqiy aktlar bo'yicha tasnifi.

Ayblash, ogohlantirish va tahdid aktlari

You have blood on your hands birligi so'zma-so'z ma'no bermaydi; u shaxsni qotillik yoki og'ir ayb uchun javobgar etib ko'rsatuvchi kuchli ayblov aktidir. *Blood/qon* komponenti og'ir ayb va zo'ravonlikni, *hand/qo'l* komponenti esa harakat bajaruvchisini faollashtiradi. *Don't play with fire* — *o't bilan o'ynashma* ogohlantirish aktini bajaradi: adresatni xavfdan qaytaradi. *You will pay for this* — *buning javobini berasan* esa tahdid aktida adresatga psixologik bosim o'tkazadi; bunda *pay/to'lamoq* komponenti javobgarlik va qasos konseptiga ko'chadi.

Fosh etish, tanqid va gumon aktlari

I will blow the whistle birligi korrupsiya yoki yashirin jinoyatni oshkor qilish aktini bajaradi; tarjimada *hushtak chalmoq* emas, *fosh qilmoq*, *oshkor etmoq* mos keladi, chunki obrazdan ko'ra fosh etish funksiyasi ustun [2]. *He got away with murder* — *jazosiz qutulib ketdi* tanqid aktini bajaradi va «jazo bo'lishi kerak edi, ammo bo'lmadi» degan presuppozitsiyani olib keladi. *Something is fishy here* — *bu ishning tagida bir gap bor* esa gumon aktida ochiq ayblovdan qochib, tinglovchini shubhaga yo'naltiradi.

Muhokama.

Nutqiy akt tahlili kriminal frazeologizmlarning adresant-adresat munosabatini ham ochadi. Ayblash aktida adresant hukm chiqaruvchi, ogohlantirishda qaytaruvchi, tahdidda

bosim o'tkazuvchi, fosh etishda oshkor qiluvchi, tanqidda esa ijtimoiy adolat mezonidan baho beruvchi pozitsiyani egallaydi. Demak, frazeologik birlik faqat konseptni emas, balki kommunikantlarning o'zaro pozitsiyasini ham belgilaydi.

Frazeologik birliklar nutqda manipulyativ vosita sifatida ham qo'llanib, tinglovchiga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin [1]. Shu bois tarjimada faqat ma'no emas, qaysi nutqiy akt bajarilayotgani ham saqlanishi kerak: *You have blood on your hands* ni *sen aybdorsan* deb berish ayblovning obrazli kuchini kamaytiradi, *qo'ling qonga botgan* esa ayblov, obraz va emotsional kuchni saqlaydi. Frazeologik birliklar muloqotni boshqarish, munosabat bildirish va aniq kommunikativ maqsadga erishish vositasidir [3].

Xulosa. Nutqiy aktlar doirasida kriminal frazeologik birliklar nominativ birlikdan kengroq vazifa bajaradi: ular ayblaydi, ogohlantiradi, tahdid qiladi, fosh etadi, maslahat va baho beradi, tanqid qiladi hamda gumon bildiradi. Har bir akt muayyan kriminal konseptni faollashtiradi, obraz va komponent orqali illokutiv kuch oladi, adresatga ta'sir ko'rsatadi va tarjimada pragmatik ekvivalentlikni talab qiladi. Demak, kriminal frazeologizmlar jinoyatga oid voqelikni nafaqat tasvirllovchi, balki ijtimoiy-huquqiy munosabatni shakllantiruvchi kuchli kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badalov F.A. Frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari va nutqda qo'llanilishi // ICARHSE.
2. Maxmudjonova F. Frazeologizmlar semantikasidagi kognitiv-pragmatik axborot va ularni tushunish usullari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14771115>
3. Turdiqulov B.N., Yusupov A.A., Yovqochev D., Qurbonov D. Pragmatic Functions of English Phraseological Units. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17810361>
4. Abdulhakimova M.R. Pragmatic Features of Phraseological Units // mudarrisziyo.uz.
5. Mirsagatova P.A. Frazeologik birliklar semantikasida konnotatsiyaning o'rni. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7552603>

Muhayyo ERGASHOVA,
Qo'qon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
Muxayyorgashova74@mail.com

FONOLOGIK SATH VA LOKALLIK

Annotatsiya: maqolada lokallik belgisi tilning turli sathlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, bu jihatdan quyi sath (fonologik sath) birliklari bilan yuqori sath (morfemik sath va boshqalar) birliklarida mavjud bo'lgan lokallik bir-biridan ma'lum darajada farqlanishi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *lokallik belgisi, fonologik sath, morfemik sath, zidlanish, differensiatsiya, fakultativ fonema, fonemaning fakultativ variantlari.*

Annotation: the article discusses the unique manifestation of the locality feature at different levels of language. In this regard, it is noted that the locality present in lower-level units (phonological level) differs to a certain extent from the locality in higher-level units (morphemic level and others).

Key words: *locality feature, phonological level, morphemic level, opposition, differentiation, facultative phoneme, facultative variants of a phoneme.*

Аннотация: в статье рассматривается своеобразное проявление признака локальности на разных уровнях языка. В этом аспекте отмечается, что локальность, существующая в единицах низшего уровня (фонологический уровень), в определенной степени отличается от локальности в единицах высшего уровня (морфемный уровень и др.).

Ключевые слова: *признак локальности, фонологический уровень, морфемный уровень, оппозиция, дифференциация, факультативная фонема, факультативные варианты фонемы.*

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor talab qilinmoqda. Chunki bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida mafkuraviy hurujlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlarini, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Lokallik belgisi tilning turli sathlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu jihatdan quyi sath (fonologik sath) birliklari bilan yuqori sath (morfemik sath va boshqalar) birliklarida mavjud bo'lgan lokallik bir-biridan ma'lum darajada farqlanadi. Xususan, fonologik sathda lokallik belgisi faqat shaklga daxldor bo'lsa va artikulyatsiya o'rni bilan izohlansa, yuqori sath birliklarida lokallik belgisi mazmuniy tuzilishga mansubdir. Shuning uchun ham yuqori sathlarda lokallik belgisi "lokal" semalar orqali yuzaga chiqadi. Ma'noli birliklarning semik tuzilishida "lokal" sema ishtirok etadi va lokallik sinfiga kiruvchi ma'noli birliklar doirasida bu sema integral sema vazifasini bajarish uchun xizmat qiladi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, quyi sath birliklari ham, yuqori sath birliklari ham bir umumiy belgi ostida muayyan bir qatarga tiziladi. Lokallik belgisi ularni ana

shunday qatarga bog'lab turadi. Shu nuqtayi nazardan dissertatsiyada dastlab fonologik sathda lokallik belgisi haqida va bu belgining fonologik qimmatga ega bo'lish yoki ega bo'lmasligiga qisqacha to'xtalib o'tishni lozim deb hisobladik. Lekin asosiy e'tibor ma'noli birliklarning lokallik belgisi asosida tadqiq etilishiga qaratiladi.

Ma'lumki, fonemalar eng kichik farqlovchi belgi sifatida amal qiluvchi, so'z va morfemalarni shakllantiruvchi, yuqori sath birliklarining ma'nolarini farqlashga xizmat qiluvchi quyi sathga tegishli til birligidir.

Fonemalar o'rtasida muayyan zidlanishlar bo'lib, bu farqlanishlar tilga va nutqqa xos tarzda amal qiladi. Til hodisasi sifatida fonemalar o'rtasidagi differensiatsiya ko'proq ularning bir-biridan farqlanuvchi eng muhim belgilarini aniqlashga yo'naltiriladi. Nutq hodisasi sifatida esa muayyan qurshovda yuzaga keluvchi farqlarni hisobga olish mumkin. Bu holat fonemalar (barcha til birliklari) o'rtasidagi belgining bir xil emasligini ko'rsatadi. Shu asosda tilshunoslikda til birliklarining turli variantlari tushunchasi paydo bo'ldi. Xususan, fakultativlik, shartlanganlik belgisi tushunchasi ham ana shunday qarashlarning natijasi sifatida yuzaga kelgan.

"Tilshunoslikda fakultativlik tushunchasi fonologiya sathi birliklari munosabatini aniqlash uchun qo'llangan. "Fakultativ fonema" va "fonemaning fakultativ variantlari" tushunchalarini izohlagan O.S.Axmanova ularni shartlangan pozitsion variantga qarshi qo'yadi. Shuningdek, J. Maruzo ham variantlarning yuzaga kelishi matn bilan bog'liq

bo'lmagan taqdirdagina fakultativlik haqida fikr yuritish mumkinligini qayd etadi".¹ N.S.Trubetskoyning fikricha, har bir fonema boshqa fonemadan ma'no farqlash xususiyati orqali ajratiladi. Natijada har bir tilning barcha fonemalari qarama-qarshiliklar sistemasini tashkil etadi.²

Turkiy tillarda muayyan "lokal" belgi bilan farqlanuvchi ayrim fonemalar o'rtasida ham o'ziga xos zidlanishlar kuzatiladi. Avvalo, har bir tilning fonologik birliklari "lokal" belgiga ko'ra binar tamoyil asosida privativ zidlanishga kirishadi: unlilar va undoshlar. Bu zidlanishning chap qatordagi a'zosi lokallik belgisiga nisbatan kuchsiz, o'ng qatordagi a'zo esa lokallik belgisining kuchliligi bilan xarakterlanadi.³ Shunga ko'ra, o'zbek tilida unli fonemalar tasnifiga nisbatan turlicha qarashlar kuzatiladi. Ayrim qarashlarda unlilarning paydo bo'lish o'рни asosida guruhlanishi alohida hisobga olinsa, ayrimlarida bunday tasnif inkor qilinadi. Bu masalaga professor Sh.Rahmatullaev to'xtalib shunday qayd qiladi: "Adabiyotlarda hozirgi adabiy o'zbek tilidagi olti ovoz tovush muntazam tizimni tashkil etadi, deb ta'kidlanadi. Bu olti tovush ikki nuqtayi nazardan (tilning yotiq harakati va lablarning qatnashish darajasiga ko'ra) bir xil tizimni hosil qiladi".⁴

D.Nabiyeva esa, o'zbek adabiy tilining hozirgi davri uchun singarmonizmning amal qilmasligi, faqat o'zbek shevalarida qatorga ko'ra zidlanishning saqlanganini ta'kidlab shunday yozadi: "Hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun qator belgisi fonologik qimmatini yo'qotgan. Shuning uchun hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo'la olmaydi".⁵ Muallif o'zbek tili unli fonemalari uchun asosiy belgi sifatida kenglik-torlik va lablanishlik-lablanmaslik belgisini ko'rsatib, qator belgisini qo'shimcha belgilardan biri sifatida e'tirof qiladi. Biz ham o'zbek adabiy tili unli

fonemalari uchun "lokal" belgini kuchsiz, asosiy bo'lmagan belgilar qatorida ko'rsatishni lozim topdik. Boshqacha aytganda, unli fonemalar nutq jarayonida lokallashib (bu hodisa ayrim o'zbek shevalarida kuzatiladi), natijada faqat nutq jarayonidagina til oldi va til orqa fonemalari farqlanishlarining ma'lum fonologik qimmati namoyon bo'ladi: *o'n-ön, o't-öt* va boshqalar. Undosh fonemalar uchun esa ma'lum fonologik qimmatga ega bo'lgan belgilardan biri paydo bo'lish o'рни belgisi sanaladi. Bilamizki, undosh fonemalar talaffuzi orqali muayyan to'siqqa uchrash holati kuzatiladi. Ayni shu to'siq orqali undoshlar unlilardan farq qiladi, ya'ni o'pkadan chiqayotgan havoning to'siqqa uchrashi undoshlar talaffuzida, to'siqqa uchramasligi esa unlilar talaffuzida kuzatiladi. Shu jarayon natijasida unli va undosh fonemalar bir-biridan "lokal" belgiga egalik (undoshlar) va "lokal" belgiga ega emaslik (unlilar) xususiyati orqali o'zaro farqlanadi.

Bu haqda D.Nabiyeva: "Ana shu to'siqqa uchragan nuqta ularning o'rin belgisi sanaladi. Bu belgiga ko'ra undoshlar bir necha zidlikni tashkil etadi: lab, lab-tish, til oldi, til o'rta, til orqa, uvulyar va faringal undoshlar oppozitsiyasi", – deb ta'kidlaydi. Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi undosh fonemalar uchun "lokal" belgi asosiy belgi hisoblanadi. Ularning har qaysisi bir-biriga muayyan belgilar orqali tutashsa-da, o'z navbatida, bir-biridan ma'lum farqlovchi belgi orqali ajratiladi. Chunonchi, **b, p, m** undoshlarining umumiy belgisi ularning labda (paydo bo'lish o'рни) to'siqqa uchrashi bo'lsa, **k, g, ng** undoshlarining umumiy "lokal" belgisi "til undoshi", "til orqa" va "sayoz" ekanligi hisoblanadi. Keyingi undoshlarga **q, g', h** fonemalari "lokal" belgi asosidagi ko'p jihatlari bilan birlashib, ular bilan umumiylik hosil qilsa-da, ular o'rtasidagi "sayoz" va "chuqur" til orqa belgisi farqlash uchun xizmat qiladi va ular orasida ma'lum zidlanish hosil bo'ladi.

Xullas, lokalizatsiya munosabati ham mantiqiy, ham grammatik kategoriyadir. Ongda aks etgan narsa-hodisa, harakat-holat, belgi-xususiyat bilan uning o'рни o'rtasidagi xususiyat mantiqiy munosabat sanalsa, bu munosabatni ifodalovchi lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabat lingvistik munosabat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдиэлари ва йўналишлари. – Андижон, 2006. 11,
2. Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти: Олий ўқув юрти талабалари учун, ўқитувчилар учун қўлланма. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1995, 86 б.
3. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: "Фан", 2013.
4. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. – Тошкент: Университет, 2007.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1995. 232 б.

L.K.BAYMURADOVA,
 PHD
 Karshi state university

THE ROLE OF CONTEXT IN SOCIAL DISCOURSE

Annotation: this article examines the role of context in social discourse and its contribution to the formation of pragmatic meaning. In contemporary linguistics, discourse is viewed as a complex communicative phenomenon shaped by linguistic, social, cultural, and situational factors. The study aims to investigate how different types of context influence the interpretation of discourse and communicative intentions. A qualitative descriptive method based on discourse-pragmatic analysis is employed. The research focuses on four major types of context: situational, social, cultural, and linguistic. The findings indicate that context plays a decisive role in the interpretation of utterances, the identification of implicatures, the realization of speech acts, and the understanding of presuppositions. The analysis demonstrates that the same linguistic expression may acquire different meanings depending on the communicative environment in which it is used.

Key words: *social discourse, context, pragmatics, discourse analysis, pragmatic meaning, speech acts, implicature, presupposition, communication.*

Аннотация: в данной статье рассматривается роль контекста в социальном дискурсе и его вклад в формирование прагматического значения. В современной лингвистике дискурс рассматривается как сложный коммуникативный феномен, формируемый лингвистическими, социальными, культурными и ситуационными факторами. Цель исследования — изучить, как различные типы контекста влияют на интерпретацию дискурса и коммуникативные намерения. Используется качественный описательный метод, основанный на дискурсивно-прагматическом анализе. Исследование фокусируется на четырех основных типах контекста: ситуативном, социальном, культурном и лингвистическом. Результаты показывают, что контекст играет решающую роль в интерпретации высказываний, выявлении импликатур, реализации речевых актов и понимании пресуппозиций. Анализ демонстрирует, что одно и то же лингвистическое выражение может приобретать разные значения в зависимости от коммуникативной среды, в которой оно используется.

Ключевые слова: *социальный дискурс, контекст, прагматика, дискурсивный анализ, прагматическое значение, речевые акты, импликатура, пресуппозиция, коммуникация.*

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy diskursda kontekstning roli va uning pragmatik ma'noni shakllantirishga qo'shgan hissasi o'rganiladi. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs lingvistik, ijtimoiy, madaniy va vaziyat omillari ta'sirida shakllangan murakkab kommunikativ hodisa sifatida qaraladi. Tadqiqot turli xil kontekst turlari diskurs va kommunikativ niyatlarni talqin qilishga qanday ta'sir qilishini o'rganishga qaratilgan. Diskurs-pragmatik tahlilga asoslangan sifatli tavsiflash usuli qo'llaniladi. Tadqiqot kontekstning to'rtta asosiy turiga qaratilgan: vaziyatli, ijtimoiy, madaniy va lingvistik. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kontekst gaplarni talqin qilishda, implikaturalarni aniqlashda, nutq harakatlarini amalga oshirishda va presuppozitsiyalarni tushunishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bir xil lingvistik ifoda u ishlatiladigan kommunikativ muhitga qarab turli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy diskurs, kontekst, pragmatika, diskurs tahlili, pragmatik ma'no, nutq harakatlari, implikatura, presuppozitsiya, kommunikatsiya.*

Introduction

In modern linguistics, discourse is regarded not merely as a collection of linguistic units but as a complex communicative phenomenon closely connected with social, cultural, and cognitive factors. Since the second half of the twentieth century, discourse analysis has emerged as a significant field of study in linguistics, pragmatics, sociolinguistics, and cognitive linguistics. Scholars such as Zellig Harris, Teun A. van Dijk, Norman Fairclough, and M.A.K. Halliday have emphasized that discourse reflects the interaction between language and society.

Within discourse studies, context plays a crucial role in meaning construction. The interpretation of linguistic expressions depends not only on their lexical and grammatical properties but also on the situational, social, cultural, and linguistic circumstances in which they are produced. Therefore, understanding the relationship between context and pragmatic meaning is essential for the analysis of social discourse.

The aim of this study is to examine the role of context in social discourse and to identify how contextual factors contribute to the formation and interpretation of pragmatic meaning.

Methods

This study employs a qualitative descriptive approach based on discourse-pragmatic analysis. The research is grounded in the theoretical frameworks of discourse analysis, pragmatics, speech act theory, and contextual analysis.

The data consist of illustrative examples drawn from everyday communication and social discourse. The analysis focuses on four major types of context:

1. Situational context;
2. Social context;
3. Cultural context;
4. Linguistic context.

The study also applies the concepts of implicature, presupposition, and speech acts to investigate how contextual information influences meaning interpretation.

Results

The analysis demonstrates that context plays a decisive role in the interpretation of discourse.

First, situational context determines how an utterance is understood within a particular communicative environment. For example, the statement *"It is cold here"* may function either as a factual observation or as an indirect request to close a window.

Second, social context influences language choice according to the social status, age, profession, and interpersonal relationships of communication participants. Formal and informal interactions exhibit significant differences in linguistic forms and communicative strategies.

Third, cultural context affects the interpretation of discourse through shared values, traditions, and background knowledge. The same linguistic expression may be interpreted differently across cultures.

Fourth, linguistic context contributes to meaning construction through the relationship between words, sentences, and surrounding textual elements.

The findings also reveal that pragmatic phenomena such as implicature and presupposition cannot be fully interpreted without contextual information. For instance, the sentence *"The door is open"* may convey information,

criticism, dissatisfaction, or an indirect request depending on the communicative situation.

Similarly, speech acts acquire different illocutionary forces according to context. The utterance *"The window is open"* may function as a statement, request, command, or warning.

Discussion

The findings support the view that meaning is context-dependent rather than solely determined by linguistic structure. This conclusion is consistent with Grice's theory of implicature, which argues that speakers frequently communicate meanings beyond the literal content of their utterances.

The results also confirm Austin's and Searle's speech act theories, according to which the effectiveness and interpretation of speech acts depend heavily on contextual factors. Moreover, the study supports the assumptions of Critical Discourse Analysis, which emphasizes that discourse reflects social relations, power structures, and ideological positions.

From a sociolinguistic perspective, context serves as a bridge between language and society. It allows speakers to select appropriate communicative strategies and enables listeners to interpret intended meanings accurately. Therefore, context should be regarded as a fundamental component of discourse interpretation.

Conclusion

The study concludes that context is a central element in social discourse and a key factor in the formation of pragmatic meaning. Situational, social, cultural, and linguistic contexts interact to shape the interpretation of discourse and facilitate successful communication.

The analysis demonstrates that pragmatic phenomena such as implicature, presupposition, and speech acts cannot be adequately understood without considering contextual factors. Consequently, context functions as an essential link between language, cognition, and society.

Future research may investigate the role of context in digital communication, social media discourse, and online interaction, where contextual cues often differ from those found in face-to-face communication.

References

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. – Oxford: Oxford University Press.
2. Fairclough, N. (2015). *Language and Power* (3rd ed.). – London: Routledge.
3. Grice, H. P. (1989). *Studies in the Way of Words*. – Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1989). *Language, Context and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective* (2nd ed.). – Oxford: Oxford University Press.
5. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press.
6. Schiffrin, D. (1994). *Approaches to Discourse*. – Oxford: Blackwell Publishers.
7. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press.
8. van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Durdona RASULMUXAMEDOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

O'ZBEK DETEKTIV JANRINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada o'zbek adabiyotida detektiv janrining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va milliy xususiyatlari tahlil qilingan. Detektiv janrining xalq og'zaki ijodi, xususan, doston va ertaklardagi sir, izlanish, topqirlik hamda adolat g'oyalari bilan genetik va tipologik aloqasi yoritilgan. Shuningdek, o'zbek detektivining badiiy-estetik xususiyatlari, milliy mentalitet bilan uyg'unligi hamda ta'lim jarayonida talabalarning mantiqiy, tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari asoslangan. Tadqiqot natijalari o'zbek detektiv janri mustaqil badiiy tizim sifatida shakllanganini va uning milliy adabiyot taraqqiyotida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *detektiv janr, o'zbek adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, doston, ertak, mantiqiy fikrlash, pedagogik ahamiyat.*

Аннотация: в статье исследуются становление, этапы развития и национальные особенности детективного жанра в узбекской литературе. Рассматривается его генетическая и типологическая связь с узбекским устным народным творчеством, в частности с эпосами и сказками, содержащими мотивы тайны, поиска, смекалки и восстановления справедливости. Особое внимание уделено художественно-эстетическим особенностям узбекского детектива, его национальной специфике и дидактическому потенциалу в развитии логического, аналитического и критического мышления студентов. Сделан вывод о том, что современный узбекский детектив сформировался как самостоятельное направление национальной литературы.

Ключевые слова: *детективный жанр, узбекская литература, устное народное творчество, эпос, сказка, логическое мышление, педагогика.*

Annotation: this article examines the formation, development, and distinctive features of the detective genre in Uzbek literature. It explores the genetic and typological relationship between detective fiction and Uzbek folklore, particularly epic narratives and fairy tales that contain motifs of mystery, investigation, ingenuity, and justice. Special attention is given to the artistic characteristics of Uzbek detective fiction, its national identity, and its educational value in fostering students' logical, analytical, and critical thinking skills. The findings demonstrate that the detective genre has evolved into an independent and significant branch of modern Uzbek literature.

Key words: *detective genre, Uzbek literature, folklore, epic, fairy tale, logical thinking, pedagogy.*

O'zbek adabiyotida detektiv janrining paydo bo'lishi bevosita dostonlar bilan bog'liq emas, lekin ma'lum darajada ildiz jihatidan ular bilan bilvosita aloqasi bor. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi "Alpomish" va "Go'ro'g'li" kabi dostonlarda sirli voqealar, yashirin rejalar, qahramonning izlanishlari, adolatni tiklash motivlari uchraydi. Bu elementlar detektiv janriga xos jihatlariga o'xshash. Lekin dostonlar asosan, epik va qahramonlik ruhida, detektiv esa jinoyatni ochish va mantiqiy tahlilga quriladi. Dostonlar detektiv janrning to'g'ridan to'g'ri manbai emas. Ammo ulardagi sarguzasht, sir va adolat g'oyalari detektiv tafakkurga ma'lum darajada zamin yaratgan.

O'zbek adabiyotida detektiv janrining paydo bo'lishi bevosita ertaklar bilan ham bog'liq emas, ammo ular bilan bilvosita aloqada. O'zbek xalq ertaklarida jumboqlar, yashirin haqiqatni ochish, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash kabi unsurlar uchraydi. Bu jihatlar detektiv janrga qisman o'xshaydi. Masalan, qahramon ko'pincha bir muammoni hal qiladi yoki sirni ochadi. Ammo muhim farqlar bor. Ertaklar fantastik, mo'jizaviy voqealarga boy. Detektiv janr esa mantiq, dalil va tergovga asoslanadi. Ya'ni, detektivda voqealar real hayotga yaqin va tahliliy fikrlash bilan ochiladi. Ertaklar detektiv janrning bevosita manbai emas. Lekin ulardagi sir, jumboq va muammoni hal qilish motivlari detektivga ma'lum darajada yaqin.

	Ertakda	Detektivda
1. Sir va jumboq mavjudligi	Qahramon bir sirni bilishi yoki topishi kerak bo'ladi (yo'qolgan buyum, yashirin joy, sehrli narsa)	Jinoyat yoki sirli hodisa bo'ladi (masalan, o'g'irlik yoki qotillik) va uni ochish kerak
	👉 Har ikkala janrda ham voqea sirni yechishga qaratilgan	

2. Izlanish jarayoni	Qahramon safarga chiqadi, turli sinovlardan o'tadi, izlaydi	Tergovchi dalillarni yig'adi, guvohlarni so'roq qiladi, voqeani tahlil qiladi
	👉 Har ikkala janrda ham izlanish va haqiqatga yetishish jarayoni bor	
3. Aql va topqirlik	Qahramon ko'pincha aql bilan muammoni hal qiladi (masalan, dono yigit yoki qiz)	Tergovchi mantiq va tafakkur orqali jinoyatni ochadi
	👉 Bu yerda umumiy jihat — fikrlash va topqirlik	
4. Yaxshilikning g'alabasi	Yaxshi qahramon yomonni yengadi	Jinoyatchi topiladi va jazolanadi
	👉 Har ikkala janrda ham adolat tiklanadi	

Asosiy farq (eng muhim!) Ertak → mo'jizaviy, fantastik.
Detektiv → real hayotga yaqin, mantiqiy. Ertaklar detektiv janrni bevosita yaratmagan, lekin ✓sir ✓izlanish ✓topqirlik ✓adolat kabi umumiy elementlar orqali unga ma'lum darajada yaqin turadi.

Abdulla Qodiriyning 1915-yilda yozilgan "Juvonboz" nomli ilk hikoyasi professor Sobir Mirvaliyevning ta'бири bilan aytganda: "...nafaqat adib ijodida, balki Fitrat, Cho'lpon hikoyalari kabi butun bir XX asr o'zbek adabiyotida realistik nasriy asarlarning tug'ilishini boshlab bergan asarlardan biri sifatida ham ahamiyatli edi". Eng qizig'i, yozuvchining ilk hikoyasi bo'lgan "Juvonboz"da detektiv unsurlarini uchratamiz. Sa'dulla "raqiblari" bo'lgan Eshnazar, Boqi sarkor va Kichikxo'ja jo'raboshini aldab bog'ga chaqiradi va ziyofatda may berib, yiqitadi... Oradan bir-ikki kun o'tgach, ularning yo'qolgani ma'lum bo'ladi. Politsiya qidirishni boshlaydi. Gumonlanuvchilar qatori Sa'dulla bilan Rahimjon ham so'roq qilinadi, biroq ikkisi ham ularni tanimasliklarini aytishadi, ammo "baxtga qarshi mazkur yo'qolg'onlar bilan ilgari gaplashib va samovar-choyxonalarda birga choyxorlik qilub yurganlarini bir necha yigitlar ma'lum qilganlikdan politsiya fahmlab, har ikkisinin uylarini taftish qilib, ikkisidan ham qonlik ko'ylaklar topdi. Politsiyaga bu katta nishona bo'ldi", deyiladi asarda. "Va Rahimjon bunga bir sabab ko'rsatib berolmay yig'lamoqg'a boshladi va Sa'dullaning qochib ketgani, o'ldurganliklariga katta dalil bo'lurday bo'lub qolg'ani uchun politsiya to'g'ri ikkisini turmaga yopdi" kabi tasvirlarni o'zbek adabiyotidagi ilk detektiv uchqunlari deyish mumkin.

Abdulla Qodiriyning "Shubha" nomli kichik hikoyasida ham detektiv janriga xos ba'zi xususiyatlarni ko'rish mumkin, ammo uni to'laqonli detektiv asar deb bo'lmaydi. Shuningdek, "O'tkan kunlar" romanida ham detektiv janri unsurlarini ilg'ash mumkin. Masalan, asarda Homidning jinoyatlarini fosh qilish uchun Otabekning nihoyatda puxtalik bilan harakat qilishi jahon detektiv adabiyotidagi mohir izquvarlarni yodga soladi.

O'lmas Umarbekovning "Fotima va Zuhra" romani, "Yoz yomg'iri" qissasi, Fayzulla Qilichevning "Zanjir", Said

Ravshanning "Chordoqda otilgan o'q", Omon Muxtorning "Mo'jiza", Botir Nosirovning "Oltin qasr fojeasi" kabi asarlari ham detektiv janr takomiliga xizmat qildi. Bu yo'nalishda Omon Muxtor, Xurshid Do'stmuhammad kabi adiblar ham yaxshi asarlar yaratdilar. Ushbu va yuqorida sanab o'tilgan ijodkorlarning asarlarida detektiv janrida yetakchi omil sanaluvchi kriminalistik uslub yetakchilik qiladi. Ammo har bir asarda u o'quvchiga turli xil shaklda yetkaziladi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning 1992–2000-yillar oralig'ida yaratilgan 5 kitobdan iborat "Shaytanat" asari esa o'zbek detektiv janrining eng yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi. Hatto Tog'ay Murod bu haqda to'xtalib, "Bugungi kunda uluq Tohir Malikda ketdi", degan edi. "Shaytanat" shu qadar shuhrat qozondiki, eng ko'p o'qiladigan va eng ko'p chop etiladigan asarga aylandi. Tadqiqotchilar uni amerikalik yozuvchi Mario Pyuzoning mashhur "Cho'qintirgan ota" romani bilan qiyosiy o'rganib, o'zbek detektivining jahoniy imkoniyatlarini ko'rsatib berishdi. Tohir Malikning "Shaytanat" romanida kitobxon dastlab voqelikdan xabardor bo'lib, asarni o'qish davomida uning qanday yuzaga kelganligi sirini ochib boradi. Ayrim o'rinlarda voqelikdan xabardor bo'lish kitobxonga o'zini hakamdek his qilish imkonini beradi. U chetdan asar qahramonlari qabul qilayotgan qarorlarini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aql tarozisida tortib ko'radi va bevosita ma'naviyatini boyitib, o'zini tarbiyalab boradi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" qissasida ham bevosita detektiv janr shakllari ko'zga tashlanadi. Adib asardagi jumboq sirini asar oxiriga olib qo'yadi. Kitobxon asarni o'qish mobaynida har bir qahramon hayotida yashab, kechinmalarini birgalikda his qilib ko'radi. Yozuvchi kitobxonni har bir shubha-gumonni mulohaza qilib ko'rishga undaydi. Natijada, kitobxon mutolaa mobaynida asar ichida yashaydi. Qolaversa, yuqorida keltirilgan detektiv asarlar o'zining sodda, xalqchil, tushunarli va o'qish mobaynida kitobxonda zerikish hissini uyg'otmaydigan ayricha lingvistik uslubda bitilganligi asar qiymatini yanada boyitadi.

O'zbek detektiv janrining taraqqiyotida bir necha muhim bosqichlar ajralib turadi:

Boshlang'ich davr (XX asr o'rtalari)	○ Bu davrda detektiv elementlari ko'proq hikoya va qissalarda uchragan. ○ Syujetlar asosan shaxsiy sarguzasht va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan.
Rivojlanish davri (XX asr oxiri — XXI asr boshlarida)	○ Milliy yozuvchilar o'z asarlarida detektiv janrni mustaqil janr sifatida ishlab chiqar boshladilar. ○ Syujet murakkabligi oshdi, qahramonlar xarakteri yanada chuqurroq tasvirlandi.
Zamonaviy davr (so'nggi o'n yilliklar)	○ Zamonaviy o'zbek detektivlari global adabiyot tajribasini hisobga olib, mahalliy madaniy kontekstga moslashtirilgan asarlar yaratmoqdalar. ○ Asarlar nafaqat voqealarni sirli tarzda bayon qiladi, balki axloqiy va ijtimoiy muammolarni ham ko'taradi.

O'zbek adabiyotida detektiv janr nisbatan yangi bo'lsa-da, u o'zining o'ziga xos xususiyatlari bilan shakllanib bormoqda. Milliy yozuvchilar tomonidan yaratilgan detektiv asarlar o'quvchilarda voqealarni tahlil qilish, personajlarni tushunish va murakkab syujetlarni ochish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, zamonaviy o'zbek yozuvchilarining ba'zi hikoya va romanlari talabalarni voqeani tahlil qilishga va muammolarni yechishga jalb qiladi. Shu bilan birga, bu janr orqali talabalarga axloqiy-ijtimoiy masalalarni tushuntirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

O'zbek detektiv asarlari voqelikni tahlil qilish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash va qahramonlarning harakatlarini o'quvchiga mantiqiy asosda tushuntirishga qaratilgan. Janr dastlab she'riyat va hikoya janrlarining elementlarini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, keyinchalik mustaqil va o'ziga xos formatda shakllandi. Detektiv asarlar o'zbek adabiyotida ko'pincha ijtimoiy va axloqiy mavzular bilan chambarchas bog'lanadi, shuning uchun ular nafaqat o'quvchini qiziqtiradi, balki ma'naviy va intellektual rivojlanishga ham xizmat qiladi.

Milliy detektiv janrning rivojlanishida bir qancha yozuvchilarning ijodi alohida ahamiyatga ega. Ularning asarlari syujet murakkabligi, qahramonlar xarakterining chuqur tasviri va voqealarni mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, o'zbek detektiv adabiyoti global adabiyot tajribasini hisobga olib, mahalliy madaniy kontekst va jamiyat hayotiga moslashtirilgan. Misol uchun, talabalarga o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy detektiv hikoyalar orqali nafaqat voqealarni tahlil qilish, balki axloqiy qarorlar chiqarish ko'nikmalari ham rivojlantiriladi. Shuningdek, detektiv janr o'zbek adabiyotida pedagogik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. U dars jarayonida talabalarni

faollikka jalb qilish, muammoni yechish bo'yicha guruh ishlari va muhokamalarni tashkil etish imkonini beradi. Natijada talabalarning nafaqat matnni tushunish va tahlil qilish, balki tafakkur va ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi. O'zbek detektiv janrining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, u o'quvchi va voqea o'rtasida faol interaktiv aloqani ta'minlaydi. O'quvchi syujetni taxmin qilish, qahramonlarning harakatlarini tahlil qilish va muammoni hal etish jarayonida faol ishtirok etadi. Shu sababli, mazkur janr o'zbek tili va adabiyot darslarida pedagogik vosita sifatida ham keng qo'llanilishi mumkin.

XXI asrda zamonaviy yozuvchilar o'zbek detektiv janrini yanada murakkablashtirib, janrni global ma'naviyat va jahon adabiyotining misollari bilan muvofiqlashtirmoqda. Bu jarayonda detektiv asarlar zamonaviy ijtimoiy muammolar, shaxsiy qarshiliklar, axloqiy va ma'naviy yo'nalishlar bilan bog'lanib boradi. Masalan, bir qator ijodkorlar tomonidan yozilgan asarlarda jinoyat haqidagi elementlar nafaqat sirni ochish, balki insoniy qadriyatlar va jamiyatning ichki tuzilishi bilan ham bog'langan.

Bundan tashqari, detektiv janrning o'quv jarayonida qo'llanilishi ham ahamiyatlidir. U talabalarni faqat matnni tushunishga emas, balki faktlar orasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga, sabab va oqibatni aniqlashga, fikrlarni dalillar bilan asoslashga o'rgatadi. Bu jihat detektiv janrga tafakkurni rivojlantirish va didaktik qiymatga ega vosita sifatida ham qarash imkonini beradi.

Shu maqsad bilan o'zbek detektiv asarlarining o'qitilishida talabalarni muammoni aniqlash, dalillar bazasini yig'ish, personaj psixologiyasini tahlil qilish va xulosa chiqarish usullariga yo'naltirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Sirli syujetlarni o'rganish jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash va ijodiy yechim topish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymonov Sh. O'zbek detektiv nasri: genezisi va tabiati. Filol. fan. nom. diss. – Toshkent, 2002.4-bet.
- 2.Xoliqov B.Detektiv romanlarda voqelikning badiiy talqinini tizimli modellashirish. Filol.fan.bo'y.falsafa dokt.diss.– Toshkent, 2018.8-bet.
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. 334-bet.

Ma'rifat KASIMOVA,

Andijon davlat chet tillari instituti

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti v.b,
filologiya fanlari nomzodi

URF-ODAT VA MAROSIMLARGA OID SO'ZLARNING MADANIY KOD SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada o'zbek milliy lisoniy manzarasida urf-odatga oid so'zlarning madaniy kod hamda lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Urf-odatga oid mehmondo'stlik, andisha, odob, or, nomus, hayo, ibo kabi milliy qadriyatlar milliy lisoniy ongda muhim lingvomadaniy birlik sifatida shakllanganini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *to'y konsepti, lingvomadaniyat, milliy lisoniy manzara, etnomadaniyat, konnotatsiya, o'zbek mentaliteti*

Annotation: this article analyzes the cultural codes and linguocultural features of lexical units related to customs and traditions in the Uzbek national linguistic worldview. It demonstrates that national values such as hospitality, modesty, etiquette, honor, dignity, chastity, and propriety are deeply embedded in the national linguistic consciousness and function as significant linguocultural units that reflect the cultural identity and worldview of the Uzbek people.

Key words: *custom-related lexemes, linguoculture, national linguistic worldview, ethnoculture, connotation, Uzbek mentality*

Аннотация: в статье анализируются культурные коды и лингвокультурные особенности слов, связанных с обычаями и традициями, в узбекской национальной языковой картине мира. Показано, что такие национальные ценности, как гостеприимство, скромность, этикет, честь, достоинство, целомудрие и благопристойность, сформировались в национальном языковом сознании как важнейшие лингвокультурные единицы, отражающие культурную идентичность и мировоззрение узбекского народа.

Ключевые слова: *лексика, связанная с обычаями, лингвокультурология, национальная языковая картина мира, этнокультура, коннотация, узбекский менталитет*

Kirish. Olamning milliy lisoniy manzarasida etnomadaniy belgilarni yaqqol namoyon etuvchi xalqning urf-odatlari, rasm-rusum, an'ana va marosimlari tashkil etadi. Zero, "madaniyat mazkur xalq uchungina tegishli hayot va turmush tarzi, shuningdek, insonlar o'rtasidagi munosabatlar (qadriyatlar, urf-odatlari, marosimlar, munosabat shakllari va b.), dunyoni ko'rish, anglash va tasavvur etish usullaridir."

Mehmonnavozlik, mehmondo'stlik tushunchalari o'zbek milliy madaniyati, ma'naviy olami va mentalitetining eng markaziy yadrolaridan biridir. O'zbek madaniy modelida mehmonnavozlik faqat yaqin oila doirasida cheklanmaydi. Unga *qarindosh* (qon-qardoshlik rishtalari) va *qo'shni* (hududiy-mahalladoshlik birligi), *do'st* konseptlari chuqur singib ketgan.

O'zbek milliy lisoniy ongida "to'y" leksemasining madaniy konnotatsiyasi juda bosh va rang-barangdir. G'arb madaniyatida "to'y" shunchaki nikoh yoki oilaviy tantana bo'lsa, o'zbek mentalitetida inson hayotining oliy maqsadi, ijtimoiy burch ko'rinishi va ommaviy mehmonnavozlik marosimidir. To'y so'zi matnda quvonch, orzu-havas, elning duosini olish kabi kuchli madaniy-estetik ma'nolarni chaqiradi.

Muhokama va natija. Tadqiqotchi N.Sh. Qurbannazarova ta'kidlaganidek, "To'y – o'zbek tilida faqatgina ijobiy ma'noda qo'llaniladigan leksema bo'lib, uning barcha ko'rinishlari, xususan, "tug'ilish to'yi", "beshik to'yi", "chilla to'yi", "sunnat to'yi", "muchal to'yi", "nikoh to'yi", "payg'ambar to'y", "hoji to'y", "uy to'yi", "mashina to'yi" kabilar xursandchilik bilan elga osh berib, o'yin-kulgu, to'kin-sochinlik bilan nishonlanadi".

To'y 1. etn. Uylanish, turmushga chiqish, xatna qilish va b. munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm-tomoshalar bilan o'tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi.

2. etn. Qudalar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, kuyov tomondan qiz tomonga beriladigan pul, sarmo, masalliq va sh. k. majmui. – *Mulla Abdishukur, ertaga o'jizamizga to'y keladi, marhamat qiling, durustmi?* Oybek, Tanlangan asarlar.

3. etn. Shu narsalar yuborilishi munosabati bilan kuyov xonadonida, kelishi munosabati bilan qiz xonadonida o'tkaziladigan marosim.

4 Biror voqea-hodisaga bag'ishlab ziyofat va o'yin-kulgilar bilan o'tkaziladigan tantanalar. *Hovli to'yi. Hosil to'yi* (O'TIL, 4-jild, 229-b.)

Izohlardagi 1-ma'no so'zning lug'aviy, bosh ma'nosi, 2- va 3-ma'nolar metonimiya va ma'no torayish usullari orqali shakllangan bo'lib, nikoh to'yining bir qismi sifatidagi marosimni ifodalaydi. 4-ma'noda esa ma'no kengayishi orqali "to'y" leksemasiga oid "xursandchilik", "tantana", "marosim" kabi semalar aktuallashishi asosida hosil bo'lgan konnotativ ma'noni anglatadi.

"To'y" leksemasi o'zbek tili milliy lisoniy ongida oddiy maishiy tushuncha doirasidan chiqib, mentalitetning eng yirik va ko'p qatlamli lingvomadaniy konseptlaridan birini shakllantiradi. Bu so'zning semantik maydoni juda keng bo'lib, unda ham umumtilga xos lug'aviy ma'nolar (denotativ semalar), ham kontekstual va milliy-madaniy ma'nolar (konnotativ va pragmatik semalar) zanjiri mavjud.

"To'y" leksemasining denotativ ma'nosi asosiy va umumtil darajasidagi yaqqol tushuniladigan birlamchi ma'no qatlamidir. Unda quyidagi semalar mavjud:

✓ *xursandchilik/tantana* semasi: har qanday to'y – shodlik, xursandchilik va bayram kayfiyati bilan bog'liq voqelikdir.

✓ *marosim/ritual* semasi: inson hayotidagi muhim bosqich yoki voqeani nishonlash bilan bog'liq an'anaviy harakatlar majmui (*nikoh to'yi, sunnat to'yi, beshik to'yi, muchal to'yi*).

✓ *ommaviylik/jamoaviylik* semasi: o'zbek to'yi hech qachon tor doirada o'tmaydi; unda qarindosh-urug', mahalla-ko'y, el-yurt ishtiroki odatiy hisoblanadi.

✓ *mehmonnavozlik/ziyofat* semasi: to'yga kelgan mehmonlarni kutib olish, o'yin-kulgu va

ommaviy jamoaga turli taomlar, asosan, osh milliy taomini tortish ritualini anglatadi.

"To'y" leksemasining madaniy konnotativ semalari, ya'ni o'zbek milliy lisoniy ongida "to'y" so'ziga yuklangan va lingvomadaniyatshunoslik uchun eng muhim bo'lgan yashirin ma'no qatlamlari quyidagilar:

✓ *hayotning oliy maqsadi/orzu-havas* semasi: o'zbek mentalitetida insonning yashashdan asosiy maqsadlaridan biri – farzand voyaga yetkazib, to'y qilishdir. Bu so'z umumtilda "insonning baxti" tushunchasi sinonimiga aylangan.

✓ *ijtimoiy burch* semasi: to'y – oilaning jamiyat (mahalla, qarindoshlar) oldidagi ijtimoiy maqomini ko'rsatish, elning nazaridan o'tish va elning duosini olish vositasi hisoblanadi.

✓ *birdamlik/jipslik* semasi: to'y – tarqoq qarindoshlarni umumlashtiruvchi, gina-kuduratlarni unutuvchi va mahallaning o'zaro birdamlik an'alarini harakatga keltiruvchi ijtimoiy makon sifatida konnotatsiyalanadi.

Shuningdek, o'zbek milliy lisoniy olam manzarasida "to'y" leksemasi kontekstga qarab turli pragmatik ma'nolar ifodalay oladi:

✓ *milliy o'zlik/etnografik kod* semasi: to'y – uluq-ko'pkari, kurash, baxshilarning kuylashi kabi sof milliy qadriyatlar harakatlanadigan qadimiy va muqaddas makondir. Bu yerda "to'y" so'zida an'ana semasi bo'rtib turadi.

✓ *maishiy muammo/ortiqcha dabdaba* semasi: ayrim kontekstlarda to'yning maishiy-hajviy jihatlari ochiladi. So'z tarkibiga isrofgarchilik, maqtanish, o'zini ko'rsatish, qarzgaga botish kabi salbiy pragmatik semalar kontekstual tarzda yuklanadi.

✓ *ijtimoiy stereotip model* semasi: to'y – dinamik bir voqelik. Undagi jamoaviy maslahatlashish, bosh-qosh bo'lish, taklifnoma tarqatish, karnay-surnay chalish, to'yona bilan kelish, mehmonlarni tabaqalab o'tirg'izish, to'y marosimi bilan bog'liq udumlar orqali davrning ijtimoiy-maishiy tizimi va mansublik asosida qatlamlanishi (qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, hamkasblar, quda-andalar, kuyovjo'ralar, kelin dugonalar guruhlari) aks etadi.

Shu tariqa, "to'y" leksemasi o'zbek tilining milliy lisoniy manzarasida sof denotativ ma'nosidan ko'ra, kuchli madaniy va pragmatik konnotatsiyalari bilan ajralib turadi.

O'zbek tili tizimida ijtimoiy xulq-atvor stereotiplari qatoriga *andisha, odob, or, nomus, hayo, ibo* kabi sof ma'naviy-axloqiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar kiradi. Bu so'zlar o'zbek etnosining ijtimoiy ongida "mental regulyator" (jamoatchilik nazorati va xulq me'yori) vazifasini bajaradi va kuchli milliy konnotatsiya kasb etadi:

"Andisha" so'zi boshqa tillarga ko'pincha "*razmishlenie*" (*mulohaza*), "*opasenie*" (*xavotir*) yoki "*taktichnost*" (*andishalik*) deb tarjima qilinsada, o'zbek madaniy kodida bu birlik juda murakkab semantik tuzilishga ega. Uning zamirida o'z manfaatidan kechib bo'lsa ham o'zgalarga ozor bermaslik, kattalarga hurmat, an'anaviy odob me'yorlariga rioya qilish va vaziyatning oqibatini o'ylab ish tutish kabi majmuaviy assotsiatsiyalar yotadi. Xalq tafakkurida u quruq qo'rquv emas, balki "andishaning oti qo'rquq emas" paremiyasi orqali oliy ma'naviy fazilat sifatida baholanadi.

O'zbek tili madaniyatida "odob" tushunchasi inson kamolotining, komillikning bosh mezonidir. Ushbu so'zning madaniy konnotatsiyasi insonning jamiyatdagi barcha xatti-harakatlarini (gapirishi, yurishi, taomlanishi, muloqoti) milliy-diniy an'analarga muvofiqlashtirishni talab etadi. Matnda bu birlik paydo bo'lishi bilan jamiyatning shaxs xulqiga qo'yadigan qat'iy talablari va ijobiy baholash tizimi faollashadi.

"Or" va "nomus" tushunchalari etnosning sha'n, qadr-qimmat va ijtimoiy mas'uliyat mezonlarini ifodalaydi. "Or" – insonning o'z-o'ziga, o'z vijdoniga bergan ichki hisoboti, shaxsiy bahosi bo'lsa, "nomus" – jamiyat, mahalla, oila va el-yurt oldidagi mas'uliyat

va maqomni ifodalovchi tashqi ijtimoiy fenomendir. Bu leksemalar o'zbek tili lisoniy manzarasida eng oliy ma'naviy qadriyat sifatida konnotatsiyalanadi.

"Hayo" va "ibo" so'zlari, ayniqsa, milliy ayol qiyofasi, oilaviy munosabatlar va sharqona uyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. "Hayo" va "ibo" leksemalarining ichki mazmunida nafaqat jismoniy, balki ma'naviy poklik, andisha, kattalar oldida o'zini tuta bilish, sir saqlash kabi milliy stereotiplar yashiringan. Ular o'zbek milliy mentalitetida go'zallik va axloqning yaxlit ifodasi (ramzi) hisoblanadi.

Shunday qilib, *andisha, odob, or, nomus, hayo, ibo* kabi so'zlar o'zbek tiliga xos olamning milliy lisoniy manzarasida sof mental va aksiologik konnotatsiyaga ega tushunchalar tizimini tashkil etadi. Bu birliklarda madaniy konnotatsiya so'zning pragmatik qatlamiga chuqur singgan bo'lib, ular til egalarining ichki ruhiy dunyosini, axloqiy chegaralarini va jamiyatni boshqaruvchi yashirin milliy kodekslarini obrazli tarzda namoyon qilishga xizmat qiladi.

Xulosa. Diniy-mifologik qatlamga xos so'zlar o'zbek tiliga xos olamning milliy lisoniy manzarasida o'ziga xos metafizik va fenomenal qatlamni tashkil etadi. Bu birliklar lingvomadaniyatshunoslikda "diniy-mifologik va verbal-ritual konnotatsiyaga ega bo'lgan lingvokulturemalar" sifatida tasniflanadi. O'zbek xalqining ijtimoiy va maishiy hayoti islom dini qadriyatlari hamda undan oldingi davrlarga xos bo'lgan animistik, mago-mistik tasavvurlar (so'zning sehrli kuchiga ishonish) bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shu sababli, ushbu leksemalar oddiy diniy terminlik chegarasidan chiqib, umumxalq tafakkurida kuchli lingvomadaniy konnotatsiya kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология. – Москва: издательство Российского университета дружбы народов, 2006.
2. Қурбаназарова Н.Ш. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.бўйича фалс.д-ри (PhD) дисс... автореф. – Термиз, 2021. 54 б.
3. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
4. Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультурология (Услубий қўлланма). – Наманган, 2017.

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Akramjon JO'RABOYEV



SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI JURNALISTIK KONTENTNING ISHONCHLILIK DARAJASI: PRAGMATIK YONDASHUV VA AUDITORIYA TAHLILI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy ommaviy axborot vositalariga integratsiyalashuvi sharoitida jurnalistik kontent ishonchliligining transformatsiyasi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot pragmatik yondashuv hamda auditoriya tahlili asosida olib borilgan. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, sof mantiqiy algoritmlar milliy va madaniy kontekstni to'liq anglay olmaydi. Shu sababli axborotni qayta ishlashda hamda multimedia loyihalarida "Human-in-the-loop" (Inson nazorati) tamoyilini saqlab qolish ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, algoritmik jurnalistika, ishonchlilik, pragmatik yondashuv, auditoriya tahlili, shaffoflik paradoksi, milliy kontekst, algoritm gallyusinatsiyasi.

Аннотация: в данной научной статье проводится глубокий анализ трансформации достоверности журналистского контента в условиях интеграции технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современные средства массовой информации. Исследование проведено на основе прагматического подхода и анализа аудитории. Результаты исследования показывают, что чисто логические алгоритмы не способны в полной мере осознать национальный и культурный контекст. В связи с этим выдвигается предложение о необходимости сохранения принципа "Human-in-the-loop" (Человеческий контроль) при обработке информации и в мультимедийных проектах.

Ключевые слова: искусственный интеллект, алгоритмическая журналистика, достоверность, прагматический подход, анализ аудитории, парадокс прозрачности, национальный контекст, алгоритмическая галлюцинация.

Annotation: this scientific article provides an in-depth analysis of the transformation of journalistic content reliability in the context of the integration of artificial intelligence (AI) technologies into modern mass media. The research was conducted based on a pragmatic approach and audience analysis. The findings indicate that purely logical algorithms cannot fully comprehend the national and cultural context. Therefore, the study advocates for maintaining the "Human-in-the-loop" principle in information processing and multimedia projects.

Key words: artificial intelligence, algorithmic journalism, reliability, pragmatic approach, audience analysis, transparency paradox, national context, algorithmic hallucination.

Kirish. Zamonaviy ommaviy kommunikatsiya tizimida sun'iy intellekt (SI) vositalarining tezkor rivojlanishi jurnalistikaning fundamental qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Yirik til modellarining tahririyatlar ish jarayoniga faol joriy etilishi axborotni to'plash, tahlil qilish va tarqatish tezligini keskin oshirdi. Biroq, jurnalistikaning asosiy tayanchi bo'lgan ishonchlilik masalasi haligacha ochiq qolmoqda. Algoritmlar tomonidan yaratilgan matnlar keng ommalashayotgan bo'lsa-da, ularning ijtimoiy-psixologik ta'siri va auditoriyadagi ishonch darajasi chuqur ilmiy tahlilga muhtoj.

Media korporatsiyalar sun'iy intellektga axloqiy idealizm obyekti emas, balki resurslarni tejankor va samarali taqsimlash imkonini beruvchi operatsion vosita sifatida qaraydi. Moliya, sport va ob-havo hisobotlari kabi standart xabarlarini yaratish ko'plab xalqaro axborot agentliklarida to'liq avtomatlashtirilmoqda. Shu bilan birga, pragmatik yondashuv nafaqat matn, balki innovatsion raqamli va vizual loyihalarni ham qamrab oladi. Shunga qaramay, jurnalistik materiallar va ijodiy matnlar sifatini nazorat qilishda tahririyatlar "Inson nazorati" (Human-in-the-loop) arxitekturasini qat'iy saqlab qolishi pragmatik xavfsizlik chorasidir. Chunki SI tez-tez mavjud bo'lmagan faktlarni ishonchli tarzda taqdim etishi (gallyusinatsiya effekti) mumkin.

Auditoriya SI tomonidan generatsiya qilingan matnlarni baholashda faqat grammatik to'g'rilikka emas, balki asarning yoki maqolaning ruhi, madaniy fon va milliy xususiyatlarga alohida e'tibor qaratadi. Sining matn generatsiya qilish imkoniyatlari global miqyosda keng bo'lsa-da, u o'zbek tili va adabiyotining murakkab qatlamlarini to'liq va uzviy anglashga qodir emas.

Xususan, SI modellarini adabiy tahlil va madaniy jurnalistikaga jalb qilganda ko'rish mumkinki, algoritm Abdulla Qahhor asarlaridagi nozik kinoya va qochiriqlarni, Cho'lpon she'riyatidagi chuqur estetik metaforalarni yoki Said Ahmad hikoyalaridagi betakror milliy yumorni inson darajasida chuqur his qila olmaydi. Auditoriya matndagi ana shu emotsional va madaniy kemtiklikni sezgan zahoti, butun materialga bo'lgan ishonch darajasi keskin pasayadi. Bunga qo'shimcha ravishda "shaffoflik paradoksi" ham muhim rol o'ynaydi: ochiqlik prinsiplariga muvofiq, matn ostida uning SI tomonidan yozilgani haqidagi eslatma joylashtirilishi axloqiy talab hisoblanadi. Biroq psixologik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, bu eslatma, matnning sifati qanchalik yuqori bo'lishidan qat'iy nazar, o'quvchida shubha uyg'otib, ishonch indeksini tushiradi.

Xususiyatlar va mezonlar	Inson Jurnalistikasi (Professional muallif)	SI asosidagi Jurnalistika (Algoritm)
Faktlarni tekshirish mexanizmi	Mantiqiy, tarixiy, madaniy va kontekstual tahlil	Matematik va algoritmik (Gallyusinatsiya va noto'g'ri ssilka xavfi yuqori)
Tezlik va hajm imkoniyatlari	Jismoniy xususiyatlar, tadqiqot va vaqt bilan cheklangan	Soniyalar ichida cheksiz minglab xabarlar va variatsiyalar yaratish
Empatiya va kasbiy axloq	Ijtimoiy mas'uliyat hissi, voqeaga daxldorlik va chuqur empatiya	Mavjud emas (faqat tarmoq ma'lumotlariga tayanib simulyatsiya qiladi)
Milliy va madaniy tushuncha	Mentalitet, yumor va milliy kodlarni his qiladi	Yuzaki tarjima va umumiy qoliplarga asoslanadi

Auditoriyaning SI matnlariga bo'lgan ishonchini ilmiy asosda o'lchash maqsadida aralash tahlil usullaridan foydalanish zarur. Tadqiqot metodologiyasi quyidagilarni o'z ichiga olishi tavsiya etiladi:

- A/B testlashtirish: respondentlarga bir xil mavzudagi, ammo biri inson, ikkinchisi SI tomonidan yozilgan ikkita matnni (muallifini yashirgan holda) o'qitish va ularning ishonchligini Likert shkalasi (1 dan 5 gacha) bo'yicha baholalish.
- Fokus-guruhlar: talabalar, o'qituvchilar va turli yosh toifasidagi o'quvchilardan iborat guruhlarda vizual media, sintetik videolar hamda SIning ta'lim va jurnalistikadagi o'rni bo'yicha chuqurlashtirilgan intervyular o'tkazish.

Xulosa. Sun'iy intellekt asosidagi jurnalistik kontentning ishonchligi faqatgina texnologiyaning til qoidalarini mukammal o'zlashtirishiga emas, balki inson va algoritm o'rtasidagi hamkorlik sifatiga bog'liq. Tahririyatlarning pragmatik yondashuvi

faqat moliyaviy tejamkorlikka emas, balki auditoriya oldidagi mas'uliyatni oshirishga qaratilishi lozim. SIni jurnalistika va axborot makonidan to'liq chiqarib tashlash imkonsiz. Biroq unga "to'laqonli muallif" maqomini berish soha tanazzuliga olib kelishi mumkin. Auditoriya ishonchini saqlab qolish va milliy madaniyatimiz xususiyatlarini himoya qilish uchun ommaviy axborot vositalari tahrir va yaratilish jarayonini shaffoflashtirishi hamda inson muharrirlarining ("Human-in-the-loop") nazorat rolini huquqiy jihatdan mustahkamlashi shart.

Ushbu ilmiy maqola uchun xalqaro va mahalliy miqyosda tan olingan, sun'iy intellekt, algoritmik jurnalistika, media etikasi hamda auditoriya ishonchi (credibility) mavzulariga bag'ishlangan 20 ta asosiy ilmiy adabiyotlar va manbalar ro'yxati shakllantirildi.

Manbalar ilmiy talablarga mos kelishi uchun uch guruhga (xorijiy adabiyotlar, MDH va mahalliy adabiyotlar, xalqaro hisobotlar) ajratib taqdim etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Carlson, M. (2015). *The Robotic Reporter: Automated journalism and the redefinition of labor, compositional forms, and journalistic authority*. Digital Journalism, 3(3), 416-431.
2. Clerwall, C. (2014). *Enter the Robot Journalist: Users' perceptions of automated content*. Journalism Practice, 8(5), 519-531.
3. Diakopoulos, N. (2019). *Automating the News: How Algorithms Are Rewriting the Media*. Harvard University Press.
4. Dörr, P. N. (2016). *Mapping the Field of Algorithmic Journalism*. Digital Journalism, 4(6), 700-722.
5. Graefe, A. (2016). *Guide to Automated Journalism*. Tow Center for Digital Journalism, Columbia University.
6. Lewis, S. C., Guzman, A. L., & Schmidt, T. R. (2019). *Automation, Journalism, and Human-Machine Communication*. Digital Journalism, 7(4), 409-411.
7. Montal, T., & Reich, Z. (2017). *I, Robot. You, Journalist. Who is the Author?* Digital Journalism, 5(7), 829-849.
8. Napoli, P. M. (2014). *Automated Media: An Institutional Theory Perspective on Algorithmic Media Production and Consumption*. Communication Theory, 24(3), 340-360.
9. Tandoc, E. C., Yao, M. Z., & Wu, S. (2020). *Man vs. Machine? The Impact of Algorithm Authorship on News Credibility*. Digital Journalism, 8(4), 548-562.
10. Thurman, N., Dörr, K., & Kunert, J. (2017). *When Reporters Get Hands-on with Robo-writing*. Digital Journalism, 5(10), 1240-1259.
11. Waddell, T. F. (2018). *A Robot Wrote This? How Perceived Machine Authorship Affects News Credibility*. Digital Journalism, 6(2), 236-255.
12. Zamith, R. (2019). *Algorithms and Journalism*. Oxford Research Encyclopedia of Communication.
13. Xudoyqulov, M. *Jurnalistika va publitsistika (nazariya va amaliyot)*. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
14. Qosimova, N. *Ommaviy axborot vositalarida raqamli texnologiyalar va multimedia*. – Toshkent: O'zJOKU nashriyoti, 2021.
15. To'xtasinova, Z. *Raqamli jurnalistikada sun'iy intellektning o'rni va axloqiy masalalar*. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari (Ilmiy jurnal), 2022.1(4), 112-118.
16. Вартанова, Е. Л. (2020). *Меняющаяся архитектура медиа и цифровые технологии*. Медиаальманах, (1), 8-13.
17. Замков, А. В., Крашенинникова, М. А., & Лукина, М. М. (2017). *Роботизированная журналистика: от научного дискурса к журналистскому образованию*. Медиаскоп, (2).

Nilufar MAMADJONOVA,

Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

mamadjanova92@bk.ru

RAQAMLI TA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Hozirgi kunda ta'lim tizimining raqamlashtirilishi pedagoglardan yangi bilim va ko'nikmalarni egallashni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni hamda ta'lim jarayonini innovatsion usullar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Shu sababli bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi ularning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijasida raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda pedagogik shart-sharoitlar aniqlab berildi.

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim, kasbiy mobillik, pedagogik kompetensiya, bo'lajak pedagoglar, raqamli texnologiyalar, innovatsion ta'lim, ta'lim jarayonini raqamlashtirish.*

Annotation: this article explores the theoretical foundations for developing the professional mobility of future teachers in the context of digital education. Today, the digitalization of the education system requires teachers to acquire new knowledge and skills, effectively use modern information and communication technologies, and organize the educational process using innovative methods. Therefore, fostering the professional mobility of future teachers is considered one of the important pedagogical tasks. The study employed methods such as literature review, comparative analysis, systematic approach, and generalization. Modern research shows that teachers' digital competence is a significant factor in enhancing the effectiveness of their professional activities. The study identified the key factors and pedagogical conditions that influence the development of teachers' professional mobility in a digital learning environment.

Key words: *digital education, professional mobility, pedagogical competence, future teachers, digital technologies, innovative education, digitalization of the educational process.*

Аннотация: в данной статье освещаются теоретические основы развития профессиональной мобильности будущих педагогов в условиях цифрового образования. В настоящее время цифровизация системы образования требует от педагогов освоения новых знаний и навыков, эффективного использования современных информационно-коммуникационных технологий, а также организации образовательного процесса на основе инновационных методов. Поэтому формирование профессиональной мобильности будущих педагогов является одной из важнейших педагогических задач. В исследовании использовались методы анализа научной литературы, сравнительного анализа, системного подхода и обобщения. Современные исследования показывают, что цифровая компетентность педагогов является важным фактором повышения эффективности их профессиональной деятельности. В исследовании определены ключевые факторы и педагогические условия, влияющие на развитие профессиональной мобильности педагогов в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: *цифровое образование, профессиональная мобильность, педагогическая компетентность, будущие педагоги, цифровые технологии, инновационное образование, цифровизация образовательного процесса.*

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida ta'lim jarayonida yangi pedagogik yondashuvlar, raqamli platformalar, onlayn ta'lim shakllari va innovatsion metodlar keng joriy etilmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining tuzilishini tubdan o'zgartirmoqda. Jumladan, Ispaniyaning Sevilya universiteti tadqiqotchi olimlari (María de los Ángeles Domínguez-González, Antonio Luque de la Rosa, Carlos Hervás-Gómez, Pedro Román-Graván) tomonidan yozilgan "Teacher Digital Competence: Keys for an Educational Future Through a Systematic Review" maqolasida pedagoglarning raqamli

kompetensiyasi zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilib, u pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Zamonaviy ta'lim muhitida pedagoglar nafaqat o'z fanini chuqur bilishi, balki raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ta'lim jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil etish hamda o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. [1]

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirish pedagogik ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, pedagoglarning kasbiy mobilligi ularning yangi bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtira olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Masalan, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi ularning professional faoliyatini modernizatsiya qilishda muhim omil sifatida baholanadi. [4]

Kasbiy mobillik pedagogning kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan o'zgarishlarga moslasha olish, yangi bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtirish hamda pedagogik faoliyatini zamonaviy talablarga muvofiq tashkil etish qobiliyatini anglatadi.

Zamonaviy pedagoglar raqamli muhitda samarali ishlashi uchun moslashuvchan, innovatsion fikrlaydigan va yangi texnologiyalarni tez o'zlashtira oladigan mutaxassis bo'lishi zarur.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi yordamida pedagogika, raqamli ta'lim va pedagoglarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha zamonaviy ilmiy manbalar o'rganildi. Jumladan, "Digital Competence Frameworks in Teacher Education – A Literature Review" tadqiqotida pedagogik ta'lim tizimida raqamli kompetensiya modellari tahlil qilinib, pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish zarurligi asoslab berilgan. Unga ko'ra, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi nafaqat mavjud manbalarni jamlaydi, balki raqamli ta'limning pedagogik asoslarini, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga oid zamonaviy talablarni va ularning amaliy qo'llanilishidagi bo'shliqlarni aniq ko'rsatadi. Bu esa o'qituvchilarni raqamli davrga tayyorlashda yangi, moslashuvchan va empirik tasdiqlangan yondashuvlarni yaratishga yo'l ochadi. [2]

Keyingi qo'llanilgan metod qiyosiy tahlil metodi bo'lib, uning yordamida turli tadqiqotlarda pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirishga oid yondashuvlar o'zaro taqqoslandi.

Shuningdek, tizimli tahlil metodi orqali raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirishga ta'sir etuvchi ichki (shaxsiy-psixologik), tashqi (muhit va resurs), demografik va tajriba kabi omillar aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli ta'lim sharoitida pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirish bir qator muhim omillarga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Birinchidan, ta'lim tizimining raqamlashtirilishi sharoitida pedagog faoliyati mazmuni tubdan o'zgarib bormoqda. Endilikda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki raqamli muhitda samarali ishlay oladigan, ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etuvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'lishi zarur. Shu jihatdan, "Digital Competences for Teacher Professional Development – Systematic Review" tadqiqotida ilgari surilgan g'oya – ya'ni pedagoglarning raqamli kompetensiyalari ularning kasbiy rivojlanishida muhim omil ekanligi – zamonaviy ta'lim talablari bilan to'liq mos keladi. Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli kompetensiya pedagogning kasbiy o'sishining ajralmas qismi hisoblanadi. Raqamli kompetensiyaga ega bo'lgan o'qituvchi ta'lim jarayonini samarali rejalashtiradi, raqamli vositalar yordamida o'quv materiallarini diversifikatsiya qiladi hamda talabalarning individual ehtiyojlariga moslashgan ta'lim muhitini yaratadi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi. [6]

Bundan tashqari, raqamli kompetensiyalar pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini ham belgilaydi. Zamonaviy o'qituvchi turli platformalar, masofaviy ta'lim vositalari, sun'iy intellekt elementlari hamda interaktiv dasturlardan foydalana olishi zarur. Tadqiqotda qayd etilishicha, bunday ko'nikmalar o'qituvchiga nafaqat mavjud bilimlarini yangilash, balki uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

Shuningdek, raqamli kompetensiyalar pedagoglarning refleksiv va tahliliy faoliyatini rivojlantiradi. Raqamli vositalar orqali o'qituvchi o'z darslarini tahlil qilish, natijalarni monitoring qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonini ilmiy asosda takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogning kasbiy kompetentligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli kompetensiyalar pedagoglarning global ta'lim makoniga integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Internet va raqamli platformalar orqali o'qituvchilar xalqaro tajribalarni o'rganish, xorijiy hamkasblar bilan hamkorlik qilish va ilg'or metodikalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kasbiy mobilligini oshiradi.

Ikkinchidan, pedagoglarning kasbiy mobilligi ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishga bo'lgan tayyorgarligi bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi yangi bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtira olishi, o'z faoliyatini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtira olishi zarur. Raqamli texnologiyalar pedagoglarning kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Xususan, onlayn kurslar, vebinarlar, masofaviy malaka oshirish dasturlari hamda professional tarmoqlar o'qituvchilarga o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish imkonini beradi. Bu esa pedagogning kasbiy mobilligini oshirib, uni zamonaviy ta'lim muhitida raqobatbardosh mutaxassisga aylantiradi.[6]

Uchinchidan, raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday shart-sharoitlarga zamonaviy texnik infratuzilma, raqamli resurslardan erkin foydalanish imkoniyati, metodik qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'qituvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan malaka oshirish tizimi kiradi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida innovatsion muhitni shakllantirish, pedagoglarni ijodiy izlanishga undash va ularni yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga rag'batlantirish ham kasbiy mobillikni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Tadqiqotlar natijalari pedagoglarning raqamli kompetensiyasi va ta'lim samaradorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Cabero-Almenara J. Palacios-Rodríguez A., Román-Graván J. tadqiqotlarida pedagoglarning raqamli kompetensiyasi ularning o'qitish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, raqamli kompetensiyasi yuqori bo'lgan pedagoglar o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etadi, interaktiv metodlardan keng foydalanadi va o'quvchilarning faolligini oshirishga erishadi. Bunday o'qituvchilar raqamli vositalardan foydalanib, o'quv materiallarini vizuallashtirish, differensial yondashuvni qo'llash hamda ta'lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.[2] Natijada, o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasi va o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada ortadi.

Shuningdek, "Teachers' Role in Digitalizing Education: An Umbrella Review" tadqiqotida ta'limni raqamlashtirish jarayonida pedagoglarning roli markaziy o'rin tutishi alohida ta'kidlangan. Ya'ni, raqamli transformatsiya jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining tayyorgarligi, uning innovatsion fikrlashi va raqamli kompetensiyalar darajasiga bog'liqdir. Pedagog nafaqat texnologiyalarni qo'llovchi, balki ularni ta'lim maqsadlariga moslashtiruvchi, didaktik jihatdan asoslovchi va samarali integratsiya qiluvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi.[10]

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirish ko'p jihatdan ta'lim

jarayonida yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, ular quyidagicha izohlanadi:

- ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish – bu kelajak o'qituvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, ularni noan'anaviy vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga o'rgatadi. Masalan, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish (PBL), "flipped classroom" kabi yondashuvlar pedagogning moslashuvchanligini oshirib, uning kasbiy mobilligini mustahkamlaydi.

- raqamli ta'lim platformalarini samarali qo'llash – zamonaviy LMS (Learning Management System)lar, onlayn kurslar va ta'lim ilovalari orqali pedagoglar ta'limni tashkil etishning yangi shakllarini o'zlashtiradi. Bu esa ularga turli ta'lim muhitlarida (an'anaviy, masofaviy, gibrid) erkin faoliyat yuritish imkonini beradi hamda ularning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi.

- talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish – mustaqil o'qish, izlanish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish orqali bo'lajak pedagoglarda "life-long learning" kompetensiyasi rivojlanadi. Bu esa ularning kelajakda yangi bilimlarni tez o'zlashtirishi va kasbiy faoliyatda o'zgarishlarga moslashishini ta'minlaydi.

- hamkorlikka asoslangan interaktiv ta'lim metodlarini qo'llash – guruhviy ishlar, muhokamalar, kollaborativ loyihalar va "peer learning" usullari orqali talabalar jamoada ishlash, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish hamda turli fikrlarni uyg'unlashtirishni o'rganadi. Bu esa pedagogning ijtimoiy va kasbiy mobilligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

- pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish – raqamli vositalardan samarali foydalanish, axborotni tahlil qilish, raqamli kontent yaratish va uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ko'nikmalari pedagogning kasbiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Yuqori darajadagi raqamli kompetensiya pedagogga innovatsion muhitda erkin ishlash va doimiy rivojlanib borish imkonini beradi.

O'zbekistonda ham pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Mahalliy olimlarning fikricha, raqamli ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish maxsus pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirilishi kerak.[13] [17]

Umuman olganda, mazkur pedagogik shart-sharoitlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning kompleks tarzda joriy etilishi bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni

ko'rsatdiki, ta'lim tizimining raqamlashtirilishi pedagog faoliyatining mazmunini tubdan o'zgartirib, ulardan yangi kompetensiyalarni, xususan, raqamli kompetensiyalarni egallashni talab etadi. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy mobilligi ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorgarligi, innovatsion fikrlashi va o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslasha olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, raqamli kompetensiyalar pedagoglarning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Raqamli vositalardan samarali foydalanish o'qituvchiga ta'limni individuallashtirish, interaktiv metodlarni qo'llash va o'quvchilarning faolligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, raqamli ta'lim platformalaridan

samarali foydalanish, mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash, hamkorlikka asoslangan o'qitish metodlarini kengaytirish hamda raqamli kompetensiyalarni tizimli ravishda rivojlantirish zarurligi asoslandi. Ushbu pedagogik shart-sharoitlarning o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi pedagoglarning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi va ularning zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Shu bois, pedagogik ta'lim tizimida raqamli ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan va raqamli muhitda samarali faoliyat olib boradigan pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Domínguez-González M.A., Luque de la Rosa A., Hervás-Gómez C., Román-Graván P. Teacher Digital Competence: Keys for an Educational Future Through a Systematic Review // Sustainability. – 2021. – Vol. 13. – No. 16. – P. 1–20.
2. Cabero-Almenara J., Palacios-Rodríguez A., Román-Graván P. Digital Competence of Higher Education Teachers: A Systematic Review // Education Sciences. – 2020. – Vol. 10. – No. 9. – P. 1–15.
3. Falloon G. From digital literacy to digital competence: the teacher digital competency framework // Educational Technology Research and Development. – 2020. – Vol. 68. – P. 2449–2472.
4. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) framework // Handbook of Research on Educational Communications and Technology. – Cham: Springer, 2019.
5. Napitupulu M.H., Muddin A., Bagiya, Diana S., Rosyidah N.S. Teacher Professional Development in the Digital Age: Strategies for Integrating Technology and Pedagogy // International Journal for Science Review. – 2025. – Vol. 2. – No. 4. – P. 242–251.
6. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
7. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge: Polity Press, 2019. – 180 p.
8. OECD. Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 120 p.
9. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers (Version 3). – Paris: UNESCO Publishing, 2019. – 64 p.
10. Wohlfart O., Wagner I. Teachers' Role in Digitalizing Education: An Umbrella Review // Educational Technology Research and Development. – 2023. – Vol. 71. – P. 339–365.
11. Instefjord E.J., Munthe E. Preparing pre-service teachers to integrate technology: An analysis of the emphasis on digital competence in teacher education curricula // European Journal of Teacher Education. – 2017. – Vol. 40. – No. 1. – P. 76–94.
12. Tondeur J., van Braak J., Ertmer P.A., Ottenbreit-Leftwich A. Understanding the relationship between teachers' pedagogical beliefs and technology use in education // Computers & Education. – 2017. – Vol. 117. – P. 81–95.
13. Ilhomov N., Xudoyberdiyeva M. Raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. – Toshkent: Fan, 2022. 156-b.
14. Xodjayev B.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. 248-b.
15. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. 312-b.
16. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish muammolari va istiqbollari // Pedagogika. – 2021. – № 3. – B. 45–52.
17. Ubaydullayeva Z. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mobilligini rivojlantirishning pedagogik asoslari // Ilmiy axborotnoma. – 2023. – № 2. – B. 112–118.
18. Anderson T. (Ed.). Theory and Practice of Online Learning. – Athabasca: Athabasca University Press, 2020. – 485 p.
19. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: BCcampus, 2019. – 568 p.

Зера ИСАЕВА,

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Ферганский государственный университет

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация: статья посвящена перспективным направлениям исследований в области искусственного интеллекта и обработки естественного языка. Рассматриваются многоуровневый контекстный анализ, мультимодальные модели, персонализированные адаптивные системы и учёт исторической динамики языковых значений. Особое внимание уделяется концепции динамической экосистемы контекстов (Dynamic Contextual Ecosystem, DCE), объединяющей когнитивные, социокультурные и технологические факторы развития цифрового дискурса.

Ключевые слова: искусственный интеллект, обработка естественного языка, NLP, контекстный анализ, динамическая экосистема контекстов, мультимодальные модели, цифровой дискурс, семантическая динамика.

Annotatsiya: maqolada sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilinadi. Ko'p darajali kontekst tahlili, multimodal yondashuvlar, shaxsiylashtirilgan adaptiv tizimlar va til ma'nolarining tarixiy dinamikasini hisobga olish masalalari yoritiladi. Dynamic Contextual Ecosystem (DCE) konsepsiyasi kontekstni doimiy o'zgaruvchi yaxlit tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash, NLP, kontekst tahlili, dinamik kontekst ekotizimi, multimodal modellar, raqamli diskurs, semantik dinamika.

Annotation: the article analyzes promising research directions in artificial intelligence and natural language processing. It focuses on multi-level contextual analysis, multimodal approaches, personalized adaptive systems and methods for tracking semantic change. The proposed Dynamic Contextual Ecosystem (DCE) is interpreted as a basis for expanding NLP capabilities and predicting the evolution of digital discourse.

Key words: artificial intelligence, natural language processing, contextual analysis, dynamic contextual ecosystem, multimodal models, personalization, digital discourse, semantic dynamics.

Вводная часть

Искусственный интеллект становится ключевым фактором трансформации науки, образования, коммуникации и цифровых технологий. Особое место занимает обработка естественного языка (Natural Language Processing, NLP), обеспечивающая смысловое взаимодействие человека и компьютерных систем. Современное развитие интеллектуальных алгоритмов показывает переход от формального анализа языковых единиц к контекстуально-ориентированному пониманию дискурса.

Актуальность исследования определяется ростом объёмов текстовых данных, усложнением цифровых коммуникаций и необходимостью создания NLP-систем, способных учитывать культурные, социальные и временные параметры языка. Поэтому перспективные исследования требуют интеграции лингвистики, когнитивных наук, корпусных методов и машинного обучения.

Анализ литературы и методология исследования

Теоретическую основу исследования составляют работы по распределённой семантике, корпусной лингвистике, когнитивному анализу языка и компьютерной обработке текста. Векторные модели представления слов, трансформерные архитектуры и крупные языковые

модели создали условия для более глубокого выявления семантических связей, контекстной вариативности и динамики цифровой лексики.

Методология включает концептуальный анализ научных источников, сравнительное изучение современных моделей NLP, интерпретацию технологических тенденций и разработку теоретической модели динамической экосистемы контекстов. Основное внимание уделяется многоуровневому анализу контекста, мультимодальности, персонализации и самообучающимся системам.

Результаты и обсуждение

Проведённый анализ показал, что развитие искусственного интеллекта в области NLP связано с переходом от статических моделей обработки текста к динамическим контекстуальным системам. Современные алгоритмы всё чаще учитывают не только формальные признаки языковой единицы, но и лингвистический, когнитивный, социокультурный и временной уровни формирования смысла.

К перспективным направлениям NLP относятся углублённое понимание контекста, анализ цифровых коммуникаций и социальных сетей, учёт исторической динамики значений, разработка персонализированных адаптивных систем и интеграция мультимодальных

данных. Эти направления отражают смену парадигмы: от универсальных алгоритмов к интеллектуальным системам, способным учитывать индивидуальные особенности пользователя, коммуникативную ситуацию и культурный фон.

Особое значение приобретает многоуровневый анализ контекста. Его реализация связана с использованием трансформерных архитектур, графов знаний, гибридных алгоритмов, больших корпусов текстов и новых метрик оценки, фиксирующих не только точность классификации, но и глубину семантического понимания. Мультимодальные модели, объединяющие текст, изображение, аудио и видео, расширяют интерпретацию смысла и позволяют учитывать невербальные компоненты цифровой коммуникации.

Центральным результатом исследования является обоснование концепции динамической экосистемы контекстов (Dynamic Contextual Ecosystem, DCE). В отличие от традиционных моделей, где контекст понимается как набор отдельных факторов, DCE рассматривает его как целостную, изменяющуюся среду. В такой системе языковые явления проходят стадии возникновения, распространения, трансформации и угасания, что особенно заметно на материале цифровой лексики.

Интеграция DCE с технологиями Word2Vec, GloVe, BERT и крупными языковыми моделями открывает возможность анализа семантических связей на больших массивах данных и учёта временной изменчивости языка. Это создаёт основу для прогностических NLP-систем, способных не только интерпретировать текущие значения, но и выявлять вероятные направления их дальнейшего развития.

Следует подчеркнуть, что перспективность динамического подхода определяется не только технологическим развитием нейросетевых моделей, но и изменением самой природы цифровой коммуникации. В интернет-среде значение слова формируется под влиянием частотности употребления, жанра сообщения, платформы, визуального сопровождения и коммуникативной цели пользователя. Поэтому анализ языковых единиц требует учета не одного изолированного контекста, а совокупности взаимосвязанных факторов, которые постоянно изменяются и влияют друг на друга.

В научно-практическом отношении концепция DCE может быть использована при создании интеллектуальных

словарей, систем автоматического анализа текста, образовательных цифровых платформ и инструментов мониторинга общественного дискурса. Ее применение позволяет точнее выявлять новые лексические единицы, отслеживать изменение их семантических оттенков и определять степень устойчивости новых значений в речи. Особенно важно это для анализа цифровой лексики, где новые слова и выражения быстро входят в употребление, меняют прагматическую окраску и могут исчезать из активной коммуникации.

Дополнительным направлением развития становится сочетание корпусных методов и больших языковых моделей. Корпусный анализ обеспечивает проверяемость результатов и опору на реальные речевые данные, тогда как нейросетевые модели позволяют выявлять скрытые семантические связи и прогнозировать вероятные траектории развития значений. Такое объединение повышает надежность исследования и создает основу для более объективного описания языковых процессов в условиях цифровой эпохи.

Одновременно сохраняются ограничения современных подходов: зависимость от обучающих данных, трудности интерпретации культурно обусловленных смыслов, риск алгоритмической предвзятости и высокая ресурсозатратность. В связи с этим важными условиями дальнейшего развития искусственного интеллекта становятся объяснимость, прозрачность, этичность и устойчивость моделей.

Вывод

Исследование подтверждает, что развитие искусственного интеллекта в области обработки естественного языка связано с переходом к динамическим, междисциплинарным и прогностическим моделям анализа. NLP объединяет лингвистику, когнитивные науки и машинное обучение, формируя новую основу для изучения цифрового дискурса.

Концепция динамической экосистемы контекстов позволяет объяснять изменения языковых значений, выявлять закономерности их развития и прогнозировать эволюцию коммуникационных практик. Перспективы дальнейших исследований связаны с мультимодальными данными, самообучающимися моделями и созданием интеллектуальных систем, учитывающих культурный и социальный контекст языка.

Список использованной литературы

1. Миколов Т. Эффективная оценка представлений слов в векторном пространстве // Материалы конференции NIPS, 2023.
2. Пеннингтон Дж., Сочер Р., Мэннинг К. Глобальные векторные представления слов (GloVe). – Стэнфорд: Stanford University, 2024.
3. Лин Д., Пантель П. Выявление правил вывода для систем вопросно-ответного типа. – Кембридж: Cambridge University Press, 2023.
4. Кристал Д. Язык и Интернет. – Кембридж: Cambridge University Press, 2022.
5. Кубрякова Е. С. Язык и знание. – Москва: Языки славянских культур, 2021.
6. Кибрик А. А. Когнитивные исследования языка. – Москва: Языки славянских культур, 2020.



A light pink background with a white plus sign at the top center, a red wavy line at the top right, the word 'TADQIQOTLAR' in bold blue capital letters in the center, and another white plus sign at the bottom right.

Arofotoy MUYDINOVA,

f.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

Rushana ABDURAXMANOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi

VOIZLIK SAN'ATI HAQIDA MULOHAZALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada voizlik san'atining tarixi, unga oid asarlar, shuningdek, Navoiy ijodida notqlik san'ati hamda zamonaviy voizlik masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *va'z, voiz, voizlik, nutq, notiq, notqlik san'ati, til.*

Annotation: this article explores the history of the art of preaching (va'z), works dedicated to it, as well as the art of oratory in the works of Alisher Navoiy and contemporary issues in public speaking/preaching.

Key words: *sermon (va'z), preacher (voiz), preaching (voizlik), speech, orator, art of oratory, language.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются история проповеднического искусства, посвященные ему произведения, а также искусство ораторского мастерства в творчестве Алишера Навои и актуальные вопросы современного проповедничества.

Ключевые слова: *проповедь (ва'з), проповедник (воиз), проповедническое искусство (воизлик), речь, оратор, ораторское искусство, язык.*

Voizlik san'ati kechadan bugungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Voizlik – inson qalbiga ta'sir etish, uni ezgulikka yetaklash san'atidir. Voiz esa, arabcha so'z bo'lib, jamoat oldida nutq so'zlovchi notiqdir. Notiq atamasiga lingvistik adabiyotlarda duch kelamiz. Notiq xalq tili bilan aytganda, so'zga chechan insondir. Voizlik san'ati insoniyat tarixida doim muhim o'rin tutgan.

O'rta Osiyo xalqlari, xususan, IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi darajasiga chiqa oldi. O'rta asr fani, madaniyati Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi ulug' siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, XI asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma"da notqlik san'ati haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Hatto muallifning ta'kidlashicha, barcha hunarlar ichida o'z hunarini, notqlikni ulug'laydi. Tarixiy jarayonlar nasldan naslga o'tganidek, notqlik san'ati ham bora-bora shakllandi, asarlar, risolalar yozilib, notqlik nazariyasini o'rganish yuksak cho'qqilarga erishdi. Masalan, Muhammad Rafi' Voizning "Abvob ul-jinon", Voiz Qazviniyning "Ziloli maqol", Mulla Kalon Voiz Samarqandiyning "Ravzat ul-voizin", Xondamirning "Makorim ul-axloq" kabi asarlarida voizlik san'ati haqida qimmatli fikr-mulohazalar berib o'tilgan. Shular orasidan Alisher Navoiy o'z davrining buyuk mutafakkiri, so'z ustasi bo'lish bilan birga kishilarga yaxshi so'z bilan ta'sir eta bilish san'atini juda ham qadrllovchi, ulug'lovchi,

bunday san'at ustalariga e'tibor qilib, ehtirom ko'rsatuvchi bir shaxs edi. Navoiy omma o'rtasida yaxshi nutqning ta'siri va tarbiyasini ham chuqur his etadi. Notqlikdagi yaxshi va yomon tomonlarni ko'ra bilish va ularni farqlay olishga chaqiradi:

To'ti-yu shorik agar notiqdurur,

Har biriga o'zga bir mantiqdurur.

Navoiy "Mahbub ul-qulub" nomli falsafiy asarining 24-faslini "Nasihah ahli va voizlar zikrida" deb ataydi. Navoiyning fikricha, voiz quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Voizning so'zlari ta'sirchan va foydali bo'lmog'i lozim. Voiz kerakki "qolalloh" so'z aytsa va "Qola Rasululloh" muxolafatidin qaytsa, Xudo va rasul yo'lig'a qad ursal. O'zi kirgondin so'ngra, nasihat bila elni ham kivursa.

2. Nutq tinglovchi uchun yangilik bilimlar bu o'zgarishlar xabarchisi bo'lmog'i lozim. "Va'z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur".

3. Notiqning o'zi biror sohani egallagan bo'lishi va undan so'ng va'z orqali kishilarga ta'sir etishi lozim.

4. Notiq olim va bilimdon har narsadan xabardor kishidur. "Voizkim, bo'lg'ay olim va muttahi aning nasihatidin chiqqan shahi".

5. Notiqning so'zi bilan ishi bir bo'lmog'i lozim. Aks holda nutqning ta'siri bo'lmaydi. "Ulki buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay".

Undan tashqari Navoiy ushbu asarida “Agar voiz chin dildan, riyosiz, xalqqa pandu nasihat bersa, u kishilarni davlat tomonidan ro‘zg‘ori uchun maosh bilan ta‘minlash joizdir”, – deb voizlik kasbining halollik va ta‘sirchanlik asosida baholanishi kerakligini aytadi.

Xususan, bu san‘at O‘rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi bilan bog‘liq. Sababi Qur‘oni Karim va hadislarida voizlikning mohiyati, voizning vazifasi va nutq madaniyati haqida ko‘plab ko‘rsatmalar berilgan. Navoiy ijodida ham buning ta‘sirini ko‘rishimiz mumkin. Haqiqiy voiz qanday bo‘lishi kerakligini esa Qur‘oni Karim va Alisher Navoiy ijodidagi fikrlarni solishtirib qaraymiz: Qur‘onda “Yaxshi muomala bilan gapiring” (Isro surasi. 53-oyat, qisqacha) deyilsa, Navoiy o‘z ijodida “Yaxshi voiz – shirinso‘z va odobli kishidir” (“Mahbub ul-qulub” “Nasihat ahli va voizlar zikrida”) deyiladi. Ya‘ni bunda mohiyat bittadir. Yana bir hadisda “Ular bilan chiroyli uslubda munozara qiling” deyilsa, Navoiy ijodida esa, “Chuqur fikr yuritmayin so‘z aytmagil”, – deyiladi. Nahl surasi 125-oyatda “Hikmat va go‘zal nasihat bilan da‘vat qil”, – deb keltiriladi. Navoiy ijodida xuddi shu oyatning mohiyati mavjud bo‘lgan “Voiz so‘zini og‘ir va ta‘sirchan aytsin” kabi jumlasiga duch kelamiz. Navoiy o‘z asarlarida voizlikning nafaqat diniy, balki ma‘rifiy va axloqiy ahamiyatiga ham e‘tibor qaratgan. Uning fikricha, haqiqiy voiz – bu so‘z orqali inson qalbiga yo‘l topuvchi, hikmat bilan yo‘naltiruvchi zotdir. Masalan, “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy shunday deydi: “Voizlik ahli so‘zini og‘ir va ta‘sirchan aytmog‘i lozim, ul so‘z qalblarga kirg‘ay”. Bu fikr Qur‘on oyatlaridagi “Hikmat bilan targ‘ib qilish” tamoyiliga mos keladi. Shuningdek, “Xamsa” asaridagi “Hayrat ul-abror” dostonida voizlik va dono so‘zning kuchi haqida shunday baytlar bor:

Agar voiz ersa, chuqur so‘zlasun,

Yuzaki gap nafi bermas hech zamon.

Bu fikrni ham Rosululloh (s.a.v)ning hadislar bilan bog‘lash mumkin. Hadislarida voizning samimiyligi va uning so‘zlarining ta‘sirchanligi juda muhim ekanligi ta‘kidlangan. Masalan, “Insonning eng yaxshi so‘zi –

tushunarli va qalbga ta‘sir qiladigan so‘zdir”, – degan hadis buni tasdiqlaydi. Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida nutq madaniyati, yaxshi va yomon so‘zlarning ta‘sir kuchi haqida ajoyib umumnazariy, axloqiy va estetik fikrlarni bildiradi:

“Ko‘ngulda til sinoni (nayzasining) jarohati butmas, anga hech nima malham yerin tutmas (o‘rnini bosa olmas). Har ko‘ngulki, til sinonidin (nayzasidan) jarohatdir, ham yumshoq so‘z va Shirin til anga malham va rohatdur”[1].

(Til nayzasi jarohati bitmas, bu jarohatga hech nima malham o‘rnini bosmas ya‘ni malham bo‘la olmas. Lekin yumshoq so‘z va shirin til bu jarohatga malham va rohatdur) deb keltirib o‘tadi.

Navoiy o‘zining huddi shu asarida: “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir...”, [1] – deb nutqga ta‘rif beradi. Ya‘ni nutq – bu til deb atalmish noyob quroldan foydalanish jarayoni. Nutqiy jarayon – tilning o‘z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma‘lum ma‘noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir. Kaykovus ham notqlikka ta‘rif berib, o‘zining “Qobusnoma” asarida shunday deydi: “Bilgilkim, hamma hunardan so‘z hunari yaxshi”[3].

Hozirgi kunda notqlik tushunchasi va notiq termini alohida mahorat va san‘at ma‘nosida emas, balki jo‘n, ommaviy ma‘noda tushunilmoqda va qo‘llanilmoqda. Ya‘ni har qanday ma‘ruza o‘qiydigan, nutq so‘zlagan kishini notiq deb atalayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu haqiqiy notqlikning mohiyatiga to‘g‘ri kelmaydi. To‘g‘ri, notqlik og‘zaki nutqdir. Lekin uning ham o‘z madaniyati bor. Notqlik u yoki bu uslubga xos talaffuzda ravon ohangda, sintaktik nuqsonlardan holi bo‘lishi kerak. Xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda voizlikning uslublari va imkoniyatlari o‘zgargan bo‘lsada, uning asosiy maqsadi o‘zgarmagan. Axborot asrida voizlik nafaqat masjidlarda, balki internet va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali ham olib borilmoqda. Demak, voizlik shunchaki ma‘lumot berish emas, balki so‘z orqali qalblarni yumshatish, insonlar bilan go‘zal muloqot qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, 1983.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Mahbub ul-qulub. 20 jildlik. – Toshkent, 1999.
3. Qobusnoma. – Toshkent, 1968.
4. Halikova G. Notqlik san‘ati va ularning turlari. // Science and education scientific journal, 2023.
5. Rasulov R., Husanov N., Mo‘yidinov Q. Nutq madaniyati. – Toshkent, 2006.

G'olib KARJAVUV,
SamDU tadqiqotchisi

JANR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Annotatsiya: adabiyotning spetsifikatsiyasi (o'ziga xosligi) ham, janrning tarixiy, tadrijiy taraqqiyoti ham ana shu tarbiya bilan bog'liq uyg'un holda barkamollik kasb etishi o'sha zamonlar odamlari uchun muhim sanalgan. Ushbu maqolamizda janrning o'ziga xosligi haqida, uning mazmun-mohiyati nimalarni anglatishi haqida tahlillar olib borganmiz.

Kalit so'zlar: *masal, masal-epigrama, masal-dialog, masal-ertak, masal-novellalar, masal-hikoya, masal-pamflet, masal-povest, masal-drama.*

Аннотация: для людей того времени считалось важным, чтобы как уникальность литературы, так и историческое и прогрессивное развитие жанра, в связи с этим воспитанием, гармонично достигли совершенства. В данной статье мы проанализировали уникальность жанра, а также его содержание и сущность.

Ключевые слова: *притча, притча-эпиграмма, притча-диалог, притча-сказка, притча-новелла, притча-рассказ, притча-памфлет, притча-повествование, притча-драма.*

Annotation: for the people of that time, it was important that both the uniqueness of literature and the historical and progressive development of the genre, in connection with this education, harmoniously achieve perfection. In this article, we analyze the uniqueness of the genre, as well as its content and essence.

Key words: *parable, parable-epigram, parable-dialogue, parable-fairy tale, parable-novels, parable-story, parable-pamphlet, parable-povest, parable-drama.*

Eng qadimgi antik yunon madaniyati, aql va his uchrashgan olis o'tmish silsilalarida odam tabiatan o'zining mushohadalari izmida hayot kechirishi, mif, afsona, rivoyat va boshqada og'zaki ijod namunalarini yaratishga bel bog'lashini tushunib yetganligida ko'rinadi. Bularning zamirida ichki, botiniy ehtiyojning o'ziga xos qirralarini anglagan davrlarni ko'z o'ngimizga keltirish qiyin, albatta! Arastu har bir janr, voqelik, harakat, kechinma uchligida namoyon bo'ladi deyishida mutlaqo haq edi [1.25]. Binobarin, har qanday janrning tarixiy taraqqiyoti uning o'sha davrdagi ichki ehtiyojlari bilan bog'liq holda ro'y berishi bilan o'lchanadi. Masal eng qadimiy janrlar sirasiga kirishi, dastlab xalq og'zaki ijodi, keyinchalik yozma adabiyotga ko'chib o'tgan shakl-u shamoyilida taraqqiy etdi. Dastlab, eramizning I-II asrlarida masalnavislikda ilk yalovbardorlar sifatida Babriy va Fyodrlar aytilsa-da, ularning nomi miloddan avvalgi VI asrda yashab ijod etgan Ezop bilan bog'lanadi. Janrlarning dinamik taraqqiyoti zamirida Ezop masallaridan o'tib kelgan shakliy-ifodaviy talqinlar keyinchalik, hind, o'zbek va rus, ingliz va qardosh xalqlar adabiyotida, XV asrda turkiy adabiyotning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy ijodiyotida yangicha shakllarda namoyon bo'ladi. XVIII asrga kelib Qo'qon

xonligida go'lahlik qilgan Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida yanada o'ziga xos shakllarda inkishof qilindi. Masal, asosan, hayvonlar hayoti va ularning xatti-harakati zamirida inson shaxsi turishi, didaktik va falsafiy-estetik qirralarning nozik ishoralar, mubolag'a va jonlantirish san'ati bilan yuzaga chiqishi janrning konseptual mohiyatini tayin etadi.

Ko'hna Sharq adabiyoti durdonalarining bir uzvi hisoblangan masalnavislik an'anasi xalq og'zaki ijodidan o'sib chiqqanligi alohida ahamiyatga ega. Mana shu konsepsiya Lotin Amerikasi adabiyoti, Daniya va boshqa xalqlar adabiyotida hayvonlar qiziqarli va shiddatli sarguzashtlari timsoli bilan yuzaga chiqdi. Rus masalnavisi I.Krilovning she'riy masallari o'zidan oldingi hindlardagi "Kalila va Dimna", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr", Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, Muxtor Xudoyqulov badiiy izlanishlariga mutanosib ravishda didaktik ruhda jilvalanadi. Demak, janrning ijtimoiy-psixologik asoslari masalnavislikning yagona estetik mezon sifatida qad rostlaganida namoyondir.

Ezopning masallaridagi ijtimoiy-siyosiy pafos oligarxlarga, amaldorlarga unchalik xush kelmagan. Unga qilingan tazyiqlar hamda qarama-qarshiliklar ijodkor dunyoqarashining faqatgina chuqurlashuviga

zamin yaratdi. U Lidiya podshohi Krez saroyida xizmat qilganligi barchaga ayon. U Delfada o'ldirilib, qul qilib ishlatilgan. Biroq shu qadar chuqur psixologik tasvirga boy masallar yaratganki, o'sha davr va milodiy X-XV asrga qadar yaratilgan masallarni Ezopniki deb yuritilgan. Bu masallarda hayot haqiqati va insoniy munosabatlar tig'iziligi ufurib turadi. Garchi u hayvonlar va ularning yashash tarzi bilan bog'liq bo'lsa-da, mohiyatida inson fenomeni qabarib ko'rinadi. Undan olinadigan didaktik kayfiyat, ruh, pafos komillik sari yetaklaydi. Xato va nuqsonlardan holi ravishda umr kechirishga chorlaydi.

Janrning nazariy qirralariga e'tibor beradigan bo'lsak, "masal arabcha so'z bo'lib, "namuna, misol" degan ma'nolarni anglatadi [2]. Shuningdek, "masal— bu insoniyatning jonivorlar haqidagi ilk ibtidoiy ertaklari bilan ulardan ancha keyin paydo bo'lgan maqol, matal, zamonaviy latifalar orasidagi muhim bir majoziy bekatdir. Uning yoshi ming yillar bilan o'lchanadi" [3].

XV asrning nodir adabiy manbalaridan biri Atoulloh Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoyi'" asarida quyidagicha keltirilgan: "Irsol lug'atta yubormoqdur. Bir jamoa orasida mashhur bo'lg'an va ul jamoa o'z kalominda turli ishlarga o'xshatish va misol tarzida ko'p zikr qilg'on doston va hikoyatlarni masal derlar" [4. B.135-136]. Darhaqiqat, masala mohiyatiga jiddiy yondashilsa, din, falsafa, tarix kabi bir-biriga yaqin fan va sohalarda didaktik ruh kuchliligi boisdan, masaldagi (misol) ma'no qatlamlari ham kengaya boradi. Adabiyotshunoslikda ko'pincha, badiiy janrni tahlil qilganda bir-biridan ajratib, unga nom berishda tor adabiy tushunchaga olib kirish hodisalari ko'p uchraydi. Shu ma'noda, masalning keng, turli xil janrlarda aralash holda zuhur etilganini ham kuzatish mumkin.

"Mumtoz adabiyot manbalari lug'ati"da mazkur so'zning to'rt ma'nosi izohlangan: 1. So'z, gap. Yolg'on masal turmas (Zarbulmasal). 2. Maqol. Ayog'ingga tushar har lahza gesu, Masaldurkim, charog' tubi qorong'u. 3. Ovoza, gap-so'z bo'lmoq, el og'ziga tushmoq. Ishq ila bo'ldum masal, savdo bila afsona ham, Shukrilillahkim, yana oshiqmen-u devona ham (Navoiy). 4. So'z birikmasi tarzida kelganda kabi, simon ma'nolariga molikdir. Gar bod masal charx urub Mashrabi miskin, Mastona qaro ko'zga nigoh chekmaganing xo'b. (Mashrab)" [5.200-201]. Ko'rinadiki, masalnavislik va bu an'ananing qadim zamonlardan buyon kelayotgan talqinlari xilma-

xilligini dalolatlaydi. Mana shu manbalardagi masal atamasiga doir qarashlar haqiqatdan ham hayotiy ziddiyatlar ta'sirida yuzaga kelgan adabiy janr tabiatini teran tushunib olishimizga imkon beradi.

Shuningdek, X.K. Baranov masal atamasining o'nlab ma'nolarini izohlaydi. O'zbek adabiyotshunoslari N. Hotamov, B. Sarimsoqovlar ta'biri bilan aytganda: "Ko'proq she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo'lib, uning masal-epigrama, masal-dialog, masal-ertak, masal-novellalar, masal-hikoya, masal-pamflet, masal-povest, masal-drama kabi turlari bor" [7.135-136].

Arablar va boshqa xalqlarda ham janrning estetik mohiyati haqida so'z borganda boshqa adabiy turlar ham aralashib tushunilavergan. Usmonli turklar esa masalni ertak shaklida ishlatishgan [8.741]. Binobarin, mazkur atamaning turkiy xalqlar adabiyotiga daxldorligida esa qorishiq (sinkretik) ruhda bo'lgani ham bor gap. Chunki mumtoz adabiyotdagi ayrim janrlardagi falsafiy-estetik, didaktik pafos — masalga, ramz va metaforaga yaqin bo'lgani bois olimlar uni ajratib olishda biroz ikkilanishlarni boshidan kechirgan. Turkshunos olim H. Beydemir qayd etishicha: "O'zbek xalq masallari" nomli doktorlik dissertatsiyasida atamaning usmonli turklar va o'zbeklardagi istilohiy ma'nolarini sharxlaydi hamda O'zbekistonda masal turi qissalar, fablelar, fiqralar va boshqa afsonalar bilan qorishiq qo'llanishi" haqida yozgan edi" [8.]. Haqiqatdan ham, masal atamasi borasida adabiyotshunoslikda qizg'in bahs-munozaralar bo'lganini, adabiyotning tom ma'nodagi tarbiyaviy vazifadoshligi, inson taqdiri hamda ularning yashash tarzi xususidagi eng qadimgi ishonarli manba ekanligini tushunib olamiz.

"Qur'oni karim so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsatkichli lug'ati"da kitobda uchraydigan masal so'zlarining turli shakllari va lug'aviy ma'nolari keltiriladi مثل masalun ko'pligi امثال amsalun masal, rivoyat. مثل mislun ko'pligi امثال amsalun o'xshash, singari. مثلة muslatun — ibrat qilingan jazo mazmunida bir o'rinda qo'llangan. Qur'oni karimda o'zagi masal bo'lgan so'zlar jami 153 o'rinda uchraydi" [9.418-419]. Binobarin, bu kabi nazariy ma'lumotlardan anglash mumkinki, janrning tarixiy-tadrijiy takomili miloddan oldingi asrlardan boshlab, to shu bugunga qadar taraqqiy etishi shakllanishi, barkamollashuvi, she'riy, nasriy yo'sinda yuzaga chiqishiga sharoit hozirlagan.

Dunyo adabiyotining juda ko'plab janrlarida didaktika alohida ahamiyat kasb etadi. Didaktik pand-nasihatlar, ishoralar, misollar, masallar tabiatida inson fenomeniga qaratilgan yuksak olijanob tuyg'ular sintezi qad rostlaydi.

Darhaqiqat, IX-XII asrlardagi ilk qomusiy olimlar, yozuvchilar, shoirlar ijodida ham masalga bo'lgan e'tibor, she'riy yo'sinda inkishof qilingani fikrimiz yorqin dalilidir. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy badiiy-falsafiy-tarixiy izlanishlarida janrning u yoki bu kabi shakllari, aralash holda zuhur etilishini kuzatamiz. Chunki adiblar, olimlar, muarrixlar masalga bee'tibor bo'lmagan.

O'zbek olimlari D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyevlarning "Adabiyotshunoslik lug'ati" kitobida masal haqida quyidagilar keltiriladi: "...so'z san'atidagi eng ko'hna va qadimdan keng ommalashgan janr, nasriy yoki she'riy yo'lda yoziladigan mo'jaz hikoya; tarbiyaviy maqsadning ustuvorligi va oshkor didaktiklik xususiyatiga egaligi sababli masalga didaktik adabiyot janri sifatida qaraladi. Masalning qurilishi uning didaktik xarakteriga mos: avval mo'jaz hikoyacha beriladi, so'ng "qissadan hissa" shaklidagi xulosa bilan uning majoziy ma'nosi ta'kidlab ko'rsatiladi" [10.161]. Haqiqatdan ham, masalning hikoya qilinayotgan

qismi ertaklar, latifalarga xosligi ta'kidlansa, "qissadan hissa" qismi esa ko'proq maqollar, matallarga yaqinroq kelishini unutmazlik lozim. Chunki "qissadan hissa" deganda biror voqelikdan odam o'ziga oladigan zaruriy didaktik tamoyil oqibatda tarbiyaviy xulosalar chiqarish muhimligini namoyon qiladi. Tarbiyaviy ahamiyati ana shu tarzda masal badiiyatini muayyan qatlamda obrazlilikka yetaklaydi.

"Masal" so'zining "matal" shakli haqida B.Sarimsoqov quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "Matal so'zi turkiy xalqlar orasida turlicha ma'nolarda qo'llaniladi. U topishmoq, hikmatli so'z, ertak, masal, umuman hikoya qilish, naql qilish, hikmat aytish ma'nolarida ishlatiladi. U termin sifatida o'zbek folklorshunosligida paremalarning bir turini ifodalashi jihatidan differensiyallashib bormoqda" [11. 88-b]. Ko'rinadiki, matal va masal orasidagi alohidalik, janriy-kompozitsion yaxlitlik ham o'ziga xos tarzda jilvalanmoqda. Hikoya qilinayotgan voqelik qisqa va undagi ma'no kriteriyalari ulkan bir asar yukini qamrashi tayin. Matalda esa bu boshqacha rakursda namoyon bo'ladi. Masalning ijtimoiy-psixologik vazifadoshligi shaxsning botiniy olami: surati hamda siyrati, odamlar bilan o'zaro muloqotdagi samimiyligi, odob normalariga muvofiq hayot kechirish kabi jihatlar bilan yuzaga chiqadi. Bularning ko'pchiligi ana shu kriteriy (mezon)larda maromiga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Арасту. Поэтика. —Т.: "Янги аспр авлоди". 2018. Б.25.
- 2.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-jild. Tahrir hay'ati M.Aminov, T.Daminov, T.Dolimov, va b. — T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
- 3.Igor Klex. Masalning xazina dunyosi. (Tarj. M.Xudoyqulov). — T.: Jahon adabiyoti, 3/2020 (274).
 Хусайний А. Бадоеъ-ус-саноеъ. — Тошкент: АС, 1981. Б.135-136
- 4.Мумтоз адабиёт манбалари луғати. Тузувчи: В.Раҳмонов. — Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. Б.200-201.
- 5.Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. — М.: Русский язык., 1989. С. 741.
6. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1979. Б.40.
- 7.Бердақ Юсуф. Туркча-ўзбекча ва ўзбекча-туркча луғат. — Тошкент: Ўзбекистон, 1993. Б.108.
- 8.Huseyin Baydemir. Ozbek halk masallari inceleme-metin. Doktora tezi. Atatürk Üniversitesi — Erzurum, 2004.
- 9.Ҳасанов Б. Қуръони карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли луғати. — Тошкент: Ғ.Ғулом ном-ги Адабиёт ва санъат нашр-ти, 1995. Б.418-419.
- 10.Қуроноф Д., Мамажоноф З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. —Тошкент: Академнашр, 2010. Б.161
- 11.Қуроноф Д., Мамажоноф З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: Академнашр, 2010. Б.161
12. Саримсоқов Б. Мақоллар/ Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. — Тошкент: Фан, 1988. Б.88.
13. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. — Тошкент: Мовароуннаҳр, 2005 й. Б.29-30

Olmos XURRAMOV,
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
 o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
khuramov.@navoiy-uni.uz



TARIXIY JANRLARDA EPIK KO'LAMNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy adabiyotdagi tarixiylik masalasi hamda tarixiy voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar haqida hikoya qilinadigan zamonaviy janrlarga xos umumiy va xususiy jihatlar, ularning tarixiy bo'lmagan janrlar bilan munosabati masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *tarixiy mavzu, tarixiy shaxs, manba, obraz, tarixiy sharoit, tur, janr*

Annotation: this article examines the issue of historicity in contemporary literature, focusing on the general and distinctive characteristics of contemporary literary genres that depict historical events and historical figures. It also explores the relationship between these historically oriented genres and genres that are not primarily based on historical subject matter.

Key words: *historical theme, historical figure, source, literary image, historical context, literary type, genre.*

Badiiy adabiyotdagi tarixiylik xususiyatlari tarixiy janrlar silsilasida nisbatan keng va tizimliroq tarzda aks etadi. Shu nuqtayi nazardan tarixiy janrlar masalasini nazariy o'rganish, tarixiy janr tushunchasi, unga xos spetsifik xususiyatlar haqida muayyan xulosalarga kelish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, tarixiy janrlar borasida fikr yuritishga urinamiz. Bunda biz mavzuimiz bevosita zamonaviy adabiyotdagi tarixiylik masalasiga qaratilgani uchun adabiy janrlarning tarixiy shakllanishi, genezisi masalasiga emas, tarixiy voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar haqida hikoya qilinadigan zamonaviy janrlarga xos umumiy va xususiy jihatlar, ularning tarixiy bo'lmagan janrlar bilan munosabati masalalariga to'xtalamiz.

Adabiy tur va janrlar tizimida tarixiy janr degan maxsus tur yoki maxsus talqin shakli yo'q. Tarixiy janrlar ham shu uch adabiy tur doirasidan tashqarida emas. Ammo adabiyotshunoslikda tarixiylik prinsipi asosida maydonga kelgan, tarixiy mavzuni talqin etadigan, tarixiy shaxslar vositasida maydonga kelgan obrazlarni tasvirlaydigan, tarixiy makon va zamon, tarixiy voqea-hodisalarning badiiy bayoniga qurilgan asarlarga nisbatan "tarixiy janr" termini faol qo'llanadi. Mazkur termin janr xususiyatlariga ko'ra qo'llanilganda "tarixiy roman", "tarixiy qissa", "tarixiy drama", "tarixiy doston yoki poema" va h.k. shakllarda talqin etiladi.

Har qanday adabiy davr (epoxa) o'z davriga nisbatan zamonaviy, o'zidan keyingi davrlarga nisbatan esa tarixiydir. Eng qadimgi davrlarda ham tarixiy mavzudagi asarlar ijod etilgan. Mutaxassislarning qayd etishlariga ko'ra, adabiyotning ilk davrlarida maydonga kelgan xalq qahramonlik eposlari, xalq qissalari, hatto eng kichik lirik shakl hisoblangan qo'shiqlar ham tarixiy mavzuda yaratilgan. Qadimgi odamlar adabiyotni ibrat vositasi deb bilganlari bois, bunday vazifani faqat o'tganlar hayotiga doir voqea-hodisalargina bajarishiga qat'iy tarzda ishonganlar. O'z ijtimoiy, badiiy, axloqiy ideallarini o'tmishdan qidirganlar. O'z zamonlarida yuz berayotgan voqea-hodisalar, o'zlari bilan zamondosh mashhur shaxslar hayotini ideallashtirish, targ'ib etishdan o'zlarini tiyganlar. Hatto mashhur grek faylasufi Platon, Sofokl, Esxil, Yevripid asarlarini ideal o'tmishni ko'rsatmaganligi uchun tanqid qiladi. Mavjud real (zamonaviy) voqelikni badiiy aks ettirishning o'quvchi omma uchun hech bir foydasi yo'qligini, bunday asarlar axloq buzilishiga olib kelishi mumkinligini aytadi. Bizningcha, bu ham o'tmishni tasvirlashga bo'lgan rag'bat va uni ideallashtirish istagini bildiradi.

Tarixiy janrlarning maydonga kelishida voqelik ko'lami, tarixiy manbalar mukammalligi ham muhim ahamiyatga ega. Agar ijodkor uchun manbalar yetarli bo'lsa-yu, uni to'la holatida, tarixiylik prinsiplariga rioya etgan holda tasvirlash imkoni bo'lmasa, bu

o'z-o'zidan tarixiy janrning to'laqonli shakllanishiga monelik qiladi. Bunday hollarda yozuvchi keng epik plandagi dologiya, trilogiya, tetralogiya, epopeya yozish mumkin bo'lgan o'rinda qissa yoki kichik bir tarixiy hikoya yozish bilan cheklanishga majbur bo'ladi. Omma uchun ta'sirchan tarixiy drama o'rniga ballada yoki she'r yozish bilan kifoyalanadi. Masalan, bobomiz sohibqiron Amir Temur davri, hayoti va avlodlari to'g'risida sobiq sho'rolar tuzumi to'laqonli tarixiy asarlar yozish imkoniyatini cheklab qo'ygan edi. Shuning uchun bu mavzudagi asarlar juda kam. Borlari ham katta epik asarlarga tatiydigan voqea va obrazlar ko'lamiga ega bo'lishiga qaramasdan tor planda, tarixiy haqiqat to'la ifodalanmagan shaklda dunyo yuzini ko'rgan.

Mutafakkir, falakiyotchilik jihatlari bo'rttirilgan, imkon darajasida sho'ro tuzumiga mos jihatlari olib talqin etilgan Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur mirzolar bilan bog'liq ba'zi asarlarni istisno etganda, Amir Temur va temuriylar hayoti atroflicha yoritilgan asarlar u davr adabiyotida deyarli uchramaydi. Siyosiy shart-sharoitga shunchalik izchil amal qilib ijod etilganda ham "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini yozgan Maqsud Shayxzoda, "Ulug'bek xazinasi" romanini yozgan Odil Yoqubov, "Yulduzli tunlar" romanini yozgan Pirmul Qodirovlar adabiy siyosatni nazorat qiladigan sho'ro tashkilotlari tomonidan xush-xandon qabul qilingani yo'q. Ularning aksariyati tazyiq va ta'qiblarga uchradilar.

Demak, muayyan tarixiy janrning takomili ham ijtimoiy shart-sharoit bilan bog'liq ekan. Xuddi shu nuqtayi nazardan qaraganda, mustaqillik davri tarixiy o'tmishimizni to'laqonli yoritish uchun ulkan imkoniyatlar tug'dirganini alohida ta'kidlash lozim. Mustaqillik davrida o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz kechmishini barcha adabiy janrlar doirasida tasvirlash imkoniyati paydo bo'ldi. Amir Temur va temuriylar, Bobur va boburiylar haqidagi keng plandagi badiiy talqin namunalari fikrimizning yaqqol dalilidir.

G.N.Pospelov o'zining "Adabiyot nazariyasi" kitobida yozadi: "Odamlar ijtimoiy hayoti doimo ularning muayyan shart-sharoitlarda tug'iladigan, takomil topadigan milliy-tarixiy turmush tarzlari hamda muayyan shart-sharoitlarda oqib turadigan *makon va zamonda* namoyon bo'ladi. Shu tarzda ularga oid o'y-fikrlar, xohish-istaklar, hissiyotlar odamlar tomonidan aytilgan fikr-mulohazalarda,

ularning faoliyatlari va munosabatlaridagi makon va zamon aniqligi sifatida yuzaga chiqadi. Bundan ko'pincha ular orasidagi ma'lum munosabatlarni belgilovchi muomala va harakatlarga mazmun kiradi. Shunga aloqador ravishda, bunday fikr-mulohazalar odamlar turmushining muhim jihati tarzida namoyon bo'ladi"¹ (ta'kid muallifniki – O. X.). Bir millat tarixiy o'tmishi boshqa millatlar tarixi bilan ma'lum umumiylik kasb etsa-da, qator xususiy jihatlari bilan o'ziga xosligini namoyon etadi. Tarixiy zaminning makon va zamonga xos individualliklari ham aynan milliylik doirasida mazmun-mohiyatga ega bo'ladi. Konkret bir millatga tegishli bo'lgan fikr-qarashlar, muomala-munosabatlar, hissiyotlar, maqsad va istaklar tarixiy asar badiiy konsepsiyasini belgilovchi ichki sterjen vazifasini bajaradi. Bu ichki tizim tarixiy janrlar shakllanuvini ham ta'min etadi.

Dunyodagi barcha millatlar o'z o'tmishlari davomida turli-tuman voqea-hodisalarni, sharaflari va fojiali davrlarni boshdan kechirganlar. Sirtidan qaraganda solnomalar, sanalar bilan limmo-lim tarixiy dalil bo'lib ko'rinadigan bunday tarixiy vaziyatlar mohiyat e'tibori bilan odamlar taqdiri, quvonch va iztiroblari, murakkab ruhiy holatlari, o'zaro muomala-munosabatlaridagina chin ma'nodagi hayotiylikka, tiriklikka aylanadi. Tarixiy janr ijodkori uchun ham tarixiy davrga xos dalillar emas, balki o'sha davrda yashagan, g'alaba va mag'lubiyat nimaligini tatib ko'rgan, quvonch va iztiroblar o'tida toblangan tirik odam taqdirini yoritish muhimroqdir. Muayyan davrda, muayyan millat kishilari o'rtasidagi muomala munosabatlardagi drammatizmning ustunligi bu voqealar talqin etilayotgan janrda drammatizm yetakchiligiga sabab bo'lsa, markazida millat turmushidagi siyosiy, ma'naviy buhronlar ichida chorasiz qolgan buyuk shaxsiyatlar tasvirlangan asarlar tragik janrning maydonga kelishiga sabab bo'ladi.

Y. Borevning "Estetika" kitobida adabiy-tarixiy jarayonlardagi har qanday davr, tarixiy shart-sharoit jamiyatning estetik talablaridan kelib chiqib, muayyan janr yoki tur doirasida o'z g'oyalarini ilgari suradi, degan fikr qayd etib o'tiladi. Olim Yevropa adabiyotining janriy shakllanish va taraqqiyot masalalari xususida so'z yuritarkan, antik davr, o'rta asrlar, Uyg'onish davri, klassitsizm, ma'rifatchilik va realizm davrlarida tarixiy janrlar taraqqiyoti turli

¹ Пospelov Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978. – С. 96.

usullarda namoyon bo'lganini aytadi. Har bir adabiy davr adabiyot markaziga o'z talab va ehtiyojlariga monand voqelik va obrazlarni qo'yib talqin etganiga urg'u beradi. Bu jihatdan realistik san'atning nisbatan demokratik tamoyillar bilan ish ko'rganini ta'kidlaydi. "Shunday qilib, turli davrlar ijtimoiy ehtiyojlari markaziga turli san'at xillari to'g'ri kelgan. Davrdan davrga o'tish jarayonlarida badiiy san'at va uning boshqaruv shakllarini taklif etuvchi ijtimoiy subyektlar ham o'zgarib borgan. Shunga mos ravishda, o'z davri ijtimoiy-badiiy talablarini nisbatan qondiradigan faol san'at turlari ham o'zgarishga uchragan"².

O'zbek adabiyoti tarixida tarixiy voqelik va tarixiy shaxslarni talqin etish prinsiplari XX asrdagidan tubdan farq qiladi. U davrlar adabiyotida ijod etilgan o'zbek tarixiy asarlari namunalarini an'anaviy syujet va obrazlarga tayanishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bunda asosan, ma'lum adabiy an'anaga aylangan, birmuncha afsonalashgan, ideallashtirilgan voqea va obrazlar tasvir obyekti sifatida tanlangan. Bevosita tarixiy shaxslar hayot yo'li konkret tarixiy dalillar tizimida emas, muallifning estetik ideali, asar yozilayotgan davr va jamiyat etik talablariga ko'ra talqin va tasvir etilgan. Bu davr adabiyotida tarixiy haqiqat masalasi ham biroz boshqacharoq yo'sinda tushunilgan. Ya'ni bu davrda tarixiy haqiqat deyilganda badiiy talqinning joriy dunyoqarashlar, yetakchi etik tamoyillar, ijtimoiy, ma'naviy ehtiyojlar bilan naqadar mutanosib kelishi e'tiborga olingan. Yaqin tarix yoki tarixiy shaxslar haqida badiiy asar ijod etish tamoyilga kirmagan. Bu o'rinda badiiy asarga bo'lgan

ehtiyojni asosan, tarixiy asarlar bajargan. Binobarin, qoraxoniylar, saljuqiylar, temuriylar davrida yozilgan biron bir badiiy asar yo'qki, unda ushbu sulolalar tarixi va bu tarixiy davr markazida turgan muayyan shaxs badiiy aks ettirilgan bo'lsin. Ayni paytda bu davrdagi yozma tarixiy xotira o'rnini sof tarix asarlari bajargan. O'tmishda ulkan shon-shavkatga ega bo'lgan turkiy sulolalar tarixi, xususan, sohibqiron Amir Temur davri va tarixiga bag'ishlangan "Zafarnoma" singari asarlar fikrimizning yorqin dalilidir. Bu xarakterdagi asarlarning bugun biz o'qiydigan tarixiy asarlardan tubdan farq qiluvchi jihati shundaki, ularda tarixiy voqealar va shaxsiyatlar haqida real haqqoniy talqinlar berilgani holda, bunday asarlar badiiy bo'yoqlardan ham xoli bo'lmagan. Ammo tarixiy asarlardagi badiiylilik uning tarixiy haqiqatni xolis bayon etishiga sira ham xalal bermagan. Aksincha, asarning tarixiylilik qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

Bu turdagi asarlarda tarixiy voqealarning yagona shaxs (asosan, hukmdor shaxs)ni markazga qo'yib bayon etilishi ham xarakterlidir.

Umuman olganda, badiiy adabiyotdagi tarixiylilik tamoyili murakkab va xilma-xil nazariy kriteriylarni talab etadi. Tarixiy-badiiy asarning dunyoga kelishida real tarixni tashkil etadigan voqelik, davr va shaxs kategoriyalarining badiiyat mezonlari asosida talqin etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy asarda aks ettirilgan voqelik qamrovi o'sha asar janrining shakllanishi uchun vosita bo'lib xizmat qildi. Tarixiy obraz va xarakterlarning maydonga kelishida real-tarixiy vaziyat va unda faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaxslar haqidagi xilma-xil manbalarning ahamiyati muhimdir.

2 Боров Ю. Репрезентативные виды искусства в их историческая динамика / в кн.: Боров Ю. Эстетика.-Издательство политической литературы, 1981, – С. 310-312.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1991. 347 б.
2. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Фафур Фулом, 1980. 152 б.
3. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. 203 б.
4. Муродов Ф. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. – Тошкент: Фан, 2005. 168 б.
5. Пospelов Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978. 254 с.
6. Боров Ю. Эстетика. – М.: Высш. шк., 1981. 511с.

Orzigul OTAMURODOVA,

Qarshi davlat universiteti Lingvistika kafedrası assistent o'qituvchisi

email: orzigitamurodova@gmail.com

ORCID 0009-0008-0115-4008

XARAKTER TUSHUNCHASI VA UNGA YAQIN ADABIY KATEGORIYALAR MUNOSABATI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyotshunoslikda “xarakter” tushunchasi va unga yaqin bo‘lib hisoblanadigan “obraz”, “tip”, “personaj”, “qahramon” kabi adabiy kategoriyalarning o‘zaro munosabati o‘rganiladi. Muammo Teodor Drayzerning “Jenni Gerxardt” romani misolida tahlil etiladi. Xarakter va unga yaqin kategoriyalar o‘rtasidagi farq va umumiyliklar aniqlanib, ularni to‘g‘ri tushunish adabiy tahlilning ilmiy asosini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik va strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: xarakter, obraz, tip, personaj, qahramon, adabiy kategoriya, Jenni Gerxardt, Teodor Drayzer, baxtsiz ayol obrazi, realizm.

Kirish. Adabiyotshunoslikda badiiy asar tahlilida eng ko‘p qo‘llaniladigan va shu bilan birga, ba‘zan chalkashtirib yuboriluvchi tushunchalar qatorida “xarakter”, “obraz”, “tip”, “personaj” va “qahramon” kabi kategoriyalar alohida o‘rin tutadi. Bu atamalar ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatilsa-da, ularning har biri o‘ziga xos ilmiy mazmunga ega. Ularni farqlash va to‘g‘ri munosabatda ko‘rish adabiyotshunoslik ilmining metodologik asosini mustahkamlaydi.

Muammo ayniqsa kritik realizm adabiyotini tahlil qilishda o‘tkir ko‘rinadi. Amerikalik buyuk yozuvchi Teodor Drayzerning 1911-yilda nashr etilgan *Jenni Gerxardt* romani bu masalani tekshirishda ajoyib material beradi. Roman bosh qahramoni *Jenni Gerxardt* nafaqat tirik va murakkab xarakter sifatida, balki o‘z davri ayollari taqdirining badiiy umumlashmasi tip sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi xarakter tushunchasini adabiyotshunoslikning yaqin kategoriyalari bilan munosabatda ko‘rib chiqish va bu munosabatni “Jenni Gerxardt” romani misolida ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, o‘zbek adabiyotshunosligida mazkur kategoriyalarni bir-biridan farqlash va ularning o‘zaro aloqasini yaxlit tizim sifatida o‘rganish masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan. Xorijiy, xususan Drayzer ijodini o‘zbek nuqtayi nazaridan o‘rganish esa soha rivojida yangilik sifatida baholanadi.

Adabiyot sharhi va metodologiya. Xarakter masalasi qadimdan ilmiy muhokama markazida

bo‘lib kelgan. Arastu “Poetika” asarida xarakterni harakatni boshqaruvchi ichki kuch sifatida talqin etadi. Uning nazariyasida xarakter (ethos) insonning axloqiy-irodaviy mohiyatini aks ettiruvchi kategoriya hisoblanadi.¹ M. M. Baxtin esa o‘zining “Dostoyevskiy poetikasi muammolari” va “Adabiyot va estetika savollari” asarlarida xarakterni polifonik romanchi asosiy vositasi deb belgilaydi: xarakter dialogik munosabatlarda o‘zini namoyon etadi va muallifning ovozidan mustaqil mavjud bo‘la oladi.²

L. Y. Ginzburg “Adabiy qahramon haqida” asarida obraz va xarakter o‘rtasidagi munosabatni batafsil o‘rganadi. U obrazni kengroq estetik kategoriya, xarakterni esa obrazning ichki, psixologik qatlamini ko‘rsatuvchi tushuncha sifatida ajratib ko‘rsatadi. G. N. Pospelov nazariyasida ham shunga o‘xshash yondashuv mavjud: xarakter - ijtimoiy jihatdan shartlangan individual xususiyatlar majmuidir.³

O‘zbek adabiyotshunosligida R. Qo‘chqorovning *Adabiyotshunoslikka kirish*, Q. Yo‘ldoshevning “Badiiy asar tahlili” va I. Mirzayevning “O‘zbek adabiyotida obraz va xarakter” kabi asarlari bu kategoriyalar o‘rtasidagi munosabatni milliy adabiyot materialida ko‘rib chiqadi. Ammo xorijiy adabiyot, xususan Drayzer ijodiga nisbatan bunday yondashuv hali yetarli darajada qo‘llanilmagan.

Drayzer tadqiqotchilari orasida R. Wellek va A. Warren “Adabiyot nazariyasi” asarida xarakter va

1 Aristotel. *Poetika*. – Moskva: Xudozhestvennaya literatura, 1957. 183-s.

2 Baxtin M. M. *Voprosy literatury i estetiki*. – Moskva: Xudozhestvennaya literatura, 1975. 504-s.

3 Forster E. M. *Aspects of the Novel*. – London: Edward Arnold, 1927. 176-p.

tip o'rtasidagi nisbatni batafsil mushohada qiladilar. E. M. Forster "Roman jihatlari" kitobida xarakterni "yassi" va "yumaloq" deb ikki turga bo'lib o'rganadi. Bu tasnif Jenni Gerxardtning tahlil qilishda juda foydali metodologik asos beradi.⁴

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llaniladi: qiyosiy-tipologik tahlil (xarakter va unga yaqin kategoriyalarni solishtirish), strukturaviy tahlil (romanning badiiy tizimida kategoriyalar o'rnini aniqlash), germeneytik tahlil (matn ma'nosini kontekstda talqin qilish) hamda biografik-sotsiologik yondashuv (Drayzer ijodiy pozitsiyasini hisobga olish).

Natijalar va muhokama. Adabiyotshunoslikda "xarakter" so'zi ikki ma'noda qo'llaniladi: birinchisi – badiiy asardagi shaxsni umumiy ma'noda bildirish uchun (ya'ni personajning sinonimsifatida); ikkinchisi – tor, ilmiy ma'noda, ya'ni personajning ichki dunyosi, axloqiy-psixologik mohiyatini ifodalovchi kategoriya sifatida. Tadqiqotchilik amaliyotida ikkinchi ma'no asosiy hisoblanadi.

Xarakter – insonning o'ziga xos, barqaror, lekin dinamik xususiyatlar tizimi bo'lib, u asar davomida harakatlar, so'zlar va munosabatlar orqali namoyon bo'ladi. Jenni Gerxardt bu ta'rifga to'la mos keladi: u butun roman davomida mehribon, sabr-toqatli, fidokor va o'zini boshqalarga bag'ishlashga tayyor ayol sifatida ko'rinadi. Uning xakteri statik emas – u hayot zarbalari ostida o'zgaradi, lekin mohiyatini yo'qotmaydi.

Xarakterni ta'riflashda uchta asosiy o'lchov ajratiladi: individual (shaxsning o'ziga xos xususiyatlari), ijtimoiy (jamiyat va sinf ta'siri) va psixologik (ichki kechinmalar, ziddiyatlar). Jenni bu uch o'lchovni o'zida uyg'unlashtiradi: u kambag'al ishchi oilasidan chiqqan, ijtimoiy tabaqalanish qurboni, ayni paytda g'oyat boy ichki dunyoga ega murakkab shaxsdir.

"Obraz" tushunchasi "xarakter"dan kengdir. Obraz – yozuvchining real voqelikni badiiy umumlashtirish mahsuli bo'lib, u nafaqat odamni, balki tabiatni, hodisani, hattoki g'oyani ham qamrab olishi mumkin (tabiat obrazi, davr obrazi va hokazo). Xarakter esa doimo insoniy, ya'ni u faqat shaxs obrazining ichki, psixologik qatlamini bildiradi.

Jenni Gerxardt romanida Jenni obraz sifatida nafaqat alohida shaxs, balki o'z davri amerikalik kambag'al ayolning umumiy siymosi sifatida namoyon bo'ladi.

Lekin u xarakter sifatida ham g'oyat yorqin: uning Lesterga bo'lgan muhabbati, farzandiga bag'ishlangan hayoti, kamsitishlar oldida saqlanib qolgan qadri-qimmatini bularning barchasi o'ziga xos psixologik tizimni tashkil etadi. Demak, obraz kengroq kategoriya, xarakter esa uning asosiy, ichki qatlamini ifodalaydi.

Xarakter obrazning ruhi, asosi hisoblanadi. Obraz yozuvchi tomonidan ijodiy yaratilsa, xarakter o'sha yaratilgan obrazni tirik, ishonchli qilib ko'rsatuvchi psixologik haqiqiylik tizimi sifatida ishlab chiqiladi. Shu sababli ba'zan yorqin "obraz" deyilganda aynan ishonchli, hayotiy xarakter nazarda tutiladi.

"Tip" adabiy kategoriya sifatida qahramonning umumiy, ko'pchilikka xos xususiyatlarning individual shaklda mujassamlashuvini bildiradi. Belinsky ta'rifiga ko'ra, tip – ma'lum ijtimoiy muhit, davr yoki sinfning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida jamlagan obraz. Xarakter esa o'sha tipning individual, shaxsiy ko'rinishidir: umumiy va xususiy bir vujud birlashgan.

Jenni Gerxardt bir vaqtning o'zida ham xarakter, ham tipdir. Xarakter sifatida u o'ziga xos: uning sevgi tushunchasi, farzandiga munosabati, Lester bilan munosabatidagi o'ziga xos xislatlari uni boshqa qahramonlardan farqlaydi. Tip sifatida esa u XIX asr oxiri - XX asr boshi Amerikalik kambag'al, ma'lumsiz ayollarni ifodalaydi: ijtimoiy tengsizlik qurboni, lekin ruhan toza va insoniy qadriyatlarni saqlab qolgan.

Drayzer o'zining tanqidiy realizm uslubida xarakter va tipni ajralmas birlashtirib beradi. Bu uning badiiy mahoratining asosiy ko'rsatkichidir: o'quvchi Jenni alohida shaxs sifatida yaxshi ko'radi, ayni paytda unda o'z davrining minglab ayollari taqdirini ko'radi.

"Personaj" atamasi lotincha "persona" (niqob, rol) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, asardagi har qanday aktiv shaxsni bildiradi. Personaj – eng keng qamrovli atama: asardagi barcha shaxslar – bosh va yordamchi, ijobiy va salbiy – personaj hisoblanadi. Lekin xarakter faqat yetarlicha chuqur psixologik jihatdan ishlab chiqilgan personajlarga nisbatan qo'llaniladi.

"Qahramon" tushunchasi esa yana boshqacha ma'no kasbetadi. Tarixan bu so'z afsonaviy kuchli, jasur shaxsni bildirgan. Zamonaviy adabiyotshunoslikda u ko'proq "bosh personaj" ma'nosida, ba'zan esa ijobiy fazilatlarga ega markaziy shaxs ma'nosida ishlatiladi. Jenni Gerxardt an'anaviy qahramon emas – u g'alaba qilmaydi, ijtimoiy tengsizlikka qarshi ochiq kurashga

⁴ Dreiser, T. Jennie Gerhardt. New York: Harper & Brothers, 1911. p. 45.

chiqmaydi. Lekin u o'zining axloqiy daxlsizligini saqlab qolishi bilan "qahramonlik" ko'rsatadi.

Shunday qilib, terminologik iyerarxiya quyidagicha shakllanadi: personaj (eng keng) – qahramon (bosh personaj) – obraz (badiiy umumlashma) – tip (ijtimoiy umumlashma) – xarakter (psixologik chuqurlik). *Jenni Gerxardt* bu barcha kategoriyalar nuqtayi nazaridan o'rganilishi mumkin va har biri uni tahlil qilishning yangi qirralarini ochib beradi.

Xarakterning to'la namoyon bo'lishi uchun konflikt zarurdir. Konflikt xakteri ochib beradigan muhit yoki boshqa shaxslar bilan to'qnashuv. *Jenni Gerxardt* romanida xarakter aynan konflikt vaziyatlarida yorqin ko'rinadi: Lesterning oilasi bilan to'qnashuv, jamiyatning kamsitishi, o'z muhabbatidan voz kechish majburiyati.

Drayzer o'ziga xos uslubda *Jenni* xarakterini passiv tarzda ochadi: u kurasha olmaydi, ammo chiday oladi. Bu passivlik uning zaifligini emas, aksincha, o'ziga xos kuchini ko'rsatadi. Uning xakteri harakatda emas, balki chidashda namoyon bo'ladi. Bu Forsterning "yassi" va "yumaloq" tasnifi nuqtayi nazaridan ham qiziq: *Jenni* ko'rinishda "yassi" (bir xil fazilatlar) ko'rinsa-da, aslida "yumaloq" - u o'sadi, o'zgaradi, chuqurlashadi.⁵

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi. Birinchidan, "xarakter", "obraz", "tip", "personaj" va "qahramon" tushunchalari

bir-birini to'liqlaydigan, lekin bir-birining o'rnini bosa olmaydigan mustaqil adabiy kategoriyalardir. Ularning har biri badiiy asarni tahlil qilishda o'ziga xos aspektni qamrab oladi.

Ikkinchidan, Teodor Drayzerning *Jenni Gerxardt* romani bu kategoriyalarning o'zaro munosabatini o'rganish uchun ajoyib material hisoblanadi. *Jenni Gerxardt* bir vaqtning o'zida yorqin individual xarakter, ijtimoiy tip, murakkab obraz va asarning bosh qahramoniga ega personaj sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, kritik realizm adabiyotida xarakter va tipning uyg'unlashishi yozuvchining ijtimoiy-tanqidiy maqsadiga xizmat qiladi. Drayzer Jennini aynan shu prinsip asosida yaratgan: o'quvchi unga shaxs sifatida hamdardlik qilib, jamiyatdagi muammo sifatida anglaydi.

To'rtinchidan, xarakter tushunchasining adabiy kategoriyalar tizimidagi o'rnini to'g'ri anglash nafaqat nazariy, balki amaliy adabiy tahlil uchun ham muhimdir. Bu tushunchalarning chalkashib ketishi tahlilning ilmiy sifatini pasaytiradi va noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun Drayzerning boshqa romanlari "Sister Carrie" va "American Tragedy" bilan qiyosiy tahlil o'tkazish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bu esa muallif qahramonlar yaratish tizimini va adabiy kategoriyalardan foydalanish uslubini yanada chuqurroq ochib berishga yordam beradi.

⁵ Forster E. M. *Aspects of the Novel*. – London: Edward Arnold, 1927. 176 -p.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dreiser, T. *Jennie Gerhardt*. New York: Harper & Brothers, 1911. p. 45.
2. Aristotel. *Poetika*. - Moskva: Xudozhestvennaya literatura, 1957.183-c.
3. Baxtin M. M. *Voprosy literatury i estetiki*. – Moskva: Xudozhestvennaya literatura, 1975. 504 -s.
4. Baxtin M. M. *Problemy poetiki Dostoyevskogo*. – Moskva: Sovetskaya Rossiya, 1979. - 318 b.
5. Ginzburg L. Ya. *O literaturnom geroe*. –Leningrad: Sovetskiy pisatel, 1979. - 222
6. Xrapchenko M. B. *Xudozhestvennoe tvorchestvo, deystvitel'nost, chelovek*. –p Moskva: Sovetskiy pisatel, 1978. – 366 b.
7. Yesin A. B. *Prinsipy i priyomy analiza literaturnogo proizvedeniya*. - Moskva: Flinta, 2000. 248 b.
8. Pospelov G. N. *Teoriya literatury*. - Moskva: Vysshaya shkola, 1978.351-bet.
9. Q'o'chqorov R. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.224-bet.
10. Normatov U. *Ijod siri*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. 175-bet.
11. Yo'ldoshev Q. *Badiiy asar tahlili*. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.320-bet.
12. Mirzayev I. *O'zbek adabiyotida obraz va xarakter*. – Toshkent: Fan, 1974.198-bet.
13. Abrams M. H. *A Glossary of Literary Terms*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1981. 224-bet.
14. Forster E. M. *Aspects of the Novel*. – London: Edward Arnold, 1927. - 176 b.
15. Wellek R., Warren A. *Theory of Literature*. – New York: Harcourt, Brace and World, 1956. 374-bet.

Malika SAMATOVA,
 Shayxontohur tumani
 Everest o'qov markazi o'qituvchisi
malikasamatova42@gmail.com



XXI ASR BOSHLARIDA INGLIZABON ADABIYOTDA POSTMODERNIZM POETIKASINING TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada XXI asr boshlaridagi inglizabon adabiyotda postmodernizm poetikasining transformatsiyasi masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida postmodernistik adabiyotning asosiy xususiyatlari, jumladan intertekstuallik, metanarrativlik, fragmentarlik, ironiya va janriy gibridlik kabi poetik tamoyillarning zamonaviy adabiy jarayondagi namoyon bo'lish shakllari o'rganilgan. Shuningdek, globallashuv, raqamli texnologiyalar va madaniyatlararo integratsiya jarayonlarining inglizabon adabiyot rivojiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: *postmodernizm, poetika, inglizabon adabiyot, transformatsiya, intertekstuallik, metanarrativlik, fragmentarlik,*

Аннотация: в данной статье анализируются вопросы трансформации поэтики постмодернизма в англоязычной литературе начала XXI века. В ходе исследования рассмотрены основные особенности постмодернистской литературы, включая интертекстуальность, метанарративность, фрагментарность, иронию и жанровую гибридность, а также формы их проявления в современном литературном процессе. Кроме того, освещается влияние процессов глобализации, цифровых технологий и межкультурной интеграции на развитие англоязычной литературы.

Ключевые слова: *постмодернизм, поэтика, англоязычная литература, трансформация, интертекстуальность, метанарративность, фрагментарность, ирония, жанровая гибридность.*

Annotation: this article analyzes the transformation of postmodern poetics in early twenty-first-century English-language literature. The study examines the main characteristics of postmodern literature, including intertextuality, metanarrativity, fragmentation, irony, and genre hybridity, as well as their manifestations in contemporary literary practice. The article also highlights the impact of globalization, digital technologies, and intercultural integration on the development of English-language literature.

Key words: *postmodernism, poetics, English-language literature, transformation, intertextuality, metanarrativity, fragmentation, irony, genre hybridity.*

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida jahon adabiyoti rivojining zamonaviy tendensiyalarini o'rganish, ayniqsa, XXI asr boshlarida inglizabon adabiyotda yuz bergan poetik va janriy o'zgarishlarni tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Adabiyot insoniyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa sifatida jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Shu jihatdan postmodernizm adabiyoti ham zamonaviy dunyoqarash, tafakkur va estetik qarashlarning mahsuli sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va ta'lim sohasini rivojlantirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish hamda jahon ilm-fani yutuqlarini milliy ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlarida zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, xorijiy tajribalarni o'rganish va xalqaro ilmiy integratsiyani kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1; 2].

XXI asr boshlarida inglizabon adabiyotda postmodernizmning yangi bosqichi shakllandi. Ushbu davr adabiyotida an'anaviy postmodernistik tamoyillar saqlanib qolgan holda, yangi estetik qarashlar, madaniyatlararo muloqot, identifikatsiya muammolari, raqamli texnologiyalar ta'siri hamda globallashuv jarayonlari bilan bog'liq yangi badiiy izlanishlar yuzaga keldi. Natijada postmodernistik poetika o'zining dastlabki ko'rinishidan transformatsiyalanib, yangi uslubiy va janriy shakllar bilan boyidi. Zamonaviy inglizabon adabiyot vakillari asarlarida intertekstuallik, metanarrativlik, fragmentarlik, ironiyaviy tafakkur, ko'p qatlamli kompozitsiya va janrlararo sintez kabi postmodernistik xususiyatlar yangicha talqin qilinmoqda. Ayniqsa, postmodernizmning realizm, neomodernizm va metamodernizm bilan o'zaro munosabati adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Bu holat postmodernizm poetikasining transformatsiyasini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan postmodernizm adabiy oqimi XXI asr boshlariga kelib yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Inglizabon adabiyotda ushbu davr nafaqat postmodernistik poetikaning davom etishi, balki uning yangi estetik tamoyillar bilan boyishi bilan ham

xarakterlanadi. Globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, madaniyatlararo integratsiya va ijtimoiy ong-dagi o'zgarishlar badiiy tafakkurning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Natijada postmodernizmning klassik xususiyatlari yangi mazmun bilan to'ldirildi.

Postmodernistik poetikaning muhim belgilaridan biri intertekstuallik hisoblanadi. XXI asr boshlaridagi inglizabon yozuvchilar o'z asarlarida avvalgi adabiy an'analar, tarixiy manbalar va madaniy matnlarga murojaat qilish orqali ko'p qatlamli badiiy makon yaratadilar. Intertekstuallik o'quvchini matn mazmunini faol talqin qilishga undaydi hamda adabiy muloqotning yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, tarixiy voqealarning zamonaviy nuqtayi nazardan qayta talqin qilinishi postmodernistik poetikaning yetakchi tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, XXI asr boshlaridagi inglizabon adabiyotda metanarrativlikning yangi ko'rinishlari kuzatiladi. Muallif va qahramon o'rtasidagi chegaralarning buzilishi, matnning o'z yaratilish jarayoniga murojaat qilishi hamda badiiy voqelikning shartli ekanligini namoyish etish postmodernistik uslubning muhim xususiyatlaridan biridir. Bunday yondashuv o'quvchining matnga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, uni badiiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Postmodernizm poetikasining transformatsiyasida janrlararo sintez alohida ahamiyat kasb etadi. XXI asr boshlaridagi inglizabon romanlarda tarixiy roman, detektiv, fantastika, avtobiografik nasr va esse janrlarining o'zaro uyg'unlashuvi kuzatiladi.[3:120] Bunday janriy gibridlik adabiy asarning estetik imkoniyatlarini kengaytirib, yangi badiiy shakllarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Natijada an'anaviy janr chegaralari nisbiylashib, ko'p funksiyali badiiy strukturalar shakllanmoqda.

Mazkur davr adabiyotida fragmentarlik tamoyili ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Voqealar izchil rivojlanishining buzilishi, vaqt va makonning erkin talqini hamda bir necha syujet yo'nalishlarining parallel tarzda rivojlanishi zamonaviy postmodernistik romanlarning muhim xususiyatlaridan biridir. Ushbu usul inson tafakkurining murakkabligi va zamonaviy dunyoning ko'p qirrali tabiatini aks ettirish imkonini beradi.

XXI asr boshlaridagi inglizabon adabiyotda postmodernizm poetikasining transformatsiyasi metamodernizm elementlari bilan ham bog'liqdir. Agar klassik postmodernizm skeptitsizm, ironiya va nisbiylik ustuvor bo'lgan bo'lsa, yangi davr adabiyotida samimiylik, umid, axloqiy mas'uliyat va insoniy qadriyatlarga murojaat qilish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu esa postmodernistik poetikaning yangi bosqichga o'tganligini ko'rsatadi. Zamonaviy ingliz-

abon adabiyot vakillari asarlarida global muammolar – migratsiya, madaniy identiklik, ekologik inqiroz, texnologik taraqqiyot va virtual makon masalalari keng yoritilmoqda. Ushbu mavzular postmodernistik badiiy vositalar orqali ifodalanib, adabiyotning ijtimoiy-falsafiy funksiyasini yanada kuchaytirmoqda.[4:60] Natijada XXI asr boshlaridagi inglizabon adabiyot postmodernizmning an'anaviy estetik tamoyillarini saqlagan holda, yangi mazmun va shakllar bilan boyitilgan murakkab adabiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

XXI asr boshlarida inglizabon adabiyotda postmodernizm poetikasining transformatsiyasi zamonaviy adabiy jarayonning muhim xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, postmodernizm o'zining asosiy estetik tamoyillarini saqlab qolgan holda, yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta'sirida mazmun va shakl jihatidan sezilarli o'zgarishlarga uchragan.

Tahlillar natijasida XXI asr boshlaridagi inglizabon adabiyotda intertekstuallik, metanarrativlik, fragmentarlik, ironiya va janriy gibridlik kabi postmodernistik poetikaning asosiy unsurlari faol qo'llanilayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, ushbu davr asarlarida globallashuv, madaniy identiklik, migratsiya, ekologik muammolar va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq mavzularning keng yoritilishi postmodernistik adabiyotning yangi mazmun kasb etayotganligini ko'rsatadi [5:74]. Tadqiqot davomida postmodernizm poetikasining transformatsiyasi nafaqat badiiy tasvir vositalarida, balki janrlar tizimida ham yaqqol namoyon bo'lishi kuzatildi. Roman, esse, memuar, tarixiy nasr va fantastika elementlarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yangi janriy shakllar vujudga kelmoqda. Bu esa zamonaviy inglizabon adabiyotning estetik imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.[5] Shuningdek, XXI asr boshlaridagi adabiy jarayonlarda postmodernizm bilan bir qatorda metamodernistik qarashlarning shakllanayotgani ham kuzatiladi. Samimiylik, umid, insonparvarlik va axloqiy qadriyatlarga murojaat etish tendensiyasi klassik postmodernizmning mutlaq skeptitsizmga nisbatan yangi estetik yondashuvlarning paydo bo'layotganligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr boshlarida inglizabon adabiyotda postmodernizm poetikasining transformatsiyasi zamonaviy adabiyot rivojining muhim qonuniyatlaridan biri bo'lib, u badiiy tafakkurning yangilanishi, janr-uslubiy izlanishlarning kengayishi hamda jahon adabiyoti taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari zamonaviy adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va jahon adabiyoti tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manbalar

- [1] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
- [2] O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
- [3] Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 320-b.
- [4] Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. 240-b.
- [5] Karimov B. Adabiyot nazariyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2019. 286-b.

Nigora EGAMOVA,

10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma

tilshunoslik va tarjimashunoslik

Nigoraegamova2@gmail.com

ORCID: 0000-0000-0000-0000

KONFESSIONAL POETIKANING GENEZISI VA AYOL KONFESSIONAL SHE'RIYATINING SHAKLLANISHIDA SYLVIA PLATHNING O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada konfessional poetikaning shakllanish tarixi, uning XX asr Amerika adabiyotidagi genezisi va asosiy poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Konfessional she'riyatning ilk vakillari — Robert Lowell, John Berryman, W.D. Snodgrass va Theodore Roethke — ijodi hamda ushbu yo'nalishning ayol ijodkorlar, xususan Anne Sexton va Sylvia Plath, tomonidan yangi bosqichga olib chiqilishi yoritiladi. Sylvia Plath ijodining konfessional poetika rivojida o'ri, uning ayol subyektivligi, avtobiografizm, travma poetikasi va lirik "men"ning badiiy ifodasini shakllantirishdagi ahamiyati tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: *konfessional poetika, ayol subyektivligi, avtobiografizm, lirik men, travma poetikasi, ayol ovozi, Amerika she'riyati, Sylvia Plath.*

Annotation: this article examines the historical formation of confessional poetry, its genesis in twentieth-century American literature, and its principal poetic characteristics. The study analyses the work of the movement's early representatives — Robert Lowell, John Berryman, W.D. Snodgrass, and Theodore Roethke — and highlights how women poets, particularly Anne Sexton and Sylvia Plath, carried the movement into a new stage of development. Particular attention is paid to Sylvia Plath's role in the evolution of confessional poetics and her contribution to the artistic representation of female subjectivity, autobiographical expression, trauma poetics, and the lyrical self.

Key words: *confessional poetry, female subjectivity, autobiographism, lyrical self, trauma poetics, female voice, American poetry, Sylvia Plath.*

Аннотация: в данной статье рассматривается история формирования исповедальной поэзии, её генезис в американской литературе XX века и её основные поэтические особенности. Анализируется творчество первых представителей исповедальной поэзии — Роберта Лоуэлла, Джона Берримена, У.Д. Снодграсса и Теодора Рётке — а также вклад женщин-поэтов, в особенности Энн Секстон и Сильвии Плат, в развитии этого литературного течения. Особое внимание уделяется роли Сильвии Плат в развитии исповедальной поэтики, а также её вкладу в художественное осмысление женской субъективности, автобиографизма, поэтики травмы и лирического «я».

Ключевые слова: *исповедальная поэзия, женская субъективность, автобиографизм, лирическое «я», поэтика травмы, женский голос, американская поэзия, Сильвия Плат.*

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida jahon adabiyotida shaxsning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va individual tajribasini badiiy ifodalashga qaratilgan yangi poetik yo'nalish — konfessional poetika shakllandi. Ushbu yo'nalish vakillari she'riyatning an'anaviy estetik me'yorlaridan chekinib, shaxsiy hayot, oilaviy munosabatlari, ruhiy inqiroz, depressiya, yolg'izlik, o'lim va identitet inqirozi kabi mavzularni she'riy matn markaziga olib chiqdi. Natijada lirik qahramonning shaxsiy tajribasi va avtobiografik kechinmalari poetik ifodaning asosiy obyektiga aylandi.

"Konfessional poetika" termini ilk bor amerikalik adabiyotshunos M.L. Rosenthal tomonidan 1959-yilda Robert Lowellning *Life Studies* to'plamiga nisbatan qo'llangan. Keyinchalik ushbu yo'nalish XX asr Amerika she'riyatining eng muhim hodisalaridan biriga aylandi hamda John Berryman, W.D. Snodgrass va Theodore Roethke kabi ijodkorlar faoliyati bilan yanada rivojlandi.

Biroq konfessional poetikaning haqiqiy estetik va ijtimoiy ahamiyati ayol shoiralar ijodida yanada yorqinroq namoyon bo'ldi. Ayol konfessional she'riyati orqali ilgari adabiyot chekkasida qolib kelgan ayollik tajribasi, onalik, oilaviy ziddiyatlar, ruhiy travma va gender bosimi masalalari badiiy tafakkur markaziga olib chiqildi. Bu jarayonda Anne Sexton va ayniqsa Sylvia Plath ijodi alohida o'rin egallaydi.

Sylvia Plath konfessional poetikani oddiy avtobiografik e'tirofdan murakkab badiiy-falsafiy tizim darajasiga ko'targan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning she'riyatida shaxsiy fojiaiy tajriba, ruhiy iztirob, ayol subyektivligi, patriarxal munosabatlarga qarshi ichki isyon hamda o'lim va qayta tug'ilish motivlari o'ziga xos poetik modelni yuzaga keltiradi. Shoiraning lirik "men"i nafaqat individual tajriba ifodachisi, balki XX asr ayolining ijtimoiy va madaniy holatini aks ettiruvchi badiiy fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolaning maqsadi konfessional poetikaning shakllanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ayol konfessional she'riyatining vujudga kelish omillarini aniqlash hamda Sylvia Plath ijodining ushbu yo'nalish rivojida o'ri va ahamiyatini yoritishdan iborat.

Konfessional poetikaning genezisi.

Konfessional poetika XX asr Amerika adabiyotida shakllangan va shoirning shaxsiy hayoti, ruhiy kechinmalari hamda individual tajribasini poetik ifodaning markaziga olib chiqqan adabiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning paydo bo'lishi ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda G'arb jamiyatida yuzaga kelgan ijtimoiy va ma'naviy inqirozlar, shaxsning begonalashuvi hamda ekzistensial izlanishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Konfessional she'riyatning shakllanishiga psixoanaliz nazariyasi, xususan, psixologik travma va inson ongosti jarayonlariga qiziqishning

ortishi ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada shoirlar ilgari she'riyat uchun nomaqbul deb hisoblangan mavzularni — ruhiy kasallik, depressiya, oilaviy nizolar, shaxsiy yo'qotishlar va ichki iztiroblarni — ochiq tasvirlay boshladilar.

“Konfessional poetika” atamasi ilk marotaba M.L. Rosenthal tomonidan 1959-yilda qo'llanilgan bo'lib, u ushbu termini Robert Lowellning 1959-yilda nashr etilgan “Life Studies” to'plamini tavsiflash uchun ishlatgan. Mazkur to'plamda shoir oilaviy munosabatlar, ruhiy tushkunlik va shaxsiy hayotiga oid voqealarni ochiq va samimiy tarzda tasvirlagan edi. Keyinchalik aynan ushbu asar konfessional poetikaning dastlabki manifesti sifatida baholandi. Konfessional she'riyatning shakllanishida John Berryman, W.D. Snodgrass hamda Theodore Roethke kabi shoirlar ham muhim rol o'ynadilar. Ularning asarlarida shaxsiy tajriba va ruhiy iztirob estetik umumlashmalar emas, balki bevosita individual hayotiy tajriba sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq konfessional poetikaning keyingi taraqqiyot bosqichi ayol ijodkorlar faoliyati bilan bog'liqdir. Agar dastlabki erkak konfessional shoirlar asarlarida ko'proq individual psixologik inqiroz va shaxsiy fojiga urg'u berilgan bo'lsa, ayol konfessional shoirlar ijodida bunga qo'shimcha ravishda gender tengsizligi, oilaviy bosim, onalik tajribasi va patriarxal jamiyatdagi ayol mavqeyi kabi masalalar ham poetik tahlil obyektiga aylandi. Shu tariqa konfessional poetika nafaqat estetik yo'nalish, balki XX asr insonining ichki dunyosini aks ettiruvchi muhim madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida shakllandi.

Ayol konfessional she'riyatining shakllanishi va Sylvia Plath fenomeni.

Konfessional poetikaning dastlabki bosqichi asosan erkak shoirlar ijodi bilan bog'liq bo'lsa-da, uning haqiqiy estetik va ijtimoiy transformatsiyasi ayol ijodkorlar faoliyati orqali amalga oshdi. XX asrning 50–60-yillaridan boshlab Amerika she'riyatida ayol ovozinin kuchayishi, shaxsiy tajribaning ochiq ifodalanishi va gender identitet muammolarining markaziy mavzuga aylanishi konfessional poetikaning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonda Anne Sextonning ijodi muhim o'rin tutadi: uning she'riyatida ayollik tajribasi, ruhiy kasallik, onalik va shaxsiy inqirozlar ochiq va bevosita tasvirlanadi, bu esa Sexton ijodini konfessional poetikaning ayol subyektivligini ifodalashdagi ilk kuchli namoyondalaridan biriga aylantiradi.

Shu bilan birga, Sylvia Plath ijodi konfessional she'riyatni yangi estetik va semantik darajaga ko'targan fenomen sifatida alohida ajralib turadi. Plath she'riyatida lirik “men” faqat avtobiografik subyekt sifatida emas, balki parchalanayotgan

ong, ichki konflikt va ekzistensial iztirobning murakkab poetik modeli sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, uning Ariel to'plamidagi she'rlarda subyektning o'zini yo'qotishi va qayta yaratishi jarayoni kuchli metaforik tizim orqali ifodalanadi. Bu holat konfessional poetikaning an'anaviy “e'tirof” (confession) modelidan chiqib, psixologik va falsafiy chuqurlashuvga ega bo'lgan yangi poetik shaklga aylanganini ko'rsatadi.

Ayol konfessional she'riyatining shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida 1960-yillardagi ikkinchi to'lqin feminizmi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda ayol tajribasi endi faqat shaxsiy darajada emas, balki ijtimoiy va siyosiy diskursning markaziy masalasiga aylandi. Natijada ayol shoirlar ijodida patriarxal tizimga nisbatan ichki qarshilik, o'zlikni anglash va identitetni qayta qurish motivlari kuchaydi. Sylvia Plath fenomeni aynan shu tarixiy va estetik jarayonning eng yuqori nuqtasini ifodalaydi: uning she'riyati konfessional poetikani individual psixologizmdan universal ayol tajribasini ifodalovchi murakkab poetik tizimga aylantirdi. Plath ijodida o'lim va qayta tug'ilish, tana va ong qarama-qarshiligi hamda ayol subyektivligining parchalanishi markaziy badiiy kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli Plath nafaqat konfessional poetika vakili, balki uning estetik chegaralarini kengaytirgan va ayol she'riyatini yangi bosqichga olib chiqqan muhim adabiy fenomen sifatida baholanadi.

Xulosa. Mazkur maqolada konfessional poetikaning XX asr Amerika adabiyotida shakllanish jarayoni, uning asosiy vakillari hamda ayol konfessional she'riyatining rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, konfessional poetika dastlab Robert Lowell ijodi va uning “Life Studies” asari orqali shakllangan bo'lib, keyinchalik John Berryman, W.D. Snodgrass hamda Theodore Roethke ijodida rivojlangan. Ushbu yo'nalishning keyingi taraqqiyoti ayol shoirlar ijodi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ayniqsa Anne Sexton va Sylvia Plath ijodi konfessional poetikaning estetik va semantik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sylvia Plath ijodi konfessional poetikani oddiy avtobiografik ifodadan murakkab psixologik va ekzistensial model darajasiga olib chiqqan. Uning she'riyatida lirik “men”ning parchalanishi, o'zlikni qayta qurish jarayoni hamda o'lim va qayta tug'ilish motivlari kuchli badiiy-falsafiy tizimni shakllantiradi. Umuman olganda, konfessional poetika XX asr she'riyatida shaxsiy tajriba va badiiy ifoda o'rtasidagi chegarani qayta belgilagan muhim adabiy-estetik hodisa bo'lib, u ayniqsa ayol ijodkorlar orqali yangi mazmun va nazariy chuqurlikka ega bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lowell, R. Life Studies. New York: Farrar, Straus and Giroux, 1959.
2. Berryman, J. The Dream Songs. New York: Farrar, Straus and Giroux, 1969.
3. Snodgrass, W. D. Heart's Needle. Bloomington: Indiana University Press, 1959.
4. Roethke, T. The Waking: Poems 1933–1953. Garden City: Doubleday, 1953.
5. Sexton, A. To Bedlam and Part Way Back. Boston: Houghton Mifflin, 1960.
6. Plath, S. Ariel. London: Faber and Faber, 1965.
7. Rosenthal, M. L. Poetry as Confession // The Nation, 1959.
8. Beauvoir, S. de. The Second Sex. New York: Knopf, 1953.
9. Butler, J. Gender Trouble. New York: Routledge, 1990.
10. Cixous, H. The Laugh of the Medusa // Signs, 1976.
11. Gilbert, S. M., Gubar, S. The Madwoman in the Attic. New Haven: Yale University Press, 1979.
12. Wagner-Martin, L. Sylvia Plath: A Literary Life. London: Palgrave Macmillan, 2003.

Umida MAMATJONOVA,
 Samarqand davlat chet tillar instituti akademik
 litseyi fransuz tili fani o'qituvchisi



JERMENA DE STAL ROMANLARIDA ERKAK QAHRAMONNING PSIXOLOGIK VA BADIY TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Jermena de Stalning *“Delphine”* romanidagi Leons obrazi hamda Valorb qahramoni qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Claire Garry-Broussel tomonidan ilgari surilgan *“frenetik qahramon”* konsepsiyasi asosida Leons xarakterining badiiy va psixologik xususiyatlari ochib beriladi. Asarda sentimental roman poetikasiga qora romantizm unsurlarining kirib kelishi, qahramon ruhiyatidagi zo'ravonlik, rashk, qasos, despotizm va mutlaq egalik istagining badiiy funksiyasi tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: frenetik qahramon, sentimental, romantizm, despotizm, syujet, Leons.

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ образов Леонса в романе Жермены де Сталь «Дельфина» и Вальорба. На основе концепции «френетического героя», предложенной Клер Гарри-Бруссель, раскрываются художественные и психологические особенности характера Леонса. Анализируется проникновение элементов «чёрного романтизма» в поэтику sentimentalного романа, а также художественные функции насилия, ревности, мести, деспотизма и стремления к абсолютному обладанию в духовном мире героя.

Ключевые слова: френетический герой, сентиментализм, романтизм, деспотизм, сюжет, Леонс.

Annotation: this article presents a comparative analysis of the characters Léonce in *Delphine* by Germaine de Staël and Valorb. Based on the concept of the frenetic hero proposed by Claire Garry-Broussel, the study examines the artistic and psychological characteristics of Léonce's character. It also analyzes the integration of elements of Black Romanticism into the poetics of the sentimental novel and explores the artistic functions of violence, jealousy, revenge, despotism, and the desire for absolute possession in the protagonist's inner world.

Key words: frenetic hero, sentimentalism, Romanticism, despotism, plot, Léonce.

Jermena de Stal asarlaridagi erkak qahramonlar haqidagi tadqiqotida, Claire Garry-Broussel Valorb va Leons o'rtasida o'xshashlik ehtimolini ta'kidlab, ularni *“frenetika”*¹ turidagi qahramonlar qatoriga kiritgan, bu turni esa quyidagicha tavsiflagan: *“Shiddatli tuyg'ular egasi bo'lishiga qaramay, hissiy vulkanizmning qorong'i jozibasiga berilib, ruhning tartibsiz harakatlariga berilib ketadigan, yuqori va yaxshiroq dunyodan uni ajratib turadigan to'siqlarni yenga olmagan shaxs, zamonaviy qahramonga aylanish o'rniga, behushlik sohiliga suzadi. Frenetik, shuningdek, taqdirni o'z istaklariga bo'ysundirish, umumiy taqdirni o'z yuksak xohishlariga moslashtirish zarurati bilan ham ovora bo'lib, nihoyatda xavotirli holatda yashaydi va har lahzada uni yo'q qilayotgan zo'ravonlikni chiqarishi mumkin”*².

1 O'ta jo'shqinlik, nazoratdan chiqqan ehtiros, asabiy va tartibsiz ruhiy holat.

2 Claire Garry-Broussel. Statut et fonction du personnage masculin chez

Sentimental roman qahramoni *“frenetik”* bo'lishi mumkinmi degan savol ushbu asarning ijtimoiy-pessimist roman xususiyatlarini yuzaga chiqarishini ifodalaydi. Leons qahramoni aynan shu ikki xususiyat bilan tavsiflanadi. Agar Valorbdagi zo'ravonlik boshqalar bilan muvaffaqiyatsiz uchrashuvdan kelib chiqsa, Leonsdagi zo'ravonlik qisman uning nasl-merosidan kelib chiqadi. Onasi ispaniyalik bo'lganligi sababli, u Stal tasavvuriga ko'ra, shu xalqqa xos xususiyatlarni egallaydi: g'urur, sharaf va boshqalarning fikrini hurmat qilish. Ushbu mag'ururlik ham qora ehtiroslar bilan boyitilgan rashk va qasos istagi, ularni Jermena de Stal 1796-yilda nashr etilgan *«De l'influence des passions sur le bonheur des individus et des nations»* asarida bayon qilgan. Valorbga qaraganda, Leons Delfin romanidagi haqiqiy pessimistik roman qahramoni bo'lishi mumkin.

Madame de Staël. – Paris: Champion, 2002. – P. 84-85.

Delfin va Leons o'rtasidagi bir sahna, Valorb bilan Zelldagi xonada yuz beradigan sahnaga o'xshash deb qaralishi mumkin. Delfin do'stlaridan birining nunani olish marosimida bo'lishganidan so'ng, ikkalasi Léonce tomonidan yuzaga keladigan zo'ravonlikka duch keladi. Sentimental romaning mukammal sevgilisi shu payt zo'ravon shaxsga aylanadi: aqlsiz holatda Delfin'ning tanasi bilan ham, ruhiy dunyosi bilan ham shafqatsiz muomala qiladi – uni majburlab muqaddas qilinadigan joyga olib boradi va Delfindan “qasamyod”, ya'ni sevgini va'da qiluvchi bir sodiqlik so'raydi; bu, ehtimol, ular orasidagi munosabatning shu paytgacha faqat platonik sevgi asosida bo'lgan chegaralarini oshirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. “Je veux, reprit Léonce, te lier pour jamais : je veux affranchir ton âme violemment et sans retour, de tous les scrupules vains qui la retiennent encore. Delfin, si nous étions au bout du monde, si les volcans avaient englouti la terre qui nous donna naissance, les hommes que nous avons connus ; croirais-tu faire un crime en t'unissant à ton amant ? Tu ne l'as jamais connu, l'amour, fille du ciel ! aucun mortel n'a possédé tes charmes. Quand ton âme sera toute entière livrée à moi, tu m'aimeras d'une affection que tu ne peut encore comprendre.”³Ma'nosi : – Men xohlayman, – deb davom etdi Léonce, – seni abadiy bog'lab qo'yishni xohlayman; qalbingni hali ham ushlab turgan behuda vijdon azoblaridan uni zo'rlik bilan va ortga yo'l qoldirmay ozod etmoqchiman. Delfin, agar biz dunyoning chekkasida bo'lganimizda, agar bizni dunyoga keltirgan yeru osmonni, biz tanigan barcha odamlarni vulqonlar yutib yuborganida, sevgiling bilan birlashishni jinoyat deb bilmaydigan? Sen muhabbatni hech qachon tanimagansan, ey osmon farzandi! Hech bir o'lik inson sening jozibangga ega bo'lmagan. Qachonki qalbing butunlay menga topshirilsa, sen hozircha anglay olmaydigan darajadagi muhabbat bilan meni boshlaysan.

Boshqasining qalbi va tanasini egallash istagi, Delfinning duo qilishi va hushidan ketishi bilan to'xtatiladi: shunday qilib, yana bir bor, boshqaga nisbatan zo'ravon qora sahna ojiz qoladi. Biroq cherkovdagi bu sahna Leonsning barcha zo'ravonligini ko'rsatishga imkon beradi; bu zo'ravonlik faqat xat ichidagi makonda cheklanmaydi – Valorb g'azabi kabi u so'z va niyatlarda qolib ketmay, kulminatsion sahnalarda namoyon bo'ladi. Chunki Leons qorong'i

istaklar bilan to'la shaxsdir. Cherkovdagi sahna boshqa syujetlardan faqat biri. U o'z xarakterining ajralmas qismi bo'lgan g'azab va g'ururidan tashqari, ba'zi jihatlarda uy despotiga o'xshaydi. Yosh ayolni olib ketish va uni, iloji boricha, dunyodan yiroq, yolg'iz joyga qamash – frenetik romaning takrorlanadigan sxemalaridan biridir. Bu motiv Delfinda ham ochiqchasiga namoyon bo'ladi. “Vous avez peut-être su les cruels traitements que M. de T. me fit éprouver quand il sut que j'aimais M. de Lebensei. Je n'avais point d'enfants, je demandai le divorce selon les lois de Hollande. M. de T., avant d'y consentir, voulut exiger de moi une renonciation absolue à toute ma fortune ; quand je la refusai, il m'enferma dans sa terre et me menaçait de la mort ; son amour s'était changé en haine, et toute sa conduite était alors soumise à sa passion dominante, l'avidité.”⁴Ma'nosi : Siz, ehtimol, M. de T. mening M. de Lebensei'ni sevganimni bilganida menga qilgan shafqatsiz muomalasini bilasiz. Mening farzandlarim yo'q edi, shuning uchun Gollandiyaning qonunlariga binoan ajrashishni so'radim. M. de T. bunga rozi bo'lishdan oldin, mening butun mol-mulkimdan butunlay voz kechishimni talab qilmoqchi bo'ldi; men rad qilganimda esa, meni o'z mulkiga qamab, o'lim bilan tahdid qildi; uning muhabbati nafratga aylangan edi, va uning barcha xatti-harakatlari o'sha paytda hukmron ehtirosi ochko'zligiga bo'ysungan edi.

O'zga bir insonni qalbini, shuurini, erkinligini egallash, xususan uni yolg'iz qilib, tashqi ijtimoiy aloqalardan uzish istagi Leonsda ham namoyon bo'ladi va bu, uchinchi qismning o'n birinchi maktubida aniq ko'rinadi: “Tu veux que je sois heureux, hé bien, j'ose te supplier de retourner à Bellerive ; la saison est rude encore, mais n'est-il pas vrai que tu ne compteras pour rien ce qui pourrait déplaire à d'autres femmes ? [...] je t'enlève au monde, je te garde pour moi seul, je ne te laisse pas même la disposition des moments que je passerai sans te voir ; je suis exigeant, tyrannique, mais je t'aime avec tant d'idolâtrie, que je ne puis jamais avoir tort avec toi.”⁵Ma'nosi : Sen mening baxtli bo'lishimni xohlaysan; unda, jur'at etib sendan Bellerivga qaytishingni iltimos qilaman. Mavsum hali ham sovuq, ammo boshqalarga yoqmasligi mumkin bo'lgan narsalarni sen hech narsaga hisoblamaysan, shunday emasmi? [...] Men seni dunyodan olib

⁴ Germaine de Staël. Delphine. – Paris: Garnier Frères, 1869. – P. 138-139.

⁵ Germaine de Staël. Delphine. – Paris: Garnier Frères, 1869. – P. 273.

³ Germaine de Staël. Delphine. – Paris: Garnier Frères, 1869. – P. 351.

qo'yaman, seni faqat o'zim uchun saqlayman; hatto seni ko'rmaydigan damlarimni ham sening ixtiyoriga qoldirmayman; men talabchanman, zolimman, ammo seni shunday butparastona sevamanki, sen bilan hech qachon nohaq bo'la olmayman.

Shunday qilib, uning despotizmi ishga tushadi. Leons esa Delfinni kelishini so'raydi, deb e'tiroz bildirishi mumkin. Albatta, vositalarda farq bor, lekin natija oxir-oqibat bir xil bo'ladi. Delfin sevgining nomidan, yoki Leonsning boshqalar fikriga nisbatan nozikligidan kelib chiqqan bu ixtiyoriy qullikni qabul qiladi. Biroq, Delfin o'zi ham bir maktubda, birinchi erining singlisi Luizga yozib, boshidan kechirgan zo'ravonlikni tan oladi va uni qabul qilishga majbur qilgan turmush tarzi haqida so'zlaydi.

Shu payt sevgi hikoyasi despotik irodaning amalga oshishiga aylanadi: shunday qilib, qora element sentimentalga aralashadi. Ammo sentimentalning qora bilan ifloslanishi faqat Leonsga taalluqli emas; Delfin ham ba'zan qora ehtirosalar, xususan qasos istagi qurboni bo'lishi mumkin – va bu ehtirosni u Leons bilan ham baham ko'radi. Jermena de Stal De l'influence des passions asarida qasamyodni shunday ta'riflaydi: "Il ne peut être question de bonheur positif obtenu par elle, puisqu'elle ne doit sa naissance qu'à une grande douleur qu'on croit adoucir en la faisant partager à celui qui l'a causée ; mais il n'est personne qui, dans diverses circonstances de sa vie, n'ait ressenti l'impulsion de la vengeance."⁶ Ma'nosi : Bu orqali u erishadigan ijobiy baxt haqida gap bo'lishi mumkin emas, chunki uning tug'ilishi faqat katta azob

tufayli yuz bergan va bu azobni uni keltirib chiqargan shaxs bilan baham ko'rish orqali yumshatishga harakat qilinadi; biroq hayotining turli vaziyatlarida qasos olish istagini his qilmagan odam yo'q.

Xulosa qilib aytganda, Jermena de Stal ijodida erkak qahramon obrazi sentimental roman an'alaridan chiqib, murakkab psixologik va falsafiy mazmun kasb etadi. Xususan, Delphine romanidagi Leons obrazi Claire Garry-Broussel tomonidan ilgari surilgan "frenetik qahramon" konsepsiyasi doirasida talqin qilinishi mumkin. Uning ruhiyatida sevgi, rashk, g'urur, qasos va mutlaq egalik istagi bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, qahramon xarakterining ichki ziddiyatlarini yuzaga chiqaradi. Valorb va Leons obrazlarini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, har ikkala qahramon zo'ravonlikka moyilligi bilan umumiylik kasb etsa-da, ularning motivatsiyasi va badiiy vazifasi turlicha. Valorbdagi zo'ravonlik tashqi ijtimoiy to'qnashuvlar natijasida shakllansa, Leonsning despotik xatti-harakatlari uning xarakteri, tarbiyasi va ichki ehtirosalaridan oziqlanadi. Shu sababli Leons sentimental qahramondan ko'ra romantizmning "frenetic" tipiga yaqin turuvchi murakkab obraz sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari Jermena de Stal sentimental roman poetikasini qora romantizm elementlari bilan boyitganini, sevgi syujetini shaxs erkinligi, hokimiyat, ruhiy zo'ravonlik va despotizm muammolari bilan uyg'unlashtirganini tasdiqlaydi. Natijada yozuvchi XIX asr psixologik romani taraqqiyotiga xizmat qilgan, inson ruhiyatining qarama-qarshi qatlamlarini aks ettiruvchi yangi tipdagi erkak qahramonni yaratishga muvaffaq bo'lgan.

⁶ Germaine de Staël. De l'influence des passions sur le bonheur des individus et des nations. – Florence: Honoré Champion, 2008. – P. 217.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қаршибаева У.Д. Франсуз романтизм прозасининг поетик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореферати. – Тошкент: Академия ноширлик маркази, 2016. – Б. 29.
2. Simone Balayé. Delphine. – Genève: Droz, 1987. – P. 12.
3. Stéphanie Genand et Jean-Daniel Candaux. Correspondance générale. Derniers combats. – Genève: Slatkine, 2017. – P. 199.
4. Stéphanie Genand. La reine flétrie. Politique du gothique chez Mme de Staël in Imaginaires gothiques // Aux sources du roman noir français. – Paris: Desjonquères, 2010. – P. 147-159.
5. Béatrice Didier. Présentation à Delphine. – Paris: Desjonquères, 2010. – P. 23.
6. Germaine de Staël. De la littérature considérée dans ses rapports avec les institutions sociales. Paris: Champion, 2013. – P. 330.

Yulduzxon SAFARBOYEVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti
yulduzsafarboyeva43@gmail.com



HOZIRGI O'ZBEK TILIDAGI ZONIM KOMPONENTLI FRAZELOGIK BIRLIKLARDA SIFAT VA RAVISH KOMPONENTLARINING LISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada hozirgi o'zbek tilidagi zoonim komponentli frazeologik birliklarda sifat va ravish komponentlarining lisoniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologizmlarning semantik, grammatik va stilistik jihatlari, shuningdek, ularning milliy-madaniy kontekstdagi o'zni ko'rib chiqiladi. Sifat va ravish komponentlari frazeologik birliklarning obrazlilik darajasini oshirishi, ma'no ko'chishlari va metaforik talqinlarda muhim rol o'ynashi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: *zoonim, frazeologik birlik, sifat komponenti, ravish komponenti, semantika, grammatik xususiyat, stilistika*

Аннотация: в данной статье рассматриваются лингвистические особенности прилагательных и наречных компонентов в фразеологических единицах современного узбекского языка с зоонимами. Анализ охватывает семантические, грамматические и стилистические аспекты, а также культурно-национальный контекст их функционирования. Особое внимание уделяется роли прилагательных и наречий в создании образности, метафорических значений и расширении семантического потенциала фразеологизмов.

Ключевые слова: *зооним, фразеологическая единица, компонент прилагательного, компонент наречия, семантика, грамматические особенности, стилистика*

Annotation: this article explores the linguistic features of adjectival and adverbial components in zoonym-based phraseological units of modern Uzbek. The study focuses on semantic, grammatical, and stylistic aspects, as well as their role within the cultural and national context. Particular emphasis is placed on how adjectives and adverbs enhance imagery, contribute to metaphorical meanings, and expand the semantic richness of phraseological expressions.

Keywords: *zoonym, phraseological unit, adjectival component, adverbial component, semantics, grammatical features, stylistics*

Kirish. O'zbek tilshunosligida sifat va ravish frazemalar masalasiga Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi olimlar

o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tganlar. Sh.Rahmatullayev "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" (1992)¹ va "Hozirgi adabiy o'zbek tili" (2006, 2016) darsliklarida sifat va ravish frazemalarni alohida guruh sifatida ajratib, ularning tuzilish modellari va qo'llanish xususiyatlarini tavsiflagan. Olimning qayd etishicha, "sifat frazemalar predmetning sifatini, ravish frazemalar esa harakatning bajarilish holatini ifodalaydi".

B.Yo'ldoshev "Frazeologik uslubiyat asoslari" (1989, 1999)² asarida sifat va ravish frazemalarning badiiy adabiyotda obrazlilik yaratishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, qiyosiy modeli ravish frazemalar (itday, toshbaqadek, qushdek kabi) o'zbek nutqida eng tez-tez uchraydigan va eng kuchli ekspressivlikka ega birliklardir. A.Mamatov "Frazeologizmlarning shakllanish asoslari" (1999)³ monografiyasida sifat va ravish frazemalarning shakllanishida metafora va o'xshatishning asosiy rol o'ynashini ta'kidlagan. N.Mahmudov "So'z mangu" (2019)⁴ asarida esa bunday frazemalarni "xalq dunyoqarashining obrazli ifodasi" deb atagan.

1 Sh.Rahmatullayev "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" (1992)

2 B.Yo'ldoshev "Frazeologik uslubiyat asoslari" (1989, 1999)

3 A.Mamatov "Frazeologizmlarning shakllanish asoslari" (1999)

4 N.Mahmudov "So'z mangu" (2019)

Asosiy qism. Sifat frazemalarning morfologik va semantik xususiyatlari. Sifat frazemalar tarkibidagi yetakchi komponent sifat bo'lib, ular predmet yoki shaxsning rang, hajm, xarakterni ifodalovchi belgisini bildiradi. Zoonim komponentli sifat frazemalar asosan, qiyosiy modellarda yoki "zoonim + sifatlovchi" shaklida uchraydi. "Zoonim + sifat" modelidagi sifat frazemalar. Bu modelda zoonim (asosan, ot yoki sifatdosh) birikmaning birinchi komponenti bo'lib, aniqlovchi vazifasini bajaradi, asosiy sifat esa aniqlanmishdir. Tadqiqot materiallaridan misollar:

It tekkan – "la'natlangan, qarg'ish urgan" ma'nosida. A.Qahhorning "Muhabbat" asarida: "Muhayyo indamadi. Muborakxonim juda kuyib ketdi. – Bo'lmaydi, aytdim-ku, senga it tekkan!" Bu frazemada "it tekkan" o'ziga xos allafrazeologik hodisani ko'rsatadi – hayvonning "tegishi" (jismoniy ta'siri) emas, balki majoziy ma'noda "qarg'ish, la'nat" ifodalanadi. **It emgan** – "itdan tarqagan, pastkash, nopok" ma'nosida. X.To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi" asarida: "It emgan nozir, xudojo'y emish bo'lsang nega meni xudojo'ylar davrasiga qo'shmayapsan?" va "It emgan Namoz! Men senga nima yomonlik qildim?" Bu frazema "it emmoq" (it bilan qo'shilmoq, itdan tug'ilmoq) metaforasiga asoslangan bo'lib, o'ta past, noloyiq shaxsga

nisbatan qo'llanadi. **Qopog'on it** – "hushyor, ziyrak (it)" ma'nosida. X.To'xtaboyev asarida: *"Biz mirshablar bo'lsak, imperator oliy hazratlarining qopog'on itimiz"*. Bu yerda "qopog'on" (sifat) "it"ga aniqlovchi bo'lib, birgalikda frazeologik butunlikni tashkil qilgan. Biroq bu ibora kontekstda to'liq frazeologik ma'noda emas, balki "sodiq xizmatkor" ma'nosini kinoya bilan ifodalaydi. **Daydi it** – "egasiz, sarson-sargardon it" ma'nosida.

X.To'xtaboyev asarida: *"Senlar tinchisang tinchib qo'ya qol, deb cho'l-u biyobonlarda daydi itdek sanqib yuribman-ku"*. "Daydi it" birikmasi metafora asosida insonning sarson-sargardonligini ifodalashda qo'llangan. **Asov toychoq** – "o'ynoqi, itoat qilmaydigan (yosh ot)" ma'nosida.

X.To'xtaboyev asarida: *"Hayitboyning xo'rsinishi, yonginasida toshdan-toshga urilib, asov toychoqdek irg'ishlab oqayotgan suvning shovqini uning qulog'iga kirmasdi"*. Bu yerda "asov toychoqdek" qiyosiy ravish shaklida kelgan. **Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan** – "juda issiq, o'tli (joy)" ma'nosidagi sifat frazema. A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asarida: *"Nemis bu yerlarni qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan tilsimotga aylantirish uchun nima lozim bo'lsa hammasini qilgan"*. Bu murakkab sifat frazema o'ta xavfli, o'tli hududni obrazli ifodalaydi. "Sifat + zoonim" modelidagi sifat frazemalar. Bu modelda sifat asosiy komponent, zoonim esa taqqoslash yoki o'xshatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ko'pincha qiyosiy ma'no ifodalanadi.

Ojiz (qo'zichoqday) – A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asaridan misol yo'q, lekin O.Yoqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar" asarida: *"Bo'ri qarshisidagi qo'zichoqday ojiz ekanini bildiradi"*. Bu yerda "ojiz" sifatiga "qo'zichoqday" qiyosiy komponenti qo'shilgan. **Yengil (qushday)** – sifat vazifasida emas, balki ravish sifatida "qushday yengil tortmoq" iborasida uchraydi. **Tutqich bermaydigan** – "qo'lga tushmaydigan, qochadigan" ma'nosida. A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asarida: *"Ilgarilari hurkovich ohudek tutqich bermaydigan Robiya hozir allanechuk yuvosh bo'lib qolgan edi"*. "Hurkovich ohudek" qiyosiy ravish, "tutqich bermaydigan" esa sifatdosha. **Qiyosiy sifat frazemalar (-day, -dek qo'shimchasi bilan)** Bu guruh eng mahsuldor bo'lib, qiyosiy qo'shimchalar orqali shakllanadi.

Ular ot vazifasida ham kelishi mumkin, ammo sifat vazifasida qo'llanganda belgining kuchli darajasini ifodalaydi. **Itday** – "juda (yomon, qattiq, och va h.k.)" ma'nosida. A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asarida: *"Ofitser bularga xuddi hozir jo'ja yegan itday ko'z qirini tashlab sekin yerga o'tirdi"*. "Jo'ja yegan itday" – qarg'ish, norozilik holatini ifodalaydi. **Kiyikday** – "juda chaqqon, epchil" ma'nosida. A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asarida: *"Hatto zo'rg'a kelayotgan yaradorlar ham yerda yotgan qurollardan olib, kiyikday chaqqonlik bilan ko'zdan g'oyib bo'lishdi"*. **Qo'zichoqday** – "juda ojiz, himoyasiz" ma'nosida. O.Yoqubov asarida yuqorida keltirilgan. **Ilondek** – "juda (to'lg'anuvchan, pishqiruvchi)" ma'nosida. A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asarida: *"Snaryad lager ustidan ilondek*

pishqirib o'tdi". **Toshbaqadek** – "juda sekin" ma'nosida (oldin keltirilgan).

Ravish frazemalarning morfologik va semantik xususiyatlari. Ravish frazemalar harakat-holatning bajarilish usuli, darajasi, holati, vaqti, joyi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ular asosan, qiyosiy modellarda (-day, -dek qo'shimchasi bilan) yoki fe'l bilan qo'shilib kelgan turg'un birikmalar shaklida bo'ladi. **Qiyosiy ravish frazemalar (-day, -dek qo'shimchasi bilan)** Bu guruh eng keng tarqalgan bo'lib, ravish frazemalarning 80% dan ortig'ini tashkil qiladi. **Ilonday to'lg'onib** – "aylanib, burab (oqmoq)" ma'nosida. A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asarida: *"Pishqirib, ilonday to'lg'onib oqayotgan bu suv suv emas, bir balo edi"*. Bu ibora suvning aylanma, murakkab harakatini tasvirlaydi. **Ilondek pishqirib o'tmoq** – "shiddat bilan, xirillab (uchmoq, o'tmoq)" ma'nosida. A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asarida yuqorida keltirilgan. **Ilondek to'lg'onmoq** – "bezovta, betoqat bo'lmoq" ma'nosida. X.To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi" asarida: *"Namoz o'sha doktor boqib ketgan kuni ilon chaqqandek to'lg'onib yotdi"*. (Bu yerda "ilon chaqqandek" qiyosiy ravish shaklida). **Qushday yengil tortmoq** – "yengil tortmoq, bezovtalikdan qutulmoq" ma'nosida. O.Yoqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar" asarida: *"Rasul birdan qushday yengil tortib, o'rnidan turdi"*. X.To'xtaboyev asarida: *"Devona bobom odamning joni yelkasida bo'ladi, ikkita siqib qo'ysang qushdek yengil tortadi, deydilar"*. **Och bo'riday izg'ib yurmoq** – "juda och bo'lib, yirtqichlarcha harakat qilmoq" ma'nosida. A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asarida: *"Bu kunlarda nemis Stalingrad devorlariga bosh urmoqda, Kavkaz tog'lari etagida och bo'riday izg'ib yurmoqda edi"*. **Jo'ja yegan itday** – "g'azablangan, badro'y" ma'nosida. A.Qahhor asarida keltirilgan. **Asov toychoqdek irg'ishlamoq** – "o'ynoqi, beqaror harakat qilmoq" ma'nosida.

X.To'xtaboyev asarida keltirilgan. **Daydi itdek sanqib yurmoq** – "sarson-sargardon, hech qanday maqsadsiz yurmoq" ma'nosida. X.To'xtaboyev asarida keltirilgan. **Hurkovich ohudek tutqich bermaslik** – "juda chaqqon, qochuvchan bo'lmoq" ma'nosida. A.Qahhorning "Oltin Yulduz" asarida: *"Ilgarilari hurkovich ohudek tutqich bermaydigan Robiya..."*

Kiyikday chaqqonlik bilan – "juda tez, epchil" ma'nosida. A.Qahhor asarida keltirilgan. **Qo'zichoqday ojiz** – "juda zaif, himoyasiz" ma'nosida. O.Yoqubov asarida keltirilgan. **Fe'l bilan qo'shilib keluvchi ravish frazemalar.** Bu turdagi ravish frazemalar asosan, fe'l bilan birgalikda ma'lum bir harakatni ifodalaydi va ko'pincha "ravish + fe'l" modelida bo'ladi. Biroq ularning ravish qismi turg'un shaklga ega bo'ladi. **G'oz turgan** – "tik, mag'rur (turish)" ma'nosida. O.Yoqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar" asarida: *"U g'oz turgan soldatlar oldidan tap tap bosib o'tarkan..."*. "G'oz turgan" – g'ozning o'zini tik tutishi, mag'rur qiyofasi inson qiyofasiga ko'chirilgan.

Ilon bo'lib chaqavermoq – "doimiy ravishda zaharli gap qaytarib, xiyonat qilmoq" ma'nosida. A.Qahhorning

“Muhabbat” asarida: “Yo‘q bular Zaksdan o‘tsa-o‘tmasa, ikkovini Marg‘uba tinch qo‘ymaydi, ilon bo‘lib chaqaveradi”. “Ilon bo‘lib” – ravish vazifasidagi qiyosiy ibora. **It bo‘lib qolmoq, itday xor bo‘lmoq** – bu fe‘l frazemalar tarkibida ravish komponenti mavjud. **Ravish frazemalarning sintaktik vazifasi.** Ravish frazemalar gapda asosan, hol vazifasida keladi. Ular harakatning bajarilish usuli, holati, darajasi kabi ma‘nolarni ifodalaydi. **Hol vazifasida:** “Snaryad ilondek pishqirib o‘tdi.” (“Ilondek” – qanday? – usul holi) “Rasul qushday yengil tortib o‘rnidan turdi.” (“Qushday yengil” – qanday holatda?)

Kesim vazifasida (ravish frazema + fe‘l): “Namoz ilon chaqqandek to‘lg‘onib yotdi.” **Sifat va ravish frazemalarning kontekstual tahlili.** Badiiy adabiyotda sifat va ravish frazemalar muhim stilistik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ularning qo‘llanish konteksti, muallifning niyati, personaj xarakteristikasi va vaziyatning emotsional-ekspressiv darajasi bilan bog‘liq. **A.Qahhor asarlarida sifat va ravish frazemalar.** A.Qahhorning “Oltin Yulduz” va “Muhabbat” asarlarida sifat va ravish frazemalar faol qo‘llangan. **It tekkan** – qarg‘ish ma‘nosida. “Muhabbat” qissasida: “Bo‘lmaydi, aytdim-ku, senga it tekkan!” Bu ibora qahramonning umidsizlik va norozilik holatini ifodalaydi. Sifat frazema sifatida “senga” olmoshi bilan birgalikda kelib, shaxsga qaratilgan qarg‘ish ma‘nosini kuchaytiradi. **It tegmasdan tushgan** – “baxtli, omadli (turmushdan chiqqan)” ma‘nosining teskarisi. A.Qahhorning “Muhabbat” asarida: “Salimjonga it tegmasdan tushgan edim-ku, nega turmushim bo‘lmadi?” Bu iborada “it tegmasdan” – ravish vazifasida, “omadsizlikka uchramasdan” ma‘nosida. **It tumshug‘i betga tegadi** – “juda tor, qattiq (uy)” ma‘nosida. “Muhabbat” qissasida: “U uy o‘lgur uy bo‘lmay o‘ladimi, eshigidan kirsa it tumshug‘i betga tegadi.” Bu ibora umumlashgan ravish ma‘nosiga ega.

Bir o‘q bilan uchta qarg‘ani urmoqchi – “bir vaqtning o‘zida bir necha maqsadni ko‘zlamoq” ma‘nosida (ravish ma‘nosi). “Muhabbat” qissasida: “Anbir bir o‘q bilan uchta qarg‘ani urmoqchi ekanmikan...” **“Tulkilik qilmoqchi bo‘ldi, tumshug‘idan ilingani yaxshi”** – “makkorlik qilmoqchi bo‘ldi, ammo fosh bo‘ldi” ma‘nosida. Bu yerda “tulkilik” ot sifatida, “tumshug‘idan ilingani” esa ravish ma‘nosi bilan qo‘llangan. **Ilon po‘sti galstuk** – otli frazema, lekin “ilon po‘sti” aniqlovchi vazifasida.

X.To‘xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi” asarida sifat va ravish frazemalar asosan, haqorat, qarg‘ish, kinoya va obrazli tasvir uchun qo‘llangan.⁵ **Itvachcha** – haqorat ma‘nosida (ot), lekin “-cha” qo‘shimchasi kichraytirish va kamsitish ma‘nosini ifodalaydi. Bir necha marta takrorlanadi: “Itvachcha! – Namoz shunday bir o‘kirdiki...”; “Itvachcha, – sakrab o‘rnidan turib...”; “Itvachchalar, politsiyachilar!” **Kapalagi uchib** – “qo‘rqib ketmoq, vahimaga tushmoq” ma‘nosidagi fe‘l frazema tarkibidagi ravish ma‘nosi. “Kenja Qoraning kapalagi uchib...” **“Ilon chaqqandek to‘lg‘onib”** – “og‘riqdan, iztirobdan betoqat bo‘lib” ma‘nosida. **Qushdek yengil tortadi** – “yengil tortadi, bezovtalik ketadi” ma‘nosida.

It emgan nozir, it emgan Namoz – haqoratli sifat frazemalar. **Otni qamchilashim kerak** – “tezroq harakat qilish kerak” ma‘nosidagi fe‘l frazema, “otni qamchilash” – ravish ma‘nosi emas, balki fe‘l frazema. **O.Yoqubov asarlarida sifat va ravish frazemalar.** O.Yoqubovning “Oq qushlar, oppoq qushlar” asarida zoonim komponentli frazemalar badiiy tasvirning obrazli tomonlarini yorqin ifodalaydi. **Qushday yengil tortib** – yengil, tez, jo‘shqin harakat ma‘nosida. **G‘oz turgan** – mag‘rur, o‘zini baland tutgan holda (turish) ma‘nosida. **Bo‘ri qarshisidagi qo‘zichoqday ojjiz** – o‘ta himoyasiz, zaif holat ma‘nosida.

Xulosa. Frazeologik birliklarda sifat va ravish komponentlarining o‘rni tilning semantik va stilistik boyligini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa zoonim asosidagi frazeologizmlarda bu komponentlar obrazlilikni kuchaytiradi, milliy-madaniy tafakkurni ifodalaydi va nutqning ta‘sirchanligini oshiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sifat va ravish komponentlari frazeologik tizimda semantik ko‘chishlar, metaforik talqinlar va stilistik rang-baranglikni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biridir.

Shuningdek, hozirgi o‘zbek tilidagi zoonim komponentli frazeologik birliklarni sifat va ravish komponentlari nuqtayi nazaridan o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy nutq madaniyatini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

⁵ X.To‘xtaboyev “Qasoskorning oltin boshi”

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Yo‘ldoshev B. **Frazeologik uslubiyat asoslari.** – Samarqand: SamDU, 1989.
- 2.Mamatov A. **Frazeologizmlarning shakllanish asoslari.** – Toshkent: Fan, 1999.
- 3.Mahmudov N. **So‘z mangu.** – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2019.
- 4.Rasulov I. **O‘zbek tilida frazeologizmlar semantikasi.** – Toshkent: Fan, 2005.
- 5.Madrahimov A. **Frazeologik birliklarning lingvokulturologik talqini.** – Toshkent: Universitet, 2012.
- 6.Abdullayev A. **O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar.** – Toshkent: Fan, 2008.
- 7.Amosova N.N. **Основы английской фразеологии.** – Ленинград: Наука, 1963.
- 8.Kunin A.V. **Английская фразеология.** – Москва: Высшая школа, 1996.
- 9.Telia V.N. **Фразеология как язык культуры.** – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996.
- 10.Ziyayeva D. **O‘zbek tilida zoonim komponentli frazeologizmlar.** – Toshkent: Fan, 2020.

Oybek NASIRDINOV,

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Email: onasriddinov@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-5436-1472>

TAKLIF NUTQIY AKTINING KOMMUNIKATIV VAZIYAT, ADRESANT-ADRESAT MUNOSABATI VA IJTIMOIIY-PRAGMATIK OMILLARGA BOG'LIQLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada taklif nutqiy aktining kommunikativ vaziyat, adresant–adresat munosabatlari hamda ijtimoiy-pragmatik omillar bilan uzviy bog'liqligi ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida qiyosiy-pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, taklifning mazmuni va lingvistik ifodasi grammatik vositalardan ko'ra ko'proq pragmatik omillar bilan belgilanadi. Har ikki tilda taklifning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi kommunikativ vaziyatning to'g'ri baholanishi hamda adresant va adresatning pragmatik kompetensiyasiga bog'liq ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlar: *taklif nutqiy akti, pragmalinqvistika, kommunikativ vaziyat, adresant, adresat, diskurs, pragmatik kompetensiya, nutqiy janr.*

Annotation: this article analyzes the close relationship of the speech act of invitation with the communicative situation, addresser–addressee relations, and socio-pragmatic factors from a comparative-pragmatic perspective based on English and Uzbek language materials. The findings show that the meaning and linguistic expression of an invitation are determined more by pragmatic factors than by grammatical means. It is substantiated that the successful realization of an invitation in both languages depends on the accurate assessment of the communicative situation and on the pragmatic competence of the addresser and the addressee.

Key words: *speech act of invitation, pragmalinqvistics, communicative situation, addresser, addressee, discourse, pragmatic competence, speech genre*

Аннотация: в данной статье на материале английского и узбекского языков с сопоставительно-прагматической точки зрения анализируется тесная связь речевого акта приглашения с коммуникативной ситуацией, отношениями адресанта и адресата, а также социально-прагматическими факторами. Результаты исследования показывают, что содержание и языковое выражение приглашения в большей степени определяются прагматическими факторами, чем грамматическими средствами. Обосновано, что успешная реализация приглашения в обоих языках зависит от правильной оценки коммуникативной ситуации и прагматической компетенции адресанта и адресата.

Ключевые слова: *речевой акт приглашения, прагмалinqвистика, коммуникативная ситуация, адресант, адресат, дискурс, прагматическая компетенция, речевой жанр.*

Kirish. Til insoniyatning eng muhim kommunikativ vositasi bo'lib, uning asosiy vazifasi nafaqat axborot almashish, balki kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan ham iboratdir. Zamonaviy tilshunoslikda kommunikatsiya jarayoni grammatik qurilish bilangina emas, balki nutqning pragmatik, sotsiomadaniy va kognitiv jihatlar bilan ham izohlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, nutq aktlari nazariyasi hamda nutqiy janrlar konsepsiyasi kommunikativ birliklarni o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Taklif nutqiy akti insonlar o'rtasidagi muloqotning eng faol va universal ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi adresatni muayyan faoliyatga jalb etishdan iborat bo'lsa-da, mazkur nutq akti oddiy direktiv birlik sifatida emas, balki murakkab pragmatik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Chunki har qanday taklifning mazmuni va muvaffaqiyat darajasi muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabati, kommunikativ vaziyat, milliy madaniyat, ijtimoiy maqom hamda odob me'yorlari bilan belgilanadi.

Materiallar va metodlar. M.M. Baxtin nutqiy janrlarni ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarida shakllangan nisbatan barqaror kommunikativ modellar sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, har bir nutqiy janr muayyan kommunikativ vaziyat mahsuli bo'lib,

uning shakli va mazmuni muloqot ishtirokchilari hamda ularning ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli taklif ham o'zining tipik kommunikativ modeli, pragmatik vazifasi va lingvistik vositalariga ega mustaqil nutqiy janr hisoblanadi. Pragmalinqvistika nuqtayi nazaridan nutq aktining asosiy mazmuni uning kommunikativ maqsadi bilan belgilanadi. Sh. Safarov pragmatik ma'noni nutqning real qo'llanish jarayonida yuzaga keladigan kommunikativ hodisa sifatida izohlaydi. Nutqiy birliklarning haqiqiy mazmuni faqat grammatik shakl orqali emas, balki kontekst, kommunikativ vaziyat va ishtirokchilarning umumiy bilimlari orqali aniqlanadi. Shu sababli bir xil grammatik shakldagi taklif turli kommunikativ vaziyatlarda mutlaqo boshqa pragmatik ma'noni anglatishi mumkin.

Izlanish va muhokamalar. Taklif nutqiy aktining shakllanishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, kommunikativ vaziyatning xususiyatlariga bog'liq. Pragmalinqvistik tadqiqotlarda kommunikativ vaziyat nutq aktining mazmuni va funksiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Kommunikativ vaziyat tarkibiga muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, ularning o'zaro munosabatlari, muloqotning maqsadi, nutq sodir bo'layotgan makon va zamon, shuningdek, milliy-madaniy muhit kiradi. Shu sababli bir xil grammatik shaklda ifodalangan

taklif turli kommunikativ sharoitlarda turlicha pragmatik mazmun kasb etishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *Would you like to join us?* ifodasi tashqi tuzilishi jihatidan oddiy so'roq gap bo'lsa-da, pragmatik jihatdan taklif ma'nosini anglatadi. O'zbek tilidagi "Marhamat, ichkariga kiring" jumlasida esa grammatik jihatdan buyruq maylida bo'lishiga qaramay, muloqot jarayonida buyruq emas, balki samimiy taklif sifatida qabul qilinadi. Demak, taklif nutqiy aktining mazmuni grammatik shakldan ko'ra kommunikativ vaziyat va kontekst orqali belgilanadi.

Taklif strategiyasini tanlashda adresant va adresat o'rtasidagi munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy masofa, xizmat mavqeyi, yosh tafovuti va rasmiylik darajasi taklifning lingvistik ifodasini belgilaydi. Ingliz tilida ijtimoiy masofa ortgan sari bilvosita strategiyalar ustunlik qiladi. Masalan, *Would you be able to join tomorrow's meeting?*, *Perhaps you could join us for lunch* yoki *If you are available, we would be pleased to have you with us* kabi ifodalarda modal fe'llar va ehtimollik bildiruvchi birliklar orqali adresatning erkin tanlov huquqi saqlanadi. O'zbek tilida esa rasmiy vaziyatlarda "Marhamat qilib tashrif buyursangiz", "Sizni konferensiyamizga taklif etamiz", "Fursat topsangiz, albatta kutamiz" kabi hurmat ifodalovchi birliklar qo'llanadi. Aksincha, yaqin do'stlar yoki oila a'zolari o'rtasida "Yur, kinoga boramiz", "Biznikiga kel", "Bugun birga ovqatlanamiz" kabi bevosita va sodda shakllar qo'llanilishi kuzatiladi. Bu holat adresant va adresat o'rtasidagi yaqinlik darajasi taklif strategiyasini tanlashda asosiy mezonlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Ingliz tilida *Would you be able to join tomorrow's meeting?* kabi ifodalar qo'llansa, o'zbek tilida "Ertangi yig'ilishga qatnashsangiz, mamnun bo'lardik" kabi yumshoq konstruksiyalar ishlatiladi. Rahbarning xodimga murojaatida esa taklif nisbatan bevosita bo'lishi mumkin: *Let's discuss this after lunch* yoki "Tushlikdan keyin uchrashamiz". Milliy-madaniy qadriyatlar taklif strategiyalarini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biridir. Ingliz kommunikativ madaniyati individualizm tamoyiliga asoslanganligi sababli suhbatdoshning shaxsiy hududi va erkin tanlovi doimo e'tiborga olinadi. Natijada *Would you like...?*, *Could you...?*, *If you wish...* kabi bilvosita konstruksiyalar faol qo'llanadi. O'zbek muloqot madaniyatida esa kollektivizm, mehmondo'stlik va samimiylik ustuvor bo'lib, "Marhamat", "Keling", "Kutamiz", "Mehmon bo'ling" kabi birliklar nafaqat taklifni, balki milliy odob va hurmatni ham ifodalaydi. Shu jihatdan o'zbek tilidagi ko'plab taklif formulalari lingvokulturologik birlik sifatida baholanishi mumkin.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillarida taklif nutqiy aktining asosiy kommunikativ maqsadi bir xil bo'lsa-da, uni ifodalash strategiyalari sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tilida bilvositalik va adresatning tanlov erkinligini ta'minlash ustuvor bo'lsa, o'zbek tilida samimiylik, hurmat va mehmondo'stlikni ifodalovchi bevosita strategiyalar keng qo'llanadi. Biroq har ikki tilda ham taklifning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi kommunikativ vaziyatning to'g'ri baholanishi, adresant va adresatning o'zaro munosabatlari hamda ularning pragmatik kompetensiyasiga bog'liqdir. Tadqiqot natijalari taklif nutqiy aktining lingvistik shakli bilan bir qatorda uning pragmatik va sotsiomadaniy xususiyatlarini ham kompleks tarzda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda yoki tarjima amaliyotida faqat grammatik bilimlarning o'zi yetarli emas. Nutqning milliy-madaniy xususiyatlarini, kommunikativ vaziyatni va ijtimoiy-pragmatik omillarni hisobga olishgina muloqotning tabiiy va samarali kechishini ta'minlaydi.

Xulosalar. Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida taklif bildirishda adresatning shaxsiy erkinligi va tanlov huquqini saqlashga qaratilgan bilvosita strategiyalar ustunlik qiladi. Modal fe'llar, so'roq konstruksiyalari va ehtimollikni bildiruvchi pragmatik markerlar orqali taklifning xushmuomalalik darajasi oshiriladi. O'zbek tilida esa taklif nutqiy akti milliy odob me'yorlari, mehmondo'stlik va samimiylik tamoyillariga asoslanib, ko'proq bevosita shakllarda ifodalanadi. Buyruq maylidagi ko'plab birliklar pragmatik jihatdan buyruq emas, balki taklif yoki hurmat ifodasi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot davomida taklif nutqiy aktining kommunikativ muvaffaqiyati grammatik shaklga emas, balki kommunikativ vaziyatning to'g'ri baholanishiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Adresant va adresat o'rtasidagi ijtimoiy masofa, xizmat mavqeyi, yosh tafovuti, muloqotning rasmiy yoki norasmiyligi hamda milliy-madaniy qadriyatlar taklif strategiyasini tanlashda asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Shu bois ayni bir mazmundagi taklif turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha lingvistik shaklda ifodalanishi va turlicha pragmatik natija berishi mumkin.

Olib borilgan tahlillar natijasida taklif nutqiy aktining kommunikativ modeli taklif qilindi. Mazkur model kommunikativ vaziyat, adresant, adresat, kommunikativ maqsad, lingvistik ifoda vositalari va pragmatik natija kabi o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topishi asoslab berildi. Ushbu model ingliz va o'zbek tillarida taklif strategiyalarining o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirova M. Notiqlik mahorati. – Toshkent: Muharrir, 2022. 268-b.
2. Thomas J. Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. – London: Longman, 1995. 224 p.
3. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. 138 p.
4. Al-Hamzi A.M.S., Sartini N.W., Hapsari N.F., Gougui A., Al-Nozili R.M.A. A Cross-Cultural Pragmatic Study of Invitation Strategies as Produced by Indonesian and Yemeni EFL Language Learners // International Journal of Language Education. 2022.
5. Xamdanova G.X. O'zbek va ingliz tillarida somatizmlar asosida shakllangan maqollarning kognitiv-semantik va struktur xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2023.
6. Saidova Z.X. Ingliz va o'zbek tillarida inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlarning lisoniy xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2023.

Shoxida YOKUBOVA,

Buxoro davlat universiteti

o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o'qituvchisi

yakubovashohida1990@gmail.com

MAQOLLARDAGI AGNONIMLAR

Annotatsiya: maqollarimiz tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, tafakkurimiz mantig'ini namoyish etgan holda xalqimizning uzoq asrlilik hayotiy tajribalari, maishiy turmush tarzini ko'rsatuvchi oynadir. Maqol qanchalik uzoq tarixga ega bo'lgani sari, undagi ayrim bir so'zlarni anglash hozirgi yosh avlod uchun murakkab bo'lib boraveradi. Va ma'nosi tushunarsiz, to'liq anglanmagan bunday so'zlar shu tildan foydalanuvchilarning aksariyati uchun agnonimlar hisoblanar ekan. Maqol matnida qo'llangan eskirgan so'zlar (arxaik so'zlar), tarixiy so'zlar, shevaga oid bo'lgan so'zlarning aksariyati agnonimlar sirasiga kirishi mumkin.

Kalit so'zlar: *agnonimlar, eskirgan so'zlar (arxaik so'zlar), tarixiy so'zlar, sheva so'zlari.*

Аннотация: наши пословицы — это зеркало многовекового жизненного опыта и повседневной жизни нашего народа, демонстрирующее красоту нашего языка, изящество нашей речи и логику нашего мышления. Чем дольше существует история пословицы, тем сложнее молодому поколению понять некоторые слова в ней. И такие слова, значение которых неясно и не до конца понятно, считаются агнонимами для большинства носителей этого языка. Большинство устаревших слов (архаичных слов), исторических слов и диалектных слов, используемых в тексте пословицы, можно отнести к агнонимам.

Ключевые слова: *агноними, устаревшие слова (архаичные слова), исторические слова, диалектные слова*

Annotation: our proverbs are a mirror of the centuries-old life experiences and everyday life of our people, demonstrating the beauty of our language, the elegance of our speech, and the logic of our thinking. The longer the proverb has a history, the more difficult it is for the younger generation to understand some of the words in it. And such words, the meaning of which is unclear and not fully understood, are considered agnonyms for the majority of users of this language. Most of the obsolete words (archaic words), historical words, and dialect words used in the text of the proverb can be classified as agnonyms.

Key words: *agnonyms, obsolete words (archaic words), historical words, dialect words*

Kirish. Xalq madaniy merosining ajralmas bir qismi hisoblangan badiiy adabiyot, jumladan, kichik badiiy matn sanaladigan maqollar millat dunyoqarashi, o'zligining ifodasi hisoblanadi. Shu sababli og'zaki ijod namunalari ma'lum bir madaniy va tarixiy davr muhitiga kirib borish hamda o'sha davr kishilarining orzu-o'yi, ideali, axloqiy-estetik qadriyatlarini aks ettirish barobarida dolzarblilik kasb etadi, hamma vaqt tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda maqolga quyidagicha ta'rif berilgan: maqol — grammatik jihatdan tugallangan, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanuvchi xalq og'zaki ijodi namunasidir [1;11].

Asosiy qism. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida agnonim hodisasi turli aspektlarda o'rganilayotgan hodisalardan biri bo'lib kelmoqda. Taniqli tilshunos olim Ma'rufjon Yo'ldoshev "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" qo'llanmasida agnonimga shunday ta'rif berib o'tgan: "Ma'lum leksik-frazeologik birlik agnonim sifatida qabul qilinishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Bir tilda so'zlashuvchilarga butunlay tushunarsiz bo'lgani holda iste'molda qaysidir darajada mavjud bo'lsa: *Jo'mish (Jo'mish o'kirib biyik bo'lmas, echki yugurib kiyik), olatug'anoq (olatug'anoq olg'ir bo'lsa ham, qarchig'aydek bo'lmas)*[8; 64]. Olimning fikriga tayanadigan bo'lsak, agnonim so'zlar qatorini tashkil etuvchilarga eskirgan so'zlar (arxaik so'zlar), tarixiy so'zlar, neologizmlar, shevaga oid bo'lgan so'zlar jamlanadi, shuningdek, hech qanday ma'no anglatmaydigan *do'rsa-do'rsa, attim-battim, sim-sim, abadayni-shabadayni, hoppa-hoppa* kabi so'zlar

ham agnonimlar sirasiga mansub bo'ladi. Maqollarimiz tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, tafakkurimiz mantig'ini namoyish etgan holda xalqimizning uzoq asrlilik hayotiy tajribalari, maishiy turmush tarzini ko'rsatuvchi oynadir. Maqol qanchalik uzoq tarixga ega bo'lgani sari, undagi so'zlarni anglash hozirgi yosh avlod uchun murakkab bo'lib boraveradi

Limcha mulla — dinning sho'ri,

Yomon xotin — unning sho'ri. [10; 7].

Ushbu maqolda qo'llangan *limcha* so'zining ma'nosi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mavjud emas, demak mazkur so'zning lug'aviy ma'nosi kontekst orqali anglashilishi mumkin. Ya'ni bu o'rinda gap chalasavod mulla, din vakillari haqida ketmoqda. Til foydalanuvchilarining ayrimlari uchun ushbu so'z tushunarsiz, ya'ni agnonim so'z bo'la oladi.

Yurtdan ketgan, yurtmonda.

O'tar hasrat, armonda. [10;14]

Yuqorida qo'llangan *yurtmonda* so'zi ham lug'atlarda yo'q, kontekstdan kelib chiqib, anglash kerak, ushbu so'z yurtga zor, vatangado ma'nosida qo'llangan.

Yolg'iz yog'och pana bo'lmas.

Yolg'iz biyaga sova to'lmas. [10;16]

Navoiy asarlari lug'atida [3; 95] *sova* so'zi joy nomi sifatida keltirilgan, hozirgi avlod uchun tushunarsiz, ya'ni agnonim sifatida qolmoqda.

Yolg'iz yigit alp bo'lar,

Alp bo'lsa ham, qalp bo'lar [10;17].

Yuqorida qo'llangan *qalp* so'zi ham "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yo'q, qofiya talabi bilan eng zo'ri bo'lar ma'nosida qo'llangan.

Gap bo'lsa, paka-paka,

Ish bo'lsa, cheka-cheka [10; 25]

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da cheka – chet, chekka ma'nosida berilgan, paka-paka so'zi esa qofiya talabi bilan shu shaklda kelgan, izohli lug'atlarda yo'q – paqa-paq otaveradi, ya'ni o'ylamasdan gapiraveradi ma'nosida bo'lishi mumkin. *Paka-paka* so'zini ham agnonim sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Gapga — chechan, ishga — mechan [10; 25].

Chechan so'zi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da chaqqon, uddaburon, mohir, usta ma'nolarini ifodalagan. *Mechan* so'zi esa lug'atlarda yo'q, hozirgi avlod vakillari uchun agnonim hisoblanadi, ya'ni ushbu so'z insonning qandaydir belgi, xususiyatini ifodalovchi so'z, lekin aynan qanday ma'noni ifodalashi mavhum. Kontekstdan kelib chiqadigan bo'lsak, qo'ldan ish kelmaydigan insonni ifodalaydi.

Ish desa, og'rir oshiq-moshig'im,

Osh desa, tayyor katta qoshig'im. [10; 27]

Oshiq – ayrim hayvonlarning orqa oyog'i tizza bo'g'imidagi biriktiruvchi chorqirra suyakcha. *Echkining oshig'i. Tuyanining oshig'i.* [9; 600], moshig' so'zi alohida holatda lug'atlarda yo'q, oshiq-moshig' – eshik, deraza kabi narsalarni o'rnatish va ularning ochilib-yopilishi uchun xizmat qiladigan metal buyum. Zulfin va u ildiriladigan metall tarzida izohlar berilgan [9; 602]. Ushbu maqolda oshiq-moshig' so'zi metaforik ma'noda qo'llangan. *Moshig'* so'zining o'z lug'aviy ma'nosi bo'lmaganligi sababli agnonim sifatida qaralishi mumkin.

Yo'rg'a otning yo'li bo'lar,

Jo'rtoqining sho'ri bo'lar. [10; 30]

Mayda qadam tashlab, tez yuradigan otning o'z yo'li bo'ladi, Jo'rtoqining esa sho'ri – azob-uqubat, kulfat, baxtsizligi bo'ladi [12; 698]. *Jo'rtoqi* so'zi izohli lug'atlarda yo'q, lekin Navoiy asarlari lug'atida *jo'r* – yomon, noto'g'ri, egri lug'aviy ma'nolarda qo'llangan, demak *jo'rtoqi* so'zi yomon, noto'g'ri yo'lga yuradigan ma'nosini ifodalaydi.

So'z bilan aqqa-baqqa,

Ish bilan hech qayoqqa. [10; 35]

Maqolda qo'llangan *aqqa-baqqa* so'zi izohli lug'atlarda keltirilmagan. Bu so'z Toshkent shevasida *u yoqqa, bu yoqqa* ma'nosida qo'llanadi.

Tarallabedodga jon g'animat. [10; 35]

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da *tarallabedod* so'zining lug'aviy ma'nosi keltirilmagan. Ushbu so'z ko'pchilik tomonidan eshutilgan, lekin aynan qanday ma'noni ifodalashi mavhum hisoblanadigan so'zlardan biri. So'zning ma'nosini matndan kelib chiqib, aniqlashtiradigan bo'lsak, dangasa, ishyoqmas, o'z joni huzurini o'ylaydigan insonni ifodalaydi.

Ho'k desa, ho'k,

Cho'k desa, cho'k. [10; 39]

Yuqoridagi maqolda qo'llangan *ho'k* so'zi izohli lug'atlarda yo'q, matndan kelib chiqib aniqlashtiradigan bo'lsak, nima desa, qil ma'nosida ifodalangan.

Bozordagi allop,

Qilar ishi — qalloq. [10; 45]

Allof – [xashak, pichan sotuvchi] esk. Un, bug'doy savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogar. *Un yalagan allof, qon yalagan qassob.* [11; 93] Tarixiy so'z hisoblanadi. Allof shevaga mos talaffuz shakli. Demak, mazkur so'z ham hozirgi kunda ko'pchilik uchun agnonim hisoblanar ekan.

Biz yuqorida tahlil qilgan maqollarda qo'llangan *limcha, yurtmonda, sova, paka-paka, mechan, jo'rtoqi, aqqa-baqqa, ho'k, allop* kabi so'zlar shu tilda so'zlashuvchilarning ko'pchiligi uchun tushunarsiz, ma'nosi anglanmagan yoki to'liq anglanmagan so'zlar – agnonimlar hisoblanar ekan. Demak, maqollarda qo'llangan eskirgan so'zlar (arxaik so'zlar), tarixiy so'zlar, shevaga oid bo'lgan so'zlarning aksariyati agnonimlar sifatida qaralar ekan.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelish mumkinki, maqollarimiz tilimiz ko'rkinini, nutqimiz nafosatini, tafakkurimiz mantig'ini namoyish etgan holda xalqimizning uzoq asrlik hayotiy tajribalari, maishiy turmush tarzini ko'rsatuvchi oynadir. Maqol qanchalik uzoq tarixga ega bo'lgani sari, undagi ayrim bir so'zlarni anglash hozirgi yosh avlod uchun murakkab bo'lib boraveradi. Va ma'nosi tushunarsiz, to'liq anglanmagan bunday so'zlar shu tildan foydalanuvchilarning aksariyati uchun agnonimlar hisoblanar ekan. Maqol matnida qo'llangan eskirgan so'zlar (arxaik so'zlar), tarixiy so'zlar, shevaga oid bo'lgan so'zlarning aksariyati agnonimlar sirasiga kirishi mumkin. Agnonimlar til va matn o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi muhim lingvistik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1984. 11 -бет.
2. Морковкин В.В., Морковкина А.В. Русские агнонимы: Слова, которые мы не знаем. Понятие, состав и смысловое разнообразие. – М., 1997.
3. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IV jildli. III jild. – T.: Fan, 1984. – B.95.
4. Yokubova Sh.Y. Qanday so'zlarni agnonim deya olamiz? // ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. 2024, June.
5. Yokubova Sh.Y. Xalq poetik nutqida agnonimlarning qo'llanishi // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2025. 11-son. 191– 195-b.
6. Yokubova Sh.Y. Zamonaviy qo'shiqlarda qo'llangan agnonimlar // til va adabiyot.uz, 2026. 10-son. 122–124-b.
7. Йўлдошев М. Агнонимлар ва уларнинг бадиий нутқда қўлланиши// Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. 3-сон.
8. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Т.: Фан, 2007. 125 б.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. III jild. – T.: G'G'ulom, 2022. 832-b.
10. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. – T.: “Sharq”, 2005. 512-b.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. I jild. – T.: G'G'ulom, 2022. 965-b.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. VI jild. – T.: G'G'ulom, 2022. 865-b.

Jamila RUZIYEVA,

Buxoro davlat universiteti Qorako'l akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani oliy toifali o'qituvchisi

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI TILAK VA ISTAK MA'NOSIDAGI MAQOLLARNI MASHINAVIY O'RGANISH USULLARI ASOSIDA TASNIFLASH

Annotatsiya: mazkur tadqiqotda o'zbek xalq og'zaki ijodidagi tilak va istak ma'nosini ifodalovchi maqollarni mashinaviy o'rganish usullari yordamida avtomatik tasniflash masalasi ko'rib chiqildi. Tadqiqot davomida maqollar korpusi shakllantirildi, ular semantik-pragmatik belgilar asosida annotatsiya qilindi hamda lingvistik xususiyatlar ajratildi. Tasniflash jarayonida matnlarni vektorlash usullari va nazorat ostida o'qitiladigan mashinaviy o'rganish algoritmlaridan foydalanildi. Olingan natijalar tilak va istak mazmunidagi maqollarni avtomatik aniqlash hamda elektron paremiologik korpuslarni yaratishda ushbu yondashuvning samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: maqol, tilak, istak, NLP, mashinaviy o'rganish, korpus lingvistikasi, matn tasnifi, annotatsiya.

Аннотация: в данной статье рассматривается задача автоматической классификации узбекских народных пословиц, выражающих значение пожелания и желания, с использованием методов машинного обучения. В ходе исследования был сформирован корпус пословиц, выполнена их семантико-прагматическая аннотация и выделены лингвистические признаки. Для классификации использовались методы векторизации текста и алгоритмы машинного обучения с учителем. Полученные результаты свидетельствуют об эффективности предложенного подхода для автоматического распознавания пословиц со значением пожелания и желания, а также для создания электронных паремиологических корпусов узбекского языка.

Ключевые слова: пословица, пожелание, желание, обработка естественного языка (NLP), машинное обучение, корпусная лингвистика, классификация текстов, аннотирование.

Annotation: this study addresses the automatic classification of Uzbek folk proverbs expressing wishes and desires using machine learning techniques. A corpus of proverbs was compiled, semantically and pragmatically annotated, and analyzed to extract relevant linguistic features. Text vectorization methods and supervised machine learning algorithms were employed for the classification process. The results demonstrate the effectiveness of the proposed approach in automatically identifying proverbs expressing wishes and desires and highlight its potential for developing electronic paremiological corpora of the Uzbek language.

Key words: proverb, wish, desire, natural language processing (NLP), machine learning, corpus linguistics, text classification, annotation.

1. Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi qadimdan jamiyat ma'naviyatining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va dunyovarashini ixcham shaklda ifodalovchi paremiologik birliklardir. Ular orqali xalqning ezgu niyatlari, axloqiy me'yorlari, ogohlantirishlari, maslahatlari hamda tarbiyaviy qarashlari avloddan avlodga yetkazib kelinadi.

Tilak va istak mazmuni maqollarda bevosita hamda bilvosita ifodalanadi. Tilak odatda boshqa shaxsga qaratilgan ezgu niyatni anglatadi, istak insonning ichki xohishi va intilishini bildiradi. Shu sababli bunday maqollar xalqning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim pragmatik birliklar hisoblanadi.

So'nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language

Processing – NLP) texnologiyalarining rivojlanishi folklor matnlarini avtomatik qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Biroq o'zbek tilidagi maqollarni, ayniqsa tilak va istak ma'nosidagi paremiologik birliklarni mashinaviy o'rganish usullari asosida avtomatik tasniflash bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois mazkur ishda maqollar korpusini yaratish, ularni semantik-pragmatik jihatdan annotatsiya qilish va mashinaviy o'rganish algoritmlari yordamida tasniflash masalasi o'rganiladi.

2. Materiallar va metodlar

2.1. Ma'lumotlar to'plami (Dataset)

Tadqiqot uchun o'zbek xalq maqollari to'plamlaridan 620 ta maqol yig'ildi. Ekspert-lingvistlar tomonidan ular semantik-pragmatik belgilariga ko'ra quyidagi sinflarga ajratildi.

Sinf	Maqollar soni
Tilak	248
Istak	176
Maslahat	121
Ogohlantirish	75
Jami	620

Har bir maqol quyidagi atributlar bilan annotatsiya qilindi:
1) lemma; 2) buyruq mayli; 3) istak mayli; 4) modal birliklar;

5) inkor shakllari; 6) baholovchi leksika; 7) pragmatik funksiya; 8) sintaktik model; 9) badiiy vositalar.

2.2. Annotatsiyalangan dataset namunasi

No	Maqol	Sinf	Pragmatik funksiya	Badiiy vosita
1	Aytar soʻzni ayt, aytmas soʻzdan qayt.	Tilak	Ogohlantirish	Antiteza
2	Avval oʻyla, keyin soʻyla.	Tilak	Maslahat	Parallelizm
3	Birovning ustidan kulmagin zinhor.	Tilak	Ogohlantirish	Metonimiya
4	Yaxshi niyat – yarim davlat.	Istak	Baholash	Metafora
5	Yaxshi gap jon ozigʻi.	Tilak	Nasihah	Metafora
6	Elga xizmat qilgan elda aziz.	Istak	Ragʻbat	Metafora
7	Mehnat qilgan toʻyadi.	Istak	Motivatsiya	Parallelizm
8	Yaxshilik qil, dengizga ot.	Tilak	Nasihah	Metafora
9	Ota rozisi – Xudo rozisi.	Tilak	Axloqiy qadriyat	Metafora
10	Doʻst boshingga kulfat tushganda bilinadi.	Ogohlantirish	Hayotiy tajriba	Metafora
11	Yaxshi otga bir qamchi.	Maslahat	Undash	Metafora
12	Birni eksang, oʻnni oʻrasan.	Istak	Motivatsiya	Metafora
13	Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga.	Tilak	Tarbiyaviy	Parallelizm
14	Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.	Ogohlantirish	Ogohlantirish	Antiteza
15	Tilingni tiy, boshing omon boʻlar.	Tilak	Ogohlantirish	Metafora
16	Yaxshi soʻz koʻngilni yashnatar.	Tilak	Ragʻbat	Metafora
17	Koʻp oʻqigan koʻp bilar.	Istak	Motivatsiya	Parallelizm

2.3. Matnni qayta ishlash

Matnlar quyidagi bosqichlarda qayta ishlandi:

Unicode normalizatsiyasi; / tokenizatsiya; / stop-soʻzlarni olib tashlash;

lemmatizatsiya; / TF-IDF vektorlash; / Word2Vec embeddinglari;

train/test ajratish.

2.4. Tajriba parametrlari

Dataset hajmi — 620 ta maqol / Train — 80 % (496 ta) / Test — 20 % (124 ta)

Validation — 5-fold Cross Validation

Qoʻllanilgan algoritmlar:

Naive Bayes / Support Vector Machine (SVM) / Random Forest

Baholash mezonlari:

Accuracy / Precision / Recall / F1-score

3. Natijalar

Maqollarni avtomatik tasniflashda uchta mashinaviy oʻrganish algoritmi oʻzaro taqqoslandi.

Algoritm	Accuracy	Precision	Recall	F1-score
Naive Bayes	0.86	0.85	0.84	0.84
Random Forest	0.91	0.90	0.91	0.90
SVM	0.94	0.93	0.94	0.93

Natijalar shuni koʻrsatdiki, SVM algoritmi tilak va istak mazmunidagi maqollarni tasniflashda eng yuqori aniqlikni namoyish etdi. Buning sababi TF-IDF xususiyatlari bilan yuqori oʻlchamli matn fazosida samarali ishlashidir. Random Forest modeli ham yuqori natija koʻrsatdi, biroq semantik jihatdan yaqin sinflarni ajratishda SVMdan biroz pastroq aniqlikka ega boʻldi. Naive Bayes algoritmi esa sodda va tez ishlashiga qaramay, murakkab pragmatik belgilarni farqlashda nisbatan past natija berdi.

Tahlil shuni koʻrsatdiki, buyruq mayli, modal birliklar, inkor shakllari, baholovchi leksika hamda parallel sintaktik

konstruksiyalar model uchun eng muhim diskriminativ belgilar hisoblanadi. Ayniqsa, ayt, oʻyla, kulmagin, zinhor, boʻlar, qil, yetar kabi feʼl shakllari tilak va ogohlantirish mazmunidagi maqollarni aniqlashda asosiy rol oʻynadi.

4. Natijalar va muhokama.

Tahlil davomida tilak va istak mazmunidagi maqollarda buyruq mayli, istak mayli hamda baholovchi birliklar yuqori chastotada uchrashi aniqlandi.

Masalan, Aytar soʻzni ayt, aytmas soʻzdan qayt.

Mazkur maqol annotatsiyada:

Sinf: Tilak / Pragmatik funksiya: Ogohlantirish

Sintaktik xususiyat: Antiteza / Modal turi: Tavsiya sifatida belgilandi.

Mashinaviy tasniflash jarayonida "ayt", "qayt", "kerak", "zinhor", "avval", "keyin" kabi birliklar muhim diskriminativ belgilar sifatida ajralib chiqdi.

Ikkinchi misol: Avval o'yla, keyin so'yla.

Annotatsiya natijasi:

Sinf: Tilak / Pragmatik vazifa: Tavsiya

Sintaktik model: Parallel konstruktsiya

Algoritm ushbu maqolni yuqori ehtimollik bilan "tilak" sinfiga ajratdi. Bunga buyruq maylining ketma-ket qo'llanishi hamda "avval-keyin" vaqt munosabati sabab bo'ldi.

Uchinchi misol:

Birovning ustidan kulmagin zinhor, sening ham ustingdan kuladiganlar bor.

Annotatsiya:

Sinf: Tilak / Pragmatik vazifa: Ogohlantirish

Badiiy vosita: Metonimiya

Model ushbu maqolni ogohlantiruvchi tilak sifatida tasnifladi. "Kulmagin", "zinhor" birliklari klassifikatsiyada eng yuqori vaznli belgilar qatoridan o'rin oldi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, semantik belgilar bilan bir qatorda morfologik va sintaktik xususiyatlar ham tasniflash aniqligini sezilarli darajada oshiradi.

Olingan natijalar o'zbek tilidagi paremiologik birliklarni avtomatik tasniflash imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Morfologik belgilarni semantik-pragmatik annotatsiya bilan birgalikda qo'llash modelning aniqligini oshirdi. Ayniqsa, buyruq-istak maylining grammatik ko'rsatkichlari, modal birliklar va sintaktik paralellizm matnni tasniflashda muhim xususiyatlar sifatida namoyon bo'ldi.

Mazkur yondashuv kelgusida o'zbek tilining elektron maqollar korpusini yaratish, avtomatik annotatsiya tizimlarini ishlab chiqish hamda sun'iy intellekt asosidagi lingvistik ilovalarni takomillashtirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi tilak va istak mazmunidagi maqollar xalqning ma'naviy qadriyatlari hamda pragmatik qarashlarini aks ettiruvchi muhim paremiologik birliklardir. Mazkur tadqiqotda ularni mashinaviy o'rganish usullari asosida tasniflash imkoniyatlari ko'rsatildi.

Tadqiqot natijasida: tilak va istak mazmunidagi maqollar korpusi shakllantirildi; semantik-pragmatik annotatsiya modeli ishlab chiqildi; lingvistik xususiyatlar asosida avtomatik tasniflash imkoniyati asoslandi; morfologik, sintaktik va semantik belgilar mashinaviy o'rganish modellarining aniqligini oshirishi ko'rsatildi.

Olingan natijalar o'zbek tilining elektron paremiologik korpusini yaratish, folklor matnlarini avtomatik qayta ishlash hamda sun'iy intellekt asosidagi lingvistik tizimlarni rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. 456-b.
2. Bird S., Klein E., Loper E. Natural Language Processing with Python. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2023. – 504 p.
3. Brown T. B., Mann B., Ryder N. et al. Language Models are Few-Shot Learners // Advances in Neural Information Processing Systems. – 2020. – Vol. 33. – P. 1877–1901.
4. Devlin J., Chang M.-W., Lee K., Toutanova K. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding // Proceedings of NAACL-HLT. – Minneapolis, 2019. – P. 4171–4186.
5. Eisenstein J. Introduction to Natural Language Processing. – Cambridge (MA): MIT Press, 2023. – 544 p.
6. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. – Cambridge (MA): MIT Press, 2021. – 800 p.
7. Hastie T., Tibshirani R., Friedman J. The Elements of Statistical Learning. – 2nd ed. – New York: Springer, 2021. – 745 p.
8. Jurafsky D., Martin J. H. Speech and Language Processing. 3rd ed. – Draft version. – Stanford University, 2025.
9. Kowsari K., Jafari Meimandi K., Heidarysafa M. et al. Text Classification Algorithms: A Survey // Information. – 2021. – Vol. 10(4). – Article 150.
10. Manning C. D., Schütze H. Foundations of Statistical Natural Language Processing. – Cambridge (MA): MIT Press, 2021. – 680 p.
11. Minaee S., Kalchbrenner N., Cambria E. et al. Deep Learning-Based Text Classification: A Comprehensive Review // ACM Computing Surveys. – 2021. – Vol. 54(3). – Article 62.
12. Mitchell T. Machine Learning. – New York: McGraw-Hill, 2022. – 414 p.
13. Norbekov X. O'zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari. – Toshkent: Akademnashr, 2024. 298-b.
14. Pedregosa F., Varoquaux G., Gramfort A. et al. Scikit-learn: Machine Learning in Python // Journal of Machine Learning Research. – 2021. – Vol. 12. – P. 2825–2830.
15. Rasulov R. O'zbek tilshunosligiga kirish. – Toshkent: Fan, 2021. 320-b.
16. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 4th ed. – Boston: Pearson, 2022. – 1136 p.
17. Suyunov M. O'zbek maqollarining pragmatik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU, 2022. 214-b.
18. Vaswani A., Shazeer N., Parmar N. et al. Attention Is All You Need // Advances in Neural Information Processing Systems. – 2017. – Vol. 30. – P. 5998–6008.
19. Witten I. H., Frank E., Hall M. A., Pal C. Data Mining: Practical Machine Learning Tools and Techniques. – 4th ed. – Cambridge: Morgan Kaufmann, 2021. – 654 p.
20. Yusupov U. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 432-b.
21. O'zbek xalq maqollari. / Tuzuvchi: T. Mirzayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020. 512-b.

Marjona JUMAYEVA,
Buxoro davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi
jumayevam731@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0009-4964-9402>



“TUYA” LUG’AVIY MA’NOVIY GURUHI QATNASHGAN MAQOLLARDA “HALOL YASHASH” VA “MANMANLIK” SLOTI

Annotatsiya: ushbu maqolada “tuya” lug’aviy ma’noviy guruhi qatnashgan maqollar lingvokognitiv jihatdan tahlil qilingan. Freym va slot nazariyasi mazkur zoonim qatnashgan bir qator maqollarga tatbiq etilgan. Kognitiv tilshunoslik doirasida o’rganilayotgan boshqa tushunchalar, ssenariy va slot ham maqolada tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: kognitiv tilshunoslik, freym, slot, konsept, nazariya, assotsiativ tilshunoslik, tahlil, lingvokulturologiya.

Аннотация: в данной статье с лингвокогнитивной точки зрения анализируются пословицы, содержащие лексико-семантическую группу со словом «верблюд». Теория фреймов и слотов применяется к ряду пословиц, включающих данный зооним. Кроме того, в статье анализируются и другие понятия, изучаемые в рамках когнитивной лингвистики, такие как сценарий и слот.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, фрейм, слот, концепт, теория, ассоциативная лингвистика, анализ, лингвокультуроология.

Annotation: this article presents a linguocognitive analysis of proverbs containing the lexical-semantic group associated with the word *camel*. The frame and slot theories are applied to a number of proverbs that include this zoonym. In addition, the article examines other concepts studied within the framework of cognitive linguistics, such as scenario and slot.

Key words: cognitive linguistics, frame, slot, concept, theory, associative linguistics, analysis, linguoculturology.

Inson tafakkurida har qanday birlik o’zining assotsiatsiyasida, avvaldan belgilangan o’rnida mavjud bo’ladi. Kognitiv tilshunoslikning o’rganish obyekti inson egallagan bilim va tajriba hisoblanishi bilan qanchalik ahamiyatli bo’lsa, shu egallangan bilimlarni ma’lum bir qolip hamda sxemaga solinishi-yu, o’ziga xos assotsiativ maydonlarni hosil qilishi bilan freym hamda slotlar ham shunchalik ahamiyatlidir.

Tuxum o’g’risi tuya o’g’risi ham bo’la oladi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan mazkur maqol nutqda faol qo’llanadi. Ushbu maqolning xalqimiz lingvomadaniyatidan o’rin olishi bejizga emas. Mazkur maqol orqali o’g’rilikning katta-kichigi bo’lmasligi, barcha ulkan yomonliklar ham dastlab kichik narsalardan boshlanishi haqida aytilgan. Mohiyatida og’rilik illatiga o’rganish oson hamda bu yo’lning oxiri ulkan talonchiliklar bilan yakunlanish haqidagi g’oya singdirilgan. Xalqimizning milliy mafkurasida, dunyoqarashida o’xshatish etaloni sifatida keltirilgan “Tuya” va “tuxum” obrazlari nafaqat ulardagi ohangdoshlikka, har ikkalasining bir tovush bilan boshlanishiga, balki quyidagi rivoyatga ham borib taqaladi.

Abu Hurayra raziyallohu anhu: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bunday deb aytganlar”, – dedilar: «Jum’a kuni maloikalar masjid eshigi oldida birinchi bo’lib kelganlarni birinchi deb, ikkinchi bo’lib kelganlarni ikkinchi

deb yozib turishg’aydir. Jazirama issiqda birinchi bo’lib kelganlar bitta tuya, ikkinchi bo’lib kelganlar bitta sigir, undan keyingilari bitta qo’chqor, undan keyingilari bitta tovuq, undan ham keyingilari ersa, bitta tuxum sadaqa qilganchalik savob olg’aydir. So’ng, imom so’zga chiqsa, maloikalar daftarlarini yopib, uning suhbatiga quloq solishg’aydir”.

Rivoyatda keltirilgan gradatsiya *tuya* bilan boshlanib *tuxum* bilan yakunlanadi. Ehsanning kattasi – tuya bo’lsa, kichigi – tuxum ekanligi ta’kidlanadi. Darajalanishning ikki chekka nuqtasidagi birliklar: “tuxum va tuya” matnida katta-kichikligi, arzon va bebaholigi, kundalik turmush tarzida doimiy mavjudligi yoki mavjud emasligi jihatidan o’zaro zidlangan. Mohiyaton tuya hamda tuxum detallari yuqoridagi rivoyatda qilinadigan ehson nuqtayi nazaridan qarama-qarshi qo’yilsa, maqolda og’rilikning boshlanish hamda tugash nuqtasini ko’rsatish uchun o’zaro zidlangan. Dastlab tuxumchalik hajmga ega bo’lgan narsani og’irlash og’rining tuya kabi katta buyumning ham hech ikkilanmay o’marishiga olib kelishi ta’kidlangan.

Xalq nutqida og’rilik bilan bog’liq ko’plab maqollar uchraydi. “Yo’qlikning uyati yo’q, og’rilik – uyat”, “Mullaning yomoni – varoqchi, Odamning yomoni – qaroqchi”, “To’g’ri boshni egri qilich kesmas”, “To’g’ri oshini yer, Egri – boshini”, “To’g’ri yurdim – yetdim murodga, Egri yurdim – qoldim uyatga”, “To’g’ri o’zar, Egri – ozar” kabi maqollarda

og'rilikning qoralanganligi, qilmishi orqali o'z nomini qora qilishi haqida zikr qilingan. Maqollarda insonning halol yashash mezonlari hamda og'rilikdan uzoqda yurishi lozimligi ta'kidlangan.

Oltmish kun aton bo'lguncha, olti kun bug'ra bo'l.

Aton – axta tuya. Bug'ra – tuyanig ayg'iri; besh yoshdan oshgan, kuchli, baquvvat, ikki o'rkachli erkak tuya. Mazkur maqol bilan majozan: “Qo'ldan bir ish kelmaydigan, kuchli, zaif bo'lib uzoq yashagandan ko'ra, kuchli, serg'ayrat, serharakat, shiddatli, jo'shqin, jasur odam bo'lib qisqaroq umr ko'rganing afzal”, deyilmoqchi¹.

Ssenariy sifatida oltmish kun, ya'ni umr bo'yi hayotdan maqsadsiz, umidsiz bo'lib yashagandan ko'ra olti kun haqiqiy inson bo'lib yashash kerakligi ta'kidlangan. Dono xalqimiz mazkur hayotiy haqiqatni tuyaning turlari misolida ochib bera olgan. Erkinlik, mustaqillik g'oyasi maqolda stereotip sifatida ham xizmat qiladi.

Eshakka muguz bitsa, egasini suzar,

Tuyaga qanot bitsa, tomingni buzar.

Varianti: “Eshakka shox, tuyaga qanot bermasin”. Xalqimiz orasida muvaffaqiyatga erishib burni ko'tarilgan, o'zidan boshqani bilmaydigan insonlarga nisbatan ushbu maqol qo'llaniladi. Insonga ham o'z ixtiyoridan, sabridan, vijdonidan ortiq yuklangan, berilgan ne'mat nafaqat uning, balki boshqalarning zarariga ham ishlaydi.

Sinonimlari: “Eshakka muguz bitsa, egasini suzadi, Tuyaga qanot bitsa, ho'kizning sho'ri quriydi”, “Eshakka muguz bitsa, ot qornini yoradi”, “Ho'kizning shoxi eshakda bo'lsa, tirik zotni qo'ymasdi”, “Suzag'on sigirga tangri mu-

guz bermas”, “Mushukka qanot bitsa, chumchuq zoti quriydi”, “Xudoyim bilib baqaga quyruq bermagan”. Bu maqollarni yomon, o'z izzatini bilmagan, bironi bir paqirga olmaydigan, nazar-pisand qilmaydigan, takabbur, mag'rur, manman, boshqalardan biror ortiq joyi bo'lib qolguday bo'lsa, naq o'zini qo'yarga joy topa olmaydigan, bosar-tusarini bilmay qoladigan odamlarga qarata: “Yaxshiyamki, unga mansab-martaba tegmagan. Bo'lmasa kuningni ko'rsatardi. Mansab-martabasi yo'g'ida qilayotgan qiligi ham bu!” degan ma'noda achchiq kinoya, zaharxanda tarzida aytadilar².

– Men mulla Abdisamatga hech narsa demayman, – dedi Umaraliboy.

– Mulla Abdisamat bo'lsa hamma jon deydi! – dedi Yodgorxo'ja.

– Mulla Abdisamatdek amaldor yo'q! – deb davom etdi Umaraliboy.

– Akbarali odammi? Sipomi? Amaldormi? Uning o'rnida men bo'lsam, guzardagi samovarlarni taqataq berkitdirardim. Hamma benamoz shu yerga yig'iladi. Namoz o'qimaganni yozda darralatardim, qishda – muz teshib, suvga pishardim. – Shuning uchun Xudo senga amal bermaydi-da! – dedi biron pastdan. – Tuyaga qanot bersa, qaysi imorat sog' qoladi? – dedi kal Hasan. Hamma kulib yubordi. Umaraliboy yana davom qildi:

– Men amaldor bo'lsam, shu qishloqdan besh-to'rtta yalangoyoqni Sibirga haydatardim.

– Habbarakalla! — dedi Yodgorxo'ja³.

2 Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 383.

3 Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Т.: Sharq, – 2000. – Б. 215.

1 Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 255.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imom al Buxoriy. Al jome as sahih. 1-kitob. –Т.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. 108-b.
2. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фанлари доктори дисс... – Т., 2009. – 253 б.
3. Панчев И.Б. Лингвокултурен анализ на концептите „добро“ и „зло“ в български и руски език. Дисс. ... канд. филол. наук. Автореф. – София. 2010. – 24 с.
4. Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. фалсафа докт... дисс... – Т., 2017. – 152 б.
5. Холманова З., Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати. – Т.: Turon zamin ziyo, 2016. – 209 б.
6. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – 477 б.

Abdixamidullo AZIMOV,

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: azimovhamid082@gmail.com

Ilmiy rahbar: G. N. TOJIYEVA,

filologiya fanlari doktori, professor

INGLIZ TILIDAGI METAFORALARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI TAHLILI (Sidni Sheldonning "If Tomorrow Comes" romani misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada Sidni Sheldonning *If Tomorrow Comes* asaridagi metaforalarning rus va o'zbek tillariga tarjima qilinishi qiyosiy-tahliliy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqotda metaforalarning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinib, tarjimalarda muallif uslubining qay darajada saqlangani aniqlanadi. Shuningdek, tarjima jarayonida metaforalarning to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent yoki neytrallashtirilgan shakllari kuzatiladi.

Kalit so'zlar: *metafora, badiiy tarjima, stilistik vosita, obrazlilik, ekvivalentlik, semantik transformatsiya, poetik tasavvur.*

Аннотация: в данной статье в сравнительно-аналитическом аспекте исследуется перевод метафор из романа Сидни Шелдона *If Tomorrow Comes* на русский и узбекский языки. В исследовании анализируются семантические, стилистические и прагматические особенности метафор, а также определяется степень сохранения авторского стиля в переводах. Кроме того, рассматриваются случаи полного эквивалентного, частично эквивалентного и нейтрализованного перевода метафор.

Ключевые слова: *метафора, художественный перевод, стилистическое средство, образность, эквивалентность, семантическая трансформация, поэтическое воображение.*

Annotation: this article presents a comparative and analytical study of the translation of metaphors in Sidney Sheldon's novel *If Tomorrow Comes* into Russian and Uzbek. The research examines the semantic, stylistic, and pragmatic features of metaphors and determines the extent to which the author's style is preserved in translation. In addition, the study identifies cases of fully equivalent, partially equivalent, and neutralized metaphorical translations.

Keywords: *metaphor, literary translation, stylistic device, imagery, equivalence, semantic transformation, poetic imagination.*

Kirish. Badiiy adabiyot tilining eng muhim tasviriy vositalaridan biri metaforadir. Metafora orqali muallif qahramonlarning ruhiy holatini, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni obrazli shaklda tasvirlaydi. Tarjima jarayonida metaforalarni adekvat yetkazish tarjimonning lingvistik va madaniy kompetensiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, ingliz tilidagi metaforalarni rus va o'zbek tillariga o'girishda milliy tafakkur, mentalitet va stilistik me'yorlar muhim rol o'ynaydi.

Sidni Sheldonning *If Tomorrow Comes* romani metaforalarga boy bo'lib, unda hissiy-ekspressiv birliklar keng qo'llangan. Ushbu maqolada asardagi metaforalarning rus va o'zbek tarjimalari qiyosiy o'rganiladi hamda tarjima strategiyalari tahlil qilinadi.

Metod. Ko'pchilik metaforani o'z tushunchasi yoki qo'llash doirasidan tashqaridagi murakkab adabiy vosita deb hisoblaydi. Biroq aksariyat insonlar metaforalardan o'zlari ham sezmaganda holda muntazam foydalanadilar. Metafora poetik yoki so'zlashuv uslubiga xos bo'lishidan, sodda yoki murakkabligidan qat'innazar, bir-biriga o'xshamaydigan ikki predmet yoki g'oyani qiyoslaydi va ular orasidagi o'xshashlikni yoritib beradi. U bir so'z yoki ibora orqali, aksar holda ko'plab so'zlar bilan ham ifodalash qiyin bo'ladigan ma'noni yetkazadi. Masalan, *"uning qo'pol muomalasidan qo'rqmang, u aslida mushukdek muloyim"* desak, biz birgina so'z orqali mehribon, yumshoq va qo'rqinch uyg'otmaydigan shaxs xususiyatlarini mujassamlashtiramiz. Taqqoslash uchun ishlatilgan so'z yoki ibora inson

ongida tasvir uyg'otgani sababli, metafora *"bir tasvir ming so'zga teng"* degan iborani o'zida aks ettiradi, deyish mumkin. J. Lakoff *"Metaforaning mohiyati - bir turdagi narsa yoki hodisani boshqa bir narsa orqali tushunish va his etishdan iboratdir"* deya ta'kidlagan edi. Asosan, lingvistik dalillarga tayangan holda, biz kundalik konseptual tizimimizning aksariyati metaforik tabiatga ega hisoblanadi. Shuningdek, metaforalar idrokimizni, tafakkurimizni va xatti-harakatlarimizni shakllantirib boradi.

Ko'pchilik metafora poetik tasavvur va notiqlik bezagining vositasi, noodatiy til hodisasi deb hisoblaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, metaforaga odatda, nafaqat tilga xos hodisa, balki so'zlar bilan bog'liq vosita sifatida qaraladi. Aksincha, metafora kundalik hayotda nihoyatda keng tarqalgan, chunki u nafaqat tilda, balki tafakkur va harakatlarda ham mavjuddir. Bizning odatiy konseptual tizimimiz, ya'ni biz tafakkur qiladigan, harakat qiladigan tizim mohiyatan metaforik tabiatga ega. Tafakkurimizni boshqaradigan konseptlar faqat aqliy jarayonlar bilan cheklanib qolmaydi. Buni aniqlashning bir usuli – tilni tahlil qilishdir. Chunki muloqot biz tafakkur qilayotganimizda, harakat qilayotganimizda foydalanadigan ayni konseptual tizimga asoslanadi. Shu sababli, til ushbu tizimning qanday tuzilganini aniqlash uchun muhim dalil manbai hisoblanadi.

Quyida asliyatda berilgan matn parchalarida qo'llangan metaforalarning rus va o'zbek tillaridagi tarjimalari tahliliga e'tibor qaratamiz.

Muhokama va natijalar. Asliyatda berilishi: *It was fascinating work, the life-blood that fed the arteries of business all over the globe, and until Charles Stanhope III had come into Tracy's life, banking had been the most exciting thing in the world for her.* (1.13)

Ruscha tarjimada berilishi: Работа захватывала – ведь она имела дело с животворящим кровеносным потоком, наполнявшим артерии мирового бизнеса. И до того, как в ее жизни появился Чарлз Стенхоуп-третий, банковские операционки казались Трейси самым волнующим делом на свете. (2.9)

O'zbekcha tarjimada berilishi: U o'z ishiga juda berilgandi, zotan, jahon biznesining qon tomirini ta'minlab turuvchi quvvat manbai Treysining qo'lida edi. Toki uning hayotiga Charlz Stenxoup kirib

kelgunga qadar bank ishi uning qalbini butunlay zabt etgan edi. (3.8)

Mazkur parchada metafora bank tizimini inson organizmiga qiyoslash asosida qurilgan bo'lib, muallif tomonidan biznes olamining murakkab va uzviy harakatini jonli obraz orqali tasvirlashga xizmat qilgan. Inglizcha matnda *"the life-blood that fed the arteries of business all over the globe"* metaforasi qo'llanib, bank sohasi global iqtisodiyotning *"hayot qoni"*, biznes tizimi esa *"arteriyalar"* sifatida konseptuallashtiriladi. Bu yerda iqtisodiy tizim biologik organizm modeli orqali ifodalangan bo'lib, konseptual metaforaning *"BUSINESS IS A LIVING ORGANISM"* modeli yuzaga keladi. Mazkur metafora semantik jihatdan bank faoliyatining muhimligi va uzluksiz harakatini, stilistik jihatdan esa obrazlilik va ekspressivlikni kuchaytiradi. Pragmatik jihatdan esa o'quvchida bank tizimining naqadar muhim va markaziy ekanligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi.

Rus tarjimasida metafora deyarli to'liq saqlangan: *"животворящим кровеносным потоком, наполнявшим артерии мирового бизнеса"*. Tarjimon inglizcha *"life-blood"* birikmasini *"животворящий кровеносный поток"* tarzida berib, metaforaning biologik asosini saqlab qolgan. *"Артерии мирового бизнеса"* birikmasi ham originaldagi konseptual modelni to'liq aks ettiradi. Shu sababli rus tarjimasida metaforaning semantik yadrosi, ya'ni biznes tizimining tirik organizm sifatida talqin qilinishi muvaffaqiyatli qayta yaratilgan. Stilistik jihatdan ruscha variant originalga juda yaqin bo'lib, tantanavor va emotsional uslub saqlangan. Pragmatik ta'sir ham kuchli: o'quvchi bank tizimini global iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qabul qiladi. Demak, rus tarjimasida muallif uslubi yuqori darajada saqlangan.

O'zbek tarjimasida esa metafora qisman transformatsiyaga uchragan: *"jahon biznesining qon tomirini ta'minlab turuvchi quvvat manbai"*. Bu yerda *"life-blood"* metaforasi bevosita tarjima qilinmay, *"quvvat manbai"* shaklida interpretativ usulda ifodalangan. Natijada asliyatdagi biologik metaforaning bir qismi yo'qolgan. *"Qon tomiri"* komponenti saqlangan bo'lsa-da, *"arteriyalarni oziqlantiruvchi hayot qoni"* konsepsiyasi to'liq tiklanmagan. Semantik jihatdan bank tizimining muhimligi anglashiladi, biroq biologik-organik tasvir kuchsizlashgan. Stilistik jihatdan o'zbekcha tarjima

originalga nisbatan ko'proq izohlovchi va publitsistik ruhga ega bo'lib qolgan. Muallifning obrazli va poetik uslubi qisman soddalashtirilgan. Pragmatik jihatdan esa tarjima o'quvchiga iqtisodiy qudrat va markaziylik g'oyasini yetkazadi, ammo inglizcha matndagi kuchli vizual-assotsiativ ta'sir darajasi pasaygan.

Umuman olganda, rus tarjimasi metaforaning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini maksimal darajada saqlagan hamda muallif uslubiga yaqin qolgan. O'zbek tarjimasida esa metaforalar qisman milliy-madaniy va uslubiy moslashtirish asosida qayta ishlangan. Natijada mazmun saqlangan bo'lsa-da, aslyatdagi biologik konseptual metaforaning obrazlilik darajasi biroz kamaygan. Shu bilan birga, ayrim o'rinlarda tarjimon qo'shimcha poetik vositalar orqali ekspressivlikni kompensatsiya qilgan.

Aslyatda berilishi: *No one actually said aloud, "You trapped our son into marriage."* (1.20)

Ruscha tarjimada berilishi: Никто не произнес вслух: «Вы заарканили нашего сына и заставляете на себе жениться». (2.14)

O'zbekcha tarjimada berilishi: *Hech kim ovoz chiqarib: "Sen o'g'limizga zo'rlik bilan turmushga chiqyapsan", demadi.* (3.18)

Mazkur misolda inglizcha *"You trapped our son into marriage"* jumlasidagi *"trap"* metaforasi nikohni tuzoq konsepti orqali tasvirlaydi. Bu yerda muallif ayol obrazini maqsadiga erishish uchun erkakni *"tuzoqqa ilintirgan"* shaxs sifatida ko'rsatadi. Konseptual jihatdan *"MARRIAGE IS A TRAP"* metaforasi yuzaga keladi. Ushbu metafora semantik jihatdan majburlash, manipulyatsiya va hiyla ma'nolarini ifodalaydi. Stilistik jihatdan esa jumlagi keskin emotsional va salbiy baholovchi bo'yoq beradi. Pragmatik jihatdan o'quvchida qahramonga nisbatan salbiy munosabat uyg'otish va vaziyatning konflikt xarakterini kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Rus tarjimasida metafora *"заарканили нашего сына"* tarzida berilgan. Tarjimon bu yerda oddiy ekvivalent tarjimadan voz kechib, xalqona-ekspressiv variantni tanlagan. *"Аркан"* so'zi aslida chorvani

tutish uchun ishlatiladigan arqon ma'nosini anglatadi va metaforik jihatdan insonni bo'ysundirish, qo'lga tushirish semasini kuchaytiradi. Natijada ruscha variant originaldagi salbiy baholashni yanada kuchliroq ekspressivlik bilan ifodalaydi. Semantik jihatdan *"trap"* metaforasining asosiy mazmuni saqlangan, stilistik jihatdan esa xalqona va jonli nutq elementlari orqali emotsional ta'sir kuchaygan. Pragmatik jihatdan rus o'quvchisida ayolning ayyorligi va manipulyativ xatti-harakatiga nisbatan yanada keskin taassurot uyg'otadi. Demak, rus tarjimasida muallif uslubi nafaqat saqlangan, balki ma'lum darajada kuchaytirilgan.

O'zbek tarjimasida esa *"zo'rlik bilan turmushga chiqyapsan"* varianti qo'llangan. Bu tarjimada metafora to'liq saqlanmagan va izohiy usulga o'tilgan. *"Trap"* obrazining asosiy komponenti – *"tuzoq"*, *"ilintirish"*, *"aldab qo'lga kiritish"* semalari yo'qolgan. Natijada jumla ko'proq voqeaning mazmunini izohiga aylangan. Semantik jihatdan majburlash ma'nosi saqlangan bo'lsa-da, metaforaning obrazli tabiati kamaygan. Stilistik jihatdan originaldagi keskin emotsional-ekspressiv bo'yoq susaygan va nutq oddiyoq tus olgan. Pragmatik jihatdan esa o'quvchiga konflikt hissi yetib borsa-da, inglizcha va ruscha variantlardagi kuchli salbiy assotsiatsiya to'liq yuzaga chiqmaydi.

Shunday qilib, rus tarjimasi metaforaning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini muvaffaqiyatli saqlab, hatto ekspressivligini kuchaytirgan bo'lsa, o'zbek tarjimasida metafora deskriptiv shaklga o'tishi natijasida obrazlilik va emotsional ta'sir darajasi pasaygan.

Xulosa. Tahlil natijalariga ko'ra, Sidni Sheldon romanidagi metaforalar tarjimasida rus tarjimoni aslyatdagi obrazlilik va stilistik qatlamni maksimal darajada saqlashga harakat qilgan. O'zbek tarjimasida ko'proq mazmuniy adaptatsiya va milliyalashtirish kuzatiladi. Ayrim hollarda bu usul metaforaning ta'sirchanligini oshirgan bo'lsa, ba'zi misollarda obrazlilikning yo'qolishiga sabab bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sheldon, S. (1985) *If tomorrow comes*. – United States: Warner Books.
2. Шелдон, С. (1985) *Если наступит завтра*. – Москва: "АСТ".
3. Sheldon, S. (2018) *Orziqib kutaman ertani*. – Toshkent: "Yangi Asr Avlodi".
4. George Lakoff, Mark Johnsen (2003) *Metaphors we live by*. – London: The university of Chicago press.

Nilufar TO'LIQINJONOVA,
 SamDCHTI tayanch doktranti
tulkinjonovanilufar06191998@gmail.com



MADANIYATLARARO BADIY MULOQOT MEXANIZMLARI: G'ARB VA TURKIY FOLKLOR INTEGRATSIYASI MODEL

Annotatsiya: mazkur maqolada madaniyatlararo badiiy muloqotning nazariy asoslari hamda G'arb va turkiy folklor an'analari o'rtasidagi integratsion jarayonlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda folklor namunalari madaniy xotirani saqlash, milliy identifikatsiyani mustahkamlash va turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi estetik aloqalarni rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, G'arb folkloridagi mifologik syujetlar, ramziy obrazlar va narrativ modellar bilan turkiy og'zaki ijod an'analari o'rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlar qiyosiy tahlil qilinadi. Muallif tomonidan madaniyatlararo badiiy muloqotni izohlovchi integratsion model taklif etilib, unda folklorning kommunikativ, semantik, aksiologik va estetik funksiyalarining o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari folklorshunoslik, komparativ adabiyotshunoslik hamda madaniyatshunoslik yo'nalishlarida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, folklor, turkiy folklor, G'arb folklori, badiiy integratsiya, mifologiya, komparativ tahlil, madaniy kod, narrativ model, estetik kommunikatsiya.

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы межкультурного художественного диалога и процессы интеграции западных и тюркских фольклорных традиций. Исследование выявляет роль фольклорных образцов в сохранении культурной памяти, укреплении национальной идентичности и развитии эстетических связей между различными цивилизациями. Также проводится сравнительный анализ общих и различных аспектов мифологических сюжетов, символических образов и повествовательных моделей в западном фольклоре и традициях тюркского устного творчества. Автор предлагает интегративную модель, объясняющую межкультурный художественный диалог, которая обосновывает взаимосвязь коммуникативной, семантической, аксиологической и эстетической функций фольклора. Результаты исследования служат теоретической и методологической основой для научных исследований в области фольклористики, сравнительного литературоведения и культурологии.

Ключевые слова: межкультурный диалог, фольклор, тюркский фольклор, западный фольклор, художественная интеграция, мифология, сравнительный анализ, культурный код, повествовательная модель, эстетическая коммуникация.

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations of intercultural artistic dialogue and the integration processes between Western and Turkic folklore traditions. The study reveals the role of folklore samples in preserving cultural memory, strengthening national identity, and developing aesthetic ties between different civilizations. Also, a comparative analysis is made of the common and different aspects between mythological plots, symbolic images, and narrative models in Western folklore and the traditions of Turkic oral creativity. The author proposes an integrative model explaining intercultural artistic dialogue, which substantiates the interrelationship of the communicative, semantic, axiological, and aesthetic functions of folklore. The results of the study serve as a theoretical and methodological basis for scientific research in the areas of folklore studies, comparative literary studies, and cultural studies.

Key words: intercultural dialogue, folklore, Turkic folklore, Western folklore, artistic integration, mythology, comparative analysis, cultural code, narrative model, aesthetic communication.

Saxovat nafaqat taxt egalari, balki jamiyki insonlardagi eng go'zal xislatdir. Bunday fazilatga ega inson ko'pchilikning mehrini qozonadi, hamisha hurmat va izzatda, xalqning ardog'ida bo'ladi. Shu sababli ham saxovatli sultonlarni mamlakat ahli sevadi, alqaydi. Boshqa yurt vakillari esa bunga havas qiladi. Tarix shunday mehr-shafqatli va saxiy shohlarning o'tganiga guvohdir. Bunday davlat boshqaruvchisining sharofatidan och-nochorlarning qorni to'q, usti but, u yetim-yesirlarga va uysiz kimsalarga panoh. Doimo xalq manfaatini ko'zlaydigan ijodkor esa buni quyidagicha yoritadi: **"Ochlar g'izosi bazl va atosi xonidin, yalang'ochlar libosi xizonai lutf va ehsonidin. Mulk bo g'in ma'mur qilurg'a abri serob va mulk ahli ko'zin yotiturg'a mehri jahontob. O'zga mulkning raoyo va xalqi aning orzusida va yana kishvar mazlumlari aning adli duosi guftigo'sida"[2:145].** Adolatli, saxovatli va ilm-ma'rifatli hukmdor hayotdan ko'z yumsa-da, ma'nan hech qachon o'lmaydi. U har doim olimlarning risolalarida, shoirlarning she'rlarida, xonanda-yu sozandalarning ashulasida mangu barhayotdir. Bunga misol

tariqasida boburiylar sulolasidan bo'lmish, g'ayridin bo'lishiga qaramay hind xalqining qalbini zabt etgan Jaloliddin Akbar (1542-1605) [4], ya'ni Akbarshohni keltirish mumkin. Uning islohotlari va qurdirgan inshootlari hali hanuz dunyoni hayratga solishda davom etmoqda. Bu kabi hodisalar haqida esa Navoiy qarashlarini o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida shunday bayon qiladi: **"Yaxshi otig'a ulamo ishi rasoil tartibi va yaxshi sifatig'a shuaro varzishi qasoyid tarkibi, mug'anniylar ishtig'oli sanosi uchun surud tuzmak va musanniflar maqoli duosi ohangida nag'ma ko'rguzmak"[2:145].**

Saxovatsiz, johil va zulmkor podshohlar esa hamma vaqt o'z manfaatini o'ylaydi. O'zining botqog'iga boshqalarni ham yetaklaydi. Nainki, shoh fuqarolarini to'g'ri yo'lga boshlamog'i lozim. Bundaylar chin so'zni so'zlaguvchini yashatmaydilar, ularga qarshi chiqqanlar o'zlarini dor tagida ko'radilar. Shu vajdan ham yurtida nohaqlik, tovlamachilik, laganbardorlik va adolatsizliklar ko'paysa ko'payadiki, aslo kamaymaydi. Shoir ayni shu jihatlarni quyidagicha ifodalaydi: **"Hayot suyini og'u desa, musallam tutmag'on gunahkor va quyosh nurin qorong'u desa, tahsin qilmag'on tiyra ro'zgor... Chin der elga – jon xatari, xayrg'a dalolat qilg'uvchig'a o'lum zarari. haq aning qoshida botil, hiradmand aning aqidasida johil"[2:147].** Shuningdek, adib shohning vaziri ham o'zidek bo'lishini ta'kidlab, uni Fir'avnning Xomon degan vaziriga qiyoslaydi.

Adolat dunyoni bir maromda tutib turuvchi eng asosiy mezonlardan biridir. U bo'lmagan dunyoni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Navoiy barchani adolatparvarlikka chaqiradi. Saltanatni boshqaruvchilarni esa mehr-shafqat, saxovat, xushmuomalalik kabi xislatlarni o'zlashtirishga undaydi. Zero, har bir xalq bunday rahbari hurmat qiladi va sadoqat bilan xizmat qiladi. Ijodkor shunday fazilatli shohlarni quyidagi masnaviysida madh etadi:

"Masanaviy:

Ulus podshohiyu darveshsifat

Anga shohlikdin kelib faqr xush

Jahondorlarga sipehr intiboh ,

Valiy ahli faqr olida hoki roh,

Jahon mulki olinda hoshokcha,

Vale bir ko'ngil mulki aflokcha ..."[2:146]

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ushbu asarda davlat boshqaruvchilarining yutuq va kamchiliklarini odilona baholaydi. "Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"ning har bir jumlasini yuksak badiiy saviyada chiqishiga e'tibor qilishi bu asarni o'zbek nasrining beqiyos namunasiga aylantirdi. Bu yo'lda adibning so'z tanlash mahorasti, xususan, tasavvurlar olamining nihoyatda kengligi qo'l keldi. "Mahbub ul-qulub"da muallif ixtiyorida har bir so'z ta'bir joiz bo'lsa, kulol qo'lidagi masonadek o'ynaydi va osongina Navoiy istagan shaklga kira oladi".[3:282].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyoqubova T. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Uslubiy qo'llanma. – T., 2009
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Yoshlar matbuoti, 2022.
3. Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi. 30 jildlik. 14-jild. – T.: Tamaddun, 2022.
4. www.Wikipediya.uz

Dilrabo XUDOYBERDIYEVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti
dilrabadilovna0@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0005-5904-6470>



ISAJON SULTONNING “OYDINBULOQ” HIKOYASIDA PARIZOD OBRAZI TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqola Isajon Sultonning “Oydinbuloq” hikoyasida ayol obrazining pari timsoli ostida chuqur psixologik, falsafiy va badiiy talqinini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolada asosiy qahramonning ichki monologi va ong oqimining yoritilishida Parizod timsolining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning yangiligi shundaki, unda Parizod obrazi shunchaki mifologik unsurgina emas, balki qahramonning ruhiy evrilishlarini va “ong oqimi” uslubini harakatga keltiruvchi asosiy konseptual detal sifatida ilk bor kompleks tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *modernizm, ong oqimi, xalq og'zaki ijodi, hikoya, parilar, ramz*

Annotation: this article is devoted to the analysis of the deep psychological, philosophical, and artistic interpretation of the female character through the image of a fairy (pari) in Isajon Sulton's short story “Oydinbuloq” («The Lucid Spring»). The paper analyzes the role of the Parizod (fairy) image in illuminating the image of Parizod is comprehensively analyzed for the first time not merely as a mythological element, but as a core conceptual detail that triggers the character's psychological transformations and the «stream of consciousness» technique.

Keywords: *modernism, stream of consciousness, folklore, short story, fairies, symbol*

Аннотация: данная статья посвящена анализу глубокой психологической, философской и художественной интерпретации женского образа сквозь призму образа пери в рассказе Исажона Султана «Ойдинбулок» («Светлый родник»). В статье анализируется роль образа Паризод в освещении внутреннего монолога и потока сознания главного героя. Научная новизна исследования заключается в том, что образ Паризод впервые комплексно анализируется не просто как мифологический элемент, а как ключевая концептуальная деталь, приводящая в движение психологические трансформации персонажа и метод «потока сознания».

Ключевые слова: *модернизм, поток сознания, устное народное творчество, рассказ, пери (фея), символ*

Kirish. Adabiyot — xalqning mifologik tafakkuri va og'zaki ijodi sarchashmalaridan suv ichib rivojlanuvchi yuksak so'z san'atidir. Shu bois zamonaviy yozuvchilar badiiy asar strukturasini yaratishda qadimiy folklor qatlamlariga, xususan, mifologik obrazlarga tez-tez murojaat qiladilar. Afsona va rivoyatlardagi pari, jin, dev kabi timsollar zamonaviy nasrda inson psixologiyasining murakkab qirralarini ochib, jahon adabiyotshunosligida mifologik obrazlarning genezisi keng tadqiq etilgan. O'zbek folklorshunosligida ko'plab tadqiqotchilar parilarning insoniy qiyofadagi go'zallik tamoyillarini yoritib berganlar. Biroq bugungi o'zbek modern nasrida, xususan, Isajon Sulton ijodida ushbu an'anaviy obrazlarning yangicha talqin qilinishi, ularning lirik-psixologik funksiyasi va tasavvufiy mazmun bilan boyishi masalasini tizimli tahlil qilish ehtiyoji mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Maqolaning asosiy maqsadi Isajon Sultonning “Oydinbuloq” hikoyasidagi parizod obrazining badiiy-estetik tabiatini aniqlash hamda uning an'anaviy folklor timsolidan zamonaviy adabiy obrazga evrilish jarayonlarini yoritishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, hikoyadagi mifologik asoslar

va badiiy niyat uyg'unligi tahlilga tortiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda parizod obrazi shunchaki tashqi go'zallik timsoli emas, balki inson ruhidagi ilohiy intilishlarning badiiy ifodasi, tasavvufiy tafakkurdagi “Haq Jaloli” ning ramziy ko'rinishi, realistik tasvir bilan mifologik qatlamning o'zaro sintezi sifatida ilk bor Isajon Sulton nasri misolida tahlil etiladi. Amaliy ahamiyati maqola natijalaridan oliy o'quv yurtlarida “Hozirgi o'zbek nasri”, “Folklorshunoslik” va “Adabiyot nazariyasi” fanlarini o'qitishda, shuningdek, Isajon Sulton ijodini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun yordamchi manba sifatida foydalanish mumkin. Kutilayotgan natijalar, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, “Oydinbuloq” hikoyasidagi parizod obrazi klassik she'riyatdagi ideal go'zal va folklordagi mo'jizaviy mavjudot tushunchalarini o'zida birlashtirib, zamonaviy nasrda yangi tipdagi — metafizik ayol obrazi darajasiga ko'tarilgan. Bu esa yozuvchining an'anaviylik va modernizm o'rtasidagi o'ziga xos uslubiy yutug'idir.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotda Isajon Sultonning “Oydinbuloq” hikoyasidagi Parizod timsoli orqali ayol obrazining ilohiylashtirilishi, uning badiiy talqini hamda

psixologik qirralari tahlili asosida olingan natijalar bayon qilinadi. Ushbu tahlil davomida aniqlangan natijalar parizod obrazini yaratishda yozuvchi badiiy uslubiga qaratilgan. Tadqiqot natijasida Parizod timsoli mazkur jihatlariga ko'ra yoritilgan va natijaga olib chiqilgan: ramziy-mifologik, badiiy-estetik va lingvistik, psixologik va ruhiy tahlil. Ramziy-mifologik tahlil Parizod ismining tanlanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Umuman olganda, parilar badiiy adabiyotda insonlardan ko'ra chiroyliroq, mukammalroq va aql bovar qilmas xususiyatlarga ega jonot sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqov "Alisher Navoiy boqiyliqi" (2007) asarida ta'kidlashicha, *mumtoz adabiyotdagi g'ayritabiiy obrazlar (pari, xizr, simurg')* insonning ma'naviy kamolot sari intilishidagi turli bosqichlarni ifodalaydi"[1:98]. Hikoyada Parizod quyidagicha tasvirlanadi: "Oydinbuloq yonida bir pari turar edi. Uning libosi... Nimasini aytay, yer qizlari bunday libosni tushlaridayam ko'rmaydilar. Ko'zlari yulduz edi", "O', bu olamda uning o'xshashi bormikin? U yer qizi emas, ko'k qizi edi. Ammo Isajon Sul-tonning "Oydinbuloq" hikoyasida Parizod obrazi oddiy mifologik timsol darajasidan ancha yuksalib, chuqur ramziy-metaforik ma'noni kasb etadi. U inson qalbida yashovchi "yo'qotilgan jannat", amalga oshmay qolgan orzular va yetib bo'lmay go'zallik timsoli sifatida talqin qilinadi. Biroq hikoya davomida bu go'zallik va ideal tasavvur real hayot bilan to'qnashadi. Asar yakunidagi "o'xshamaslik" holati esa vaqtning shafqatsiz hukmini, orzu va haqiqat o'rtasidagi uzilmas tafovutni ochib beradi. Shu ma'noda, Parizod timsoli qahramon shuuridagi mutloq go'zallik — estetik ideal bilan kundalik hayotning sodda, ba'zan esa kulrang voqeligi o'rtasidagi masofani ifodalovchi o'ziga xos ko'prik vazifasini bajaradi.

Asardagi voqealar rivoji ham aynan pari qiz obrazi atrofida kechadi. Parizod obrazi orqali yozuvchi ayolning ilohiy jihatlari va nozik tabiatini ochib beradi. Muallif bu obrazning go'zalligi hamda ma'naviy latofatini uning libosi, ruhiy holati va ko'z qarashlari orqali tasvirlaydi. Jumladan, "Suv tomchilari oy yog'dusida qanday tovlansa, u ham buloq yonida shunday tovlanib turar edi" kabi tasvirlar Parizodning samoviy go'zalligini ifodalashga xizmat qiladi. Hikoya nomi ham ma'lum ma'noda pari obrazi, ya'ni Parizod timsoli bilan bog'liq bo'lib, obrazni to'liq talqin qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, "Oydinbuloq" nomining tanlanishi ham ramziy ahamiyat kasb etadi. Parizod aynan shu buloq yonida paydo bo'lishi orqali yozuvchi shuni ko'rsatadiki, haqiqiy go'zallik va ruhiy poklik faqat inson ichki dunyosida tozalik saqlangan joyda yashaydi. Buloq va uning atrofidagi peyzaj qahramonning vaqt va xotira orqali o'tgan ruhiy sayohatini ifodalaydigan xronotopni yaratadi. Asarda keltirilgan har bir detal, makon va peyzaj tasvirlari Parizod timsolini yoritishga xizmat qiladi. Hikoyada Parizod obrazi bilan bog'liq badiiy detallar, xususan libos va nur tasviri alohida ramziy ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi Parizod timsolini tasvirlashda tabiat peyzajini nur bilan ifodalash

orqali uning obrazini nafaqat vizual jihatdan, balki ma'naviy va falsafiy qirralarini ham ochib beradi. Adabiyotshunoslar nuqtai nazarida, nur ko'pincha ijobiy motiv, poklik, ruhiy sofiyat va ilohiylik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Shu bilan birga, ko'plab adabiy asar nomlarida va matnlarda "nur" so'zining ishlatilishi uning badiiy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi. Masalan, "Nur samodan yog'ilmas, Oydinbuloqdan taralar edi" degan tasvir orqali yozuvchi Parizodning samodan tushgan pari ekanligini aniq ta'kidlaydi. Bu tasvir Parizod obrazining insoniy dunyodan yuqori, ideal mavjudot sifatida talqin qilinishini, uning ma'naviy va estetik mukammalligini ko'rsatuvchi asosiy badiiy detal sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, tabiat va yorug'lik elementlarining uyg'unligi asarda ruhiy muhit va obraz psixologiyasini yanada boyitadi, o'quvchida Parizodga nisbatan iliq, hurmat va hayrat tuyg'ularini uyg'otadi. Shu bilan birga, uning timsolidagi nur — oy yog'dusi, yulduzday chaqnagan nigohlar qahramon hayotidagi zulmat va tushkunlikni yoritish uchun umid chirog'i sifatida talqin etiladi. Bu nur nafaqat tashqi go'zallik belgisi, balki ichki ma'naviy poklik va ruhiy uyg'unlik ifodasidir. Parizodning "yer qizlari tushida ham ko'rmaydigan" darajadagi libosi uning moddiy dunyodan yiroqligini, ilohiy va yetib bo'lmay go'zallik timsoli ekanini ifodalaydi. Badiiy tasvirdagi bu mubolag'a (giperbola) personajni sakrallashtirishga (muqaddaslashtirishga) xizmat qiladi. Libos — qahramonning ichki nurini tashqi olamga ko'rsatib turuvchi qobiq. Uning moddiy dunyo ashyolaridan emas, balki tasavvur qilib bo'lmay unsurlardan ekanligi qahramonning materiya ustidan g'alabasini ifodalaydi. Bu orqali muallif "go'zallik — ilohiy namoyonlikdir" degan estetik konsepsiyani ilgari suradi. Shu tariqa, antropomorfik (insoniy) tasvirdan ramziy mohiyatga o'tiladi: qahramonning tashqi qiyofasi shunchaki bir vosita, uning asl fitrati esa ilohiylik olamiga daxldor ekanligi anglashiladi. Bunday tasviriy usul o'quvchida hayrat uyg'otishga yo'naltirilgan bo'lib, badiiy matnni realistik tekislikdan mutloq go'zallik va ilohiy haqiqatlar darajasiga yuksaltiradi.

Asar yakunida Parizodning oddiy ayolga aylanishi esa go'zallikning yo'qolishi emas, balki uning hayotlashuvi, ya'ni idealning real hayot bilan uyg'unlashuvi sifatida tushuniladi. Bu jarayon qahramonning o'z orzulari bilan yuzma-yuz kelishi, ruhiy jihatdan o'sishi va haqiqatni anglash bosqichini ifodalaydi.

Tadqiqotning psixologik-ruhiy talqiniga ko'ra "Oydinbuloq" hikoyasida Parizod obrazi real ayol obrazidan ko'ra ko'proq asosiy qahramon ichki kechinmalari va psixologik ma'nolarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. U qahramonning yoshlik orzulari, ideal go'zallik va yo'qotilgan baxt timsoli sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ushbu obraz hikoya syujetining rivojida muhim o'rin tutib, bosh qahramonning ichki kechinmalarini yoritish, uning orzu, armon, mardlik hamda afsus-nadomat kabi

tuyg'ularini ochib berishga xizmat qiladi. *"O'n yetti yashar yigitcha mard keladi. U mahallar g'ayratim osmonga sig'masdi. Bu ko'k qizining g'ussasi bir rahmimni keltirsa, bir qonimni qizdirar edi. Parining jodusimidi yo qalbmimdagi tug'yonlarning natijasimi, bilmadim, biroq shu xilqat qoshida tiz cho'kkim, unga jonimni fido qilgim keldi"*. Shu jumladan hikoyada bosh qahramonning ichki monologi, ong oqimi va psixologik jarayoni aynan Parizod timsoli orqali shakllanadi. Parizodni birinchi marta uchratishi asosiy obrazning yoshlik, soddalik, orzu va samimiylilik kabi xususiyatlarini mukammal ochib beradi. Shuningdek, hikoyada qo'llangan "ong oqimi" usuli asarning badiiy-estetik mohiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Voqealar tashqi real makonda emas, balki qahramonning ichki dunyosi — xotiralari, kechinmalari va ruhiy iztiroblari oqimida kechadi. Taniqli adabiyotshunos olim Izzat Sulton modernistik asarlarning ushbu xususiyatini shunday ta'riflaydi: *"Modernistik asarlarda voqealar tashqi muhitda emas, balki qahramonning ruhiyatida, uning cheksiz xotiralari va tushunarsiz tuyg'ulari silsilasida kechadi. Bu yerda vaqt va makon tushunchasi nisbiylashadi."*[2:167]

Shu ma'noda Parizod obrazi ham an'anaviy personaj sifatida emas, balki qahramon ongida shakllangan va uning butun umr yo'lini mujassamlashtirgan ramziy timsol sifatida namoyon bo'ladi. U qahramonning qariyb ellik yillik hayot tajribasini bir lahzaga jamlay olgan ruhiy markaz vazifasini bajaradi. Qahramonning Parizod bilan muloqoti esa aslida uning o'z ichki "men"i bilan olib borgan suhbat sifatida talqin qilinadi. Ushbu ichki dialog jarayonida u o'zining yoshlikdagi beg'uborligi, mardligi va vaqt o'tishi bilan yo'qotgan ma'naviy pokligini qayta kashf etadi. Demak, Parizod obrazi qahramon ongidagi xotiralar, armonlar va ideal tasavvurlar tutashgan nuqtada yuzaga kelgan badiiy ifoda sifatida xizmat qiladi va asarning psixologik qatlamini yanada chuqurlashtiradi.

Parizodni hikoya so'ngida uchratishi *"Qoshu ko'zlari o'sha-o'sha, yuzlar o'sha-o'sha, nigohida ham o'sha so'lim, nafis, tushdagiday sirli qizni eslatadigan nimadir bor... Shu bilan birga, unga naqadar o'xshamaydi u!"* Ushbu tasvir orqali vaqtning o'tishi, insonning jismoniy qarishi va hayotiy tajribalarning qahramon ruhiyatiga ta'siri aks etadi. Parizod timsoli hikoyada protagonistning go'zallik, yoshlik orzulari va erishilmagan baxt xotiralarini ifodalashda markaziy harakatlantiruvchi vosita sifatida

xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu obraz orqali hikoya psixologik chuqurlik, bosh qahramonning ichki hissiyotini ochib berish imkoniga ega bo'ladi.

Hikoyada ayol obrazi chuqur ramziy ma'no kasb etgan. U orqali yozuvchi muhabbatning buyuk kuchini, hayotning o'tkinchi ekanini hamda haqiqiy muhabbat har kimga ham nasib etavermasligini ta'sirchan tarzda ochib bera olgan. Parizod obrazi oddiy qiz emas; asosiy qahramonning unga bo'lgan sevgisi shunchaki insonga xos tuyg'u bo'lib qolmay, balki ilohiy muhabbat darajasiga ko'tariladi. Shu bilan birga, hikoya so'ngida Parizod obrazi orqali muhabbatning yuksak va ideal ko'rinishi ifoda etiladi. Jumladan, *"axir, o'n yetti yoshida ko'k yuzida o'ziga atalgan Parizod borligiga shubhasiz ishonmagan odam topilarmikin bu ko'hna olamda?"* degan fikr orqali yozuvchi inson qalbida, ayniqsa yoshlik davrida, mukammal va haqiqiy muhabbatga bo'lgan ishonch mavjudligini ta'kidlaydi. Inson tug'ilibdiki, muhabbat orzusi bilan ulg'ayadi. O'smirlik davrida sevgi haqidagi orzu - xayollar, muhabbatning sof o'ylari har bir yigit qalbida yashagan.

Xulosa. Isajon Sultonning "Oydinbuloq" hikoyasidagi Parizod obrazi o'zbek adabiyotidagi an'anaviy pari timsolining yangicha, modernistik talqini sifatida namoyon bo'ladi. U pari qiz timsolini shunchaki mifologik unsurlardan emas, balki har bir insonning ichki "men" i bilan bo'ladigan ruhiy bahsining ramziy ifodasi sifatida gavdalanitiradi. Bu obraz orqali yozuvchi hayotning o'tkinchiligi, vaqtning shafqatsizligi va insonning o'z orzulari bilan yuzmayuz kelishi jarayonini chuqur falsafiy ruhda talqin etadi. Natijada Parizod timsoli nafaqat individual obraz, balki umumlashma xarakter kasb etib, har bir o'quvchining qalbida aks-sado beruvchi ma'naviy va estetik idealga aylanadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari yuzasidan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Isajon Sulton hikoyalaridagi ramziy obrazlarni alohida ilmiy yo'nalish sifatida kompleks tadqiq etish.

2. Parizod obrazini mumtoz va jahon adabiyotidagi o'xshash timsollar bilan qiyosiy o'rganish.

Parizod timsolini mumtoz adabiyotdagi an'anaviy talqinlar bilan qiyosiy o'rganish o'zbek hikoyachiligidagi obrazlar evolyutsiyasini aniqlashda samarali natijalar beradi. Tavsiya sifatida: Isajon Sulton ijodidagi boshqa ramziy obrazlarni qamrab oluvchi monografik tadqiqot yaratish va modernistik poetikasini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Is'hoqov, Y. (2007). *Alisher Navoiy boqiyiligi*. Fan matbuoti.
2. Sulton, I. (2005). *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent: G'afur G'ulom.
3. Jo'rayev, M. (1995). *O'zbek mifologiyasi va folklori*. – Toshkent.
4. Komilov, N. (2009). *Tasavvuf*. O'zbekiston.
5. Sulton, I. (2017). *Asarlar. 1-jild: Hikoyalar*. – Toshkent: G'afur G'ulom.

Nafosat ZIYATOVA,
Navoiy davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti
ziyatovanafosat@gmail.com

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARIDA QO'LLANGAN MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida qo'llanilgan maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Asarda uchraydigan maqollar xalqning milliy tafakkuri, qadriyatlar, urf-odatlar, axloqiy qarashlarini ifodalovchi muhim til birliklari sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida maqollarning semantik, pragmatik hamda madaniy-ma'rifiy jihatlari yoritilib, ularning badiiy matndagi vazifalari aniqlangan. Shuningdek, maqollar vositasida o'zbek xalqining oilaviy munosabatlari, tarbiyaviy qarashlari, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va insoniy fazilatlar haqidagi qarashlari yoritib berildi.

Kalit so'zlar: maqollar, lingvomadaniyatshunoslik, urf-odat, konsept, milliy qadriyat, inson shaxsiyati, badiiy matn, xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlar

Аннотация: в данной статье исследуются лингвокультурологические особенности пословиц, использованных в произведении Уткира Хашимова «Дела земные». Пословицы, встречающиеся в произведении, анализируются как важные языковые единицы, выражающие национальное мышление, ценности, обычаи и нравственные взгляды народа. В ходе исследования освещаются семантические, прагматические, а также культурно-просветительские аспекты пословиц, определяется их функция в художественном тексте. Кроме того, посредством пословиц раскрываются представления узбекского народа о семейных отношениях, воспитании, трудолюбии, милосердии и человеческих добродетелях.

Ключевые слова: пословица, лингвокультурология, традиция, концепт, национальные ценности, личность человека, художественный текст, историческая память народа, культурные ценности.

Annotation: this article examines the linguoculturological features of the proverbs used in Utkir Hoshimov's work *Dunyoning ishlari* (The Affairs of the World). The proverbs found in the work are analyzed as important linguistic units that express the national mentality, values, customs, traditions, and moral views of the people. The study highlights the semantic, pragmatic, cultural, and educational aspects of the proverbs and identifies their functions in the literary text. In addition, through the use of proverbs, the article reveals the Uzbek people's views on family relations, upbringing, diligence, kindness, compassion, and human virtues.

Key words: proverb, linguoculturology, tradition, concept, national values, human personality, literary text, historical memory of the people, cultural values.

Til – madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi.

Til – kishilar oqimini xalqqa aylantiradigan, mazkur nutq jamoasining o'zini o'zi anglashi, madaniyati, an'alarini saqlashi va ularni meros qilishi orqali millatni shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vositadir.[1]

O'tkir Hoshimov asarlarida o'zbek xalqiga xos urf-odatlar, marosimlar, xalq hayotiga oid maqol, matal, frazeologik birliklardan juda ko'p o'rinlarda foydalangan. Ijodkor o'zining asarlari bilan o'zbek xalqining, faqat til birliklaridan foydalanib qolmasdan, balki ushbu birliklar negizida millatimizga xos bo'lgan milliylikni ham yorqin bo'yoqlarda ochib bergan.

"Dunyoning ishlari" asarida qo'llanilgan maqollarni tahlilga tortamiz:

"Ataladan suyak chiqibdi, degandek, ayni saratonda shamollab yurganimni qarang..."[2] "Oy quyoshdan nur oladi" deb nomlangan ushbu hikoyada qo'llangan maqolning mazmuniga e'tibor qaratsak, "Odatda, atalaga go'sht solinmaydi. Go'sht solinmagach, undan suyak ham chiqmaydi. Bu maqolni majoziy ma'noda ziqna, xasis odam ittifoqo bir saxovat ko'rsatsa, yoxud hech narsa bilmaydigan odamdan

biror ma'nili so'z chiqib qolsa: Yopiray, ataladan suyak chiqibdi-ya!", deb taajjublanadilar".[3] Bundan kelib chiqadiki, yuzaga kelishi mushkul bo'lgan yoki umuman mumkin bo'lmagan vaziyat, voqea-hodisalarga nisbatan ushbu maqol qo'llanadi. Muallif ham aynan shu ma'noli ifodalash uchun qo'llagan.

"Toy" hikoyasida: "... – Toy-ku! Qanaqasiga ukam bo'lsin? – dedim iljayib.

-Shunaqasiga! Nega qiynaysan bola bechorani? **Yog'ochning bo'shini qurt yemay o'lsin.**" [2]

"Mazmuni: "Bo'sh-bayov, o'ta muloyim, og'zi bo'sh, kim nima desa, o'shaning gapiga kiraveradigan bo'lsang, odamlar sening 'burningdan ip o'tkazib', o'z yo'llariga boshlab yuradilar, o'z manfaatlari yo'lida sendan osongina foydalanadilar, ayyor, tekinox'r odamlar bor-yo'g'ingni muttasil yeydilar", deyilmoqchi.

Variantlari: "Yog'ochning yumshog'ini qurt yeydi, odamning yumshog'ini bit yeydi"; "Kana sigirning tuyog'iga tushmaydi, qulog'iga tushadi" ("Kana sigirning tuyog'iga, ya'ni qattiq joyiga emas, balki qulog'iga, ya'ni yumshoq joyiga yopishib, qonini so'radi", deyilmoqchi); "Yuvosh tuya — yulishga yaxshi" (Qo'y-echkilarning junini qirib oladilar, tuyaning junini esa qo'l bilan yulib oladilar); "Yuvosh otning manglayi qattiq" ("Yuvosh otni har kim minib ketaveradi.

Manglayi qattiqqligining, ya'ni hamma vaqt holdan toyib yuraverishining boisi ham uning yuvoshligidan", deyilmoqchi); "Yuvosh ganani podachi minadi, yuvosh odamni har kim so'zga iladi"; "O'zing qo'y bo'lganingdan keyin, cho'pon haydagan tarafga yuraverasan"; "Qo'y bo'lmasang, bo'ri seni yemaydi". "Ha, ha, — dedi Olaxo'ja ko'zlarini piriqirib, — ular seni do'pposlasa, bo'yningni egib qarab turasanmi? Bo'sh kelmaslik kerak. Daraxtning bo'shini qurt yeydi".[3]

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, hamisha ham halim, yumshoq tabiatli insonlar jamiyatda o'zlariga munosib hurmat-e'tiborni topa olishmaydi.

"Po'stdumbali moshkichiri" hikoyasida "... — Xo'p deng, jon uka. **Och qornim, tinch qulog'im.** Shu ishni tinchitib yuboring. Man so'zimning ustidan chiqadigan odamman. Aytdim-ku, har kuni ikki martadan soqolingizni olib qo'yaman. Uyingizga borib olaman..." [2]

"Oz tomog'im, tinch qulog'im"; "oz oshim, g'avg'osiz boshim"; "Yovg'on oshim, beg'alva boshim" (yovg'on — go'shtsiz, yog'siz tayyorlangan suyuq ovqat); "Yovg'on oshim, oltin boshim"; "G'amsiz oshim, da'vosiz boshim"; "Yarimta nonim -oromi jonim"; "Yarimta non — rohati jon, butun non — baloyi jon"; "Kambag'alning ayroni — o'ziga totli"; "Qaynoq suv ich, Qulog'ing tinch"; "Och yursang ham, tinch yur"... Bu maqollar bilan: hayotingda har qancha yetishmovchilik sezganing, qiynalanganing taqdirda ham birovdan so'rayverma, tilanma. Negaki, birovning narsasi minnatli bo'ladi, o'zingga aytolmasa ham, orqangdan hammaga gapirib, obro'yingni to'kadi. Oz bo'lsa ham, o'z mehnating, peshona tering bilan topilgan halol, beminnat narsangga qanoat qil. "Ozimni ko'paytiraman, oshirib-toshiraman" deb, "besh panjangni og'zingga tiqsang", odamlar o'rtasida sharmandayi-sharmisor bo'lishing, ularning qahr-g'azabiga, la'natiga, ta'namalomatiga qolishing, hatto biror balo-qazoga yo'liqishing turgan gap", degan ma'noda nasihat qiladilar.[4]

"Imon" nomli hikoyasida: " — Endi, oka, biz bir joyning odamimiz, **ot tepkisi otga o'tmaydi...**" ushbu hikmatli so'zlar zarimorida xalqimizning asrlar osha kelayotgan birdamlik, hamjihatlik hislatlari yoritilgan. "Varianti: "Ot tepkisini ot ko'taradi", "Toy tepkisini, toy ko'taradi". Bu maqollarning majoziy ma'nosi: "Tengqurlar, do'stlar bir-birlarining qattiq-qurum gaplarini ko'taradilar (yoxud ko'tarishlari kerak)" [4]

"Po'stdumbali moshkichiri" hikoyasida "Onam **"Notavon ko'ngilga qo'tir jomashov"**, degandek miyig'ida kulib qo'yadi. Ammo indamaydi. "Bir mo'minning" ko'nglini sindirgisi kelmaydi." [2] Qo'llangan ushbu maqolda "O'z hol-qudratidan, imkoniyatidan baland narsalarni, o'ziga

nomunosib narsalarni, har bir narsaning eng yaxshisini, eng zo'rini istaydigan, orzu qiladigan (masalan, "Podshohning qizini olaman" degan xomxayol bilan yuradigan) odamni "notavon ko'ngil" deb mazax qiladilar. Jomashov — kir yuvadigan sopol tog'ora. Ichi g'adir-budir, kir yuvadigan qo'lni va kiyim-kechakni yulib ketadigan shunday tog'orani "qo'tir jomashov" deyidilar. Bozorda qo'tir jomashovni xaridorlar siypab ko'rib, olmay tashlab ketaveradilar. Mazkur maqol bilan: "O'ziga nomunosib narsalarni istovchi, orzu qiluvchi notavon ko'ngilga yaroqsiz, hech kim olmaydigan qo'tir jomashov ham tegmaydi", demoqchi bo'ladilar. Bu maqolni "Mag'zava ko'ngilga- qo'tir jomashov" deb ham qo'llaydilar (mag'zava — kir yuvilgan sovunli suv, ko'chma ma'noda — ezma, yaramas odam)." [4]

— Mahmud bukning uylari qaysi, o'rgilay? — dedi onam semiz xotinga iltijoli termulib.

Semiz xotinning rangi o'chib ketdi.

— Bukur bo'lsa, Xudo qilgan! — dedi harsillab. — Tavba deng!

Shunday dedi-yu, sharaq-shuruq qilib ilgakni ilgancha obkashni ko'tardi. Shartta burilib ketdi. Sirg'alib-sirg'alib borarkan, obkashi bilan qo'shilishib orqaga burildi.

— **Ta'na tagi tayg'oq**, — dedi harsillab. — Betamiz.[2]

Yuqorida keltirilgan maqolning ham ma'nosini chuqur tahlil qilar ekanmiz, ushbu jarayonda uning bir qator variantlariga ham duch kelamiz. "Ta'na yo'li tordir, Tayg'alari bordir". Birovning ustidan va birovning aybiga kulmaslikka, birovni kamsitmaslikka da'vat etuvchi bu maqollarni ko'pincha ayollar qo'llashadi. Masalan, bolalari ulg'ayib qolgan ayol bolasi (yo bolalari) hali go'dak, yo'rtmoqchilikdan chiqmagan ayolga: "Bolangiz buncha yig'laydi-ya?!", "Bolangiz namuncha xarxasha qiladi-ya?!", "E, bolangiz bulg'andi!" singari so'zlar bilan ta'na qilsa, u ayol bunga javoban mazkur maqollarni aytadi. Qushning bolasi tuxumdan yangi ochib chiqqanda ketida bo'qachog'i bo'ladi. To shu bo'qachog'i tushmaguncha, og'ir bo'lib ucholmaydi. Go'dak, yo'rtmachoq (ya'ni, hali o'tirgan, yotgan o'rnini bulg'ab qo'yadigan) bolani "bo'qachog'" ham deb ataydilar. Ta'naga uchragan ayol yuqoridagi maqol bilan: "Bolaning bundayligidan ta'na qilmang. Ta'naning yo'li tayg'onoq bo'ladi, toyib ketasiz (ya'ni, keyin uyalib qolasiz). Bizning bolamiz hali bo'qachog', o'zini eplay olmaydigan vaqti. [4]

Yuqoridagi sanab o'tilgan misollarning barchasida o'zbek xalqiga xos va mos bo'lgan azaliy aqidalar, dunyoqarash, insonlarning ongidan chuqur o'rin egallagan insoniy fazilatlar sanab o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sh.Usmonova. Lingvokulturologiya. Darslik. 2019.7-b.
- 2.O'tkir Hoshimov.Dunyoning ishlari. — T., 2019.
- 3.Sh.Shomaqsudov. Ma'nolar xazinasi. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2001.
- 4.Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. — T., 1990.

Aziza XUDAYBERDIYEVA,
 Sharof Rashidov nomidagi
 SamDU 1-bosqich talabasi

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TGAN KUNLAR” ROMANIDA OBRAZLAR RUHIYATI TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi asosiy obrazlar ruhiyati tahlil qilinadi. Asarda Otabek, Kumush, Zaynab hamda Yusufbek hoji obrazlarining ichki kechinmalari, psixologik ziddiyatlari va ularning ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan yoritiladi. Roman qahramonlarining ruhiy holati orqali muallif tomonidan XIX asr Turkiston ijtimoiy muhiti, oilaviy munosabatlar hamda insoniy qadriyatlarning badiiy talqini ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, “O‘tgan kunlar”, obraz ruhiyati, psixologizm, Otabek, Kumush, Zaynab, badiiy talqin.

Annotation: this article provides a scholarly analysis of the psychological dimensions of the principal characters in Abdulla Qodiriy’s novel “O‘tgan kunlar” (Bygone Days). The study examines the inner experiences, psychological conflicts, and the interrelationship between the characters and their social environment, focusing on the figures of Otabek, Kumush, Zaynab, and Yusufbek Hoji. Through the depiction of the protagonists’ psychological states, the author offers an artistic interpretation of the socio-cultural milieu of nineteenth-century Turkestan, family relations, and fundamental human values.

Key words: Abdulla Qodiriy, “O‘tgan kunlar” (Bygone Days), character psychology, psychologism, Otabek, Kumush, Zaynab, artistic interpretation.

Аннотация: в данной статье анализируется психология основных персонажей романа Абдуллы Кадыри «O‘tgan kunlar» («Минувшие дни»). С научной точки зрения рассматриваются внутренние переживания, психологические конфликты и связь с социальной средой образов Атабека, Кумуш, Зайнаб и Юсуфбека хаджи. Через раскрытие душевного состояния героев романа автором показаны социальная среда Туркестана XIX века, семейные отношения, а также художественная интерпретация общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, «O‘tgan kunlar» («Минувшие дни»), психология персонажей, психологизм, Атабек, Кумуш, Зайнаб, художественная интерпретация.

O‘zbek romanchiligi tarixida Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur roman nafaqat milliy romanchilikning ilk yirik namunasi, balki inson ruhiyati va xarakterini chuqur badiiy tadqiq etgan asar sifatida ham qadrlanadi. Adib voqealarni oddiy tasvirlash bilan kifoyalanmay, qahramonlarning ichki dunyosiga kirib boradi, ularning ruhiy kechinmalarini nozik psixologik tasvirlar vositasida ochib beradi. Shu jihatdan “O‘tgan kunlar” romanida obraz ruhiyati masalasi alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Romandagi eng ta’sirchan va o‘quvchini ruhiy jihatdan larzaga soluvchi voqealardan biri Otabek va Kumush muhabbati bilan bog‘liq sahnalardir. Ularning bir-birini ilk bor ko‘rishdayoq qalban sevib qolishi o‘quvchini ham ushbu tuyg‘ular olamiga yetaklaydi. Kumushning taqdiridan xavotirlangan kitobxon uning iztiroblariga hamdard bo‘lsa, Otabekning sevgidan alanganayotgan qalbi bilan hamohang bo‘ladi. Ayniqsa, to‘y oqshomida Kumushning kuyov aynan Otabek ekanligini bilib, hayrat va quvonch bilan “Siz o‘shami?” deya murojaat qilishi asarning eng hissiyotlarga boy nuqtalaridan biri sanaladi. Mazkur dialog o‘zbek adabiyotida samimiy va pok muhabbatning yorqin badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Qodiriy obrazlarning tashqi qiyofasidan ko‘ra ichki olamini yoritishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Asardagi qahramonlar ruhiyati orqali muhabbat, rashk, vijdon, sadoqat, oilaviy qadriyat va ijtimoiy muhit ta’siri kabi masalalar badiiy ifoda etiladi. Romanning markaziy qahramoni Otabek murakkab ruhiy olamga ega obraz sifatida gavdalanadi. U zamonasining

ilg‘or fikrli, adolatparvar va yangicha qarashlarga moyil kishisi hisoblanadi. Otabekning ruhiy dunyosi, avvalo, uning ichki ziddiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, u otanasining an’anaviy qarashlariga hurmat bilan qaraydi, ikkinchi tomondan esa jamiyatdagi eskicha urf-odatlarini tanqid qiladi [1, 87-b.].

Otabekning Kumushga bo‘lgan muhabbati uning ruhiy olamidagi eng muhim jihatlardan biridir. U muhabbatni insoniy qadriyat sifatida angelaydi va samimiy his-tuyg‘ularini qadrlaydi. Biroq Zaynab bilan bog‘liq oilaviy mojaro Otabek ruhiyatida kuchli ichki iztiroblarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ikki xotinlilik tufayli yuzaga kelgan ruhiy bosim qahramonning iztirobini yanada chuqurlashtiradi [3, 65-b.]. Adib Otabekning ichki kechinmalarini dialoglar va psixologik tasvirlar orqali tabiiy ifodalagan.

Otabek obrazida muhabbat bilan mas’uliyat, shaxsiy istak bilan ijtimoiy majburiyat o‘rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli u roman davomida ruhiy jihatdan o‘sib boruvchi qahramon sifatida tasvirlanadi.

Romanda Yusufbek hoji obrazi vazminligi, bosiqqligi va ortiqcha so‘zdan qochishi bilan ajralib turadi. Muallif uning har qanday masalada shoshilinch hukm chiqarmasdan, avvalo suhbatdoshini diqqat bilan tinglashini ko‘rsatadi. Qahramonning “xo‘p”, “xo‘sh”, “durust emas” kabi qisqa javoblari uning xarakteridagi qat’iyat va mulohazakorlikni ifodalaydi. Bu jihatlar Yusufbek hojini asardagi eng dono va hayotiy obrazlardan biriga aylantiradi. Adib ushbu obraz orqali ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surar ekan, jaholatning jamiyat taraqqiyoti hamda insonlar hayotiga

yetkazadigan zararlarini ham badiiy jihatdan yoritadi. Otabekning Marg'ilonga uzoq bormay turishi mumkin emas edi. Oradan ikki hafta o'tar-o'tmas uni-buni bahona qilib otasidan ruxsat olib, O'zbek oyimga bildirmay Marg'ilonga jo'nab ketar edi. O'zbek oyim "o'lganning ustiga chiqib tepish" qabilida bor g'azabini eriga to'kar edi. "Siz qarib esingizni yeb qolibsiz, o'g'lingizni marg'ilonliqqa topshirib qo'yib, yana el ichida boshingizni ko'tarib yurmakchi bo'lasizmi?..." der edi. Yusufbek hoji bu gaplarni og'ir vazminlik bilan yenga olardi.

Kumush obrazi romandagi eng nozik ruhiy tasvirlardan biri hisoblanadi. U samimiyat, sabr-toqat va sadoqat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Kumushning ruhiyati uning Otabekka bo'lgan cheksiz muhabbati orqali ochiladi. U oilaviy kelishmovchiliklarga qaramay, o'z muhabbatiga sodiq qoladi.

Roman voqealari tahlili Kumush obrazining faol va tashabbuskor xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, "Hukmnom" bobida uning otasi va Otabekning taqdiriga befarq bo'lmay, ularni og'ir jazodan qutqarish uchun harakat qilishi qahramonning jasorati va oqilaligidan dalolat beradi. Mazkur epizod Kumushning faqatgina go'zal va vafodor ayol emas, balki murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan kuchli shaxs ekanligini ham ochib beradi.

– Aslyat: "... Siz ham o'qub ko'ring-chi, ponsad, – dedi va Kumushdan so'radi, – o'qug'anmisiz?"

– O'qug'anman.

– Eringizni hukumatga qarshi harakatini ilgari ham bilar edingizmi?

– Qanaqa harakatini?

– Masalan, biz otangiz bilan eringizni nima uchun osmoqchi bo'ldiq?

– Haqsiz, gunohsiz!

– Bu maktub bilan eringizni o'limdan qutila olishini sizga kim aytdi?

– O'zim bildim..." (1, 105-b).

Kumushning O'taboy qushbegi oldida dovdiramadan dadil javob qaytarishidan uning bilimli, aqlli, zehqli ekanligi bilinib turibdi. Qushbegining chalg'ituvchi savollariga ham bexato javob qaytarishi Kumushni kitobxon ko'z o'ngida nihoyatda aql-zakovatda tengi yo'qligini ko'rsatib beradi.

Kumush ruhiyatidagi eng muhim xususiyat — uning ichki matonatidir. Zaynab bilan bo'lgan murakkab munosabatlarda ham Kumush sabrli va vazmin bo'lib qoladi. Uning ruhiy iztiroblari

ochiq keskinlik bilan emas, balki ichki sukut va sabr orqali ifodalanadi. Bu esa obrazning yanada ta'sirchan chiqishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, Kumushning fojeali taqdiri o'quvchida kuchli emotsional ta'sir uyg'otadi. Uning zaxarlanishi bilan bog'liq voqealar nafaqat syujetning kulminatsiyasi, balki insoniy hasad va ruhiy fojining cho'qqisi sifatida ham talqin qilinadi. Kumush obrazi orqali muallif ayolning ma'naviy pokligi va ruhiy go'zalligini ulug'laydi [2, 59-b.].

Roman qahramonlari orasida eng murakkab ruhiy obrazlardan biri Zaynabdir. Ko'pincha unga salbiy qahramon sifatida baho berilsa-da, uning ruhiyatiga chuqurroq nazar tashlanganda murakkab psixologik holat kuzatiladi. Zaynabning rashki, iztirobi va ichki alaming ildizi muhabbat va e'tiborga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq.

Otabekning Kumushga bo'lgan mehrini ko'rgan Zaynab asta-sekin ruhiy inqirozga yuz tutadi. Rashk hissi uning tafakkurini egallab, salbiy qarorlar qabul qilishiga sabab bo'ladi. Biroq bu holat faqat shaxsiy kamchilik emas, balki o'sha davr oilaviy muhitining mahsuli sifatida ham qaralishi lozim.

Adib Zaynab obrazini bir yoqlama yomonlashdan qochadi [3, 88-b.]. Uning ichki kechinmalarini ochish orqali inson ruhiyatidagi murakkab holatlarni ko'rsatadi. Shu jihatdan Zaynab fojiali obraz sifatida talqin qilinadi.

Yusufbek hoji romandagi dono, mulohazali va ruhiy jihatdan barqaror obrazlardan biridir. U hayotiy tajribaga ega inson sifatida oilaviy mojarolarga oqilona yondashadi. Yusufbek hojining ruhiyati vazminlik, adolat va insonparvarlik bilan karakterlanadi.

Mazkur obraz orqali muallif ota siymosining ma'naviy mas'uliyatini yoritadi. Yusufbek hoji o'g'lining baxtini istaydi, biroq ayrim vaziyatlarda zamon va urf-odatlar ta'siridan to'liq chiqib keta olmaydi. Bu esa obrazning hayotiyilgini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani obrazlar ruhiyatini chuqur ochib bergan badiiy asar hisoblanadi. Otabekning ichki ziddiyatlari, Kumushning sadoqati va sabri, Zaynabning ruhiy iztirobi hamda Yusufbek hojining vazminligi orqali inson xarakterining turli qirralari yoritilgan. Adib qahramonlar ruhiyati vositasida nafaqat oilaviy munosabatlarni, balki jamiyatdagi ma'naviy va ijtimoiy muammolarni ham badiiy talqin qilgan. Shu sababli "O'tgan kunlar" romani bugungi kunda ham psixologik jihatdan dolzarbligini saqlab qolayotgan nodir asarlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. O'tgan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
2. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriy mahorati. – Toshkent: Fan, 1964.
4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
5. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. –T.: Adabiyot va san'at, 1986
6. Abdurahmonova M. Abdulla Qodiriyning psixologik tasvirlash mahorati. –T.: Fan, 1977.
7. Maxmidjonov, S. (2023). O'zbek adabiyotida ziyoli obrazining genezisi. Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar, 2(6), 1231-1235.
8. Maxmidjonov, S. (2023). O'zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz masalasining qiyosiy talqini. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 520-524.

O'g'iloy QUYSINOVA,
 CHDPU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi



ABDULLA QAHHOR IJODIDA REALIZM, FOLKLOR AN'ANALARI VA XALQ TILINING BADIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qahhorning hayoti va ijodiy faoliyati yoritiladi. Adibning o'zbek nasrida realizm an'alarini rivojlantirishdagi o'rni, hikoyachilik mahorati hamda xalq hayotini badiiy aks ettirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Abdulla Qahhor ijodida xalq og'zaki ijodi an'alarining namoyon bo'lishi, maqol, matal, hikmatli so'z va xalqona iboralardan foydalanish mahorati ilmiy jihatdan baholanadi. Yozuvchining obraz yaratish uslubi, qahramonlar ruhiyatini ochishdagi badiiy mahorati, xalq tilining estetik imkoniyatlaridan unumli foydalanishi hamda insonparvarlik g'oyalarini ifodalashdagi o'ziga xos uslubi misollar asosida tahlil etiladi. Maqolada Abdulla Qahhor ijodining o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni va milliy badiiy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Abdulla Qahhor, o'zbek nasri, realizm, hikoyachilik, folklor, xalq og'zaki ijodi, maqol va matallar, xalq tili, badiiy mahorat, obraz, psixologizm, insonparvarlik, milliy adabiyot.*

Annotation: this article examines the life and creative work of Abdulla Qahhor, a prominent figure in 20th-century Uzbek literature. It analyzes the writer's role in advancing the traditions of realism in Uzbek prose, his mastery of storytelling, and his methods for artistically portraying the lives of the people. Furthermore, the article provides a scholarly assessment of how oral folk traditions manifest in Qahhor's work, specifically highlighting his skillful use of proverbs, sayings, aphorisms, and folk idioms. Through specific examples, the study explores his techniques for characterization and revealing the inner lives of his characters, his effective use of the aesthetic potential of the vernacular, and his distinctive style in expressing humanist ideals. Finally, the article highlights the significance of Abdulla Qahhor's work in the evolution of Uzbek literature and his contribution to the development of national artistic thought.

Keywords: *Abdulla Qahhor, Uzbek prose, realism, storytelling, folklore, oral folk tradition, proverbs and sayings, vernacular, artistic mastery, character, psychologism, humanism, national literature.*

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, u milliy nasr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan adib sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodi o'zbek adabiyotida realizm an'alarini mustahkamlash, badiiy tafakkurni yangi bosqichga olib chiqish bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Qahhor asarlarida xalq hayotining real manzaralari, jamiyatdagi muammolar, oddiy insonning taqdiri va ruhiy kechinmalari chuqur va haqqoniy tarzda tasvirlangan bo'lib, bu jihatlar uni o'z davrining eng yetuk yozuvchilaridan biri sifatida namoyon etadi.

Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo'qon shahrida Ko'mir bozori mahallasida tug'ilgan. Uning otasi Abduqahhor temirchi usta bo'lgan. Yosh Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursux, Qudash, Buvayda, Toliq, Yulg'unzor, Olqor, Oqqo'rg'on kabi Qo'qon atrofidagi qishloqlarda kechdi. Og'ir hayot, davr qiyinchiliklarini boshidan kechirgan adib oilasi sargardon bo'lib, qishloqma-qishloq ko'chib yurgan. Lekin bu kunlar uning hayotida, taqdirida beiz qolmadi. Hayotning achchiq haqiqatini bezamay, bo'yamay yozish, kambag'al, bechora kishilarning dardi va taqdiriga cheksiz hamdardlik bo'lajak yozuvchi idrokiga shu bolalik yillari urug' tashlagan bo'lsa ajabmas. Bolalikda boshdan kechirgan voqealar ko'p yillardan keyin "O'tmishdan ertaklar" qissasida yuksak mahorat bilan aks ettirildi. Abdulla o'n yoshga kirganda Buvaydadagi eski maktabga o'qishga kiradi. Lekin ko'p o'tmay, oila

Oqqo'rg'onga ko'chadi. Oqqo'rg'on maktabida Abdulla qo'qonlik Muhammadjon qorining qo'liga tushadi. Muhammadjon qori ilg'or fikrli odam edi. Uning maktabida bolalar ko'plab zamonaviy fanlarni o'qiganlar. Ayniqsa, shogirdlarida Sharq adabiyotiga qiziqish kuchli bo'lgan. Shu sababli yozuvchi umrining oxirigacha Sa'diy va Umar Xayyom, Hofiz va Bedil, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini ko'p o'qidi, yod oldi, fikrini dalillashda ulardan unumli foydalandi. [3:198]

Abdulla Qahhor 1919–1924-yillarda boshlang'ich maktabda, so'ng Qo'qon pedagogika texnikumida ta'lim oladi. Dastlabki mashqlari texnikumda chiqadigan "Bilim yurti" devoriy gazetasida e'lon qilinadi. 1923-yilda "Mushtum" jurnalida yozuvchining birinchi felyetoni bosiladi. 1926–1929-yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetining ishchilar fakultetida o'qiydi. 1930-yilda SAGU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) ning pedagogika fakultetiga kiradi. So'ng O'zRFA Til va adabiyot institutining aspiranturasida ikki yil tahsil ko'radi. Abdulla Qahhor 1926–1927-yillardan gazeta va jumallar ("Qizil O'zbekiston", "Yangi Farg'ona", "Mushtum") da faol qatnashib boradi. "Mushtum" jurnalida "Gulyor", "Yalangoyoq", "Norin shilpiq", "Mavlon", "Kufuriy nish" taxalluslarida ijod qilgan. Abdulla Qahhorning dunyo yuzini ko'rgan birinchi kitobi 1932-yilda bosilib chiqqan "Qishloq hukm ostida" nomli kitobidir. O'sha vaqtda bu kitob adabiy hayotda sezilarli voqea bo'lgandi, tanqidchilik mazkur asarni iliq kutib oldi.

Adabiyotimizda xalq og'zaki badiiy tafakkurining g'oyaviy-estetik an'analaridan foydalanish keng rusum darajasiga ko'tarilgan. Xalq ijodini o'rganish ijodkorning dunyoqarashi, shaxsiyati va ijodiy prinsiplari bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun ham har bir so'z san'atkori folklordan o'ziga xos ravishda foydalanadi. Birida uning ta'sir kuchi samaraliroq, birida ozroq, birida keng ko'lamda, birida esa muayyan bir yo'nalishda. Masalan, G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjonlar ijodida Uyg'un, Maqsud Shayxzodalarga nisbatan folklor ta'siri kuchliroq. Atoqli adibimiz Abdulla Qahhor ham o'zbek xalqining sodiq-u solih farzandi sifatida ajdodlarining ma'naviy va madaniy merosini, millatining urf-odatlarini chuqur anglab, o'z ijodida xalq badiiy tafakkurining yutuqlarini keng qo'llab, an'anaviy folklor janrlarining hayotbaxsh ta'siridan unumli foydalandi. Abdulla Qahhor ijodida folklorga xos syujet, motiv hamda obrazlar deyarli uchramasa-da, biroq xalq ijodiga xos xalqchilik va demokratizmning ko'lamini keng. Folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori S.Mirzayeva to'g'ri qayd etganidek: "A.Qahhorning "Raqib", "Olam yasharadi", "Gumroh", "Afrotun muhabbati" kabi ilk hikoyalardan boshlab, 30-yillarda yozilgan va kitobxonlar orasida katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan barcha asarlarida folklorona ruh yorqin sezilib turadi. Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlab o'tish zarurki, ana shu hikoyalarda folklorga xos syujet va motivlardan adib foydalanmagan. Ammo o'tmishning mudhish lavhalari xalqning mashaqqatli hayotini jonli tasvirlarda aks ettirish uchun u folklorga xos shartli tasvir usullaridan, xalq ertaklariga xos vaziyatlardan o'rinli foydalanishga harakat qilgan". Darhaqiqat, hunarmand otasi bilan qishloqma-qishloq ko'chib yurib, voyaga yetgan Abdulla Qahhor xalq tili jozibasining barcha serqirra fazilatlarini chuqur o'rganib, xalq tili boyligidan foydalanishning klassik namunasini ko'rsatdi. Abdulla Qahhor uslubidagi ijobiy qahramonni ideallashtirib, salbiy qahramonni o'ta xunuk qilib tasvirlash prinsipi ham xalq ijodiyoti hayotbaxsh an'alarining samarali ta'siri bilan bog'liq.

Atoqli adibning jonli xalq tilida xarakterli bo'lgan tasvirlash vositalarini, ya'ni maqol, hikmatli so'zlarni tanlab olib ishlatish sohasidagi mahorati alohida diqqatga sazovordir. U tomonidan qo'llangan har bir hikmatli so'z, maqol hamda matal asarning chuqur mazmunidan kelib chiqadi. Bu xususiyat, ayniqsa, personajlarning xarakteri, qaysi ijtimoiy qatlamga taalluqli ekanini nazarga olib, yozuvchi ularga mos keladigan maqol va iboralarini ishlatishida ko'zga tashlanadi. Masalan, yozuvchi chor amaldorlari, mahalliy mulkdorlarning ochko'zligi, poraxo'rligini ochish uchun "O'g'ri" hikoyasida, "Quruq qoshiq og'iz yirtadi" maqolidan o'rinli foydalanib, asarda ifodalangan voqeaning mag'ziga ustalik bilan singdirib yuboradi. "Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi,

aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz". Yozuvchining hikoyalarida ishlatilgan maqollar, iboralar, o'xshatishlar, kinoya va majozlar voqealar yo'nalishiga mos ravishda istifoda etiladi. "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi", "O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan" ("O'g'ri"), "Go'sht suyaksiz bo'lmaydi" ("Munofiq"), "Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilar" ("Oshiq"), "Boshim kal bo'lsa ham, ko'nglim nozik" ("Qanotsiz chittak") kabi ko'plab maqol va matallar o'z o'rnida, g'oyaviy-estetik talab va maqsadga muvofiq ishlatiladi. Yozuvchi asar syujeti va shaxslarning xarakteridan kelib chiqib epigraflardan mahorat bilan foydalanish namunasini ko'rsatib, ularni ustalik bilan qo'llaydi. U qo'llagan barcha epigraflari, deyarli maqollardan iborat. Adibning bu sohadagi mahorati hikoyalarga yanada aniqlik va tiniqlik kiritib, ular yordamida asar g'oyasi kitobxonga tez va ta'sirchan yetib boradi. "Ola qarg'a g'aq etadi, o'z vaqtini chog' etadi" ("Bashorat"), "Osmon yiroq, yer qattiq" ("Bemor"), "Otning o'limi itning bayrami" ("O'g'ri") kabi epigraflar asar mazmuni bilan uzviy bog'lanib ketadi, asar g'oyasiga batamom mos tushadi. "Otning o'limi – itning bayrami" epigrafida yozuvchi Qobil boboning amaldor, mulkdorlar tomonidan talanishini, xarob bo'lishini otning o'limiga, amaldorlarning talashlari, shu yo'l bilan boyishlarini itning bayramiga o'xshatib, muhim sotsial xulosalar chiqaradi, chuqur umumlasmalar qiladi. Bu hol Abdulla Qahhorning maqollarni juda o'rinli ishlatishda o'ziga xos mahoratga ega ekanligini tasdiqlaydi. Yozuvchi xalq maqollarini o'z asarlarida qo'llash bilan kifoyalanib qolmay, ularga novatorona munosabatda bo'lib, ular asosida yangi aforizmlar ham qo'llaydi. Mazkur aforizmlar, aksariyat hollarda maqollarning davomi va rivoji sifatida maydonga keladi. Natijada maqollar bilan yozuvchi tomonidan qo'llangan iboralar bir-birlarini to'ldirib, bir butunlikni tashkil qiladi. Masalan, "O'roqda yo'q, mashaqda yo'q – xirmonda hozir bo'lganlar boshlarini aylantirganlar" ("Ko'r ko'zning ochilishi"). Bu jumlaning avvalgi qismi xalq maqoli bo'lib, davomi esa maqol asosida tuzilgan yozuvchi iborasi edi. Abdulla Qahhor ijodida bunday misollar ko'p uchraydi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida har bir obrazlarning detallari, uning ruhiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Yuqoridagi hikoyalarni mutolaa qilish jarayoni hamisha o'quvchini mahzun qilib qo'yadi. Chunki ularda insoniy munosabatlarning murakkabligi gavdalanitiriladi. Ammo yozuvchi manman kimsalarga qahr-g'azabini ham, kambag'al bechoralarga achinish tuyg'usini ham oshkora izhor qilmaydi. Insondagi kechayotgan ruhiy kechinmalarini goho mavhum, goho oshkora tasvirlaydi. Abdulla Qahhor ulug' ijodkorlar ilgari surgan insonparvarlik g'oyalariga mos betakror asarlar yaratdi va o'zbek adabiyotida o'zining mohir hikoyanavisligini to'laligicha namoyon eta bildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. Xalq so'zi, 8-dekabr 2016.
- 2.Abdulla Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2012.
- 3.Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1998.
- 4.Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
- 5.<https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/57038>

Gulasal JUMANOVA,

ORCID: 0009-0003-1142-8600

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti

jumanovagulasal2@gmail.com

“MIRKOMILBOYNING QAZO BO'LGAN NAMOZI” HIKOYASIDA MILLIY FOJIA VA SHAXS TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti, jadidchilik harakati hamda milliy taraqqiyparvar mulkdorlar vakillarining fojiali taqdiri Xurshid Do'stmuhammadning “Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi” hikoyasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi Mirkomilboy obrazi orqali mardlik va sotqinlik, vatanparvarlik va manqurtlik kabi qarama-qarshi tushunchalarning badiiy talqinini ochib berish, shuningdek, jadidchilik davri milliy fojiasining mazmun-mohiyatini yoritishdan iborat. Tadqiqot natijasida asarda aks etgan milliy fojia alohida shaxs taqdiri bilan cheklanmay, balki butun Turkiston jamiyatining tarixiy qismati va ma'naviy tanazzuli bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *jadidchilik, milliy fojia, manqurtlik, badiiy psixologizm, simbolizm, shaxs talqini, mustamlakachilik siyosati*

Annotation: this article scientifically analyzes the socio-political life of Turkestan in the early 20th century, the Jadid movement, and the tragic fate of the national progressive landowners, as exemplified in Khurshid Dostmuhammad's story “Mirkomilboy's Missed Prayer.” The study aims to reveal the artistic interpretation of opposing concepts such as courage and betrayal, patriotism and mankurtism, through the character of Mirkomilboy, and to illuminate the essence of the national tragedy of the Jadid period. The research substantiates that the national tragedy depicted in the work is not confined to the fate of a single individual but is inextricably linked to the historical destiny and spiritual decline of Turkestan society as a whole.

Key words: *jadidism, national tragedy, mankurtism, artistic psychologism, symbolism, interpretation of personality, colonial policy*

Аннотация: в данной статье на примере рассказа Хуршида Дустмухаммада «Пропущенный намаз Миркомилбая» представлен научный анализ общественно-политической жизни Туркестана начала XX века, движения джадидизма и трагической судьбы представителей национальной прогрессивной буржуазии. Целью исследования является раскрытие художественной интерпретации таких противоположных понятий, как мужество и предательство, патриотизм и манкуртизм, через образ Миркомилбая, а также освещение сущности национальной трагедии эпохи джадидизма. В результате исследования обосновывается, что отражённая в произведении национальная трагедия не ограничивается судьбой отдельной личности, а неразрывно связана с исторической судьбой и духовным упадком всего туркестанского общества.

Ключевые слова: *джадидизм, национальная трагедия, манкуртизм, художественный психологизм, символизм, трактовка личности, колониальная политика*

Kirish. XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy vaziyati, jadidchilik harakati va milliy ma'rifatparvar sarmoyadorlar qatlamining taqdiri o'zbek adabiyotshunosligida muhim o'rin tutadi. Mazkur tadqiqot Xurshid Do'stmuhammadning “Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi” hikoyasi misolida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima munosabatini, Mirkomilboy obrazi orqali milliy qahramon konsepsiyasini hamda asardagi ramziy

obrazlar va sotqinlik psixologiyasini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotshunosligida sho'ro davrida “zolim boy” stereotipi bilan talqin etilgan tarixiy shaxslarni yangicha falsafiy va ma'naviy nuqtayi nazardan qayta baholash zarurati yuzaga keldi. Ushbu jarayon milliy o'zlikni anglash va tarixiy adolatni tiklashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqola milliy sarmoyadorlarning jadidchilik

g'oyalarini qo'llab-quvvatlashdagi rolini adabiy tahlil orqali ochib berishi bilan dolzarbdir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – hikoyadagi Mirkomilboy va unga bog'liq obrazlar tizimini tahlil qilish orqali milliy fojining tub ildizlarini, ya'ni tashqi mustamlakachilik zulmi va ichki ma'naviy tanazzul (sotqinlik psixologiyasi)ning fojiali sintezini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Mirkomilboy obrazi ma'naviyat va amaliyot birligi nuqtayi nazaridan (Yoqubxo'ja obrazi bilan hamkorlikda) yangicha talqin etilmoqda. "Qazo bo'lgan namoz" ramzi nafaqat shaxsiy diniy mas'uliyat, balki to'xtab qolgan milliy islohotlar va uyg'onish harakatining metaforasi sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuv oldingi tadqiqotlarda (masalan, hissiy va psixologik manzaralarga bag'ishlangan ishlar) asosan, psixologik jihatlar tahlil qilingan bo'lsa, ularni milliy fojia va shaxs talqini bilan bog'lab ko'rib chiqish jihatidan farqlanadi [3].

Asosiy qism. Xurshid Do'stmuhammadning "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" hikoyasi nafaqat bitta tadbirkorning shaxsiy dramasi, balki butun bir millatning XX asr boshidagi fojiali taqdirini aks ettiruvchi kuchli badiiy asardir. Muallif orqali o'quvchi 1918-yil Turkiston voqealari fonida milliy taraqqiyotga intilgan mulkdorlarning ta'qib qilinishi, ichki xiyonat va ma'naviy tanazzulni kuzatadi.

Hikoyaning markaziy qahramoni Mirkomilboy - real tarixiy shaxs Mirkomil Mirmo'minboyevning badiiy talqini. Muallifning o'zi "Uch hukumat qolipiga sig'magan boy" (1992) publitsistik maqolasida uni chor Rossiyasi, Muvaqqat hukumat va sho'ro davri qolipiga sig'magan kuchli sanoatchi, tadbirkor va vatanparvar sifatida tasvirlaydi [1]. Andijonda birinchi paxta tozalash zavodini qurgan, xorijiy sayohatlar qilgan, xalq ravnaqi uchun kasalxona, madrasa va masjid qurishni rejalashtirgan bu shaxs sho'ro tizimi tomonidan "zolim boy" deb stigmatizatsiya qilingan.

Asarda milliy fojia ikki tomonlama ochiladi: tashqi mustamlakachilik zulmi va ichki sotqinlik, manqurtlik psixologiyasi. Mirkomilboy obrazi orqali muallif vatanparvarlik, mardlik va boylikni xalq manfaati yo'lida sarflash g'oyasini ulug'laydi. Uning ichki monologlari – vijdon azobi, "qazo bo'lgan namoz" ramzi ostida nafaqat shaxsiy gunoh, balki milliy uyg'onish harakatining to'xtab qolganligi, bajarilmagan mas'uliyat metaforasi sifatida talqin

etiladi: *"...Qazo bo'lgan namozim-chi? Bir umr o'qimagan namozim qayoqda qoldi? Endi qanday qilib o'sha namozni qazo qilaman? Yo Alloh, meni kechir..."* Bu parcha shaxsiy diniy mas'uliyatni milliy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirib, qahramonning ruhiy iztirobini chuqur ifodalaydi. Shuningdek, Yoqubxo'jaga nisbatan ichki gumon va ishonchsizlik quyidagi parchada kuchli tasvirlangan: *"Izvosh guzardan o'tib katta ko'chaga burildi hamki, Yoqubxo'jadan sado chiqmadi. Boy ikki-uch daf'a hamrohining avzoyiga zimdan ko'z yugurtirdi.... Haqiqatan, uning Yoqubxo'jadan yashirgan-netgan siri bo'lmagan... ikki ko'zning biri yanglig' yonidan uzoqlashmaydigan Yoqubxo'jadan ham gumondor yursa, uni do'stmi-dushmanmi deya bosh qotirsa... odamning har narsa bo'lgani yaxshi emasmi!..."*

Hikoyada Yoqubxo'ja Mirkomilboyning eng yaqin sirdoshi, shaxsiy qo'riqchisi va ishonchli hamrohi sifatida tasvirlanadi. U boyning har bir ishida yonida bo'lib, ba'zida unga maslahat beradi, hatto "chakki qildingiz" deb o'pkalaydi ham. Yoqubxo'janing sukuti, salobatli qaddi va sodiq xizmati qahramonning yolg'izligini yanada chuqurlashtiradi, ammo u xiyonat qilmaydi. Sotqinlik va tuhmat boshqa atrofidagilar (chaquvchilar, gumashtalar) tomonidan amalga oshiriladi. Muallif shu orqali milliy fojining ichki tomonini – jamiyatdagi xiyonat va manqurtlik psixologiyasini ochib beradi. Hikoyada polkovnik Soshalskiy kabinetida kechuvchi sahnalar Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotining yashirin mexanizmlarini ochib beradi. Unda Sodiq, Qori, Keldi kabi mahalliy chaquvchilar orqali mustamlaka tizimining qanday ishlashi, ba'zi yurtdoshlarning o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida milliy manfaatlarni sotishga tayyorligi ko'rsatiladi. Ular Mirkomilboyning har bir qadamini kuzatib, muntazam ravishda ma'lumot yetkazib turishardi. Polkovnik Soshalskiyning *"Bu sartlarga to'rt tanga bersangiz, otasini ham sotadi!"* degan keskin fikri o'sha davrdagi ma'naviy tanazzulni ifodalovchi achchiq ijtimoiy tashxis sifatida talqin etilishi mumkin.

Mirkomilboy obrazini tahlil etishda uni o'zbek jadid adabiyotidagi boshqa qahramonlar bilan qiyoslash muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xususan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Akbarali mingboshi obrazi bilan solishtirganda ular o'rtasida keskin tafovut kuzatiladi. Akbarali mingboshi mustamlakachilik tizimining tarkibiy qismiga

aylanib, shaxsiy manfaat va mansabparastlik yo'lida xalqdan uzoqlashgan obraz sifatida talqin etilsa, Mirkomilboy aksincha, mazkur tizimga qarshi turgan, milliy sarmoyani ma'rifat va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida safarbar etgan shaxs sifatida gavdalanadi. Shuningdek, Mirkomilboy obrazi ma'lum ma'noda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Yusufbek hoji obrazi bilan ham qiyoslanadi. Har ikki qahramon ham milliy fojiga olib keluvchi asosiy omil tashqi dushman emas, balki ichki ixtilof va sotqinlik ekanini kech anglaydi. Bu jihat ularning fojiaiy taqdirini yanada chuqurlashtiradi. Mirkomilboyning Anvar poshsho bilan muloqotida aytilgan: "*Vatanni qanday olib kelamiz?.. Vatanni ko'chirib bo'lmaydiku!*" degan fikri uning vatanparvarlik tuyg'usining yuksakligini ifodalaydi. Ushbu qarash qahramonning milliy ong darajasi va mas'uliyat hissi Akbarali mingboshi kabi obrazlarga nisbatan ancha yuqori ekanini ko'rsatadi.

Hikoyaning nomi va uning yakuniy sahnasi asarning g'oyaviy markazini tashkil etadi. "Namoz" tushunchasi bu yerda faqat diniy amal emas, balki poklanish, birlik va ilohiy haqiqatga intilishning ramziy ifodasi sifatida talqin etiladi. Mirkomilboyning qatl etilishi sahnasida muallif kutilmagan psixologik burilishdan foydalanadi. Rus soqchisi mahbusning so'nggi iltimosini anglab yetadi va hatto o'zbek askarchasiga nisbatan keskin munosabat bildiradi: "*Odam bolasi emasmisan, mol?! O'zingning saring bo'lsa, musulmon bo'lsalaring...*" Mazkur epizodda muallif ma'naviy qadriyatlarning milliy chegaralar bilan belgilanmasligini ko'rsatadi. Bu kontekstda o'zbek askarchasi obrazi manqurtlik timsoli sifatida talqin etiladi. U nafaqat o'z millatdoshiga qarshi

chiqadi, balki muqaddas e'tiqod – namozni ham mensimay, uni to'xtatishga urinadi. Bu holat milliy fojiaening eng keskin nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi. Milliy fojia alohida shaxs taqdiri bilan cheklanmaydi. U butun Turkiston jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tanazzuli bilan uzviy bog'liq. Muallif shu orqali o'quvchiga "bitta boyning fojiasi – butun millatning fojiasi" degan g'oyani yetkazadi.

Xulosa. Xurshid Do'stmuhammadning "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" hikoyasida milliy fojia va shaxs talqini dialektik yaxlitlikda aks etgan. Mirkomilboy obrazi orqali tashqi mustamlakachilik zulmi hamda ichki ma'naviy tanazzulning fojiali sintezi asoslab berildi. Asardagi milliy fojia shaxsiy qismat doirasidan chiqib, butun Turkiston jamiyatining tarixiy va ma'naviy inqirozi sifatida namoyon bo'ladi. O'rganilgan muammo yuzasidan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Adabiyotshunoslikda sho'ro davri stereotiplarini inkor etuvchi yangicha talqinlarni, xususan, tarixiy shaxslarni milliy taraqqiyparvar qatlam vakillari sifatida baholash tizimini kengaytirish.

2. Badiiy tahlilda "qazo bo'lgan namoz" kabi markaziy ramzlarni nafaqat diniy burch, balki to'xtab qolgan milliy islohotlar metaforasi sifatida talqin qilish uslubini tatbiq etish.

Tadqiqot xulosalari asosida kelgusida quyidagilar tavsiya etiladi: Xurshid Do'stmuhammad ijodidagi milliy fojia ifodasini adibning yirik epi asarlari bilan qiyosiy planda tadqiq etish. Jadid adabiyoti an'alarining zamonaviy nasrdagi transformatsiyasini badiiy psixologizm va simvolizm qatlamlari orqali kengroq matniy korpus asosida o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Do'stmuhammad, X. (1992). Uch hukumat qolipiga sig'magan boy. Mustaqillik matbuoti.
2. Karimov, H. Hozirgi o'zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi. – Toshkent: Fan, 1994
3. Ne'matov, A. Xurshid Do'stmuhammadning "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" asarida hissiy va psixologik manzaralar. IQRO Indexing. 2024. 9(2), 815–817-b.
4. Qosimov, B. O'zbek adabiyoti tarixi (Milliy uyg'onish davri). – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
5. Do'stmuhammad, X. Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi. 8-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi

Zenira SAFAROVA,
Navoiy davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

XOSIYAT BOBOMURODOVA SHE'RIYATIDA METAFORANING QO'LLANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada Xosiyat Bobomurodova she'riyatida metaforaning badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Adibning "Saylanma" she'riy turkumida qo'llangan metaforalarning hosil bo'lish usullari haqida so'z yuritiladi. Tadqiqot jarayonida shoira she'rlarida uchraydigan metaforik birliklar semantik va uslubiy jihatdan o'rganilib, ularning obraz yaratish, poetik fikrni ta'sirchan ifodalash hamda lirik qahramon ruhiy kechinmalarini ochib berishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, metaforalarning milliy-madaniy qarashlar, tabiat tasvirlari va inson ruhiyati bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Muallif poetik mahorati, obraz yaratish usullari hamda ushbu ko'chimning ruhiy kechinmalarni ifodalashdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: *she'riyat, metafora, lirik kechinmalar, semantik jihatlar, badiiy tasvir, ramziy ifoda.*

Annotation: this article analyzes the artistic and aesthetic features of metaphor in the poetry of Xosiyat Bobomurodova. It examines the formation methods, semantic characteristics, and stylistic features of the metaphors used in the poetic collection *Saylanma*. During the research, the metaphorical units found in the poetess's poems are studied in terms of their role in creating imagery, expressing poetic thought effectively, and revealing the emotional experiences of the lyrical hero. In addition, the article analyzes the aspects of metaphors related to national and cultural views, depictions of nature, and the human inner world. The article also highlights the author's poetic skill, methods of image creation, and the significance of metaphor in the artistic expression of emotional experiences.

Key words: *poetry, metaphor, lyrical experiences, semantic characteristics, artistic depiction, symbolic expression.*

Аннотация: в данной статье анализируются художественно-эстетические особенности метафоры в поэзии Хосият Бобомуродовой. Рассматриваются способы образования, семантические и стилистические особенности метафор, использованных в поэтическом цикле «Сайланма». В процессе исследования изучается роль метафорических единиц, встречающихся в стихотворениях поэтессы, в создании образности, выразительной передаче поэтической мысли, а также в раскрытии душевных переживаний лирического героя. Кроме того, анализируются аспекты метафор, связанные с национально-культурными взглядами, изображением природы и внутренним миром человека. В статье раскрываются поэтическое мастерство автора, способы создания образов, а также значение метафоры в художественном выражении душевных переживаний.

Ключевые слова: *поэзия, метафора, лирические переживания, семантические характеристики, художественное изображение, символическое выражение.*

Kirish. Badiiy adabiyotda tilning obrazlilik xususiyatlari muhim. Ayniqsa, she'riyatda tasviriy vositalar orqali inson ruhiyati, ichki kechinmalari va hayotiy voqelik ta'sirchan ifodalanadi. Shu jihatdan metafora eng faol qo'llaniladigan badiiy vositalardan biridir. Har qanday asarni metaforik ma'nosiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham D.Xudoyberganova metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o'xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini ta'kidlaydi.

Nutq jarayonida, xususan, badiiy nutqda so'zlar o'z ma'nosida ham, ko'chma ma'noda ham qo'llanilishi semantik sathdagi og'ish sanaladi. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning umumiy nomi ko'chim deb yuritiladi. Adabiyotshunosligimizda bunga sinonim sifatida yana trop (yun.ko'chim)termini ham ancha faol qo'llanadi. [2]

Iste'dodli shoira Xosiyat Bobomurodova she'rlarida metaforadan o'rinli foydalangan. Shoira ijodida

o'xshatishlar orqali inson ko'nglidagi nozik kechinmalar yorqinroq ifodalangan.

Ne uchun parishon, za'faron kuzga

Maysalar umrini qiladir tortiq?

Ne uchun surating chizilib kuzga,

Men seni sevaman jonimdan ortiq.

Muallif ijodi metaforalarga boy. Badiiy nutqda hosil qilingan bunday ko'chimlar poetik matnning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Mazkur parchada za'faron so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. Za'far – bosh ma'noda sariq gulli o'simlik; 3.za'faron – sap-sariq, somonrang. Yuzga nisbatan za'faron so'zi qo'llanilishi avvaldan bor edi, faslga nisbatan ishlatilishi shoiraning so'z tanlash mahoratidan dalolatdir. Bu o'rinda poetik ta'sirchan ifoda yuzaga kelgan. Shaxsga xos bo'lgan harakat narsaga ko'chishini maysalar oz umrini kuzga tortiq qilishi jumlasiga orqali anglashiladi. Ma'lumki, tortiq qilmoq harakat fe'li insonga nisbat beradi, maysalar o'zining butun umrini kuzga tuhfa qilishi orqali harakat o'xshashligi asosidagi ma'no ko'chishidir.

*Yulduzlar-ey, ko'kdan boqmay, tushsangiz-chi yonimga,
 Tuyg'ularim olovlanar bu kech axir qonimda.
 Hayotimdan butun sizga ertak aytib beraman,
 O'tgan-ketgan qora tunni endi qaytib beraman. .*

Ushbu parcha metaforik jihatdan juda boy bo'lib, unda lirik qahramonning ichki kechinmalari, iztiroblari va hayotiy xotiralari obrazli ifodalar orqali tasvirlangan.

"Tuyg'ularim olovlanar bu kech axir qonimda."

Bu misradagi "tuyg'ularim olovlanar" birikmasi metaforadir. Shoir tuyg'ularni olovga qiyoslamogda. Aslida tuyg'u yonmaydi, lekin uning kuchayishi, jo'sh urishi va qalbni qamrab olishi olovning alanganishiga o'xshatilgan. Ushbu metafora lirik qahramonning ruhiy hayajoni, ehtirosi va ichki iztirobining kuchini ifodalaydi. Natijada hissiyotlarning yuqori darajasi ta'sirchan badiiy obrazga aylangan.

"Yulduzlar-ey, ko'kdan boqmay, tushsangiz-chi yonimga"

Mazkur misrada yulduzlar ham ramziy-metaforik obraz sifatida namoyon bo'ladi. Shoir yulduzlarga murojaat qilib, ularni oddiy osmon jismlari sifatida emas, balki dardini tinglay oladigan, hamdard bo'ladigan mavjudotlar sifatida tasvirlaydi. Bu yerda yulduzlar orqali orzular, umidlar, yaqin insonlar, ilohiy nur va taskin manbai kabi ma'nolari anglashilab turadi. Shu sababli yulduzlar obrazida metaforik va personifikatsion ma'no uyg'unlashgan.

*Sevdim kashta tikmoq, chigit ekmoqni,
 Ko'sak paxta bo'lar chog'lar shivirin,
 Oltin xirmonimni ko'z-ko'z etmoqni...
 Mitti yuragimga shodliklar barin-
 Joylamoqni o'rgamdim....*

Sharq adabiyotida paxta-"oq oltin" perefrasi bo'lib ifodalangan, Oltin- sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho nodir metal; zar, tilla. Xirmon, bilamizki, yig'ib-terib olingan ekinlar hosilini to'plash uchun ajratilgan joy, maydoncha. Oltin xirmon- metaforik birligidan paxta xirmonlarini tasvirlashda foydalangan. Oltin so'zining qiymat ma'nosiga urg'u berilgan. Paxta azaldan xalqimizning milliy boyligi bo'lib kelgan, muallif metaforik ifoda orqali yana bir bor o'quvchiga uqtirgan.

*Siz – amakim! Otam aytgan mard va jasur er yigit,
 Siz otamning ko'zlarida armon bo'lib ketdingiz.
 Kuta-kuta otajonim intiq ketdi, sher yigit,
 Gulni oling, nahot endi Siz gulni unutdingiz?!*

Mazkur parcha lirik murojaat shaklida yozilgan bo'lib, unda sog'inch, armon, kutish va sadoqat tuyg'ulari metaforik hamda ramziy obrazlar vositasida ifodalangan. Shoir insonning ichki kechinmalarini bevosita bayon qilishdan ko'ra, ularni badiiy obrazlarga ko'chirib tasvirlaydi. Natijada matnning emotsional ta'sir kuchi yanada ortadi.

Parchadagi eng ta'sirchan metaforalardan biri "otamning ko'zlarida armon bo'lib ketdingiz" birikmasidir. Aslida inson armon bo'lib qolmaydi. Bu yerda shoir ma'lum bir shaxsning yo'qligi yoki qaytib kelmasligi sababli otaning qalbida tuganmas iztirob va sog'inch paydo bo'lganini metaforik shaklda ifodalamoqda. Natijada obrazning ma'nosi kengayib, oddiy sog'inch emas, balki umr bo'yi davom etadigan dard va iztirob tasvirlanadi. Armon obrazining "ko'zlar" bilan bog'lanishi esa tuyg'uning tashqi ifodasini kuchaytiradi. Ko'z bu yerda qalbning oynasi sifatida xizmat qilmoqda.

Parchadagi "sher yigit" birikmasi an'anaviy poetik metaforalardan biridir. Bu yerda inson sherga qiyoslanmoqda. Shoir to'g'ridan-to'g'ri "sherdek yigit" demaydi, balki "sher yigit" shaklida metaforik ko'chirishni amalga oshiradi. Mazkur metafora orqali jasorat, mardlik, qo'rqmaslik, matonat, kuch-qudrat kabi semalar ustuvorlikka ega. Sharq she'riyatida sher obrazi qadimdan bahodirlik va qahramonlik timsoli sifatida qo'llanib kelgan. Shu sababli "sher yigit" metaforasi qahramonning yuksak insoniy fazilatlarini ulug'lashga xizmat qilgan.

Xulosa. Xosiyat Bobomurodova she'riyati badiiy tasvir vositalariga, xususan, metaforalarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir metafora orqali inson ruhiyatining nozik qatlamlarini, lirik qahramonning ichki kechinmalari, sog'inch, armon, muhabbat va hayotiy kuzatuvlarini ta'sirchan ifodalashga erishgan. Uning she'rlarida metaforalar turli usullar bilan hosil bo'lib, predmet va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik, harakat, holat hamda ramziy ma'nolar asosida shakllangan.

Demak, Xosiyat Bobomurodova ijodida metafora nafaqat badiiy bezak vazifasini bajaradi, balki asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochish, lirik qahramon ruhiy holatini ifodalash hamda o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan shoir she'riyatidagi metaforalarni o'rganish o'zbek poetik tilining badiiy imkoniyatlarini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar. O'zbek tili va adabiyoti. 2012, №3
2. Jo'rayeva B, Sharipova O "Matnning tilshunoslikda namoyon bo'lishi" Buxoro davlat universiteti.
3. Xosiyat Bobomurodova. Saylanma 2-jild. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2021.62-bet.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. O'zME. –T., 2006.
5. Xosiyat Bobomurodova. Saylanma 1-jild. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2021.8-bet.
6. Xosiyat Bobomurodova. Saylanma 1-jild. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2021. 5-bet.
7. Xosiyat Bobomurodova. Saylanma 1-jild. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2021.6-bet.

Maftuna OMONBOYEVA,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari

va madaniyati instituti 2-bosqich talabasi

AZIM SUYUN IJODIDA DIALEKTIZMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

(“Imorat va yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha” dostoni misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada shoir Azim Suyunning “Imorat va yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha” dostonida qoʻllangan dialektizmlarning matndagi kompozitsion va muallifning individual uslubini belgilovchi maʼnolari tahlil qilingan. Shuningdek, maqola orqali shoir Azim Suyun mansub boʻlgan Payariq tumani shevalarining rang-barangligi koʻrsatib berilgan.

Kalit soʻzlar: *dialekt, sheva, mazgil, navozish, yovqur, qisir, angʻiz, boʻzagar, gurung, kapsan, koʻkay, soʻzamol.*

Annotation: this article analyzes the meanings of dialectisms used in the poem “The Mansion and the Night That Turned into a Drop of the Sea” by the poet Azim Suyun, which determine the textual, compositional, or individual style of the author. It also shows the diversity of dialects of the Payariq district, to which the poet Azim Suyun belongs.

Key words: *dialect, dialect, mazgil, navozish, yovkur, qisir, anghiz, bōzagar, gurung, kapsan, kokay, sozamol.*

Аннотация: в данной статье анализируются значения диалектизмов, использованных в стихотворении поэта Азима Суюна «Особняк и ночь, превратившаяся в каплю моря», которые определяют текстовый, композиционный или индивидуальный стиль автора. Также показано разнообразие диалектов района Паярик, к которому принадлежит поэт Азим Суюн.

Ключевые слова: *диалект, говор, мазгил, навозиш, йовкур, кысир, ангиз, бозагар, гурунг, капсан, кокай, созамол.*

Kirish. Har bir ijodkorning badiiy mahorati uning soʻzdan foydalanish sanʼati, xususan, xalq tilining boy xazinasi boʻlmish shevalardan mohirona foydalanishi bilan ham belgilanadi. Shevalar koʻp hollarda folklor asarlarining ajralmas qismi ham boʻlib keladi. Qaysiki ijodkor folklor anʼanalari ichida yashagan, uni oʻziga singdirgan boʻlsa, oʻsha ijodkorning asari til jihatdan ham, badiiylilik nuqtai nazaridan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi¹.

Sheva forscha soʻz boʻlib, *ravish, tarz, yoʻsin* degan maʼnolarni bildiradi va dialektologiya fanida oʻziga xos leksik, fonetik hamda grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik birligi boʻlib, maʼlum meʼyorlarga asoslanmagan, tartibga solinmagan tarzda namoyon boʻladi. Badiiy asarlarda, ayniqsa, dostonlarda dialektizmlarning qoʻllanishi bu faqatgina ijodkorning shu hududga mansubligini bildirmasdan, qahramon nutqini tabiiylashtirish, taʼsirchanligini oshirish, shuningdek, adabiy tilda uchramaydigan, lekin maʼnosi kuchli boʻlgan soʻzlarni asarga olib kirishdan iboratdir.

Asosiy qism. Azim Suyun sheʼriyati oʻzining milliy ruhi, xalqchilligi, tilning sodda va taʼsirchanligi bilan ajralib turadi. Shoir oʻz asarlarida xalq tilining bitmas-tuganmas imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Shuningdek, uning asarlarida qipchoq lahjasiga oid xususiyatlarni koʻrishimiz mumkin. *Oʻzbek tilining qipchoq lahjasi.* Qipchoq qabilalari ham uzoq oʻtmishda *Oltoy oʻlkasida* yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk I Mirzayev T. va boshqalar. Oʻzbek folklori. Darslik. – T., 2020. 12-b.

xoqonligi tarkibida boʻlgan. XIII asr oʻrtalarida ular kimak // imak (yimak)lar davlati tarkibida qoladilar. XI asrda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar. VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi boʻyida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga boʻylariga siljib borgan. Qipchoqlarning avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, Oʻrta Osiyo, Volga boʻyi territoriyalarida istiqomat qiladilar. Bu lahja vakillari Oʻzbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida, Qozogʻistonning Soʻzoz tumanida, Turkistonning Suvnoq, Choʻrnoq qishloqlarida yashaydilar. *Fonetik xususiyatlari.* Qipchoq lahjasi shevalarida singarmonizm qonuni toʻliq amal qiladi. Hatto feʼllardagi yetakchi va toʻliqsiz feʼldan iborat feʼl shakli ham singarmonizmga boʻysunadi: bor ekan ~ baraqa, boribmi ekan ~ barippaqa, koʻp ekan ~ kùvākān.

Shuningdek, quyidagi fonetik hodisalar qayd qilinadi: kontrast (juft) unlilar: ü ~ u, ö ~ o, i: ~ i:, i ~ i, ä ~ a mavjud; palatal singarmonizm toʻliq, labial singarmonizm esa qisman saqlanadi;

diftonglashish kuchli: ie, uo, üö;

soʻz boshida j // ž undoshi mosligi qayd qilinadi: yoʻl ~ žol, yomon ~ žaman;

g // γ undoshlari j undoshiga oʻtadi: yigʻin ~ žiγin, tegdi ~ tiγdi, sigir ~ siγir;

soʻzda unlilar oʻrtasida p, k, q undoshlari jaranglashadi: gäp ~ gäbi, ekin ~ egin, chiqin ~ čiyin;

x undoshi q undoshiga o'tadi: xotin ~ qatin, tuxum ~ tuqum, xayol qijal, xat ~ qat, aksincha, q undoshi x undoshiga ham o'tadi: vaqt ~ vaxt, oq ~ ox;

so'z oxirida k, q undoshlari tushib qoladi: sariq ~ sarī, kichik ~ kičī;

unli bilan boshlanadigan so'zlar boshida h undoshi ortadi: ayvon ~ hajvan, aql ~ haqli;

so'z o'rtasida va oxirida y, q, k undoshlari v undoshiga o'tadi: og'iz ~ avuz, bog' ~ bav, tog' ~ tav, bo'yoq ~ bojav, ellik ~ elūv.

Morfologik xususiyatlari:

qaratqich va tushum kelishliklari affiksida n undoshi sonor va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarda d, jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarda t tovushlari bilan almashadi: uying ~ ujdun, otning ~ attin, ishni ~ išti, gulni ~ güldi;

jo'nalish kelishigining belgisiz qo'llanishi xarakterli: armiyaga ketgan ~ ärmiyä ketkän, o'qishga bordi ~ oquv bardī;

kishilik olmoshlarining jo'nalish kelishigi shakli menga ~ mayan, senga ~ sayan, unga ~ uyan shaklida qo'llanadi;

so'zga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda, regressiv assimilatsiya yuz beradi: jigitlar ~ žigillär, atlar ~ allar;

harakat nomi ~ v // uv // üv affiksi bilan ifoda qilinadi: boruv ~ baruv, keluv ~ kelūv, qoluv ~ qaluv;

hozirgi zamon davom fe'li -žatir affiksi (uning old qator varianti yo'q) bilan hosil qilinadi: boryapti ~ baripžatir, ketyapti ~ ketipžatir;

kelasi zamon sifatdoshi -tiyan affiksi (uning ham old qator varianti yo'q) bilan hosil qilinadi: keladigan ~ kelätiyan, boradigan ~ barätiyan;

hozirgi-kelasi zamon fe'lining III shaxsida -di affiksi qatnashmaydi. Kelmoq fe'li tuslanishi: kelämän, keläsän, kelä; bormoq fe'li tuslanishi: baraman, barasan, bara;

bilan ko'makchisi -män // man tarzida sintetiklashadi: ishi bilan ~ išimän, oyog'i bilan ~ ajayıman.

Lahja leksikasidan namunalar: jarchi ~ ajtimči, mayda ~ açarva, hayriyat ~ bavžit, bosh barmoq ~ barmaltaq, titroq ~ varaža, ili ~ žilim, issiqroq, sovimagan ~ ilimiq, farosat ~ indim, moyillik, xohish ~ iyžim, o'pich ~ mučči, cho'qqi ~ sala, taxchil ~ sanžap, janjalkash ~ tiržiq, yolg'on ~ öšäk, so'qmoq ~ qasaya, epchil ~ yadan.

Shu xususiyatlarga ko'ra, uning "Imorat va yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha" dostonida bir kechada imorat qurish oldidan maslahatga yig'ilgan doston aytuvchi baxshilar, do'mbirachilar, matalchilar tilidan aytilgan xalq og'zaki ijodi namunalarida qipchoq shevasiga oid so'zlar qo'llangan.

Ang'iz o'sgan yerlarda

otlar bevaqt o'lmagay,

Yaxshi bo'lsa ayollar

erlar yuzi so'lmagay.² [5.43]

2 Suyun A. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997. 43-b.

1. **Ang'iz** – (O'sh) yaylov, yer.³ Ushbu so'z leksik dialektizmga misol bo'la oladi. Ushbu terma Sori chechan tilidan aytilgan bo'lib, bu yerda ekini yig'ishtirib olingan yerda qolgan ekin qoldirlari bilan otlar ochlikdan o'lmaydi, agar ayollar yaxshi, oqila bo'lsa, erkaklar qiyinchilik ko'rmaydi degan g'oya ilgari surilgan.

Xo'-o' **bo'zagar**... bu deymen, g'alvirga suv solib uzatadiganlar xilidan chiqib qoldingmi?...⁴ [5.44]

2. **Bo'zagar** [f. – bo'za tayyorlovchi, bo'zachi] Bo'za tayyorlash va sotish bilan shug'ullanuvchi kishi, bo'zachi.⁵ Ushbu jumla otash matalchi tilidan aytilgan bo'lib, bu yerda bo'zagarga murojaat qilib, sifatsiz bo'za tayyorlamasligi uchun xushyorlikka chaqiryapti.

Bo'za so'zonni-da... ana davra, mana **gurung**, mana maslahat. [5.34]

3. **Gurung** – qizg'in suhbat, gap; bahs. *Mushoira* – she'r bazmi, shoirlar *gurungi*, *shirinsuxanlar suhbat*. A. Yusupov, *Mushoira*.⁶ Muallif tomonidan aytilgan ushbu jumlada dialekt bo'za ichgandan keyin bo'ladigan suhbat ma'nosida kelgan.

Kapsan olishga kelgandir-da... [5.36]

4. **Kapsan** – [kimsaning xirmonidan ma'mur-amaldorlar oladigan haq] Qishloq ma'murlari, ruhoniylari, shuningdek, qishloqqa xizmat qiluvchilarga (mas., mirob, podachi, sartarosh, tegirmonchi va shu kabilarga) dehqonlar tomonidan mahsulot, don bilan to'lanadigan haq.⁷ Bu o'rinda Oltiboy do'mbirachi tomonidan aytilgan "O'roqchi" haqidagi aytimda Bek kelgan paytdagi holat tasvirlangan.

Mazgil obod,

Shirin ozod.

Ekkan – tikkaning

Ota-bobosiga rahmat.

Ovmin! [5.35]

5. **Mazgil q.**– manzil.⁸ Bu parcha Bolibek so'zamol tomonidan aytilgan ertakda podshohning qilgan duosida qo'llangan.

Bo'lajak imoratni qurib, bitirib qo'ygandek **Tolib termachi navozish** qilib yubordi. [5.33]

6. **Navozish** f. – [erkalash; xushmuomalalik]. Mehribonlik bilan yoki lutfan qilingan muomala, mulozamat, lutf, marhamat; erkalash.⁹ Muallif tomonidan aytilgan ushbu jumlada Tolib termachi imorat qurishdan

3 Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан,1971. 18 б.

4 Suyun A. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997. 44-b.

5 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 297 б.

6 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 528 б.

7 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 317 б.

8 Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. 225 б.

9 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 8 б.

avval mehmon bo'lish haqidagi she'rni aytganida "erkalanib yubordi" degan ma'noda aytilgan.

Men suhbat oqimini paytdan foydalanib "hazil" larga burib yubordim: "Qisir echkilar" deb u yon bu yonimga tomoq qirib... boshladim. [5.46]

7. **Qisir** – "bo'g'oz bo'lmay qolgan". Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu sifat **qis** fe'lining "**siqilgan holatda saqla**" ma'nosidan **-ir** qo'shimchasi bilan yasalgan.¹⁰ Ushbu dialekt muallifning suhbat paytida aytgan she'rining sarlavhasidir. Uning ma'nosi esa "tug'maydigan echkilar".

*Shoir odamning yor-birodari, do'st-xeshi kim... el-da!
 Ening chechanlari, so'zonlari, so'zamollari, suxangaplari,
 Shirinzabonlari, yaxshilari, baxshilari, qolaversa, unday-
 bunday quloqchilari... [5.30]*

8. **So'zamol** – so'zga chechan, gapga chechan; gapdon.
¹¹ Muallif tomonidan aytilgan jumlada "maslahat" ga xalq ichidagi gapga chechan insonlarni chaqirish kerakligi haqida aytilyapti.

Bemor onam tilovatin

Ko'kayingga joylabsan.

Bolalarim sho'r qismatin

To'q don bilan siylabsan. [5.36]

9. **Ko'kay** – shv. ko'ngil, dil. ¹² Oltiboy do'mbirachi tomonidan aytilgan termada o'roqchi nutqida "ko'ngil" ma'nosida ishlatilgan.

10 Raхmatullaev Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. 553 б.

11 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 605 б.

12 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 450 б.

"Yovqurlar qo'shig'i", – dedi u chimranib... [5.38]

10. **Yovqur** – hech narsadan qaytmaydigan; jasur, mard, botir.¹³ Bu yerda Alp termachining aytgan termasining nomi bo'lib kelgan va ma'nosi "jasur, mard o'g'lonlar qo'shig'i".

Odatda, termalar dostonlarga kirish vazifasini bajaradi. Bunda dostonchi doston aytishga kirishmoqdan oldin repertuariga murojaat qilarkan, tinglovchilarni doston tinglashga tayyorlash masalasini hal qiladi¹⁴

Doston matnida shu va shu kabi dialektizmlarni ko'plab uchratishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, atoqli shoir Azim Suyun o'z ijodida dialektizmlarni qo'llashi uslubiy o'ziga xoslikni ko'rsatadi. Buni "Imorat va yoki bir tomchi dengizga aylanagan kecha" dostoni misolida ko'rganimizda bir qancha maqsad anglashiladi. Doston matnida qo'llangan sheva elementlari shunchaki hududiy mansublikni ko'rsatmasdan asar qahramonlari nutqini tabiiylashtirish, ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, matndagi ang'iz, bo'zagar, gurung, kapsan, mazgil, navozish, qisir, so'zamol, ko'kay, yovqur kabi dialektizmlar shunchaki shevaga oid so'z bo'lib qolmay, muallifning individual uslubini belgilashda muhim o'rin tutgan. Muxtasar qilib aytganda, muallif ushbu asarda adabiy til va sheva munosabatini o'ziga xos tarzda muvofiqlashtirgan. Bu esa asarning o'zbek dialektologiyasi va lingvopoetikasini o'rganishda muhim manba ekanini ko'rsatadi.

13 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 25 б.

14 Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Т.: Musiq, 2010. 110-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021. 176-b.
2. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori. Darslik. – T., 2020. 237-b.
3. Raхmatullaev Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. 600 б.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Т.: Musiq, 2010. 367-b.
5. Suyun A. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997. 416-b.
6. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. 410-b.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 680 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 671 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. 687 б.

Parizod SHONAZAROVA,
 UrDU 3-bosqich talabasi
 pshonazraova@gmail.com



MATNAZAR ABDULHAKIMNING XORAZMCHA SHE'RLARIDA TASHXIS SAN'ATINING QO'LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada shoir, tarjimon, tadqiqotchi, “Xorazmning ma’naviy tog’i” bo’lgan Matnazar Abdulhakimning Xorazmcha, ya’ni o’g’uz lahjasida bitilgan she’rlarida tashxis san’atining ishlatilishi va bu san’atning she’rlar badiyatini oshirishga qo’shgan hissasi haqida so’z boradi. Zero, bu kabi badiiy san’atlar asarni, ayniqsa, she’rni she’r qiladigan asosiy unsurlardan biridir.

Kalit so’zlar: tashxis, o’g’uz lahchasi, badiiy obraz, she’r, “Bir quchoq gul”, Xorazm shevasi, oshiq, yor, lirik qahramon, ruhiy holat.

Аннотация: в данной статье рассматривается использование олицетворения — и его вклад в художественное своеобразие стиха — в поэзии Матназара Абдулхакима, поэта, переводчика и исследователя, почитаемого как «духовная вершина Хорезма». Эти стихотворения написаны на хорезмской разновидности огузского диалекта. Подобные литературные приемы, безусловно, относятся к числу основополагающих элементов, определяющих произведение — и поэзию в частности — как подлинно поэтическое творение.

Ключевые слова: олицетворение, огузский диалект, художественный образ, стихотворение, «Бир қучоқ гул» («Охапка цветов»), хорезмский диалект, влюбленный, возлюбленная, лирический герой, эмоциональное состояние.

Annotation: this article examines the use of personification—and its contribution to the artistic quality of the verse—in the poems of Matnazar Abdulhakim, a poet, translator, and researcher revered as the “spiritual mountain of Khorezm.” These poems are written in the Khorezmian variety of the Oghuz dialect. Indeed, such literary devices are among the fundamental elements that define a work—and poetry in particular—as true poetry.

Key words: personification, Oghuz dialect, artistic image, poem, “Bir quchoq gul” (An Armful of Flowers), Khorezm dialect, lover, beloved, lyrical persona, emotional state.

Tashxis san’ati badiiy obraz yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega so’z san’atidir. Mazkur san’atning boshqa badiiy so’z san’atlariga nisbatan asosiy xususiyatlaridan biri turli voqea va hodisalarni tasvirlash va moddiy olamning predmetlari, hayvonot va o’simliklarni jonli tasavvur etishda namoyon bo’ladi.

Mumtoz adabiyotimizdan shakllanib kelayotgan bu san’at bugungi zamonaviy she’riyatda ham yangicha tamoyillar asosida rivojlanmoqda. San’atning o’ziga xos namunalar Matnazar Abdulhakim ijodida, xususan, xorazmcha she’rlarida ko’zga tashlanadi. Xorazm shevasida ko’plab folklor qo’shiqlari va dostonlari yaratilgan bo’lsa-da, 20-asr Xorazm adabiy muhitida Matnazar Abdulhakimgacha birona shoir o’g’uz lahjasida she’rlar turkumini yaratmagandi, bu haqda shoirning o’zi Xorazm shevasida yozilgan she’rlar turkumi bo’lmish “Bir quchoq gul” to’plamining muqaddimasida quyidagicha yozadi.

“...Daryolar borib quyilmasa, dengizlar qurib qoladi. Xuddi shunday, shevalarimizdan, lahjalarimizdan jonbaxsh jaranglar, so’zlar, yangi-yangi ifoda imkoniyatlari nasib bo’lib turmasa, har qanday “adabiy til”, jumladan o’zbek adabiy tili ham inqirozga yuz tutish xavfdan emin bo’la olmaydi. Men buning bilan, albatta, e’tiboringizga havola qilinayotgan ushbu she’rlar qandaydir lingvistik maqsadlarda yozilgan

demoqchi emasman. Bu she’rlar ham boshqa manzumalarim singari muayyan hayotiy kayfiyatlar ta’sirida bitilgan. Biroq adabiy tilimizdan jiddiy tafovut qiladigan, shuning bilan unga barakali ta’sir ko’rsatish imkoniyatga ega ham bo’lgan Xorazm shevamizning o’zim mansub bo’lgan o’g’uz lahjasida mashq qilingan misralarda olislashgan turnalardek xotiradan yiroqlashayotgan talaffuz xususiyatlarimizga, o’ziga xos so’zlarga bo’lgan mehrim ana shu ijodiy kayfiyatning tarkibiy bir qismi desam, mubolag’a bo’lmaydi.”

Shoir o’zi ta’kidlagan ana shu jonbaxsh jaranglar va xotiradan yiroqlashayotgan xalqona so’zlarni saqlab qolish hamda ularga lirik joziba bag’ishlashda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanadi. Insoniy kechinmalarni tabiat hodisalariga, narsa-buyumlarga va mavhum tushunchalarga ko’chirish, ya’ni tashxis san’ati orqali ularni insoniy qiyofada talqin qilish har bir shoirdan o’zgacha iqtidor talab etadi. Matnazar Abdulhakim o’zining yuqorida tilga olganimiz “Bir quchoq gul” she’rlar turkumida aynan mana shu san’at orqali Xorazm vohasining tabiati, betakror landshafti va ijtimoiy hayotini jonli obrazlarga aylantirdi. Uning adabiy merosidan munosib o’rin olgan va o’g’uz lahchasida bitilgan ushbu she’rlarida tashxis o’ziga xos milliy va hududiy bo’yoqlar bilan boyitilgan. Quyida ulardan ayrimlarini tahlil tarozisiga tortamiz.

Oqshom bilan uxisi galmas qoloni,
 Ming-ming odam bo'lib, yurib chiqodi.
 Sal go'zzi irkilsa, dong otg'on voxdo
 Dushino yovonlo girib chiqodi.

Ushbu misralarda qal'aning kechasi bilan uyqusi kelmasdan yurib chiqishi, ko'zi sal ilinadigan bo'lsa, tushlar ko'rishi tasvirlanadi.

Ya'ni "uxisi galmas", "yurib chiqodi", "go'zzi irkilsa", "dushino girib chiqodi" kabi insonga xos harakatlar, xususiyatlar qal'aga ko'chiriladi. Natijada qadimiy istehkom shunchaki gilmoya yoki tuproq uyumi emas, balki asriy og'riqlarni yuragida saqlab kelayotgan tirik guvoh sifatida jonlantiriladi.

Yulduzlari olo go'rma, go'zalim,
 Osmon sannan qotti xopo bo'lodi

Misralarida lirik qahramon ya'ni oshiq yoriga yulduzlarni "olo go'rmaslik" ni, agar shunday bo'ladigan bo'lsa, osmon undan qattiq xafa bo'lishini uqtiradi. Ya'ni bu yerda tashxis san'ati "osmonning xafa bo'lishi" orqali yuzaga keladi.

Keyingi misralarda esa insonga xos bo'lgan "xopo bo'lish" xususiyati "baxt" ga ko'chadi va shu orqali lirik qahramonning ruhiy holati aks ettiriladi:

Mannan qotti xopo bo'lib getti boxt,
 Lekin man boxtimnon qor atmiyman hech
 Kulfatdan boxt, qorong'idon yoxti xo'sh,
 Galganingnan bu dunyoning voxti xo'sh

misralari orqali lirik qahramon yorning kelganidan hattoki dunyoning ham "voxti xosh" ekanligini bayon qiladi, ya'ni dunyoga insonga xos xususiyat berish orqali misralarning badiiyati, ta'sirchanligi yanada orttiriladi.

Xorazm hududiga xos bo'lgan "qal'a" ko'p o'rinlarda tashxis san'atining yuzaga kelishida asosiy unsurlardan biri sanaladi. Quyidagi misralarda ham buni ko'rishimiz mumkin:

Hech galmading, hayron bo'ldi qololo,
 Ming-ming yildo sayron bo'ldi qololo.
 Qoriyvarib vayron bo'ldi qololo,
 Ichi do'li jayron bo'ldi qololo

misralari orqali oshiqning yor yo'lini kutib, iztiroblar chekish jarayoni qal'aga ko'chadi va bu "hayron bo'ldi qololo", "qoriyvarib vayron bo'ldi qololo" birliklari orqali yuzaga keladi. Natijada lirik qahramon, ya'ni oshiqning ruhiy holati, ichki kechinmalari aynan "qal'a" obrazida gavdalandiriladi.

Keyingi misralarda lirik qahramonning bevosita ko'ngliga qilgan da'vati bayon qilinadi:

Har bir damim xudoyimo orz akan,
 Yoxshi-yomon har bir ishim qorz akan.
 Oshiq bo'lmo, dap ko'nglima ko'p oytim,
 Oytg'onimo hech yurmadi, chors akan

Ya'ni yorning ko'ngliga "oshiq bo'lma", deb ko'p aytganiga qaramasdan, ko'ngil baribir oshiq bo'ladi. Tashxis ko'ngilni "oytg'onimo hech yurmadi, chors akan", deya sifatlash orqali yuzaga keladi.

Ishonmosong sani dap yeg'log'onimo,
 Sho'llada o'sgan bir gujumnan so'ro

Ushbu misralarda ham oshiqning yor ishqida yonayotgani ta'sirchan ifodalanadi. Sening uchun iztiroblar chekib, yig'laganimga ishonmasang, shu yerlarda o'sgan gujumdan so'ra, u hammasiga guvoh deya murojaat qiladi oshiq yoriga. Ya'ni shoir ko'z oldimda "gujum"ni inson sifatida shakllantiradi.

Gaplamiysan mongo, qopoqing yumruq
 Bir urso, bog'rimni yenchib o'tadi.

Bu yerda "qopoq"(qovoq) "yumruq"(musht) ga o'xshatiladi va u bir uradigan bo'lsa, oshiqning bag'rini yenchib o'tishi tasvirlanadi. Ya'ni bu tasvir jarayonida inson yuzining bir qismi bo'lgan "qopoq" harakatga keltiriladi (bir urso, bog'rimni yenchib o'tadi)

Keyingi misralarda shoir yana baxt, shodlik, g'am, qayg'u kabi mavhum, ayni damda o'zaro zid tushunchalarga yuzlanadi. Natijada ularni inson sifatida gavdalandirib, yori baxt va shodlik bilan dugona, o'zi esa g'am, qayg'u bilan oshno ekanligini ta'kidlaydi va bu orqali lirik qahramonning ruhiy holati ochib beriladi:

San boxt bilan, shodlik bilan chiqonson,
 Man g'om bilan, qoyg'i bilan jo'romon.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Matnazar Abdulhakim ijodida Xorazm shevasi shunchaki lisoniy vosita emas, balki she'rning badiiy ta'sirchanligini ta'minlovchi bosh omildir. Shoir "Bir quchoq gul"- o'g'uz lahjasida bitilgan she'rlar turkumida tashxis san'atidan mahorat bilan foydalanib, tabiat hodisalari, jonsiz buyumlar va mavhum tushunchalarni insonga xos harakatlar, xususiyatlar orqali shaxs sifatida gavdalandiradi. Bu esa she'rlardagi obrazlarning jonli, samimiy va xalqchil chiqishini ta'minlagan. Xorazm shevasiga xos so'z va iboralar yordamida yaratilgan tashxislar shoirning o'ziga xos poetik dunyosini ochib berish bilan birga, o'zbek she'riyatida badiiy san'atlarning milliy va hududiy xususiyatlarini boyitishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kayumov Nodir Nayimovich "Fors-tojik adabiyotida tashxis san'atining tarixiy shakllanish tamoyillari va uning nazariy xususiyatlari". Monografiya. "Samarqand davlat chet tillari instituti" nashriyoti. –Samarqand, 2024. 131-bet
2. Matnazar Abdulhakim "Bir quchoq gul". – Urganch, "Xorazm" nashriyoti, 1997.
3. Matnazar Abdulhakim "Tanlangan asarlar" 1-jild. –Toshkent:G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2017. 327 bet
4. Matnazar Abdulhakim "Javzo tashrifi". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2008. 333 bet
5. Dilnavoz Yusupova "Arus va mumtoz poetikaga kirish". Darslik. "Malik Print Co".—Toshkent, 2021. 252 bet

Махбуба ИСМОИЛОВА,
 ЧДПУ, магистрантка направления Родной язык и литература
 (русский язык и литература)
maxbubaismoilova052@gmail.com



СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ РУССКОГО ЯЗЫКА С ФИТОНИМАМИ И ЗООНИМАМИ В КАЧЕСТВЕ КЛЮЧЕВЫХ СЛОВ (на материале фразеологического словаря)

Аннотация: статья посвящена структурно-семантической характеристике фразеологизмов русского языка, в состав которых входят фитонимы (названия растений) и зоонимы (названия животных) в качестве ключевых компонентов. На материале фразеологических словарей (в частности, под редакцией А.И. Молоткова, В.П. Жукова и других) рассматриваются грамматические модели, семантические группы, внутренняя форма и мотивация значений таких выражений. Выявлены основные структурные типы: субстантивные, вербальные, адъективные (в основном компаративные) и адвербиальные фразеологизмы. Семантически преобладают антропоцентричные единицы, описывающие качества человека (хитрость, глупость, сила, слабость), эмоциональные состояния, действия и социальные отношения. Особое внимание уделено культурной специфике: зоонимы чаще передают динамичные, инстинктивные черты (волк — жадность, лиса — хитрость, кошка — независимость), фитонимы — статичные, внешние или моральные качества (берёза — стройность и чистота, дуб — сила и упрямство, яблоко — искушение или порча). Анализ показывает, что такие фразеологизмы отражают языковую картину мира русского народа, где природа служит источником метафор для характеристики человека. Исследование подчёркивает роль зоонимов в выражении отрицательной коннотации и фитонимов в положительной или нейтральной. Результаты могут быть использованы в лингвокультурологии, фразеологии и методике преподавания русского языка.

Ключевые слова: фразеологизмы, зоонимы, фитонимы, структура, семантика, русский язык, языковая картина мира.

Annotation: the article is devoted to the structural-semantic characterization of phraseological units in the Russian language that include phytonyms (plant names) and zoonyms (animal names) as key components. Based on phraseological dictionaries (in particular, edited by A.I. Molotkov, V.P. Zhukov, and others), the grammatical models, semantic groups, inner form, and motivation of meanings of such expressions are examined. The main structural types are identified: substantival, verbal, adjectival (mainly comparative), and adverbial phraseological units. Semantically, anthropocentric units predominate, describing human qualities (cunning, stupidity, strength, weakness), emotional states, actions, and social relations. Special attention is paid to cultural specificity: zoonyms more often convey dynamic, instinctive traits (wolf — greed, fox — cunning, cat — independence), while phytonyms convey static, external, or moral qualities (birch — slenderness and purity, oak — strength and stubbornness, apple — temptation or corruption). The analysis shows that such phraseological units reflect the linguistic worldview of the Russian people, where nature serves as a source of metaphors for characterizing humans. The study emphasizes the role of zoonyms in expressing negative connotation and phytonyms in positive or neutral ones. The results can be used in linguoculturology, phraseology, and methods of teaching the Russian language.

Key words: phraseological units, zoonyms, phytonyms, structure, semantics, Russian language, linguistic worldview.

Annotatsiya: maqola rus tilidagi frazeologizmlarning struktura-semantik xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda fitonimlar (o'simlik nomlari) va zoonimlar (hayvon nomlari) asosiy komponentlar sifatida qatnashadi. Frazeologik lug'atlar (xususan, A.I. Molotkov, V.P. Jukov va boshqalar tahririyatidagi lug'atlar) materialida bunday iboralarining grammatik modellar, semantik guruhlar, ichki shakli va ma'no motivatsiyasi ko'rib chiqiladi. Asosiy struktura turlari aniqlangan: substantiv, verbal, adjektiv (asosan qiyosiy) va adverbial frazeologizmlar. Semantik jihatdan antropotsentrik birliklar ustunlik qiladi, ular inson sifatleri (ayyorlik, ahmoqlik, kuch, zaiflik), hissiy holatlar, harakatlar va ijtimoiy munosabatlarni tasvirlaydi. Madaniy xususiyatlarga alohida e'tibor qaratilgan: zoonimlar ko'proq dinamik, instinktiv xususiyatlarni ifodalaydi (bo'ri — ochko'zlik, tulki — ayyorlik, mushuk — mustaqillik), fitonimlar esa statik, tashqi yoki axloqiy sifatleri (qayin — bo'yli va poklik, eman — kuch va o'jarlik, olma — vasvasa yoki buzilish). Tahlil shuni ko'rsatadiki, bunday frazeologizmlar rus xalqining til manzarasini aks ettiradi, unda tabiat insonni tavsiflash uchun metafora manbai bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot zoonimlarning salbiy konnotatsiya ifodalashdagi, fitonimlarning esa ijobiy yoki neytral konnotatsiyadagi rolini ta'kidlaydi. Natijalar lingvokulturologiya, frazeologiya va rus tilini o'qitish metodikasida qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, zoonimlar, fitonimlar, struktura, semantika, rus tili, til manzarasi.

Введение.

Фразеологизмы — это устойчивые словосочетания с целостным, часто переносным значением, которые занимают важное место в лексико-семантической системе русского языка. Они не только обогащают речь экспрессивностью и образностью, но и хранят культурно-историческую память народа. Особый интерес представляют фразеологизмы с компонентами-зоонимами (названиями животных) и фитонимами (названиями растений), поскольку эти лексемы выступают в роли ключевых слов, определяющих внутреннюю форму и семантику выражения.

Зоонимы и фитонимы как часть природного кода давно привлекают внимание лингвистов. В русском языке зоонимы входят в состав тысяч фразеологизмов, отражая наблюдения за поведением животных: волк символизирует агрессию и одиночество, лиса — хитрость и изворотливость, медведь — силу и неповоротливость, кошка — ласку или независимость. Фитонимы же чаще ассоциируются с внешностью, ростом, красотой или моральными качествами: берёза — стройность и нежность, дуб — крепость и упрямство, яблоко — искушение или порча (как в «паршивое яблоко»). Такие образы коренятся в фольклоре, быте и мировоззрении славян, где человек постоянно сравнивал себя с окружающим миром природы.

Актуальность темы обусловлена несколькими факторами. Во-первых, зоо- и фитонимические фразеологизмы составляют значительную часть идиоматического фонда русского языка (по некоторым оценкам, до 15–20 % от всех фразеологизмов). Во-вторых, они ярко иллюстрируют антропоцентризм: природа метафорически проецируется на человека. В-третьих, в эпоху глобализации и утраты традиционных связей с природой важно сохранять и изучать эти единицы как часть культурного кода.

Цель исследования — дать комплексную структурно-семантическую характеристику фразеологизмов русского языка с ключевыми компонентами-зоонимами и фитонимами на материале фразеологических словарей. Для достижения цели решаются следующие задачи:

- классифицировать фразеологизмы по грамматической структуре;
- выделить основные семантические группы и типы значений;
- проанализировать мотивацию (внутреннюю форму) и культурные коннотации;
- выявить различия в использовании зоонимов и фитонимов;
- рассмотреть частотность и стилистическую окраску.

Структурная классификация фразеологизмов

Фразеологизмы с зоонимами и фитонимами разнообразны по грамматической структуре. Основные типы:

1.1. Субстантивные фразеологизмы (номинативные, часто с предлогами или без). Здесь ключевой компонент — центр номинации.

С зоонимами: «кот в мешке» (неизвестное приобретение), «чёрная кошка пробежала» (ссора), «жирный кот» (богач), «морской волк» (опытный моряк), «красный петух» (пожар).

С фитонимами: «паршивое яблоко» (порочный элемент в коллективе), «большая шишка» (важная персона), «яблоко раздора» (причина конфликта), «тёпленькое местечко» (выгодное положение, где «тёпленькое» ассоциируется с растительной теплотой).

1.2. Вербальные фразеологизмы (глагольные, описывают действие).

С зоонимами: «тянуть кота за хвост» (затягивать), «играть в кошки-мышки» (манипулировать), «заморить червячка» (немного поест), «вить гнёздышко» (устраивать уют), «водить за нос» (обманывать, от образа медведя или собаки).

С фитонимами: «пустить корни» (укорениться), «пресечь на корню» (прекратить сразу), «пристать как банный лист» (надоедать), «затевать сыр-бор» (поднимать шум).

1.3. Адъективные (компаративные) фразеологизмы — самые многочисленные с фитонимами.

С фитонимами: «стройная как берёзка», «крепкий как дуб», «гибкая как ива», «красный как мак», «свежий как огурчик», «дрожать как осиновый лист».

С зоонимами: «хитрый как лиса», «трусливый как заяц», «сильный как бык», «работающий как пчела», «глупый как пробка» (но пробка — не зооним, а аналогия с «дубовая башка»).

1.4. Адвербиальные и предикативные — выражают степень, состояние.

С зоонимами: «кот заплакал» (очень мало), «кошки скребут на душе» (тревога), «как корова языком слизнула» (исчезло бесследно).

С фитонимами: «тише воды, ниже травы» (скромно), «хоть трава не расти» (безразлично).

Зоонимы чаще в вербальных и адвербиальных (динамика), фитонимы — в адъективных (статика, внешность).

2. Семантическая характеристика и группы значений

Семантика строится на метафорическом переносе свойств природы на человека.

2.1. Качества человека (внешние и внутренние)

Отрицательные: «волк в овечьей шкуре» (лицемер), «лиса» (хитрец), «змея подколотная» (предатель),

«дубовая башка» (тупица), «пень берёзовый» (глупец), «лопух» (простак).

Положительные: «берёзка» (стройная девушка), «дуб» (надёжный), «пчела» (трудолюбивая), «лев» (смелый), «орёл» (гордый).

2.2. Эмоциональные состояния и действия

«Кошки на душе скребут», «волком выть» (от боли), «заморить червячка», «пожинать лавры» (успех, от фитонима «лавр»).

2.3. Социальные отношения и оценки

«Одна паршивая овца всё стадо портит», «яблоко раздора», «одного поля ягоды» (похожие люди).

2.4. Мотивация и внутренняя форма

Мотивация часто биологическая: повадки животных (лиса хитрит, заяц труслив), свойства растений (дуб крепкий, берёза белая и гибкая). Культурно: берёза — символ России, дуб — сила, яблоко — библейское искушение.

Отрицательная коннотация преобладает у зоонимов (волк, свинья, осёл), положительная — у фитонимов (берёза, роза, мак).

2.5. Частотность и стилистика

Наиболее активны: кошка, собака, волк, лиса, медведь; берёза, дуб, яблоко, трава. Многие — разговорные, экспрессивные.

3. Культурные аспекты

В русской картине мира природа — зеркало человека. Зоонимы отражают крестьянский опыт (домашние животные), фитонимы — лесной ландшафт (берёза, дуб, осина). Это отличает русский язык от западных, где больше библейских или городских образов.

Заключение:

В русской картине мира природа — зеркало человека. Зоонимы отражают крестьянский опыт (домашние животные), фитонимы — лесной

ландшафт (берёза, дуб, осина). Это отличает русский язык от западных, где больше библейских или городских образов. Фразеологизмы русского языка с ключевыми компонентами-зоонимами и фитонимами представляют собой яркую подсистему, отражающую глубокую связь человека с природой. Структурно они разнообразны: от субстантивных номинаций до компаративных конструкций и глагольных оборотов. Зоонимы чаще формируют динамичные, акциональные выражения, фитонимы — статичные, квалификативные.

Семантически доминируют антропоцентричные значения: описание качеств (хитрость — лиса, глупость — дубовая башка или пень), состояний (тревога — кошки скребут), действий (тянуть kota за хвост) и отношений (яблоко раздора). Мотивация опирается на реальные свойства: повадки животных, внешний вид и качества растений. Культурная специфика проявляется в преобладании отрицательной коннотации у зоонимов и более нейтральной или положительной у фитонимов, что связано с русским мировосприятием природы как источника как угроз, так и красоты.

Исследование подтверждает, что такие фразеологизмы — важный элемент языковой картины мира, сохраняющий фольклорные и бытовые традиции. Они обогащают речь образностью и помогают выразить сложные эмоции лаконично.

Перспективы: сопоставительный анализ с узбекским, таджикским или другими тюркскими языками; изучение динамики в современном дискурсе (медиа, интернет); использование в лингводидактике для иностранцев.

В целом, зоо- и фитонимические фразеологизмы демонстрируют богатство русского языка и его неразрывную связь с природным окружением, делая речь живой и выразительной.

Литература

1. Молотков А.И. (ред.). Фразеологический словарь русского языка. М.: Русский язык, 1986.
2. Жуков В.П. Словарь фразеологических синонимов русского языка. — М.: Русский язык, 1987.
3. Быковская О.А. Русские и английские фразеологизмы с названиями явлений природы. — Минск: БГУ, 2016.
4. Гафарова К.Т. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с зоонимами и фитонимами в таджикском, немецком и русском языках. — Автореф. дис. ... канд. филол. наук. — М., 2007.
5. Рыжкина Е.И. Семантическая структура фразеологизмов с компонентом-зоонимом. — М.: МГУ, 1980.
6. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. — М.: Высшая школа, 1985.
7. Добровольский Д.О. Когнитивные аспекты идиоматики. — М.: Наследие, 1997.
8. Трафименкова Т.А. Фразеологизмы с фитонимами в русском языке (лингвокультурологический аспект). — СПб., 2018.

Мадина ТУХТАНАЗАРОВА,

Студентка факультета педагогики и преподавания языков

Ургутского филиала Самаркандского государственного

университета имени Шарофа Рашидова

E-mail: madinatuxtanzarova70@gmail.com

ДИНАМИКА ГРАММАТИЧЕСКОЙ НОРМЫ В ПРОСТРАНСТВЕ ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ: ЯВЛЕНИЕ БЕСПРЕДЛОЖНОГО УПРАВЛЕНИЯ И СУБСТАНТИВНОЙ КОМПРЕССИИ

Аннотация: в статье рассматриваются изменения грамматической нормы в условиях цифровой коммуникации, обусловленные тенденцией к языковой экономии и ускорению информационного обмена. Особое внимание уделяется явлениям беспредложного управления и субстантивной компрессии, которые становятся характерными признаками современного интернет-дискурса. Анализируется влияние мессенджеров, социальных сетей и цифровых платформ на трансформацию синтаксических моделей русского языка. Выявляются основные механизмы упрощения грамматических конструкций, а также их функциональная обусловленность.

Ключевые слова: грамматическая норма, цифровая коммуникация, беспредложное управление, субстантивная компрессия, интернет-дискурс, языковая экономия.

Annotation: the article examines changes in grammatical norm in the context of digital communication, caused by the tendency toward linguistic economy and the acceleration of information exchange. Special attention is given to the phenomena of prepositionless government and substantive compression, which are becoming characteristic features of modern internet discourse. The study analyzes the influence of messaging platforms, social networks, and digital environments on the transformation of syntactic patterns in the Russian language. The main mechanisms of grammatical simplification are identified, as well as their functional conditioning.

Key words: grammatical norm, digital communication, prepositionless government, substantive compression, internet discourse, linguistic economy.

Annotatsiya: maqolada raqamli kommunikatsiya sharoitida grammatik me'yorning o'zgarishi, bu jarayonning til iqtisodiyoti tamoyili hamda axborot almashinuvi tezlashuvi bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, zamonaviy internet-diskursning o'ziga xos belgilariga aylangan predlogsiz boshqaruv va substantiv kompressiya hodisalariga alohida e'tibor qaratiladi. Messendjerlar, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning rus tili sintaktik modellari transformatsiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Grammatik konstruksiyalarni soddalashtirishning asosiy mexanizmlari hamda ularning funksional asoslanganligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: grammatik me'yor, raqamli kommunikatsiya, predlogsiz boshqaruv, substantiv kompressiya, internet-diskurs, til iqtisodiyoti.

Введение

Современный этап развития языка характеризуется активным влиянием цифровой среды, которая формирует принципиально новые условия речевой реализации. Интернет-коммуникация, отличающаяся высокой скоростью обмена информацией, спонтанностью высказываний и ограниченностью временных и пространственных параметров общения, приводит к существенным изменениям в функционировании традиционных

грамматических норм. В условиях цифрового дискурса наблюдается перераспределение языковых средств, при котором приоритет отдается кратким, экономичным и семантически ёмким конструкциям. Это проявляется в сокращении синтаксических структур, активном устранении служебных слов, а также в усилении номинативных форм выражения мысли. Подобные процессы особенно отчетливо фиксируются в мессенджерах, социальных сетях и других интерактивных платформах, где скорость

коммуникации становится определяющим фактором речевого поведения.

Теоретические основы исследования

Грамматическая норма традиционно рассматривается как система устойчивых правил, регламентирующих построение языковых единиц в соответствии с литературным стандартом. Она обеспечивает единообразие и предсказуемость языкового употребления, выступая важнейшим механизмом сохранения кодифицированной формы языка. Вместе с тем в реальной речевой практике норма не является абсолютно фиксированной системой и допускает определённую вариативность, обусловленную социальными, функциональными и коммуникативными факторами. В современных лингвистических исследованиях всё более активно утверждается подход, согласно которому языковая норма рассматривается как динамическая категория, способная изменяться под воздействием экстралингвистических условий. Особое значение в этом контексте приобретает цифровая коммуникация, которая формирует особый тип речевого взаимодействия — интернет-дискурс. Цифровая коммуникация отличается рядом специфических характеристик, оказывающих непосредственное влияние на грамматическую организацию высказывания. К числу таких характеристик относятся: высокая скорость обмена информацией, синхронность и асинхронность общения, ограниченность объёма сообщения, спонтанность речевого акта, а также отсутствие строгого контроля за соблюдением литературной нормы. Данные факторы способствуют активизации процессов языковой экономии и упрощения синтаксических структур.

Беспредложное управление как проявление грамматической трансформации в цифровой коммуникации

Одним из наиболее характерных явлений трансформации грамматической нормы в пространстве цифровой коммуникации выступает беспредложное управление, при котором традиционные предложно-падежные конструкции заменяются более краткими моделями без использования предлогов. Данный процесс тесно связан с общей тенденцией языковой экономии и стремлением к сокращению

формальных элементов высказывания, что особенно отчетливо проявляется в условиях интернет-дискурса. В системе русского литературного языка предложное управление выполняет важную функцию выражения уточнённых синтаксических и семантических отношений между компонентами высказывания. Однако в цифровой коммуникации наблюдается частичное ослабление этой функции, что приводит к появлению усечённых конструкций, смысл которых во многом восстанавливается за счёт контекста и ситуации общения. Так, нормативные сочетания типа «вопрос к преподавателю», «сообщение от друга», «ответ на письмо» в условиях неформального цифрового общения могут трансформироваться в более краткие формы «вопрос преподавателю», «сообщение друга», «ответ письмо». Подобные изменения особенно характерны для мессенджеров и социальных сетей, где скорость обмена информацией становится важнее формальной грамматической точности.

Формирование беспредложного управления обусловлено рядом взаимосвязанных факторов. К числу основных относятся коммуникативная экономия, связанная с ограничением времени и усилий при создании сообщения, влияние разговорной речи, в которой предлоги нередко редуцируются, а также взаимодействие устного и письменного кода в цифровой среде. Существенную роль играет и высокая степень контекстуальной обусловленности интернет-коммуникации, при которой многие смысловые отношения не требуют дополнительного грамматического маркирования, так как они очевидны участникам общения.

Несмотря на формальное отклонение от норм литературного языка, беспредложное управление не может рассматриваться исключительно как ошибка или нарушение. Оно представляет собой функционально обусловленное явление, отражающее адаптацию языковой системы к новым условиям коммуникации. В данном случае речь идёт не о разрушении грамматической нормы, а о её внутренней перестройке и расширении вариативных возможностей. Беспредложное управление выполняет важную коммуникативную функцию, обеспечивая

ускорение передачи информации, повышение её плотности и сокращение языковой формы при сохранении общего смысла высказывания.

Субстантивная компрессия как механизм языковой экономии в цифровом дискурсе

Субстантивная компрессия представляет собой одно из наиболее устойчивых явлений трансформации грамматической структуры в условиях цифровой коммуникации, заключающееся в свёртывании предикативных конструкций в номинативные формы. Данный процесс связан с общей тенденцией к языковой экономии и усилением информативной плотности высказывания, что особенно характерно для интернет-дискурса, отличающегося высокой скоростью обмена сообщениями и ограниченностью формального контроля речи. В традиционной грамматической системе русского языка предикативные конструкции играют ключевую роль в выражении действия, процесса или состояния, обеспечивая развёрнутое синтаксическое оформление высказывания. Однако в цифровой среде наблюдается тенденция к их преобразованию в именные структуры, в которых действие или процесс выражается через отглагольное существительное. В результате происходит переход от динамической предикативной модели к статической номинативной, что существенно изменяет синтаксическую организацию высказывания.

Так, полноформатные конструкции типа «я отправил сообщение», «мы обсуждаем проект», «проверка задания завершена» в условиях цифровой коммуникации нередко трансформируются в более компактные формы: «отправка сообщения», «обсуждение

проекта», «проверка задания». Подобные преобразования широко распространены в мессенджерах, чатах, комментариях и других формах неформального письменного общения, где приоритет отдается краткости и смысловой концентрации. Формирование субстантивной компрессии обусловлено действием ряда лингвопрагматических факторов. К ним относится стремление к сокращению языковых средств при сохранении семантического содержания, влияние делового и официально-делового стиля, в котором номинативные конструкции традиционно занимают значительное место, а также воздействие цифрового интерфейса, ограничивающего объём текстового сообщения и стимулирующего использование кратких форм.

Заключение

Проведённое исследование подтверждает, что цифровая коммуникация оказывает значительное и системное влияние на грамматическую норму современного русского языка. Полученные результаты свидетельствуют о том, что процессы, наблюдаемые в интернет-дискурсе, не носят случайного или хаотичного характера, а представляют собой устойчивые тенденции языкового развития, обусловленные изменением коммуникативных условий. Установлено, что такие явления, как беспредложное управление и субстантивная компрессия, являются не единичными отклонениями от литературной нормы, а функционально обусловленными механизмами, отражающими общую направленность языка к экономии средств выражения, повышению скорости передачи информации и усилению смысловой концентрации высказывания.


Список литературы

1. Иванов В.В. Современный русский язык в условиях цифровой коммуникации. – М., 2022.
2. Земская Е.А. Русская разговорная речь. – М., 2019.
3. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge University Press, 2021.
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М., 2018.
5. Makarov M.L. Основы дискурс-анализа. – М., 2020.
6. Горощко Е.И. Интернет-коммуникация: лингвистический аспект. – М., 2015.
7. Herring S.C. Computer-Mediated Communication: Linguistic Perspectives. – Berlin: De Gruyter, 2019.



Tjad soati





O'qituvchi, muallim kasbiy faoliyati bevosita ijod bilan bog'liq jarayon. Shu bois aksariyat ustozlarimizning badiiy adabiyotga daxldor ijod namunalari bo'lishi tabiiy. Jurnalimiz mazmun-mundarijasidan kelib chiqqan holda, ijodkor muallimlar va o'quvchi yoshlarning ilhom namunalarini ijod soati ruknida berib borishni joiz topdik. Zero, muallimlarning tunlari uxlamasdan ilhom va tafakkur uyg'unligidagi zahmatli mehnatlari faqatgina o'zlarining daftarlari varaqlarida qolib ketmasin. Ne ajabki, muallim daftarlari bitilgan samimiy satrlar yoshlar va hamkasblari qalbida ham ilhom cho'g'larini otashlantirsa.

Bonu
SARIMOVA



2000-yil, 4-aprelda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida tug'ilgan. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 4-bosqich talabasi. Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi. "Baxt bo'lsam kerak" nomli she'riy kitobi chop etilgan. Ijodiy ishlari Rossiya, Turkiya, Italiya, Misr, Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH kabi davlatlardagi turli adabiy nashrlarda chop etilgan.

AZIZIM

MUHABBAT

Sen ketsang kapalak singari umrim,
Gul kelib holimni so'ramaysanmi?
Ko'nglimdan dard sirqib oqadi sim sim,
Oh g'uncha, bag'ringga o'ramaysanmi?

Hadikda sochlarim silaydi shamol,
Shamoldan asrashga yaramaysanmi?
Dunyomni yoritgan ey oydin hilol,
Umrinni baxtlarga belamaysanmi?

Labim titrog'ida sirg'alar isming,
Senchi sukutlarda tutqazmaysanmi?
Kelmasang...
hijronga bo'laman taslim,
Meni bu savdoda yutqazmaysanmi?

Olis-olislarga ketsam bosh olib,
Afsusdan ko'nglingni tig'lamaysanmi?
Bir kuni... sog'inib ko'zga yosh olib,
O'ksinib o'ksinib yig'lamaysanmi?

Men-ku, sizni sog'inganim yo'q,
Qovrilyapman dardda, azizim.
Dardingizni bir yonga surib,
Keling, yetar shartta, azizim.

Men-ku, sizni o'ylamayman ham,
Ammo yurak qondir, azizim.
Mening sizga hali aytmagan
Izhorlarim bordir, azizim.

Men-ku, sizni eslaganim yo'q,
Xayollarga qulman, azizim.
O'tolmaysiz men tomonga hech,
Borsa kelmas yo'lman, azizim.

Men-ku, sizni yo'qlamayman ham,
Borar yo'llar tor-da, azizim.
Butun dunyo baxtin bersa ham,
Ko'nglim sizga zor-da, azizim.

Men-ku, sizni unutganim yo'q,
Umrin yetmas bunga, azizim.
Baxtga ko'may agar kelsangiz,
Nima deysiz shunga, azizim?



KELMAYSIZMI?

Aylansam bezabon tikonsiz gulga,
Fig'onlar yor bo'lsa bandi ko'ngilga,
Muhabbat shahrida o'xshasam qulga,
Kelmaysizmi meni ko'rgani?

Ko'z yoshlarim yuzlarimni ivitsa,
Yuzimdagi nafrat izin sirqitsa,
Bu azoblar bir kun meni yiqitsa,
Kelmaysizmi meni ko'rgani?

Yillar o'tsa yodingizni yondirib,
Ishq yashasa aqlingizdan tondirib,
Ko'nglingizni o'zgalarga qoldirib,
Kelmaysizmi meni ko'rgani?

Ko'z yoshim yuzimda qoldirmoqda iz,
Garchi o'rtanmoqda yuragim yolg'iz,
Men baxtli yashashni bilmayman sizsiz,
Kelmaysizmi meni ko'rgani?

XAVOTIR


Yuragimda xavotir,
Siz tomon tinchmi?
Joningiz omonmi, bedardmisiz yor?
Mendan-ku so'ramang jonim azobda,
Kelar yo'lingizdan umidlarim bor.

Ko'zingizda yosh yoq!
Sog'-omonmisiz?
Turibsizmi meni yurakka aytib!
Charchamadingizmi, mensiz kunlardan,
Yodingiz sezdirmay yurakka qayting.

Hamon o'shamisiz?
Xotirjammisiz?
Yillar so'roqlaydi sizsiz onlarni.
Aqlning ketidan chirmashdi ko'nglim,
Sizsiz uyg'atolmay qoldim tonglarni.

Ko'zingiz qorami?
O'tli haliyam,
Yurak tomonlarga olovlar yoqqan.
Borar yo'lingizdir sarg'aygan ko'nglim,
Siz dardlarga emas menga yo'liqqan!

Yuragimda xavotir!
Joningiz sog'mi?
Dunyoda siz qadar beg'am bormikan?
Sizni qaytib berar kuni kelib, to -
Xudo bor ekan...!



DUOLARIM

O'YLAR

Men o'ylayman kelib qolar deb,
Sen o'ylaysan: intizor etdim.
Yaxshi kunga atalgan yoshim,
Yo'llaringga to'kilib ketdi.

Vujudimga to'ladi titroq,
Ko'zing – dengiz, cho'ktirar tayin.
Menga baxtlar berib ketding yor,
Ammo ketding...
nega jilmayib?

Yetaklamay muhabbat tomon,
Ketmoqdasan, o mendan olis.
Endi meni kutmog'ing gumon,
Gumon endi sen bilan qolish.

Ko'zlaringga to'lgan baxtlar yor,
Ikki dunyo nuridan yorqin.
Seni ko'ngling bilmadim qayda,
Meni ko'nglim ko'nglingga yaqin.
Judayam yaqin...

Sen o'ylaysan ko'nglida o'zga,
Men o'ylayman baxtiga yetdi.
Kuta-kuta ko'zim yoshlari,
Yo'llaringga to'kilib ketdi.

Bir kun izlab kelasani atay,
Sog'inchlaring joningga yetar.
Shunda meni dildagi ishqim,
Yuragingga to'kilib ketar.

Men o'ylayman kelib qolar deb...

Yer chizaman...
Soat so'rayman,
Ko'ksim uzra boshlanar tug'yon.
Hech kim demas: Bo'ldi-da, endi,
"Sevgi-sevgi" o'ynidan uyg'on.

Nafas yo'lim torayar chunon,
Dilqafasga o'tlar ketadi.
Lek, bilaman, bir kuni omon,
Sevgim sizga borib yetadi.

Toqat bilmay yashayman lahza,
Kuta-kuta ko'zlarim tolган.
Yo Allohim, jonim Sen asra,
Axir, ko'nglim o'zimdan qolgan.

Ko'zingizga boqsam botinib,
Dil xonangiz men uchun jannat.
Meni yaxshi ko'rganingizga,
Balki ming bor...
Million bor rahmat!

Hapqiryapti bugun yuragim,
Meni buncha intizor etmang,
Sizga bitta, Xudo haqqi so'z –
Ketmang!!!

Doim yuring o'zingiz o'ylab,
Duolarim asraydi sizni.
Hamda sizga bir kun yetguvchi,
Dunyolarim asraydi sizni.

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'liq Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruza Manukyan, Svetlana Umirova,
Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova,
Sayyora Halimova, Tadjixon Sabitova,
Maxpuza Karaxodjayeva, Dilfuza Toshniyozova,
Gulboxor Ernazarova, Komiljon Qarshiyev,
Uyg'unjon Turdimurodov, Diyora Yunusova,
Ra'no Abdullayeva, Sharif Yarashov,
Mahliyo Elboyeva Sanobar Ulliyeva,
Surayyo Inomjonova, Nurali Hamidov,
Davronova Mahfuza, Dilafuz Jabborova,
Begali Mardiyev, Normuhammad Ubaydullayev,
Feruza Sharopova, Adiba Ma'diyeva,
Nilufarxon Mahmudova, Munisjon Hakimov,
Sharipboy Bobojonov, Madixabonu Pardayeva,
Xilola Ismailova, Kamola Jumayeva,
Marxabo Abdullayeva, Nigoraxon Ro'zibayeva,
Dildora Usarova, Mahkamoy Tursunova,
Farhod Nizomov, Moxira Sadullayeva,
Muhayyo Vafoyeva, Bobomurod Mirsanov
Gulsanam Xoliqulova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda
Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Moxira SADULLAYEVA

**NASRDA RUHIYAT IFODALANISHINING
TADRIJIY TARAQQIYOTI..... 3**

G.Q.RAVSHANOVA

**YANGI O'ZBEK SHE'RIYATI HAJVNAVISLIGINING
FALSAFIY VA NAZARIY TADQIQI..... 6**

Muxayyo RAYXONOVA

**ABDULLA OROPOV TO'RTLIKLARINING
IJTIMOIY-FALSAFIY XUSUSIYATI 9**

Javlon IBRAGIMOV

**O'ZBEK TILINI RAQAMLASHTIRISH
MUAMMOLARI..... 11**

Sherali QARSHIYEV

**O'ZBEK TILINING NUFUZINI OSHIRISH
DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA 13**

Ibrohimjon ZUFAROV

**SUXANDON NUTQIY MAHORATINING
KASBIY MEZONLARI..... 15**

TILSHUNOSLIK

Abror RAXIMOV

**KONVERSIV NOMINATSIYA VA UNING
LINGVOKOGNITIV ASOSLARI..... 18**

Umidjon YIGITALIYEV

**Nilufar MAMATOVA
O'ZBEK TILINING BADIY DISKURSIDA
"JINS" KONSEPTINING IFODALANISHI..... 21**

Sarvinoz NURMONOVA LISONIY SHAXS TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA NAZARIY TALQINI	24
Sharipboy BOBOJANOV O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARIDA LUG'AVIY MA'NONING BERILISH TAMOIYILLARI	26
Maftuna UBAYDULLAYEVA ORFOGRAFIK TERMINLARINING QIYOSIY TAHLILI	28
Shoxinur TURSUNOV O'ZBEK VA INGLIZ DISKURSIDA TASDIQ VA INKOR NUTQIY AKTLARINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI	31
Muqimjon AXUNOV KRIMINAL FRAZELOGIK BIRLIKLAR NUTQIY AKTLAR DOIRASIDA: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA	34
Muhayyo ERGASHOVA FONOLOGIK SATH VA LOKALLIK	36
L.K.BAYMURADOVA THE ROLE OF CONTEXT IN SOCIAL DISCOURSE	38

ADABIYOTSHUNOSLIK

Durdona RASULMUXAMEDOVA O'ZBEK DETEKTIV JANRINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA TA'LIMDAGI AHAMIYATI	41
Ma'rifat KASIMOVA URF-ODAT VA MAROSIMLARGA OID SO'ZLARINING MADANIY KOD SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	44

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA

Akramjon JO'RABOYEV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI JURNALISTIK KONTENTNING ISHONCHLILIK DARAJASI: PRAGMATIK YONDASHUV VA AUDITORIYA TAHLILI.....	48
Nilufar MAMADJONOVA RAQAMLI TA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	50
Зера ИСАЕВА ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	54

TADQIQOTLAR

Arofatoz MUYDINOVA Rushana ABDURAXMANOVA VOIZLIK SAN'ATI HAQIDA MUHOZALAR	57
G'olib KARJAVUV JANR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA	59
Olmos XURRAMOV TARIXIY JANRLARDA EPIK KO'LAMNING O'ZIGA XOSLIGI	62
Orzigul OTAMURODOVA XARAKTER TUSHUNCHASI VA UNGA YAQIN ADABIY KATEGORIYALAR MUNOSABATI.....	65
Malika SAMATOVA XXI ASR BOSHLARIDA INGLIZZABON ADABIYOTDA POSTMODERNIZM POETIKASINING TRANSFORMATSIYASI.....	68
Nigora EGAMOVA KONFESSIONAL POETIKANING GENEZISI VA AYOL KONFESSIONAL SHE'RIYATINING SHAKLLANISHIDA SYLVIA PLATHNING O'RNI	70
Umida MAMATJONOVA JERMENA DE STAL ROMANLARIDA ERKAK QAHRAMONNING PSIXOLOGIK VA BADIY TALQINI.....	72
Yulduzxon SAFARBOYEVA HOZIRGI O'ZBEK TILIDAGI ZONIM KOMPONENTLI FRAZELOGIK BIRLIKLARDA SIFAT VA RAVISH KOMPONENTLARINING LISONIY XUSUSIYATLARI	75
Oybek NASIRDINOV TAKLIF NUTQIY AKTINING KOMMUNIKATIV VAZIYAT, ADRESANT-ADRESAT MUNOSABATI VA IJTIMOY-PRAGMATIK OMILLARGA BOG'LIQLIGI	78
Shoxida YOKUBOVA MAQOLLARDAGI AGNONIMLAR	80
Jamila RUZIYEVA O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI TILAK VA ISTAK MA'NOSIDAGI MAQOLLARNI MASHINAVIY O'RGANISH USULLARI ASOSIDA TASNIFLASH.....	82
Marjona JUMAYEVA "TUYA" LUG'AVIY MA'NOVIY GURUHI QATNASHGAN MAQOLLARDA "HALOL YASHASH" VA "MANMANLIK" SLOTI.....	85
Abdixamidullo AZIMOV G. N. TOJIYEVA INGLIZ TILIDAGI METAFORALARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI TAHLILI	87
Nilufar TO'LQINJONOVA MADANIYATLARARO BADIY MULOQOT MEXANIZMLARI: G'ARB VA TURKIY FOLKLOR INTEGRATSIYASI MODEL.....	90

Маъмурахон ЮЛДАШЕВА
ИСТОРИКО-ЛИТЕРАТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ
“БАБУРНАМЕ” И ЕГО МЕСТО В РАЗВИТИИ
МЕМУАРНОЙ ПРОЗЫ 92

Dilzoda ALIMOVA
METAPHORICAL FRAMING OF CRIME AND
PUNISHMENT IN UZBEK DISCOURSE..... 94

Gulnoz ERGASHEVA
CONSTRUCTIONS WITH THE PREPOSITION UNDER
IN PREDICATIVE POSITION: THE SEMANTICS OF
PRESSURE, CONTROL AND DEPENDENCE 97

Klara NAZMUTDINOVA
CLASSROOM INTERACTION AND SPEECH ACTS 100

Aytkul DJALILOVA
POLYSEMY AND HOMONYMY IN ENGLISH:
CHALLENGES IN SEMANTIC INTERPRETATION 102

PEDAGOGIKA

Yoqut SHARIPOVA
KO'RISH IMKONIYATI CHEKLANGAN
O'QUVCHILAR UCHUN INGLIZ TILI
BO'YICHA YANGI AVLOD O'QUV ADABIYOTLARINI
YARATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 106

Sitora XUDOYOROVA
NEYRODIDAKTIKA TUSHUNCHASI VA
UNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI..... 108

KICHIK TADQIQOT

Sabinabonu ABDURAXIMOVA
“MAHBUB UL-QULUB”DA DAVLAT
BOSHQARUVI TIZIMI BILAN BOG'LIQ
TUSHUNCHALARNING BADIY TALQINI..... 111

Dilrabo XUDAYBERDIYEVA
ISAJON SULTONNING “OYDINBULOQ” HIKOYASIDA
PARIZOD OBRAZI TALQINI 113

Nafosat ZIYATOVA
O'TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING
ISHLARI”ASARIDA QO'LLANGAN MAQOLLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI 116

Aziza XUDAYBERDIYEVA
ABDULLA QODIRIYNING “O'TGAN KUNLAR”
ROMANIDA OBRAZLAR RUHIYATI TALQINI..... 118

O'g'iloy QUYSINOVA
ABDULLA QAHHOR IJODIDA REALIZM,
FOLKLOR AN'ANALARI VA
XALQ TILINING BADIY TALQINI 120

Gulasal JUMANOVA
“MIRKOMILBOYNING QAZO BO'LGAN NAMOZI”
HIKOYASIDA MILLIY FOJIA VA SHAXS TALQINI..... 122

Zenira SAFAROVA
XOSIYAT BOBOMURODOVA SHE'RIYATIDA
METAFORANING QO'LLANISHI 125

Maftuna OMONBOYEVA
AZIM SUYUN IJODIDA DIALEKTIZMLARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI 127

Parizod SHONAZAROVA
MATNAZAR ABDULHAKIMNING
XORAZMCHA SHE'RLARIDA TASHXIS
SAN'ATINING QO'LLANILISHI 130

Махбуба ИСМОИЛОВА
СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ
ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ РУССКОГО
ЯЗЫКА С ФИТОНИМАМИ И ЗООНИМАМИ В
КАЧЕСТВЕ КЛЮЧЕВЫХ СЛОВ 132

Мадина ТУХТАНАЗАРОВА
ДИНАМИКА ГРАММАТИЧЕСКОЙ НОРМЫ В
ПРОСТРАНСТВЕ ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ:
ЯВЛЕНИЕ БЕСПРЕДЛОЖНОГО УПРАВЛЕНИЯ И
СУБСТАНТИВНОЙ КОМПРЕССИИ 135

IJOD SOATI

Bonu SARIMOVA
MUHAMMAD, AZIZIM, KELMAYSIZMI?, XAVOTIR,
O'YLAR, DUOLARIM 140

